



Soatova Nodira Isomitdinovna 1967-yil Jizzax tumanida tug'ilgan. 1988-yil JDPI o'zbek tili va adabiyoti fakultetini imtiyorli tugatgan. 1994-yildan hozirgacha A.Qodiriy nomidagi JDPU "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasida ishlab kelmoqda.

2001-yilda "Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida epik tasvir ana'nalari" mavzusidagi filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasini himoya qilgan. 2004-yilda O'zbek adabiyoti ixtisosligi bo'yicha dotsent ilmiy unvonini olgan. 2023-yilda "XX asr o'zbek adabiyoti taraqqiyotida Shuhrat ijodining o'rni" mavzusidagi filologiya fanlari doktori dissertatsiyasini himoya qilgan. 2021-yil "Yil ayoli" milliy tanloving Respublika bosqichi "Yilning eng kuchli ma'naviy-ma'rifiy targ'ibotchisi" nominatsiyasi bo'yicha g'olib bo'lgan.

Soatova Nodira Isomitdinovna "Ayol bilan munavvar olam"(1999), "Epik tasvir an'analari"(2001) "O'zbek-qozoq lingvistik lug'ati" (2002), "An'anaviylik va vorislik" (2019), "Epic Image Traditions in A.Kadiri" (xorijda, 2022), "Shuhrat adabiy merosida an'ana va mahorat" (2022), "Furqat hayoti va ijodini muammoli ta'lif metodida o'rganish" (2023) nomli kitoblar va 180 dan ortiq maqolalar muallifi.

SHUHRAT IJODINING G'OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATLARI

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

SOATOVA NODIRA ISOMITDINOVNA

**SHUHRAT IJODINING G'OYAVIY-BADIY
XUSUSIYATLARI**



**TOSHKENT
VNESHINVESTPROM
2023**

UO‘K:336.781(584.1-28)

KBK:363.6

SOATOVAN.I. “Shuhrat ijodining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari”. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi; Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti. “VNESHINVESTPROM” nashriyoti. Toshkent.: 2023. – 200b.

Ushbu monografiya yangi o‘zbek adabiyotining taniqli vakillaridan biri Shuhrat (G‘ulom Alimov) ijodiy laboratoriyasiga kirish, millat ruhi, xalq hayotining turli manzaralarini aks etgan asarlarini badiiy mahorat nuqtayi nazaridan ilmiy baholash yuzasidan tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zaruratidan kelib chiqib, ijodkor adabiy merosini yaxlit holda tadqiq etishga bag‘ishlangan. Shuningdek, monografiya XX asr o‘zbek adabiyoti taraqqiyotida Shuhrat ijodining badiiy tafakkur tadrijining omillarini tahlil, tadqiq etish orqali chiqarilgan xulosalar adabiyotshunoslik uchun yangi ilmiy-nazariy g‘oyalari berishi va o‘zbek adabiyoti, bolalar adabiyoti, adabiyot nazariyasi, tanlov fanlar uchun yaratiladigan darslik va qo‘llanmalarining mukammallashuviga xizmat qiladi.

Mas’ul muharrir:

Karimov Naim Fotihovich - O‘zR FA akademigi, filologiya fanlari doktori, professor, O‘z Respublikasi fan arbobi

Taqrizchilar:

f.f.doktori (DSc), professor Usmonjon Qosimov
f.f.doktori, (DSc)professor v/b Surayyo Eshonqulova

Monografiya Jizzax davlat pedagogika universiteti ilmiy Kengashining 2023- yil 5-oktyabr 2-sonli majlisda nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-8213-7-8

© SOATOVA N.I

© «Vneshinvestprom» nashriyoti

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
SHUHRAT LIRIKASIDA AN'ANA VA FALSAFIY MUSHOHADAKORLIK	
Badiiy parallelizm: an'ana va originallik masalasi.....	6
Falsafiy mushohadakorlik va badiiy tasvir vositalari.....	24
Hajviyotda poetik tasvir va lirik qahramon talqini.....	47
XULOSA	57
LIRO-EPIK VA DRAMATIK ASARLARDA XALQONA PAFOS	
Ballada va dostonlarida xalqona poetik tafakkur.....	59
Dramatik asarlarda xalqona pafosning estetik mohiyati.....	72
XULOSA	90
IJODIY USLUB VA O'ZIGA XOSLIK	
Hikoyada syujet va obraz yaratish mahorati.	91
Qissada bosh qahramonning individual tabiatи tahlili.....	103
XULOSA	125
O'ZBEK ROMANCHILIGI TARAQQIYOTIDA SHUHRAT ROMANLARINING AHAMIYATI VA BADIY YANGILANISH	
Badiiy g'oya va tasvir haqqoniyligi.	126
Folklorizm va adabiy ta'sir.	138
Tarixiy haqiqatning badiiy talqini.....	160
XULOSA	178
SO'NGGI SO'Z	Ошибка! Закладка не определена.
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:	181

KIRISH

Jahon adabiyotshunosligida badiiy tafakkur taraqqiyoti, milliy adabiyotlar tadrijiga hissa qo'shgan yozuvchi va shoirlarning badiiy merosini fanning so'nggi yutuqlari asosida tekshirish doimiy e'tiborni tortib kelmoqda. Har bir xalqning dunyoqarashi, urf-odatlari, milliy mentaliteti va ma'naviyati uning san'ati, adabiyotida aks etmoqda. Shu jihatdan milliy adabiyotlarning adabiy-estetik va ma'rifiy-tarbiyaviy mavqe' kasb etishi jamiyatning nafaqat ma'naviy, balki ijtimoiy rivojlanishida ham tutgan o'rnini belgilash imkonini bermoqda. Binobarin, muayyan ijodkorning ijodiy laboratoriyasini tekshirish, uning badiiy mahorat qirralarini ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo adabiyotshunosligida adabiy turning har xil janrlarida ijod qilgan yozuvchilarining asarlarini turli aspektlarda o'rganish bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, u yoki bu ijodkorning muayyan asarini shu qalam ahli mansub bo'lган milliy adabiyotning so'nggi ijodiy yutuqlari fonida tekshirish, u yaratgan asarlarning mumtoz adabiyot va folklor bilan bog'liqlik darajasi, mavzu ko'لامи, obrazlar olami, kompozitsiyasi, badiiy talqindagi o'ziga xosliklari, vorisiylik, an'anaviylik va novatorlik xususiyatlarini monografik tarzda tadqiq etish yuzasidan ilmiy asoslangan konsepsiyalarni ishlab chiqishga alohida diqqat qaratilmoqda.

Mustaqillik yillari o'zbek adabiyotshunosligida milliy madaniyatimizning ajralmas qismi bo'lган o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga xizmat qilgan adiblarning ijodiy laboratoriyasini tekshirish, u yaratgan asarlarning millat madaniyatiga qo'shgan hissasini ochib berish, ijod psixologiyasini yoritishga katta e'tibor berilmoqda. XX asr o'zbek adabiyoti taraqqiyotining mazmun va shakl jihatdan yangilanib, taraqqiy etishini o'rganishda, dastavval, "...badiiy ijod ahlining jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ta'sirini kuchaytirish"¹ asosiy maqsadlardan biri ekanini ko'rsatsa, ikkinchidan, yozuvchilarining o'z vazifalarini qanday bajarayotganlari, yangilanayotgan jamiyat va hayot haqidagi xulosalarini aniqlashga yordam beradi.

Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, monografiya o'z oldiga XX asr o'zbek adabiyoti taraqqiyotida Shuhrat ijodining o'rni, nazm va nasrdagi ijodiy izlanishlarini an'ana, vorisiylik va novatorlik, adabiy ta'sir hamda badiiy mahorat nuqtayi nazaridan ochib berishni maqsad qilgan bo'lib, unda:she'riyatida inson ruhiyati va

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil, 5- apreldagi PQ-3350-son raqamli "O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2018- yil 6- aprel № 15 (4465)

qalb kechinmalarining ifoda etilishi, uslub va ifoda imkoniyatlari, janr va uslub rang-barangligini Shuhrat ijodi misolida ochib berish;

Shuhrat she'riyatini o'zi mansub avlod ijodkorlari asarlari bilan qiyoslash asosida undagi an'anaviylik, vorisiylik va novatorlik xususiyatlarini yoritish;

shoirning liro-epik va dramatik asarlarida xalqona pafosning aks etishi, poetik tafakkurning yangilanishi, asarlaridagi folklorizmlarning badiiy vazifalarini ochib berish;

yangicha badiiy-estetik qarashlar asosida Shuhrat nasriy asarlarining syujeti, kompozitsiyasi, bosh qahramonning individual tabiatni, ularning badiiy tafakkurdagi o'rnini nazariy asoslash;

yozuvchi romanlaridagi badiiy g'oya va tasvir haqqoniyligi, folklorizm va adabiy ta'sir, tarixiy haqiqatning badiiy talqini, poetik nutq, ifodada shakliy ixchamlik, falsafiy mushohada teranligi, mantiqiy izchillik, badiiyat mezonlarining poetik tasvirdagi vazifalarini aniqlash, kabi masalalarni o'rganish ko'zga tutilgan. Natijada, monografiyada:

Shuhrat she'riyatida psixologik, jlonlantirishli parallelizmni qo'llash mahorati, xalq she'riyati an'analariga ergashish va o'ziga xoslik masalasi, uning xalq ruhi, qalbi, orzu-tilishlarini, dunyoqarashini aks ettirishga xizmat qilishi, bolalar uchun yozilgan she'rlarining folklor bilan mushtarak jihatlari, shuningdek falsafiy mushohadakorlik, poetik tasvir va lirik qahramon tasvirida badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalanishi ochib berilgan;

shoir lirikasi va hajviy she'riyatga xos muhim xususiyatlar, xususan undagi samimiyat, mushohadorlik, hissiy jo'shqinlik, lirik qahramon ko'ngil tuyg'ulari, qalb iztiroblarining teran badiiy inkishof etilganligi, falsafiylik kabilalar aniqlangan;

Shuhrat ijodining janriy xilma-xilligi, ballada, doston va dramalariga xos poetik tafakkur, xalqona pafos kabi xususiyatlar, qahramonlarning ruhiy-ma'naviy olamini tasvirlashda monolog, dialog singari nutq vositalarini qo'llashdan foydalanishda yozuvchi mahorati ochib berilgan;

Shuhrat nasrida konflikt va syujet poetikasi, badiiy psixologizm, qahramonlarning ruhiyatida ro'y beradigan o'zgarishlarning omillari, voqealarning dramatik rivojini ta'minlagan maktub, qoliplash usuli kabilalar aniqlangan;

Shuhrat romanlarida avtobiografizm, badiiy g'oya va tasvir haqqoniyligi, syujet va obraz yaratish mahorati, folklorizm va adabiy ta'sir, tarixiy haqiqatning badiiy talqini kabi ijodkor laboratoriyasiga xos xususiyatlar yoritilgan.

SHUHRAT LIRIKASIDA AN'ANA VA FALSAFIY MUSHOHADAKORLIK

Badiiy parallelizm: an'ana va originallik masalasi

XX asrning to‘fonli, ziddiyatli muhitida qalam tebratgan, Vatan urushida qo‘liga qurol olib, qonli janglarga kirgan, shaxsga sig‘inish davrida millatimizning faxri bo‘lgan jadid ijodkorlar asarlarini o‘rganishga chaqirganligi uchun jazolanib, “xalq dushmani” tamg‘asi ostida besh yil umrini qamoqlarda o‘tkazgan, shunda ham o‘zidagi “...ijod mas’uliyatini unutmaydigan halol... kattakon adabiyotimizning zargar ijodkori”¹ Shuhrat she’riyati bo‘yicha o‘zbek adabiyotshunosligida bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Maqsud Shayxzoda shoirning she’riy ijodini birinchilardan bo‘lib o‘rganib, yirik hajmli maqola yozgan bo‘lsa, O.Sharafiddinov, J.Hojimatov, Jamol Kamol singari olimlarning maqolalari va “Adib ijodiga bir nazar”, “Shuhrat zamondoshlari xotirasida”, “Ozod qalb kuychisi”da ijodkor asarlarining ba’zi qirralari yuzasidan muayyan fikrlar bayon qilingan². Adabiyotshunos olim U.Normatov Shuhrat to‘g‘risida ilk adabiy portret yaratib, ijodkorning doston va she’rlaridagi urush va inson, vatan va xalq mavzularini o‘rgangan va ular yuzasidan o‘z xulosalarini bildirgan³. Adabiyotshunos olima Sh.Aldashevaning dissertatsiyasi⁴da Shuhrat adabiy merosidagi to‘rtliklar tahlilga tortilgan. Lekin Shuhrat adabiy merosining XX asr o‘zbek adabiyoti taraqqiyotida milliy-badiiy tafakkurning qaror topishiga qo‘shtigan munosib hissasi haqida to‘xtalinmagan. Agar yuqorida bayon qilingan fikr va mulohazalar kelib chiqib, tadqiqotimiz ob’yekti – taniqli o‘zbek shoiri va adibi Shuhratning serqirra ijodiga yondoshsak, uning butun ijodi davomida zamon bilan hamnafas bo‘lganini ko‘ramiz. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, u sovet voqeligidagi ro‘y bergan voqealarni o’sha davrdagi sovet mafkurasi ta’sirida tasvirlagan hollarni yo‘q, deb bo‘lmaydi. Uning asarlaridagi qahramonlar sovet voqeligidagi ro‘y bergan qurilishlar, urushlar va mehnat frontlarida yashaydi, kurashadi, chiniqadi. Ammo ulardagi vatanparvarlik va mehnatsevarlik tuyg‘ulari

¹ Ahmad S. Uch mungli qo‘shtiq so‘ngsiz imtihon / Shuhrat. Adib hayotiga bir nazar.–T.: Sharq 1998.–B.99-101.

² Shayxzoda. M. Qalam va burch // Sharq yulduzi. №5, 1967; Sharafiddinov O. Yakun va debocha // Sharq yulduzi jurnali. №2, 1962; Hojimatov J. Hayotning badiiy in’ikosi // Sharq yulduzi. №8, 1967; Jamol Kamol. Shuhrat she’rining uslubiy xususiyatlari / Lirik she’riyat. –T.: Fan, 1986; Shuhrat. Adib ijodiga bir nazar. -T.: Sharq, 1998.; Shuhrat zamondoshlar xotirasida. –T.: O‘zbekiston, 2008; Ozod qalb kuychisi. Shuhrat (G‘ulom Alimov) tavalludining 90 yilligi munosabati bilan Metodik-bibliografik qo‘llanma. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008.

³ Normatov U. Shuhrat. –T.: G‘.G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1969; Yana o’sha muallif. Ijod sehri. –T.: Sharq, 2007.

⁴ Aldasheva Sh. 70–90 yillar o‘zbek lirikasida to‘rtlik, sakkizlik va she’riy turkum tabiat: Filol.f.f d. (PhD). diss – Toshkent., 2019.

kommunistlar yashagan va yo‘lboshchilari bo‘lgan sovet vataniga emas, balki o‘zining va yurtdoshlarining halol mehnati bilan go‘zal va obod bo‘lib borayotgan vatan – O‘zbekiston bilan bog‘liq. Shuhrat masalaning shu tomoniga alohida e’tibor bergen ijodkordir.

Ushbu faslda Shuhrat she’riyatida folkloragini parallelizm an’analari, shoir she’riyati bilan xalq qo‘shiqlarining mushtarak, vobasta jihatlarini, shuningdek shoirning bolalarga bag‘ishlab yozgan she’rlarini tadqiq etishni maqsad qilib qo‘ydik. Qo‘ylgan muammo adabiy ta’sir va vorisiylik, an’ana va novatorlik nuqtayi nazaridan yoritiladi. Shuhratning she’riyatda folkloragini parallelizm an’alarini vorisiylik nuqtayi nazaridan daliliy materiallar bilan asoslash, o‘ta dolzarb masaladir.

“Parallelizm dastlab xalq og‘zaki ijodida keng tarqalib, so‘ng badiiy adabiyotda o‘zlashtirilgan”¹. Darhaqiqat, “XX asrning 70-80-yillari she’riyatida ijodkorlar mavjud folklor an’alarini yo to‘lig‘icha, yo qisman qabul qilib, uni yangi sharoitga moslab original (betakror) asarlar yaratdi”². Bu fikrni Shuhrat she’riyatiga ham tatbiq etish mumkin.

Adabiy ta’sirning qirralari benihoya ko‘p bo‘lib, shulardan biri xalq og‘zaki ijodidagi parallelizm hodisasidan ta’sirlanish hisoblanadi. O‘zbek xalq qo‘shiqlaridagi parallelizmlarning mohiyati va vazifalarini chuqur o‘rgangan Muzayyana Alaviya parallelizmlarning paydo bo‘lish usullariga ko‘ra bir necha: qiyosiy parallelizm; psixologik parallelizm; kinoyali parallelizm; jonlantirishli parallelizm; allegoriyalı parallelizmlarga ajratadi va parallelizmning bu ichki ko‘rinishlarini yagona “obrazli parallelizm”³ nomi bilan ataydi. Adabiyotshunoslikda parallelizmlar haqida turlicha tasniflanishlarni ko‘rish mumkin: ...tematik parallelizm; sintaktik parallelizm, tovushlar parallelizmi⁴, tematik-psixologik parallelizm; ritmik-sintaktik parallelizm; leksik-morfologik parallelizm; intonatsion parallelizm⁵, badiiy-qiyosiy parallelizm; sintaktik parallelizm⁶ kabi.

O‘zbek xalq she’riyatida “...parallelizmlarning har xil ko‘rinishlari mavjud, ular xalq lirikasining turli janrlarida o‘zgacha rang-baranglik kasb etadi. Parallelizmlarning janrlararo tafovuti har bir janrning o‘ziga xos xususiyatiga, tasvir ob’yektiga bog‘liqdir....Parallelizmlar ekspressiv-emotsional xususiyatga ega bo‘lib, qo‘shiq mazmunini chuqurlashtirishga, bayon qilinayotgan fikrni ta’sirli, ishonarli,

¹ O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 5 jild. – T.: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2008. –B.68-69.

² Sharipova L. O‘zbek she’riyatida folklorizm. (XX asrning 70-80-yillari o‘zbek she’riyati asosida). –T.: Fan, 2011. – B.16.

³ Alaviya M. O‘zbek xalq qo‘shiqlari. –T.: O‘zSSR FA nashriyoti, 1959. –B.27-29.

⁴ Homidiy H., Abdullayeva Sh., Ibrohimova S. Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati. –T.: O‘qituvchi, 1970. –B. I53-154.

⁵ Hotamov N., Sarimoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. I nashri. –T.: O‘qituvchi, 1979.–B.222-223.

⁶ Ochilov K. O‘zbek xalq mehnat qo‘shiqlari: Filol.f.n. diss. –T.,1974.–B.117.

obrazli va ohangdor qilib ifodalashga, uni tinglovchiga tez va oson yetkazishga yordam beradi”¹. Bu xususiyatlар Shuhrat she’riyatida ham kuzatiladi.

M.Shayxzoda Shuhrat ijodining o‘ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritar ekan, yozadi: U (Shuhrat, ta’kid bizniki N.S) she’riyat san’atini egallab olgan baquvvat shoirlarimiz qatoriga kirib oldi. Uning g‘oyasi sog‘lom, qalami puxta, xayoli keng, obrazlari asl, so‘zi tejamli va ixchamdir. Uning she’rlarining vazni ravon, ohangdor qofiya va radiflari ko‘pincha jarangdor va yangidir...She’riyatimizda realistik haqiqatni romantik jo‘shqinlik bilan omuxta qilib, go‘zal va nafis lirk asarlar yaratgan shoir Shuhrat umuman o‘zbek poeziyasini o‘rtamiyonachilik saviyasidan olib chiqib, yuqori ko‘tarilishiga astoydil xizmat qilgan².

O‘zbek poeziyasini o‘rtamiyonachilik saviyadan yanada yuqori darajaga ko‘tarilishiga olib chiqqan shoir ijodining folklordagi parallelizm an'analaridan ijodiy ta’sirlanish jarayonini o‘rganish asosiy maqsadimiz sanaladi. Masalan, umr bo‘yi adolat, mehr-muhabbatni, odamiylikni va oqibatni kuylab, yonib yashagan Shuhrat she’rlarining g‘oyaviy badiiyati M.Shayxzoda tomonidan berilgan bahoga munosib ekanligini to‘liq ko‘rsatadi:

*Sen yonmasang, u yonmasa, men yonmasam,
Kim yonadi bu dunyoning tashvishida.
Qizig‘i yo‘q bu olamning yoz-qishida,
Yurak to ‘la o‘t bo‘lmasa har kishida¹.*

She’riyat mohiyatini bunday chuqur tushunish, lirk qahramonning o‘ziga o‘xshagan mard o‘g‘lonlar bilan birga yaxshilik uchun yomonlikka qarshi kurashga doim shay bo‘lib turish Shuhrat lirk qahramonining asosiy fazilatidir. Shoир lirk qahramonining mohiyatini belgilovchi bu fazilat Shuhrat lirkasini ilohiy yuksaklikka ko‘targandek bo‘ladi. She’rning lirk qahramoni “men”, “sen”, “u” bilan o‘zarо parallelilik kasb etishi bilan birga “o‘t”, “yonish” so‘zlariga ham “parallelashib boradi”. Shoир she’rda parallelizm san’atidan foydalangan holda lirk qahramon timsolida kitobxонни doimo el-yurt manfaati yo‘lida yonib yashashga chorlagan. Uning e’tiqodicha, inson zoti borki, yuragida “o‘t” bo‘lmog‘i kerak. Agar yuragida o‘t bo‘lmasa, uning insonligidan ne foyda? – she’rning g‘oyaviy mazmunidan kelib chiqadigan xulosa shudir.

Shoirning o‘z e’tiroficha: Mening nazarimda ona yurtga bo‘lgan muhabbat, milliy iftixor kishidagi, nozik va muqaddas, aziz va so‘nmas hisdir. Bularning o‘rnini

¹ O‘rayeva D. O‘zbek xalq lirk qo‘shiqlarida parallelizmlarning xarakteri va badiiy kompozitsion vazifalari.: Filol. f.n., diss.–T, 1993.–B.15-16.

² Shayxzoda M. Asarlar 6 томлик 5 том. Adabiy tanqidiy maqolalar. – T.: Adabiyot va san’at, 1973. –B.147-157.

na mol-u dunyo, na shonu sharaf, obro‘, hech narsa to‘ldira olmaydi. Shu oliyjanob ishlar bilan yashagan odam nohaqlikka, har qanday og‘ir musibatli kunlariga bardosh beradi, ulardan g‘olib chiqadi va murodu-maqsadga yetadi, hayotda mamnun yashab qabrda ham oyog‘ini uzatib yotadi². Haqiqatdan ham, shoир bu so‘zlarni o‘z hayotiga dasturulamal qilib olgan. Shuhrat o‘z ijodida, jumladan, she’r, doston, drama va romanlarida yaratilgan poetik obraz va badiiy qahramonlarga ham shunday g‘oyani singdirishga harakat qilgan. Shu tufayli u o‘ziga xos uslubga ega bo‘lgan, adabiyotimiz ravnaqiga munosib hissa qo‘shgan ijodkorlardandir.

• Shuhrat she’rlarida lirik qahramonning murakkab xarakteri, katta qalbi mohirlik bilan o‘ziga xos yo‘sinda tasvirlanadi. Shu boisdan, shoирning har bir she’ri kitobxonlarni chuqur mulohaza yuritishga, hayot mag‘zini chaqishga o‘rgatadi. Ayni vaqtda bunday she’rlar hayotiy detallar, jonli va aniq manzaralar, hayotiy faktlar bilan yorqin tasvirlanganligi ham e’tiborni tortadi. Ijodkorning aksariyat she’rlarida shoирning o‘zligi, uning orzu-umidlari, zamon haqidagi qaydlari, o‘qirman kitobxonlarga xayrixohligi, zamondoshlariga murojaati, o‘z xalqiga bo‘lgan cheksiz muhabbat chuqur falsafiy fikrlar va badiiy tasviriy vositalar orqali berilishi bilan xarakterlanadi. “...Shoir qalbning bir lahzalik nafaslarini ilg‘ab olishga usta. Bu ustalik ichki dunyoni doimo bir holatda emas, har gal yangi vaziyatda, yangi tomondan ochishga imkon beradi”³. Keng va yuksak qalb egasi Shuhratda tiniq fikr, yuksak tuyg‘u, optimistik ruh yo‘ldosh, yaqin va ohangdosh edi.

Shuhrat xalq ijodini o‘rganishda, xalq ertaklari va qahramonlik dostonlarini o‘qish va ulardan bahramand bo‘lish jarayonida undagi badiiy go‘zallik va barkamollik sirlarini kashf etishga intilgan va shu masalada shunday mahoratga erishganki, biz uning eng yaxshi she’rlarini o‘qiganimizda, ulardan o‘zbek xalq og‘zaki ijodining nafasi kelayotgandek bo‘ladi. Bu hol shoир she’rlarining badiiy mukammal bo‘lishini kafolatlagan. Shuhrat she’riyatida folklordagi parallelizm an’alarini quyidagi to‘rtta tamoyil asosida ochib berishga harakat qilamiz:

- xalq qo‘shiqlarining Shuhrat she’rlari badiiy qurilmasidagi o‘rnini ko‘rsatish;
- lirik kechinmaning shoир hayoti bilan aloqadorligini parallelizm hodisasi orqali aniqlash;
- xalqona ohangda parallelizm asosida yaratilgan she’rlarini tahlil qilish;
- o‘zbek bolalar she’riyatida Shuhrat ijodining o‘rnini belgilab berish;

¹ Shuhrat. Bemalol yashasang bo‘ladi. –T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot–matbaa ijodiy uyi, 2008.– B.133 (Bundan keyingi iqtiboslar shu nashrdan olinadi va sahifasi qavs ichida ko‘rsatiladi).

² Shuhrat. Tanlangan asarlar. 3 tomlik, 1tom.–T.: G‘.G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1969.–B.10.

³ Sharafiddinov O. Shuhrat ijodi haqida fikrlar / Yosh leninchi. 1971. 21 may. № 98.

“Adabiyotdagi vorisiylik, an’analarga sodiqlik har bir milliy adabiyotdagi o‘ziga xoslik, milliy qiyofaning yo‘qotilmasligini kafolatlaydi”¹. Xalq qo‘shiqlari o‘zining shaklan go‘zal va mazmunan teranligi, ohorli tashbehlarga boyligi va yuksak badiiyati, jarangdor va ta’sirchanligi bilan ijodkorlar ko‘ngliga kirib borar ekan, bundan bahra olgan ijod ahli, albatta shu yo‘nalishda ijod qilishga harakat qiladi. Bu ta’sir serqirra bo‘lib, qaysi bir ijodkor ijodida birmuncha bo‘rtib ko‘rinsa, boshqasining asarlari mag‘iz-mag‘ziga singib ketgan bo‘ladi.

Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib aytish mumkinki, “O‘zbek xalq qo‘shiqlari inson ruhiyatining ming bir xilda tovlanishlari, hasrat-nadomati, orzu tilaklari, voqelikka bo‘lgan munosabati qalb to‘ridan buloqday jo‘sib, qaynab chiqqan qo‘shiqlarida xalqimiz o‘z his-tuyg‘ularini qo‘shiq qilib kuylagan, o‘rtangan, yongan”². Mana shunday boy, ohangrobadek o‘ziga tortuvchi qo‘shiqlar Shuhrat qalbini tug‘yon urdirib, xalq ohangida she’rlar yozishga undagan. Shu o‘rinda, folklorshunos Malik Murodning xotiralarini keltirish joiz: Ko‘pincha Shayx aka (Maqsud Shayxzoda. Izoh bizniki. N.S.) uylarida Shuhrat akani ko‘rardim, ularning qizg‘in suhbatlari ustidan chiqardim. Esimda, muallimlarga atalgan she’rlari xalq orasida shu qadar keng yoyilgan ediki, qayerga bormay – uzoq, chetdagi qishloqqami yoki shahargami, ana shu she’r yoddan o‘qilardi. Shayx akannikida navbatdagi uchrashuvimizda uzoq qishloq – ovullarda ana shu she’rning variantlashib, folklor asarlariga aylanib ketganini aytganimizda, Shayx akaning bildirgan fikrlari hamon qulog‘im ostida yangrab turibdi:

– Shuhratbey, she’rlaringizki xalq tili va diliga ko‘chib folklorlashibdi, demak Siz ham o‘zingizga haykal qo‘yibsiz! Xalq uncha-buncha shoirning she’rini folkloriy variantlarini yaratib, o‘ziniki qilib olmaydi. Ha, Siz, azizim, xalq qalbiga kirib, undan abadul-abad joy olibsiz!¹ Shuhratning el nazariga tushgan adabiyotshunos olim e’tiroficha “xalq tili va diliga ko‘chib folklorlashgan” “O‘qituvchi” qasidasi el aro aziz bo‘lgan, kelajak tarbiyachilari – muallim o‘qituvchilarni shunday olqishlab, sharaflagani uchun ham halq ko‘nglidan joy olgan edi:

*Agar hayot bo‘ston esa, bog‘bon muallim,
Agar hayot karvon esa, sarbon muallim.
Agar hayot oltin bo‘lsa, zargar muallim,
Agar hayot dengiz bo‘lsa, gavhar muallim.
Agar hayot uzuk bo‘lsa, ko‘zi muallim,*

¹ Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. –T.: Fan, 2007. –B.204 - 205.

² Qarang: Tafakkur chechaklari (O‘zbek xalq qo‘shiqlari). To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi Obidova M. –T.:1992.– B.4-5.

*Agar hayot shoir bo 'lsa, so 'zi muallim.
 Chunki u-dir har insonga berguvchi ta 'lim,
 Ta 'lim so 'zi jamisidan chiqmish muallim!
 Sharaf unga, obro 'unga, unga tantana!*²

Shuningdek, bu she'r parallelizm san'atining noyob namunasi, ya'ni shoirning quyma fikr, badiiy topilmasi. Xalqona ohangda yozilgan bu qasidada "Hayot" – "bo 'ston", "karvon", "oltin", "dengiz", "uzuk", "shoir"; "Muallim" – "bog 'bon", "sarbon", "zargar", "gavhar", "ko 'zi", "so 'zi"ga parallelizm tarzda tasvirlanganligi bilan ahamiyatli. Ijod olamining hayoti mazmuni hisoblagan shoir Shuhrat she'riyat timsolida inson hayotining eng muhim hodisalarini qidirar ekan, u muammolarini yechishga, topishga o'zini chog'ladi, buning samarasi o'laroq, xalq ijodiga yaqin, diltortar she'rlar yaratdi. Adabiyotshunos olim Maqsud Shayxzoda aytganidek, Shuhrat xalq qalbiga yoniq she'riyati bilan kirib bordi.

Lirikaning o'ziga xos xususiyati unda voqeа va hodisalarning shoir shaxsi orqali ifodalanishida ko'rindi. Ijodkor dunyoqarashi nechog'liq boy, ma'naviyati yuksak bo'lsa, dunyoning turfa jilvalarini o'ziga xos shoirona ko'z bilan ko'ra olsa, adabiyestetik qarashlari mantiqan sof, ezgu, tuyg'u, o'y va fikrlari teran bo'lsa shuncha yaxshi. Shuhratdagi mavjud bu sifatlar she'rlarining o'ziga xos bo'lishini ta'minlagan. Shoир she'riyatida sevgi-muhabbat, qadr-qimmat masalalari o'ziga xos tarzda o'z ifodasini topgan. Ijodkor she'rlarining sehrini oshirgan omil uning xalq qo'shiqlariga juda-juda yaqinligidir. Fikrimiz isboti sifatida shoirning she'rlariga murojaat qilamiz:

*Kel, kel jonim, bo 'stonimga,
 Bo 'ston emas, o 'z yonimga.
 Ishqing meni maftun etmish,
 Jabr qilma yosh jonimga*³.

Shuhratning bu she'ri xalq ohangida yozilgan ushbu qo'shiqqa hamohandek:

*Suv kelar guldur- guldur,
 Sevganim qizil guldir.
 Otam senga bermasa,
 O'lGANIM o 'shal kundir*⁴.

She'rning mazmun-mohiyatidan ko'riniб turibdiki, Shuhrat xalq ruhi va qalbini, uning orzu-umidlarini va intilishlarinigina emas, balki ayni chog'da uning fikrlash

¹ Murod M. Hamisha uyg'oq adib / Shuhrat. Xotiralar. –T.: Sharq 1998. –B.199-200.

² Shuhrat. Sening sevging. –T.: Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1961. –B.71.

³ Shuhrat. Sening sevging. –T.: Sharq, 2003. –B.99. (Bundan keyingi she'rlar shu nashrdan olinadi va sahifasi qavs ichida ko'rsatiladi).

⁴ Shoda - shoda marvarid. O'zbek xalq qo'shiqlari. To'plab, nashrga tayyorlovchi, so'z boshi va izohlar muallifi Ochilov E. –T.: Sharq, 2006. –B.244. (Bundan keyingi she'rlar shu nashrdan olinadi va sahifasi qavs ichida ko'rsatiladi).

yo'llari badiiy tafakkuridagi o'ziga xosligini, obrazlar olamini ham chuqur o'rgangan. "Shuhrat aka xalqqa ko'proq yaqin shoirlar sirasidan edi"¹. Haqiqatdan, shoirlar xalqning dilidagini she'riyat tili orqali ifodalashga erishganligi uchun she'rlari xalq ohangiga yaqin.

*Gul ochilgan bahorda kel,
Shom bo 'lmasa, nahorda kel.
Mayli yozda vaqt topmasang,
Chana haydab qish-qorda kel (99).*

Shoirning bu she'rida ham "bahor", "shom", "nahor", "qish-qor" xalqona ohangda parallelizm hodisasi orqali yaratilgan. Shoirlarning ushbu she'ri xalq tilida kuylanayotgan, bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan "Olma pishganda galing" she'riga uyqash. Qo'shiqqa e'tiborni qaratsak:

*Olma pishganda galing,
Teyina tushganda galing.
Angsa sochim jamalak,
Belima tushganda galing (230).*

Shuhratning xalq qo'shiqlarini yaxshi bilishi va undan ilhomlanganligi natijasida "...ijodkorning mevasi sifatida yangi obrazlar va ifoda tasvir vositalari maydonga keladi"².

*Kel, kel, jonio, bo 'stonimga,
Bo 'ston emas, o 'z yonimga.
Bog 'to 'rida shohsupam bor,
Yo 'qlab kelgan mehmonimga(99).*

Shoir xazinasining boyligi, eng avvalo, unda tuyg'u va kechinmalarning ko'pligi, ilhom mavjining rang-barangligi va maqsad orzui yuksakligiga bog'liq ekan, shoirlar tilining boyligi, ko'p qirraligi va jozibadorligi ham xalqqa yaqinligidandir. Ijodkor she'riyatga ohori to'kilmagan serma'no so'z-iboralarni va obrazlarni dadil olib kiradi. "Sog 'inganda" qo'shig'i bilan xalq qo'shig'i o'rtasida og'a-inidek yaqinlik mavj uradi. She'rga etiborni qaratamiz:

*Hu ko 'ringan u tog 'mikan,
O 'rtasi gul-gul bog 'mikan.*

*Cho 'lga ketgan yorginamni,
Tani joni oh, sog 'mikan?*

¹ Karimov N. Dunyoning shodligi shoirlar mulkidir / Shuhrat. Xotiralar. –T.: Sharq, 1998. –B.227.

² Rafiddinov S. Majoz va haqiqat. –T.: Fan,1995. –B. 88.

*Tog‘ yoqalab borsammikin?
Bog‘ yoqalab borsammikan?
Quchoq ochib qarshi olsa,
Qoshlarida qolsammikan?*¹.

Xalq qo‘shig‘ida:

*Shovot yopdan oqqan piyolamakan?
Bizni yor galmaka uyolamakan?
Bizni yor galmaka uyola qo ‘ysa,
Yoki ko ‘ngli mannan begonamakan?
Sochimning uchlari tasmadan- tasma,
O, qora ko ‘z bola, sochimni bosma!
Aytarmishlar ikkimizni oshiq deb,
Aldab so ‘rasalar, bo ‘yningga olma! (102).*

Shoir har bir misraning pishiq-puxta bo‘lishiga, har bir she’rda takrorlanmas poetik obrazlar, yangi detallar topishga harakat qiladi. Shoir xalq ijodining boy va go‘zal an‘analariga tayanib, xalq ijodidan o‘rganishda shunday mahoratga erishgan. Va bu jihat ijodkor she’rlarining g‘oyat badiiy mukammal bo‘lishini kafolatlagan. She’rdagi birinchi to‘rtlikda “*tog*”, “*bog*” so‘zlari “*cho‘l*” so‘ziga, ikkinchi to‘rtlikda “*tog*”, “*bog*” so‘zlari bir-biriga parallelizm tarzda qo‘llangan. Shoir xalq qo‘shiqlariga xos bo‘lgan ruhni o‘z she’rlariga ko‘chira olganligi uchun, she’rlari yangicha joziba kasb etadi. Xalq qo‘shig‘i “*Binafsha*” bilan shoirning binafshaga atalgan she’rini qiyoslaymiz:

*Binafshalar ochildi,
Yerga bodom sochildi.
Ul bodomni terguncha,
Qora ko ‘zim teshildi.
Qora ko ‘zim guloyim,
Ostonangga chiqayin.
Jonon tinib bardoshi,
Qayrildi qalam qoshi (197).*

Shuhratda:

*Ariq bo ‘yida o ‘sgan,
Gunafshani teribsan.*

¹ Shuhrat. Tanlangan asarlar. 3 jildlik, 1-jild. –T.: Adabiyot va san’at, 1978. –B.67(Bundan keyingi she’rlar shu nashrdan olinadi va sahifasi qavs ichida ko‘rsatiladi).

*Teribsan-u yoringga,
Kulib turib beribsan.
Gunafshada qolibdi,
Lablaringning kulgusi.
“Yoring deydi quvonib:
Muhabbatning belgisi”¹.*

Shoirning yuragida binafsha uyg‘otgan hissiyotlar yor muhabbat bilan omuxta bo‘lib, shunchalar go‘zal manzara beradiki, bu ijodkor shuurining porloq olamiga kirib, nurafshon bo‘lib go‘zal obrazga aylanadi. Shuhratning she’rlarini o‘qir ekanmiz, yoniq, jo‘shqin, pok va samimiy qalbi she’rlarida juda aniq va ravon aks etganligini kuzatamiz. “Shuhratning “Sening sevging” to‘plamidagi deyarli barcha she’rlar bizga yod bo‘lib ketgandi. Ular sodda, o‘ynoqi, xalq qo‘shiqlariday ravon edi, shu bois tezgina yodlab olardik”², deya xotirlaydi shoira Oydin Hojiyeva. Shuhratning “Ixtiyorim qo‘lingda” she’riga e’tibor qaratar ekanmiz, beixtiyor shoira aytgan e’tirofning to‘g‘ri ekanligiga amin bo‘lamiz:

*Anjir pishgan bog laringa olma otsam maylimi?
Ro ‘paramdan o ‘tib qolsang so ‘zlar qotsam maylimi?
Olma otmoq bahonadir muddoyim sening o ‘zing,
Yuragimga o ‘t tashlagan o ‘tgan bahor sho ‘x ko ‘zing!(1;68)*

Shuhrat lirik she’rlaridagina emas, balki nasriy asarlarida ham o‘rni bilan personajlar nutqida xalq qo‘shiqlariga yaqin qo‘shiqlar kuylatadi. Xususan, “Oltin zanglamas” romanida Adolat xola tomonidan nabirasi Marat uchun aytilgan:

*Maratjonim xon-xoni,
Ko ‘kalamzor maydoni,
Hamma yomon ko ‘rsa ham,
Buviginasining joni!
Shirin bolam, shakar bolam,
Asqar tog ‘da bitgan lolam.
Yondan chiqqan yon qozig ‘im,
Shirin - shakar jon ozig ‘im³.*

Allada shoir xalqona so‘z va iboralardan samarali foydalangan holda, g‘oyaviy-estetik va badiiy ta’sirchanligini yuzaga keltirgan, betakror ifoda yaratgan. Allada assotsiativ mushohadalar uyg‘otuvchi hayotning murakkab, g‘alayonli jarayonlariga “Hamma yomon ko ‘rsa ham” misrasi orqali ishora qilingan. Chunki Marat

¹ Shuhrat. Sening sevging. –T.: Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1961. –B.139.

² Hojiyeva O. Yaxshilik / Shuhrat. Xotiralari. –T.: Sharq 1998. –B. 206.

³ Shuhrat. Oltin zanglamas. –T.: Sharq, 1995. –B.457

tug‘ilishidan oldin Sodiqning qamoqqa olinishi, go‘yoki uni shumqadam bo‘lib dunyoga kelishini ta’kidlovchi kimsalarga javob tarzda bitilgan. Yoki “Shinelli yilar”da Elmurodning singlisi Latofatning xirgoyisi ravon, o‘ynoqi ohang uyg‘unlashgani bilan ahamiyatlidir:

*Huv, ko ‘ringan tog ‘mikan,
O‘rtasida bog ‘mikan,
Front ketgan akamning,
Tani-joni sog ‘mikan?¹.*

Ma’lumki, “...so‘zdagи tovushning cho‘zib talaffuz etilishi ma’noni kuchaytirishga, belgini orttirib ifodalash, ruhiy holat yoki muayyan munosabatni aniqroq ifodalashga xizmat qila oladi”². Qo‘shiqdagi “huv” lirik qahramonning ruhiy holatini ifodalaydi. Shoirning bu so‘zni ishlatishdan badiiy-estetik maqsadi, ularni sog‘inch domiga tashlab urushga ketgan akasiga bo‘lgan cheksiz muhabbati nidosi in’ikosidir.

Bolalar uchun yaratilgan ijod namunalarining o‘rganilishi millatning ertangi kuni va kelajagini belgilashi nuqtayi nazaridan o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Chunki yosh avlodning nafosati va badiiy didini o‘stirish, haqqoniylig va badiiylikning mukammal birligini ta’minalash, yuksak ma’rifiy-estetik g‘oyalarni ilgari surish, ma’naviy kamolotining ta’minalishida ulkan badiiy-tarbiyaviy mavqe kasb etishi uning jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘ziga xos o‘rnini ham belgilashga xizmat qiladi. “...Bolalar adabiyoti yoshlar orasida badiiy jihatdan yuksak, intellektual saviyani o‘stirishga, dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladigan”³, asarlar sirasiga kirar ekan, shunday asarlarni targ‘ib qilish va o‘rganish bugungi kun adabiyotshunoslarining oldida turgan ulkan vazifadir. Shu o‘rinda, akademik M.Qo‘sjonovning bolalar shoiri Q.Muhammadiy va Q.Hikmatga bergen: “...birinchisidagi shoirona oddiylik, xalq ijodiga nihoyatda yaqin turishlik, folklor ohanglaridan, shakl va ma’no xususiyatlaridan unumli foydalanishlik, ikkinchisidagi, mazkur xususiyatlarni o‘zlashtirgan holda she’riy madaniylik, shakl va mazmundagi mukammallik va tugallik bizni o‘ziga jalb qildi”⁴, –degan ta’rifini, garchand bolalar shoiri bo‘lmasa-da bolalar shoiri sifatida ham o‘z iste’dodini to‘la namoyon qila olgan Shuhratga ham qo‘llash mumkin. Shoirning bolalarga bag‘ishlab yozilgan she’rlari

¹ Shuhrat. Shinelli yillar. –T.: Adabiyot va san’at, 1968.–B.274

² Qur'onov D. Adabiyotshunoslikka kirish. –T.: Fan, 2007. –B.122-123.

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi Farmoyishi / Xalq so‘zi, 2017 yil, 13 yanvar.

⁴ Qo‘sjonov M. Quddus Muhammmadiy. Qudrat Hikmat. –T.: O‘z KP MK nashriyoti, 1969. –B.4.

tadriji kuzatilganda, uning dastlab kichik-kichik she’rlar yozganligi va jarayon to‘lishib, voqeaband she’rlar yaratganligiga guvoh bo‘lish mumkin.

Bolalar adabiyotining asosiy xususiyatlari hisoblangan soddalik, samimiylik, ma’rifiylik va tarbiyaviylik Shuhrat she’rlarida to‘liq mujassamlashgan. Shoiringning “*Buvijonim*” she’ri yengil, o‘ynoqi, xalqona ohangda yozilgan va bu holat she’r ta’sirchanligini oshirgan. She’r misralari o‘zbekona, undagi voqelik milliy tamoyilga asoslangan. She’r barmoq tizimida bitilgan bo‘lib, 4+3 turoqlanish asosidagi 7 bo‘g‘inli o‘ynoqi vaznda yaratilgan. Bu esa o‘zbek xalq qo‘shiqlari ohangini esga soladi:

*O’sma ekdim bir bo ‘yra,
Buvim qo ‘ysin qoshiga.
Yalpiz terdim bir to ‘rva,
Buvim kertsin oshiga.
Buvi, buvi, buvijon,
Buvim mehri bir jahon!*¹.

Shoir *bushi* timsolida kitobxon qalbida onaga, vatanga muhabbat tuydira olish bilan birga, o‘zbek xalqining ma’naviy qadriyatlariga hurmat hissini uyg‘otishga erishadi, buviga xos muhim jihatlarni obraz va obrazlilik vositasida ifodalaydi. Milliy urf-odatimizga ko‘ra, *o’sma* o‘zbek ayollarining qoshiga qo‘yadigan bo‘yoq bo‘lsa, *yalpiz* onalarimiz tomonidan tayyorlanadigan taomga qo‘shiladigan mahsulot. Bizning xalqimizda ayolga, buviga jannatiy inson sifatida qarash, ularni e’zozlash, qadrlash, mehrini dunyolarga qiyoslash xalqimizga xosdir. Shoiringning “*Buvijonim*” she’rida ushbu qadriyatning to‘liq singdirilganini kuzatamiz.

*Lola terdim qir-tog ‘da,
Bir dastasi buvimga,
Baliq tutdim qarmoqda,
Eng kattasi buvimga.
Buvi, buvi, buvijon,
Buvim mehri bir jahon! (458).*

She’r davomida ko‘tarinki pafos she’rdagi estetik ta’sir quvvatini oshirgan va xalqona ruhdagi vazn orqali yangicha qarashlarni bir nuqtaga birlashtira olgan. Shoир she’rlarida “...jahon adabiyoti ko‘rigida o‘zbek she’riyatini ajratib ko‘rsatuvchi asosiy xususiyat, o‘zgalardan farqini namoyon qiladigan bosh belgi - milliy ruh”² borligini shoир she’rlarini mutolaa qilish jarayonida ko‘rshimiz mumkin:

¹ Shuhrat. Tanlangan asarlar. 3 jildlik, 1-jild. –T.: Adabiyot va san’at, 1978. –B.458 (Bundan keyingi iqtiboslar shu nashrdan olinib, sahifasi qavs ichida ko‘rsatiladi).

² Jabborov N. Yangi zamon she’riyati tamoyillari // Sharq yulduzi, 2014, № 3. –B.110-111.

*Kecha tushdim suratga,
Buvim bilan yonma-yon.
Buvim loyiq hurmatga,
Shirin so ‘zu mehribon.
Buvi, buvi, buvijon,
Doim bo ‘ling sog ‘-omon! (458)*

O‘zbek she’riyatida *ayol – ona* obrazini yoritishga shoirlarimiz doimo ma’suliyat va mehr bilan yondoshishgan. Shuhrat tomonidan yaratilgan *ona*, *buvi* obrazi esa o‘zgacha yo‘sinda talqin etiladi. “*Buvijonim*” she’rida *buvi* obrazi ideal, mehribon, kamsuqum, bolajonligi, kichiklarga namuna bo‘lishi bilan hurmat va e’zozga loyiqligi shoir tomonidan badiiy obrazlilikda ochib beriladi. Sochlaring oqligi, garchand qarilikdan nishona bo‘lsa ham, shoir o‘qirmanning e’tiborini boshqa tomonga tortib, sochlaring oqligi nabiralariga ertak so‘ylayotgan buvining nuroniy chehrasiga husn qo‘shishiga, uning bebaho qadrlanishiga, gullar bilan taqdirlanishiga asos bo‘lishini e’tirof etadi:

*Buvim sochi qorday oq,
Oq bo ‘lsa ham chiroylig.
Gullar terib bir quchoq,
Yuring, do ‘stlar, boraylik,
Buvi, buvi, buvijon.
Ertak boshlaysiz qachon? (458).*

She’rdagi asosiy badiiy-estetik pafos “*Dadam deydi “Oyijon!”*”, “*Bizlar deymiz “Buvijon!”*” misrasiga singdirganligi she’rning hissiy ta’sirchanligini ta’minlaydi. Binobarin, “...faqat yuqori badiiy shaklda ifoda etilgan mazmungina o‘quvchiga ta’sir ko‘rsata olishi mumkin. Badiiy asarda mazmun bilan shakl, bir qushning ikki qanotidek, ajralmas birlikda yashaydi”¹. Shu tamoyilga asoslangan holda “*Buvijonim*” she’ri orqali Shuhrat o‘quvchi yoshlarni o‘zligini unutmaslikka hamda yoshi ulug‘ insonlar, ayniqsa onalarni e’zozlashga, asrashga unday olgan, deyish mumkin.

*Dadam deydi “Oyijon!”
Doim qo ‘li ta ‘zimda.
Bizlar deymiz “Buvijon!”
Mehri nuri ko ‘zimda.
Buvi, buvi, buvijon,
Buvijonim bir jahon!*

¹ Sulton I. Adabiyot nazariyasi. –T.: O‘qituvchi, 2005. –B. 144

*Buvim mening alomat,
Doim bo 'lsin salomat (458).*

She'rda "Buvi, buvi, buvijon, Buvijonim bir jahon! misralarining tezis kabi takrorlanishi milliy manzara, holatlar hamda kechinmalarning xalqona ohangda ifodalishiga asos bo'lgan. Sharqona odob, o'zbeklarga xos milliy jihatni shoir "Oyijon!", "Buvijon!" so'zлari orqali yorqin namoyon qilgan.

Bolalar adabiyoti kitobxonlari boshqa kitobxonlardan yosh chegarasiga ko'ra kichik yoshdagi, o'rtalik yoshdagi va o'smir yoshdagi bolalar guruhlariga ajratilishi bilan farqlanib turar ekan, Shuhrat she'rlari, asosan, o'rtalik yoshlarga bag'ishlanganligi bilan xarakterlanadi. Binobarin, "She'r so'z shaklida, ritmik birliklar shaklida qog'ozga tushmasdan avval shoir xayolida hissiyot va g'ira-shira jilvalar shaklida paydo bo'ladi, so'ngra u tobora yorishib, aniq qirralar kasb etadi. Shundan so'nggina u so'z yordami bilan reallasha boshlaydi"¹. Shuhratning bolalar uchun yozilgan "Bobong yo'li" she'rining g'oyaviy-estetik va badiiy jihatdan ta'sirchan, jozibador bo'lishida qofiyaning o'rni muhim. Qofiya "...she'riy misralardagi ayrim so'zlarning ba'zan qo'shimchalar, hijolar yoki so'z birikmalarining bir xilda o'zaro ohangdosh bo'lib kelishiga asoslangan, faqat she'riyat uchun xos bo'lgan belgilardan biri"². Yoki, boshqacha aytganda "...qofiya ritmik jihatdan misrani ta'kidlash bilan she'r ritmining his qilinishida muhim ahamiyat kasb etadi"³.

Ko'p asrlik ma'naviy-milliy qadriyatlarimiz bilan hamohang ruhda yaratilgan "Bobong yo'li" she'rida ko'rgan, kirgan, keltirgan, yetirgan, qolgan, olgan sifatdoshlari qofiyadosh bo'lib, bu fe'llar orqali shoirning dardchil kechinmalarini, badiiy niyati ohangdorlik asosida yuzaga kelgan. Shu o'rinda alohida e'tirof etish kerakki, shoir ijodining o'ziga xosligini, umrboqiyligini ta'minlovchi asosiy jihatlardan biri uning she'rlaridagi shakl va mazmun uyg'unligidir. Shoir o'z she'rlarini unda olg'a surilgan fikr va g'oyalarni yaqqolroq ifodalash uchun, asosan, qo'shma vaznning 4+5 turoqlanish asosidagi 9 bo'g'inli barmoq vaznida yaratgan. Shuni alohida qayd etish joizki, bolalar shoirlari she'rlarining asosiy qismi sodda vaznda, ya'ni bir turkumga kiruvchi bo'g'inlar guruhidan iborat bo'lsa, Shuhratning bolalar uchun yozgan she'rlarini kuzatganimizda, ularning 7, 8, 9 bo'g'inli qo'shma vaznda bo'lishi ham shoirning o'ziga xos uslubini ko'rsatadi. She'rda *chol* va *bobong*

¹ Karimov N. XX asr manzaralari. –T.: O'zbekiston, 2008. –B.361

² Hotamov N, Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. –T.: O'qituvchi, 1979. –B.261-262.

³ Quronov D., Mamajanov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. –T.: Akademiknashr, 2010. –B.383.

so‘zlari bir necha marta takror qo‘llangan va bu takrorlik she’r ta’sirchanligini kuchaytirishga xizmat qilgan.

*Sen shu cholga salom ber, o‘g‘lon,
Shu chol sening bobongni ko‘rgan.
Bobong bilan turib yonma-yon,
Qilich ushlab, janglarga kirgan.
Jangdan bobong qaytmadi, lekin,
Dovrug‘ini shu chol keltirgan.
Go‘yo bobong qoldirgan yukin,
Manziliga shu chol yetirgan!
Qo‘lini ol, qo‘lida bobong,
Kaft issig‘i saqlanib qolgan.
Qulog‘ing tut, dilida bobong,
Qalb urishin ardoqlab olgan! (456).*

She’rning g‘oyaviy mohiyatidan ma’lum bo‘ladiki, u chuqur ma’noga ega. Unda shu vatanda yashab, yoshini yashagan, yaqin insoni bo‘lgan bobosini ko‘rgan cholning poetik timsoli shoir tomonidan mohirona yaratilgan. She’r mazmunidan ayon, muallifning lirik qahramonga murojaati orqali xotira – urushga bolalik munosabatlari ko‘zgusi sifatida namoyon bo‘lishi ko‘zga tashlanadi. She’rda xalq dostonlari qahramonlari kabi o‘z ona – Vatanini himoya qilgan bobo va u bilan janglarga kirgan cholga nisbatan muhabbat, hurmat, sadoqat hissi tarannum qilinadi.

*Ko‘ziga boq, ko‘zida bobong,
Aks suratin ko‘rishing mumkin.
So‘ziga boq, so‘zida bobong,
Ish sur’atin ko‘rishing mumkin.
Yo‘liga boq, yo‘li beg‘ubor,
Yo‘li bobong tanlagan yo‘ldir.
Sen shu yo‘ldan adashmasdan bor,
Bu yo‘llarda shon-sharaf mo‘ldir! (456).*

She’rda shu ulug‘ siymolar qalbiga singgan vatan tuyg‘usini qaror toptirish yo‘lidan borilgani, tarixga, o‘tmishga nazar solish orqali yosh kitobxonga vatanni sevish, asrash-avaylash g‘oyasi milliy ruhga yo‘g‘rilgan holda tasvirlangan. Vatan mavzusida juda ko‘p she’rlar yaratilgan, lekin ulardan farqli o‘laroq, shoir she’rida o‘quvchining bobosi va cholga muhabbati orqali, vatanga muhabbatni kuchaytirish maqsad qilingan. She’r badiiyati, tuzilishi, shakli jihatidan mukammal. She’r

ma’naviy-madaniy qadriyatlar, urf-odatlar, udumlar, an’analarning bola dunyosida badiiy-estetik idrok etilishida o‘ziga xos milliy kolorit yaratish vositasiga aylangan.

Samimiyligi, jozibadorligi, tabiiyligi bilan o‘quvchilarni o‘ziga maftun qiladigan shoirning “*Qandim qani?*” she’ri ham “*Buvijonim*” she’ri kabi barmoq she’r tizimida yumoristik xarakterda bitilgan bo‘lib, 4+3 turoqlanish asosidagi 7 bo‘g‘inli barmoq vaznida yaratilgan:

*Xo ‘sh, aytinq-chi, qaysi bola,
Qandni yomon ko ‘radi?
Choyiga qand solib qo ‘ysang,
Lab-lunjini buradi? (479).*

She’r tahlili xususinda so‘z borar ekan, aytish mumkinki, “Shoirning xayol, o‘y, tushunish shakllari tugal, komil bo‘lg‘ach, o‘ziga yarasha bir uslub borliqqa chiqqan bo‘ladir... Bir asardagi fikrlar, ma’lumotlarning eskiliginiz bizga sezdirmasdan, bildirmasdan ifoda qilib uni bizga o‘qita olg‘an kuch uslubdadir”¹. She’r matnidan ko‘rinib turibdiki, shoirning o‘zigagina xos soddalik, kuyunchaklik, bolalarbop qilib yozishi, o‘qirmanning diqqatini tortibgina qolmay, xushkayfiyat bag‘ishlab, ruhiyatini ko‘taradi. She’rda shoirning lo‘nda ifodasi, nim tabassum singgan tasvir usuli, hayotiy talqinlari o‘quvchiga boshqacha zavq bag‘ishlaydi:

*Bizning Shodmon bo ‘lar shodmon,
Qand solsangiz choyiga.
Darrov kelib o ‘tiradi,
Aya aytgan joyiga.
Yuzi, ko ‘zi nurga to ‘lib,
Yonar mayda oq tishi (479).*

Shodmon obrazini tasvirlar ekan, shoir uning timsolida bolalarbop voqelikni hayotiy, haqqoniy, sodda ifodalashga erishadi. Binobarin, bola qalbi ham sohir tuyg‘u-kechinma va samimiyligi hislarga boy bo‘ladi. She’r haqida yana shuni aytish mumkinki, she’r hazilomuz shunchaki kulgi, yumor uchun yozilmagan. She’rni o‘qigach, o‘quvchi kulgi va haqiqat topishgan chorrahani anglab yetadi. Shoir Shodmon obrazi orqali bolalarning ruhiy olamini realistik tasvir orqali aks ettirgan.

*Lekin uning bordir, do ‘stlar,
Yarashmagan bir ishi:
Qand erigach, deydi:
-Qani? Qandim ketdi qayoqqa?*

¹ Fitrat A. Tanlangan asarlar. IV jild. –T.: Ma’naviyat, 2006. –B.17.

*Topib bering, topib bering,
 Qani oling bu yoqqa!
 Tushuntirsang tushunmaydi,
 Dod soladi yer tepib.
 Ayajoni aldab ko ‘rar,
 Goh erkalab, goh o ‘pib.
 Qani qulog salsa Shodmon!
 Shu qilig ‘i ko ‘p yomon!
 Sizlar shunday qilmaysizmi,
 Ali, Vali va Omon? (479).*

Shoir Shodmondag'i bolalarga xos injiqlik, o‘jarlik va qaysarlikni humor bilan katta estetik mazmunni yengil va ta’sirchan tarzda yosh kitobxon qalbiga yetkaza oladi. Shoir she’rlarini o‘qigan yosh kitobxon o‘zi har kuni ko‘rib-bilib yurgan, lekin deyarli e’tibor bermagan ayrim narsa-hodisalarining favqulodda nafis va topqirlik bilan chizilgan manzaralaridan hayratga tushadi. She’r tahlilidan shunday xulosaga kelish mumkinki, bolalarning bir qarashda odatiydek tuyulgan qusur va kamchiliklaridan, so‘z-gaplaridan foydalanib asar yarata bilish Shuhrat badiiy mahoratining yuksakligini ko‘rsatadi. Bolalar olamini kashf etishda ularning fikrchanligi, topqirliklari, zukkoligi-yu, o‘ychanliklari, shu bilan birga sho‘xlik, qusur va kamchiliklari juda ko‘p she’rlarda munosib tarzda, gohida humor bilan, gohida jiddiy tarzda talqin etilganini ko‘rish mumkin. Zero, “Chinakam san’at asari faqat syujet ipiga tizilgan voqealarni kitobxon e’tiboriga havola etish uchun emas, balki shu voqealar mantiqiga singdirilgan badiiy maqsad uchun yoziladi”¹. Bu ta’rifni Shuhratning “Pero va Adham” she’riga ham tatbiq qilish mumkin. She’rda voqealikni yengil humor bilan uyg‘unlashtirgan holda aks ettira bilish, bolalardagi qusur va kamchiliklarni Adham timsolida bolalarbop talqin qila bilish Shuhratning bolalar she’riyatida ham o‘ziga xos uslubga ega ekanligini ko‘rsatadi:

*Pero birdan xunuk yozdi,
 Go ‘yo uning ko ‘ngli ozdi.
 Adham boqsa, uchi to ‘mtoq.
 Jahl bilan uni shu chog’,
 Yulib olib otmoq bo ‘ldi,
 Shunda birdan pero kuldi: (485).*

Yozuvchi qalamida, hatto, narsa-predmetlar odamlardek fikr yuritib, so‘zlab, insonlardagi illatlarni fosh etishini *pero* misolida ko‘rshimiz mumkin. Adhamga pero

¹ Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. –T.: O‘zbekiston, 2008. – B.185.

tomondan aytilgan tanbeh, dashnomlar o‘quvchi kitobxonning idrokida muayyan his-tuyg‘ularni uyg‘otishi tabiiy.

—To ‘xta, *Adham shahdingdan qayt*,
Avvalo sen rostingni ayt:
Menmi aybdor yoki o ‘zing?
Olaytirma menga ko ‘zing?
Siyohdonga ursang taq-taq,
Bo ‘laman-da, axir to ‘mtoq! (485).

She’rda Adhamga *pero* tomondan berilgan savol, nazarimizda bolalar tabiatiga xos va mos bo‘lib, bunday savollar soddaligi, quvnoqligi, yumorga boyligi bilan ham ajralib turadi. Muhimi shundaki, shoир bunday fikr-o‘ylarni kitobxonga ham yuqtira oladi. Savol-she’rlar yozilish uslubiga ko‘ra sodda, samimiy, ixcham satrlardan tarkib topgan “*Pero va Adham*” she’ri tasvir ko‘lamining qisqaligi, syujet va kompozitsion jihatdan soddaligi, bayonning muallif tomonidan hikoya qilinishi Shuhrat she’rlari uchun xosdir.

Avaylab tut, asta botir,
Hamma shunday tutayotir.
Almashtimas ular kunda,
Yaxshi yozar ana shunda!
Xijolatda qoldi Adham,
Ming zo ‘ravon bo ‘lganda ham! (485).

She’rdagi bunday tasvir o‘quvchida mantiqiy ichki mushohadani yuzaga keltiradi, o‘yga toldiradi, o‘zidagi kamchilik, e’tiborsizlikni ko‘zguda ko‘rib tuzatishga, yo‘qotishga harakat qiladi. She’r faqat o‘quvchiga zavq-shavq berib qolmay, to‘g‘ri yo‘l ham ko‘rsatadi. Shoир yaratig‘i uning ijodiy tafakkur mevasi bo‘lib, bu holat uning boshqa asarlarida: “..ekspressivlik, xolislik va ko‘p ma’nolilik kasb etadi. Estetik qimmati yuqori bo‘lgan asarlardagi obrazli iboralar tizimida ifodalangan hayot manzaralari sirdan juda sodda ko‘rinsa-da, odatda g‘oyat murakkabligi bilan e’tiborni tortadi”¹. Shoирning “*O‘chirg‘ich*” she’ri ham shunday asarlar sirasiga kiradi. Shoир tomondan yaratilgan o‘chirg‘ich obrazi tilidan bolalarga xos haqqoni, hayotiy, qusur va kamchiliklar fosh qilib tashlanishi, o‘qirmanga ta’sirchan lavhalarda yetkazilishi, shoирning o‘ziga xos uslubini yorqin namoyon qiladi. Shoир uslubida soddalik, tuyg‘ularning samimiy bayoni, yorqin va rangin ifodalari, ohang va rang uyg‘unligi alohida bo‘rtib ko‘rinadi.

¹Solijonov Y. Nutq va uslub. –T.: Cho‘lpon, 2002. –B.32.

*Bir kun dedi o ‘chirg ‘ich:
Hadeb meni ishlatma!
Ayb mendami erta-kech,
Xato yozsang sen g ‘uj-g ‘uj.
Avvalo sen yaxshi yoz,
Yaxshi yozu to ‘g ‘ri yoz(485).*

She’rdagi hayot haqiqati va ta’sirchan tasvir, bolalarga bog‘liq odatlar, fikrlash va turmush tarzlaridagi o‘ziga xos jihatlarni shoir tomondan tasvirlanishi, hech ikkilanmay aytish mumkinki, she’rning qiziqarli chiqishini ta’milagan. Shoirning topqirligi va mahorati shundaki, kundalik turmushda ko‘p uchraydigan oddiy voqeadan katta ijtimoiy-psixologik mazmun yuklatadi.

*Yaxshi yozsang qanday soz,
Bo ‘lmas menda e ’tiroz.
Mayli, meni olib yur,
Papkangga ham solib yur.
Lekin ko ‘p-ko ‘p ishlatma,
Xijolatda qishlatma!
Yaxshisi yoz bexato,
Xato qilsang mabodo.
Yordamga men tayyorman,
Tayyorman-u men borman! (485).*

Shuhrat haqida yozilgan xotirada “...bolalar adabiyotining jonkuyari edilar. Ustoz ijodida bolalarga atab yozilgan asarlar sezilarli o‘rin tutadi. Jo‘shqin she’r va balladalari, ajoyib qissa va hikoyalari bolalar adabiyotining boyishiga hissa qo‘shgan”¹, -deya e’tirof etilgan ekan, adibning bolalarga bag‘ishlab ijod qilgan jozibador yaratiqlari, muqaddas ezgu qadriyatlarga mehrini yuksaltirish hamda o‘quvchilarning shaxs tarbiyasidagi o‘rnini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Shuhratning tahlilga tortilgan she’rlaridan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, u xalqona ifoda usuli, syujet va kompozitsiya, shuningdek, poetik obrazni yaratishdagi o‘ziga xos uslubi: aniqlik, obrazlilik, tilning soddaligi kabi unsurlardan obrazlarni individuallashtirishda foydalanishi tahsinga loyiq. Shoir eng muhimi, yosh kitobxonlarni maftun qilibgina qolmay, ularni o‘ylashga, yaxshi bilan yomonni bir-biridan ajratishga, jumboqli masalalarga duch kelganida to‘g‘ri yo‘lni tanlashga o‘rgatadi. Shuhratning bolalarbop she’rlari sermazmun, tarbiyaviy ahamiyati kuchli

¹ Tolib R. Jonkuyar ustoz / Shuhrat. Xotiralar. –T.: Sharq ,1998. –B. 286.

va ta'sirchanligi bilan nafaqat yosh kitobxonlar, balki kattalar uchun ham qiziqarli she'rlar sirasiga kiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Shuhrat she'rlarining yengil, xalqona o'ynoqi ohangda yozilishi, lirk qahramon ruhiy olamini tabiat hodisalari bilan parallel holda bir-biri bilan qiyoslab ba'zan qarshilantirish natijasida yuzaga kelganligi shoir she'rlarida parallelizmlarni kompozitsion asos darajasiga ko'targan. Bu holat shoir she'rlarining badiiy-estetik ta'sirchanligini kuchaytirib, xalq lirk qo'shiqlari kabi ritmik o'ynoqiligi, ohangdorligini ta'minlagan.

FALSAFIY MUSHOHADAKORLIK VA BADIY TASVIR VOSITALARI

Shuhrat XX asr o'zbek adabiyotining zabardast, yirik ijodkorlaridan bo'lib, uning "...she'riyatini o'quvchilarga ardoqli etgan narsa, fazilat, ulardagi teran samimiyatdir. Samimiyat doim shoir she'rlaridan ufurib turadi. Haqiqiy shoirning o'z o'quvchisidan yashiradigan siri bo'lmaydi, balki bor siri, niyati, maqsadini bemalol o'rtoqlashadi. Shuhrat she'riyati shu ma'noda samimiy she'riyatdir"¹.

Shuhrat lirkasi adabiy jozibasini shakllanishining muayyan qirralari: *birinchidan*, shoir she'riyatdagi samimiyat, mushohadakorlik, hissiy jo'shqinlik; *ikkinchidan*, lirk qahramonning ko'ngil tuyg'ulari, qalb iztiroblarini badiiy inkishof etish; *uchinchidan*, inson va umr mazmuni bilan bog'liq masalalarni falsafiy teranliklik bilan ifodalash; *to'rtinchidan*, she'riy san'atlardan mohirona foydalanishida ko'rindi. Shoir she'rlarini tadqiq qilish jarayonida bu qirralar naqadar to'g'ri ekanligini kuzatdik. Masalan: "*Haq so'z*" she'rida ham shoir chuqur ko'tarinkilik, samimiyat bilan:

*Sen o'zing yonmasang hayotda, shoir,
O'zgalar qalbini yondira olmaysan.
Sen o'zing qonmasang hayotdan, shoir,
O'zgalar qalbini qondira olmaysan²,*

deya, baralla bong uradi. Chunonchi, she'r inson qalbining zarbidan, hayot zarbidan iborat ekan, shoir bu zARBni tinglamasdan va izhor etmasdan tura olmaydi va unga munosib javob berishga harakat qiladi. Shunday insondagi, lirk qahramondagi ruhiy holatni, shoir quyidagicha tasvirlaydi:

*Sen hayot bag'rige javlon urib kir,
Baxt topsang quvonib, xandon solib kul.*

¹ Muhammad A. So'nmas chiroq / Xotiralar. –T.: Sharq, 1998. –B.215.

² Shuhrat. Sening sevging. Saylanma. – T.: Sharq, 2003. –B.50. (Bundan keyingi iqtiboslar shu manbadan olinadi va sahifasi qavs ichida ko'rsatiladi).

*Haqiqat bo ‘ynida gar ko ‘rsang zanjir,
 Yuraging o ‘rtanib, sochlaringni yul!
 Lekin sen hayotga qarama loqayd,
 Xaspo ‘shlab yashirma nursiz ustini.
 Dadil tur, oshkora o ‘z so ‘zingni ayt,
 Haq so ‘zdir dunyoning sinchi, ustuni! (50).*

Shuhrat she’riyatidagi insonni qurshagan sirli olam va shu borliqdagi inson taqdiri haqidagi o‘ylar, mushohadalar ko‘pni ko‘rgan kishilarga xos falsafiy xulosalar, umumlashmalar, hikmatlar ummoniga borib quyuladi. Shuhrat ana shu ijodiy jarayonda o‘zligini saqlab qoladi, shu xulosa va umumlashmalarga o‘z hayotiy tajribasini, o‘zi bosib o‘tgan va bosib o‘tayotgan hayot yo‘lini tahlil qilish orqali keladi. Ko‘pincha shunday falsafiy fikr bilan sug‘orilgan fikr va mushohadalar shoir lirik qahramonining qaynoq hayotdan olisda yashagan chog‘larida, oila va do‘stlarning issiq bag‘ridan mosuvo bo‘lgan kezlarida xayolga keladi. Shunday ruhiy holat falsafiy fikrlar ustivorlik qilgan she’rlarning tug‘ilishida doya vazifasini bajaradi. Shoир shunday ruhiy kechinmalar og‘ushida yashagan soatlarida ham o‘zidagi go‘zallikka, eзgulikka, munavvar ertaga bo‘lgan ishonchini yo‘qotmaydi. Shuning uchun ham uning lirik qahramoni doim hayotbaxsh g‘oyalar bo‘stonida nafas olib yashaydi.

*Onasini unutganning,
 Ona tili bo ‘lmaydi.
 Ona tilin unutganning,
 Ona eli bo ‘lmaydi.
 Ona tiling unutdingmi?
 Eling unut, ona unut,
 Xo ‘sh, hayotdan ne umid!
 Na odamsan, na farzand,
 Odam nusxa vujudsan.
 Yer yuzida daydib yurgan,
 Bir jonzotday mavjudsan. (190)*

Shuhratning ushbu she’rini o‘qir ekanmiz, she’rda insoniylikni ulug‘lovchi o‘quvchi uchun muhim faylasufona fikr – ona, ona til, ona yurtga muhabbat va uni e’zozlash kabi xalqimizning ruhi, tabiat, odatiga mos fazilatlar ifodasi mavjud. Shoир lirik qahramoni ma’naviy dunyosida uning o‘ziga xos xarakter jihatlarini ko‘rsatib bera oladi. Ijodkor she’rda har bir so‘zga mas’uliyat bilan yondoshgan. U o‘zi aytmoqchi bo‘lgan g‘oyaga befarq emas, aksincha, qalbidagi uni ezuvchi iztirobni

kengroq ochish, xalqning bir munosib farzandi sifatida ona, ona tili va ona eliga doim sadoqat saqlashni maqsad qilishga lirik qahramonni undaydi. Yo'qsa, u bir manqurt mavjudotga aylanib qolishi mumkinligini uqtiradi. Demak, shoir lirik qahramoni ma'naviy dunyosida uning o'ziga xos xarakter jihatlarini ko'rsatib bera oladi. "Bu xarakterda esa biz ham o'zimizga xos xislatlarning ko'pginasini ko'ramiz"¹. Shoирning "She'r nima, deysanmi?" she'riga e'tiborni qaratamiz:

*She'r nima? Shu ona tuproqning rangi,
Shu ona qirlarning ko'rki, chiroyi.
Ko'klarga o'rangan baxting ohangi,
Suvlargal qil to'la bulutlarning soyi (196).*

She'r haqida fikr yuritar ekan shoir, uni go'yoki uchqur xayol kabi, bir nafasda insoniyat vujudga kelgan uzoq asrga boshlashini, bir zumda kelajakka yo'llashini, kichik tomchida keng olamni aks ettira olishini, shu bilan birga inson qalbining ich-ichiga kirib borib, unga cheksiz kuch, ilhom, shijoat baxsh etishini, ona tuproq, qir, ko'k, suvlarda, deya xitob qiladi.

Ijodkor so'z – she'r chashmalariga va ular oqimi, to'lqiniga befarq qarab turmasligi, aksincha, bu chashmalarning ko'zini kengroq ochish, ularni maqsad daryosi sari yetaklash, uning avji va mavjidan hayot kemasini yurgazishga lirik qahramonni undaydi. She'riyat tarixiy, ilmiy kitoblar u yokda tursin, hatto badiiy prozadan ham o'zining dunyoni idrok etish va tushuntirish, ifodalash yullari bilan farq qiladi. Hamma narsa shoирning qalbi, uning hissiyoti, kechinmasi orqali beriladi. She'riyatda hayot, voqelik zarbi bilan tebrangan shoir qalbining ohangi ifodalananadi.

*Tong otayapti, tongni kutib ol,
Tong zavqida kun bo'yi qol!
Tongni bergan kunni olqishla,
Kun chiqayapti nurli boqishla!*

Shuhratning "Tong otayapti" she'rining falsafiy g'oyasi nihoyatda teran: ijodkor kitobxon qalbida musaffo tong tasviri ila inson hayotining tongini uyg'unlashtiradi. Voqelikni badiiylashtirar ekan, kitobxonga nozik did ila yashash mazmun-mohiyatini singdirishga harakat qilgan va ma'lum darajada shoir bunday muvaffaqqiyatga erishgan. She'rdagi har bir yangilikning ildizi ana shularga borib taqaladi. Shoir she'rlaridagi badiiy kashfiyat mana shu voqelikdan yangi g'oyalarni fahmlab olishi va uni o'ziga xos yo'sinda ifodalashdan kelib chiqqan. Badiiyat, ijod hech qachon uydirma, to'qib chiqarilgan, asossiz gapni sevmaydi. Qaysi she'r shoирning hayotdagi biror aniq voqea, hodisa asosida yoki biron sabab, turtki tufayli,

¹ Sharafiddinov O. Yakun va debocha // Sharq yulduzi, 1962. №2. –B.133.

yo bo‘lmasa shoirning hayoti va taqdiri bilan bevosita bog‘langan biror hayotiy epizod natijasida vujudga kelgan bo‘lsa, shunda hayotiy, o‘tkir jozibali va ta’sirli chiqadi. Bilamizki, Shuhratning hayoti va ijodi bir tekis, silliq kechmagan. Qamoq azoblaridan tashqari yon-atrofidagi “do‘stlari” ham ulkan ijodkorga goh oshkora, goh pinhona tuhmat toshlarini otib borgan. Alalxusus, “She’r – shoir qalbining avtobiografiyasidir.... Garchi she’r inson tarjimai holidan farqlansa-da, lekin unga shu tarzda yondashish ijodkor poetik mahoratini oydinlashtirish uchun qulaylik yaratadi”¹. Shuhrat tarjimai holiga oid xotiralarni o‘z qatiga singdirgan avtobiografik xarakterdagi “*Ta’na toshlari*” she’ridagi tasvir shoir poetik mahoratining hayotiyligini ta’milagan. Mard va bag‘rikeng shoir hamma-hammasini yaxshilik bilan, yaxshi asarlari bilan yengib yashagan:

*Sha’nimga otilgan ta’na toshlari,
Oxiri yig‘ilib ulkan tog‘ bo‘ldi.
Men uning ustiga chiqqanim sari,
G‘ururim oshdi-yu, ko‘nglim chog‘ bo‘ldi.
Men uning ustidan mag‘rur, tik boqib,
Hayotning ufqini yorqinroq ko‘rdim.
Barimga ilashgan chang-chungni qoqib,
Shu ufq – manzilga mardona yurdim².*

Shoirning shaxsiy hayotidagi, ijodiy taqdiridagi murakkab, qiyin, noqulay vaziyatlar, bo‘lib o‘tgan to‘s-to‘polonlar, tabiiy uning she’riyatida ma’lum darajada o‘z izini qoldirgan. Shuhratning ijodini kuzatganimizda, ko‘pgina she’rlarida uning yuragiga nishtar bo‘lib sanchilgan, uni azoblagan xoinlik, xudbinlik kabi holatlari qalamga olingani holda, lirik qahramonni bir lahza bo‘lsa ham ijodkorning o‘zi ekanligini his etdik. Bil’aks, shoir “..eng yuksak insoniy fazilati shundaki, ijodkor har qanday malomat, xo‘rlik, bo‘htonlar changalida, ha xuddi shunday, qaddini xam qilmadi. Dardkash izlab, har ko‘ringanga taqdiridan nolimadi. Metin iroda o‘z insoniyligini yo‘qotmay ijod qildi”³. Shoirning she’rlari dard va ehtiros bilan yozilgani uchun diqqatni tortadi. “*Ta’na toshlari*” she’rida shoir o‘ziga nisbatan bo‘lgan zulm vaadolatsizlikni, umr davomida kechirgan tahlikali onlarini qalamga olib, “o‘ziga ayon, boshqalarga qorong‘u” bo‘lgan qirralarini yoritadi:

*O, ta’na toshlari, ta’nam yo‘q sizga,
Siz sabab bo‘ldingiz, boqdim uzoqroq,*

¹ Hasanov Sh. Iste’dodning rangin jilolari / Badiiylik va mahorat. – Samarqand.: SamDU, 2018. –B.33.

² Shuhrat. Tanlangan asarlar. 3 jildlik, 1-jild. –T.: Adabiyot va san’at, 1978. –B.132 (Bundan keyingi iqtiboslar shu nashrdan olinib, sahifasi qavs ichida ko‘rsatiladi).

³ Shukurullo. Ijodkor matonati / Shuhrat. Xotiralari.–T.: Sharq, 1998.–B.152.

*Hayotni qadrlab chiqdim keng izga.
Ey, umid! Mash’aling baland tutib yoq,
Ey, ta’na toshlarin otgan kishilar,
Sizni ham yuragim bugun olqishlar! (132).*

So‘z badiiy adabiyotdagina o‘zining asliga – obrazli tabiatiga qaytadi, olamni to‘laqonli aks ettirish, tasavvurimizda uni qayta yaratishga xizmat qiladi¹. “Ta’na toshlari” she’rida davr voqeligi, qalb xotiralari o‘zgacha ohang, o‘zgacha ranglarda ifodalangan, shoir armonli hayotining butun ma’no va mazmunini, iftixor va armon tuyg‘ulari go‘zal yaratiq sifatida namoyon bo‘lgan.

Shoir she’rlaridagi lirik qahramonda doimo his-tuyg‘u birlamchi, kuchli bo‘lib, qahramonning murakkab xarakteri, katta, lekin nozik qalbi mohirlik bilan ochilganligini kuzatdik. Shuhrat she’rlari, uning o‘zligi, orzu-umidlari, zamon haqidagi qaydlari, tengdoshlariga aytgan xitobi, o‘quvchiga murojaati, o‘rtoqlari va ustozlariga bildirgan samimiyyati, chuqur fikrlar va badiiy o‘xshatishlar orqali berilishi bilan xarakterlidir. “G‘oyaning chinakam estetik, emotsiyonal kuch sarf etishida konkret kechinmalar formasidagi obrazlilik muhim rol o‘ynaydi”² – ekan, shoir kechinmalari natijasida obrazning to‘laqonli o‘ziga xos belgilari kitobxon ko‘z o‘ngida bor bo‘y-basti bilan gavdalanadi. Shuhrat she’rlarining barchasi lirik qahramon kechinma o‘ylari, hayotiy voqelik asosiga qurilgan bo‘lib, ijodkor qalbining eng teran torlaridan taralgani uchun g‘oyat hayotiy va samimiyyidir.

Insoniyatni ezgu niyatlar sari yetaklagan va kelajakni yaqinlashtirish uchun kurashmagan she’riyat sust va sayozdir. Albatta, ijodkorga mavzu va materialni ham, fikr va g‘oyalarni ham, qahramonlarni ham, obraz va tasviriy vositalarni ham, ruhiy parvoz va ilhomni ham – hamma narsani xalq, hayot, qaynoq voqelik hadya etadi-yu, ammo bularni badiiy haqiqatga almashtirish faqat shoirning o‘ziga bog‘liq bo‘ladi. She’rda poetik obraz ba’zan birdaniga, g‘oyibona, goh uzoq izlanishlar, ijodiy qiyonoqlar jarayonida tug‘ilishi mumkin. Tabiat bilan g‘oyatda yaqindan bog‘lanish tabiatga intilish, tabiat bilan hamnafas bo‘lishda psixologik va axloqiy bir qonuniyat bor. Chunki inson doimo tabiatga intilgan, tabiatni kuzatgan, tabiatdan o‘rgangan, ilk bilimlarini tabiatdan olgan, tabiat insonni dono qilgan. She’riyat ham azaldan tabiatga intilgan va ergashgan, uning qoshida doimo hayratlanib turgan, undan aql bovar qilmas musiqa, ohang, aql bovar qilmas ranglar olgan. She’riga tabiat kirmagan, tabiat tasvirlari berilgan manzara bo‘lmagan bironta ham shoir yo‘q. Shuhrat ham bundan mustasno emas. Shunday she’rlaridan biri:

¹ Quronov D. Nazariy qaydlar. –T.: Akademknashr, 2018. –B.70.

² Adabiyot nazariyasi. 2 tomlik, 1 tom. –T.: Fan, 1978. –B.294.

*Shudring yonar quyosh chiqquncha,
 Tomchi-tomchi marvarid dona.
 Sen turibsan hayron boqqancha,
 Deysan:- Quyosh chiqyapti, ana,
 Hali zamon erib ketadi,
 Hali zamon qolmaydi bori.
 Go 'yo quyosh uni yutadi.
 Buncha qisqa bo 'lmasa umri!
 Sen achinib qarab turgandan,
 To 'yib-to 'yib qarab qolsang-chi!
 Mamnun bo 'lib shuni ko 'rgandan! (218).*

Lirik qahramondagi ruhiy holatga nisbatan, muallif o‘z adabiy-estetik qarashlarini she’riy misralarda namoyon qiladi. Ya’nikim, inson hayotga, go‘zallikka mehr-muhabbat bilan boqishi, har bir go‘zallikdan zavqlanib yashash kerakligini uqtiradi. Bir lahzalik shudring tomchisi insonga quvonch bag‘ishlar ekan, demak uzoq yashashlik emas, mazmunli yashashlik baxt ekanligini satrlar silsilasiga shoir *shudring* misolida singdiradi. Shuhrat she’rlarida tasvirlangan lirik qahramon qiyofasida faqat o‘z dardi bilan emas, balki xalq dardi, taqdirini o‘ylayotgan ma’nan boy, ruhan kuchli, metin irodali inson turadi. Bu esa Shuhrat she’rlarida qalb iztiroblari aks etganidan dalolat beradi. Aytilgan kuzatishlarimizni isbotlash uchun uning “*Nimani yozibman*” she’riga murojaat qilmoqni lozim topdik:

*Nimani yozibman – qalbim amridir,
 Nimani yozibman – qalbim javobgar.
 Nimani istasang, qalbimdan qidir,
 Qalbiga vujudim, orzuim bo 'y egar (188).*

Ko‘ramizki, Shuhrat ijodiga xos bir fazilat ko‘zga tashlangan: u o‘z she’rlarini ham, ballada va romanlarini ham, poemalarini ham o‘zi bilgan, ko‘rgan, chuqur va hayajonlangan yoki shaxsan o‘z boshidan kechirgan voqeа, hodisalar, fikr va kechinmalarga suyanib yozadi. Uning hayot yo‘li, hayotiy tajribalari voqelikdagi va xalq hayotidagi muhim, bosh yo‘nalishni chuqur izlanib va falsafiy aspektida badiiy tahlil etishda faol xizmat qiladi. Bil’aks, “She’rning obrazlar dunyosi o‘z qonunlariga asosan harakat qiladi, yashaydi. Predmetlar dunyosi emas, fikr, hayajon lirikada yashaydi voqelikka aylanadi”¹. Ana shunday fikr va tuyg‘ularning voqelikka aylanishi Shuhrat she’riyatining asosini tashkil etadi.

¹ Владимиров С. Стих и образ. –Л.: Сов. писатель, 1961. – С.116.

Shoir she’rlarida Vatan va inson haqida poetik asar yaratishda original yo‘lni tanlaydi. O‘ylagan poetik mazmunini badiiy obrazlar vositasida kitobxon qalbiga yetkazishga harakat qiladi. Shuhratning o‘y-xayolida, lirik kechinmalarida lirik qahramonning fikr-tuyg‘ulari o‘z ifodasini topadi. Hayotdagi muhim hodisalar va voqealarning chin mohiyatini his eta bilish, bu voqealarning quruq bayonini emas, chin poetik mazmunini topa bilish Shuhrat ijodiga xos xususiyat ekanligini quyidagi she’rda ham ko‘rish mumkin:

*Baxt izlab har yerga tashlama qadam,
Olisga nigohing tikma dam-badam.
Uyda baxtini topmagan odam,
Baxtini topmaydi kezsa ham olam!*¹

Shoir she’ri bilan adashgan shaxslarni to‘g‘ri yo‘lga boshqarishga uringan. Lirik qahramon yaratishdagi bunday o‘ziga xoslik yana bir “*Endi sen yig‘laysan..*” nomli she’rida ham o‘z ifodasini topgan. Bunda lirik qahramon notayin va nontepki qizni, o‘z xatosini tuzatish uchun uyiga qaytgan yigitni ham oqlamaydi. Uni harom pullar ortidan chopib, bezbetlik yo‘liga kirib ketgan noinsof, badbaxt deb qoralaydi. She’rning intihosida adashgan tannozni mehnat bilan kun ko‘rishga chaqiradi, unga yengil-yelpi xayollarga berilib adashmaslikni uqtiradi:

*Sen endi yig‘lama,
Taqdirga tan ber.
El yurgan ko‘chadan ko‘p qatori yur.
Hayotning totidir mehnat, poklik, ter,
O‘kinma, umringni to‘g‘ri yo‘lga bur!
Nafsing tiy, tayyoriga yugurma chopib,
Shirindir qora non, gar o‘zing topib,
Ter bilan og‘zingga olsang, chaynasang!
La ‘nat der elu yurt yana aynasang (117).*

Shuhrat she’rlaridagi har bir misra pishiq-puxta: takrorlanmas poetik obrazlar, yangi detallar topishga harakat qilgan. Shuning barobarida uning she’rlari tag zamirida nasihatomuz, ibratga to‘liq ma’no mujassam:

*Maqtovga uchmadim chiqarib qanot,
So ‘ksalar turmadim yoshimni to‘kib.
Bildimki, bir xilda o‘tmaydi hayot,
Na unda, na bunda ketmadim cho‘kib².*

¹ Shuhrat. Lirika. –T.: Adabiyot va san’at, 1973. –B.127.

² Shuhrat. Tanlangan asarlar. 3 jildlik, 1-jild. –T.: Adabiyot va san’at, 1978. –B.420 (Bundan keyingi iqtiboslar shu nashrdan olinib, sahifasi qavs ichida ko‘rsatiladi).

Shuhrat ijodida hayotga chanqoqlik, optimizm ruhining chuqurligi ham uning she’riyatiga kelajakni qanot qilib olishida ko‘rinadi. Shoир poetik obrazlar orqali hayot haqiqatini boshqa bir muhitga, san’at olamiga yangi ma’no va zamon doirasiga olib boradi. Yuqori bosqichga ko‘taradi, unga o‘zgacha jilo, sifat beradi. Shoирning tasvir ob’yektida kim turishidan qat’iy nazar uning his-tuyg‘ulari, kechinmalari inson quvonchi yo dardi sifatida qabul qilinadi. Shuning uchun uning she’rlari kitobxonning kechinmalarini goh iztirobga keltiradi, goh mahzunlikka toldiradi:

*Pul bilan tiklangan izzatu ikrom,
Yo amal tufayli topilgan obro ‘y.
Go ‘yoki muz uzra yozilgan bir nom.
Go ‘yoki qarz olib qilingan bir to ‘y* (22).

Ijodkorning keng qamrovli she’riyati shoирning shaxsiy tuyg‘ulari bilan birga jo‘shqin sevgi hissiyoti jiddiy motivlar ila yaxlit bir tarzda, go‘zal bir butunlik, originallik yaratib g‘oyani o‘ziga xos poetiklashtiradi. Shoир tomondan yaratilgan poetik obraz inson umri mazmun-mohiyatini badiiy bo‘yoqlarda, rangin misralarda namoyon etadi, goh ruhiy olam-odamlar shuuriga, hissiyotiga ko‘chgan olamni go‘zallik qonunlari nuqtayi-nazaridan qaytadan kechirishi, yangidan inkishof qilishi tarzida yuz beradi:

*Qanchalik pok bo ‘lma sen tuhmatdan qo ‘rq,
Bu ojiz kishilar to ‘qigan tuzoq.
Ba ’zida qiladi sayoz joyda g ‘arq,
Ba ’zida qop-qora bo ‘lib qolar oq!* (26).

Shoirning she’rlarida faqat Shuhrat yuragiga xos samimi tuyg‘uni tuyish, xalqona sodda ohangni uqish yoki chuqur falsafiylikni his qilish mumkin. Sababi shundaki, shoир shiddatli hayot haqiqatiga, mohiyatiga sinchkov razm soladi, she’rdagi lirik qahramon uchun asos bo‘lgan voqelik bilan hamohang bo‘lgan o‘zga kishilarning hayotidagi voqealarni umumlashtiradi, hattoki kichik bir hodisa ham shoир nazaridan chetda qolmaydi. She’rdagi adabiy qahramon timsolida tom ma’noda umuminsoniyatga xos xarakter-xususiyatlarni mujassamlantiradi va badiiy obrazda jamlashtirib beradi. Shu boisdan muayyan obrazga asos bo‘lgan badiiy haqiqat hayot haqiqatiga nisbatan ko‘p qirrali, umumlashma xususiyat kasb etadi, bu shoirga chuqur botiniy lirik ma’noga ega bo‘lgan obrazlar yaratishga imkoniyat beradi.

Inson aql, his-tuyg‘u egasi. U hayotdan, ona yurt tabiatidan, ma’naviy-moddiy narsalardan lazzat va faxr tuyg‘usini his etib yashaydi. Ruhidagi shu tuyg‘ularning

xalqda o‘zidan keyin ham yashashini istaydi. Bu orzu istak ona yurtning, xalqning abadiyligini ta’minlaydi. Olam va odamning yaxshi tomonga o‘zgarishi oson bo‘lmasligini anglab yetgan shoirning lirik qahramoni ruhiy jarayonni boshdan o‘tkazadi:

*Tiriklar safida o‘liklar ham bor,
Nafas ham oladi so‘z ham qotadi.
Ba’zida tirikka o‘q ham otadi,
Ba’zida topadi obro’, e’tibor (142).*

Shuhrat o‘zini xalqning bir parchasi deb his qiladi, shuning uchun xalqning tuyg‘ulari, shodliklari, g‘ururi, orzu-umidlari, dard va tashvishlarini o‘ziniki deb biladi, xuddi shuningdek, o‘z hayot yo‘llarining his-tuyg‘ularini ham, xalq taqdiriga ham bevosita aloqadorligiga alohida e’tibor beradi. Uning she’riyatida xalq hayoti, orzu-intilishlari bilan uning “o‘ziniki” go‘yo qo‘silib, uyg‘unlashib ketadi. Natijada she’rlarida yorqin va go‘zal ma’naviy muhit vujudga keladi. Bu muhit shunchalar sof va go‘zalki, shu boisdan uning she’rlari ehtirosli, hayajonli, tasvir ko‘لامi qamrovining parvozi baland bo‘lib, o‘qirmanni beixtiyor o‘ziga tortadi.

*Ruhimga hamisha uch narsa yaqin:
Osmoniy yuksaklik, ko‘lam va kenglik,
Daryoning beto ‘xtov oqishi, to‘lqin,
Dengizga teranlik, asovlik, cho‘nglik!*¹.

Shuhrat she’rlari mazmun - mohiyatidan, shoirning zalgordor shaxsiyati, yetuk talanti qirralari yaqqol namoyon bo‘lganiga guvoh bo‘lamiz. Shoirning o‘ziga xos uslubi, musiqiy ritmikasi, go‘zal poetik mulohazalari bor. Shuhratda mas’uliyat tuyg‘usi juda baland bo‘lib, bu tuyg‘u uning she’rlarida ham o‘z aksini topgan:

*Yon chirog‘im, tongga qadar yon,
Yorug‘ingdan yorishsin jahon!
Sen yonib tur men qilay ijod,
Qarzim ko‘pdir eldan, yurtimdan,
Umrim o‘tgach qarab ortimdan,
Demasinlar – ko‘rdi bo‘sh hayot.*

Shuhrat ko‘p o‘qiydigan, kitob oshig‘i, jahon adabiyoti durdonalaridan xabardor, mullo shoir edi. Umar Xayyomona ruboilari, Alisher Navoiy asarlarini ko‘p o‘qigani keyingi she’rlaridan sezilib turardi². Darvoqe, ushbu she’rdan ko‘rinib turibdiki, Shuhrat Umar Xayyom, Alisher Navoiylar kabi, inson umrining o‘tkinchiligi, kishi

¹ Shuhrat. Tanlangan asarlar. 3 jildlik, 1-jild. –T.: Adabiyot va san’at, 1978. –B.420 (Bundan keyingi iqtiboslar shu nashrdan olinib, sahifasi qavs ichida ko‘rsatiladi).

² Mirmuhsin. Ulkan iste’dod / Shuhrat. Xotiralar. –T.: Sharq 1998. –B.171.

tirikligida xalq-u Vatan uchun, qolaversa, o‘zidan yaxshi nom qolishi uchun qo‘lidan keladigan ezgu ishlarni tezroq amalgalashish lozimligi haqidagi fikr ilgari suriladi.

Hayotdagagi turli-tuman narsa-hodisalar, o‘zgarish va jarayonlar zamirida poetik ma’nolarni, odamlar qalbidagi go‘zallikni ta’sirchan she’rlarga, obrazlarga aylantirish uchun shoir ziddiyatli, murakkab holatlarni boshdan kechiradi. Shu o‘rinda shoirning ona yurt haqida yozgan “*Ishqingda yonib*” she’riga murojaat qilamiz:

*Ishqingda yonmasam o ‘rtanib, kuyib,
Hayotning muchalik zavqini tuyib.
Tilimga qayoqdan bu ko ‘hna olam,
Shu soyim, shu qirim, paxtazor dalam,
Bo ‘lmasdi bunchalik ko ‘rkam, yarashiq.
Ishqingda yonmasam jonimdan kechib,
Janglarda dushmaning yemirib-yanchib,
Diyorim, mehringni shon bilarmidim.
Ishqingda yonmasam, daryoday toshib,
Har yozu qishingga guldek yarashib,
Vaslingga entikib, yor, yelarmidim.
Ishqingda yonmasam, yorim, diyorim,
Uch pulga qimmatdir borlig ‘im, borim (103). –*

deb nido qilgan qahramon tabiatidagi bir xususiyat – xalq va Vatanni yaktan his etish bo‘lib, uning o‘ta jo‘mardligi, Vatan taqdiriga aloqador har qanday yumushga butun vujudi bilan kirishishga tayyorligida anglashiladi. Shoirning “Afsona” she’riga e’tibor qaratamiz:

*Men endi bilaman: dengiz suvi sho ‘r,
Daryolar suvida bahor hidi bor.
Dengizning tug ‘yonlari, to ‘lqinlari zo ‘r,
Daryoda oldinga intilish viqor!
Ikkisin taqdiri ikki xil ekan.
Ertakka qulog ‘im gar tutsam sekin,
Birida gul ko ‘rdim, birida tikon.
Tabiat uyalgan bu qilmishidan,
Tarixlar qahridan qo ‘rqan- u behad,
Qorlarni eritib tog ‘lar boshidan,
Dengizga oqizgan uzluksiz muddat!
Shunchalar sho ‘rmidi, peshonang inson!
Shunchalar cheksizmi to ‘kilgan ko ‘z yosh.*

*Shoyadki dengizning sho ‘rini yuvsam,
 Kelajak bo ‘lmasa bu sirdan voqif,
 Deya yuzlab daryoni o ‘ngga bursam ham,
 Daryolar beto ‘xtov tursa ham oqib,
 Sho ‘rini yuvmoqqa yetmabdi qurbi.
 G ‘arq bo ‘lib ketibdi daryolar beiz(241).*

Shuhrat ushbu she’rda dengiz suvi sho‘rligini inson peshona sho‘riga qiyoslab, go‘zal poetik obraz yaratar ekan, shunchalik ma’nodor lirik lavha, tiniq obraz yaratish uchun u qancha o‘ylarni o‘ylagan, qanday ruhiy holatlarni boshidan kechirgani shoirning o‘zagagina ayon.

Shoir she’riyatida *ona – ayol* obrazi ham o‘ziga xos uslubda, go‘zal lavhalarda berilgan. Shunday she’rlaridan biri “*Xotin-qizlar madhiyasi*” she’ridir:

*Sizlarsiz bu olam ko ‘rki kemtikdir,
 Sizlarsiz bu hayot erki kemtikdir.
 Siz borsiz olamning husni barkamol,
 Siz borsiz bu olam ko ‘rsatar jamol...(148)*

Shuhrat ijodini kuzatar ekanmiz, shoir ayol qalbidagi toshqin tuyg‘ularni, ayollarga xos nafosatni, bardoshni, bag‘rikenglikni she’riyatning turfa xil rang va jilvalari orqali jilolantirganining guvohi bo‘lamiz. Fikri ojizimcha, buning sababi, u ayolni hayotning barcha pog‘onalarida erkakni asrab-avaylovchi farishta, nazokat sohibasi, muhabbat kuychisi, fidoyilik timsoli sifatida ko‘rganligidadir:

*Oliy niyatsiz.
 Siz oliy muruvvat.
 Siz toza vijdonu,
 Oliy himmatsiz.
 Oriyat siz bilan,
 Hayo siz bilan.
 Hamiyat siz bilan,
 Dunyo siz bilan.
 Go ‘zallik siz bilan,
 Navo siz bilan,
 Muhabbat siz bilan,
 Vafo siz bilan (149).*

Shuhrat nazmida Ayol timsoli, eng avvalo, zahmatkash, munis va mehribon ona qiyofasida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, shoir bolalariga nisbatan nihoyatda mehrli, ular uchun o‘zining barcha huzur-halovatidan kechuvchi, bolalari fazlu

kamolida o‘z baxtini ko‘rvuchi, zamonlar sinoviga bardosh beraolgan xokisor Ayolning, Onaning duosini olishga, ularni xizmatida bo‘lishga kitobxonlarni chorlaydi, chunki ona duosi farzand uchun doimo qalqon bo‘lishligini e’tirof etar ekan, buni o‘z she’rlarida badiiy aks ettirishga harakat qiladi:

*Umidvor bo ‘lmasa farzand baxtidan,
Onalar shunchalik chekmasdi zahmat.
Onalar xizmatin qiling vaqtida,
Vaqtida ayta olsin u o ‘zi rahmat.*

Ayol qalbi, qiz tuyg‘usi, yor ruhiyati, ona iztiroblari shoirni doim o‘ziga maftun etib kelgan. Shu bois, shoir yaratgan *Ayol* obrazining yana biri kuchga, shijoatga, muhabbatga to‘la ayol – sadoqatli yor timsolida namoyon bo‘ladi:

*Oshiqning yuragi toza bo ‘ladi,
Oshiqning yuragi yumshoq va ulug‘.
Sodiqlik, vafoni joiz biladi,
Umidi hamisha nur bilan to ‘liq.*

Shoir fikricha, muhabbatli qalb yovuzlikdan yiroq, ezgu tuyg‘ularga yo‘g‘rilgan, poklikni libos, insoniylikni o‘ziga shior qilib oladi. Insonni chin inson darajasiga ko‘taradigan bu ona mehri, yor muhabbati, qiz duosidir. Ba’zi she’rlarida shoir sevgining ilohiy kuchi, javobsiz sevgining azoblari naqadar og‘ir ekanligini bo‘rttirib kuylaydi. Jumladan, “*Gulga boqsang, tikanni yod qil, sevgilingga boqsang, hijronni yod qil*”, degan o‘zbek maqolini, shoir o‘z she’rida chiroyli misralarda tasvirlab bergen:

*Men seni sevibman,
Sevgim beqiyos!
Lekin sen bexabar,
Parvoyi falak.

Yuragim chaladi kunda g‘amli soz,
Hasratim yeturmi senga, ey malak?..
Men endi angladim ne uchun Qays,
Yovvoyi sahroni etmish ixtiyor!
Sevgimni daryoga qilsam hikoya,
To lqinlar hayqirib, kulib ketdilar.
Sevgimni sahroga qilsam hikoya,
Yellari og‘zimdan yulib ketdilar.
Chechakka arz qilsam chechak sarg‘aydi,
Bulutga arz qilsam yig ‘ladi yum-yum.*

*Shamollar dardimdan beqo 'nim, daydi,
Jonsarak oshiqday tinchi yo 'q bir zum (156-157).*

Shuhrat she'riyatini o'rganish jarayonida unda ayol obrazining o'ziga xos takomil darajasi mavjudligini hisobga olib, uni quyidagicha tavsiflash mumkin: *Ayol – zahmatkash, munis va mehribon ona; Vujudi kuchga, shijoatga, qalbi muhabbatga to 'la sadoqatli yor; Balog 'at yoshiga yetgan, suyub-suyilgan g'ururli qiz.* Umuman olganda, Shuhrat ijodidagi ayol-ona vasfi nazdimizda, ayolning qalb boyliklarini, dardu alamlarini, quvonch va qayg'ularini shoirona, ayni paytda realistik usulda tasvirlab bera olganligi bilan qimmatlidir.

*Sizlarsiz bu olam zavqi yo 'q kuydir,
Sizlarsiz bu dunyo chiroqsiz uydir.
Hamisha yarqirab yoning, bor bo 'ling,
Hayotning mehriga qoning, bor bo 'ling!(149).*

Adabiyotshunos olim Ulug'bek Hamdamning davr, shaxs, she'r haqidagi mulohazalarida: "...davr shaxsni tebratdi, shaxs she'rni. O'z navbatida she'r odamlarga ta'sir qildi, odamlar esa davrga. Demak, shaxs davrdan olib, davrga berdi. Ko'rinadiki, shaxs-shoir avvalo davr va she'r o'rtasidadir. Davrning ruhi she'rda qanday va qay darajada aks etishi o'rtada turgan shaxsga, uning salohiyatiga bog'liq"¹ – degan e'tirof mavjud. Shuhrat she'riyatiga yanada chuqurroq nazar tashlasak, mazkur adabiyotshunosning bu fikri to'g'ri va o'z isbotini topganligini kuzatdik. Dunyodagi, borliqdagi har bir hodisa ijodkorga o'z ta'sirini o'tkazar ekan, uning poetik tafakkurida shakllanib, jilvalanib go'zal bir yaratiqqa aylanadi. Bu holat shoirning "Odam va tuproq" she'rida yaqqol namoyon bo'lgan:

*Tuproqdan yaralgan deydilar inson,
Ha unda yurak-chi, yurak nimadan?
Tuproqda shuncha his, shuncha dard-armon,
Borligi hayratga solar hammadan!...
Tuproqqa jon bergen aslida odam,
Shu yurak, shu idrok, shu his, hayajon.
Gar odam bo 'lmasa, qutlug ' tuproq ham,
Oddiy bir tuproqdir benur va bejon.
Ey, inson, sen o 'zing hayotning boshi,
Sen borki, shu tuproq qadru qimmatda.
Yer esa javoban mehru himmatda,*

¹ Hamdam U. Davr, shaxs va she'riyat munosabatlari / Yangi o'zbek she'riyati. –T.: Adib, 2012. –B.28.

Ikkalang basharning qo 'sha quyoshi!¹

Shoirning o‘ziga xosligi, uning nozik tuyg‘u va kechinmalarni salmoqli fikrlar bilan uyg‘unlikda falsafiyona ifodalay olganligida namoyon bo‘ladi. Shoir ijodida, turkum she’rlarida konkretlik, hayotiylik, to‘rtliklarida esa didaktika va falsafiylik yuqori. Chinakam shoir izlanishlari natijasi o‘laroq, doimo she’riyatiga o‘zi yashaydigan zamonning adabiy-estetik ehtiyojlarini qondirayotgan yangicha talqinni olib kiradi. She’riyat mohiyatini o‘zgacha tushunish, shoirning jamiyat hayotidagi o‘rnini talqin qilish Shuhratning xarakterli jihatidir. Shoir ijodida davr voqeligi, qalb xotiralarining yoniq ohang, yorqin ranglarda ifodalanganligi uchun she’rlari badiiy jihatdan g‘oyatda jarangdor:

*Har yurakning o‘z cho ‘qqisi bor,
Har fikrning teran nuqtasi,
Shu cho ‘qqida bo ‘lsin nur, viqor.
Shu teranlik sayoz tortmasin!²*

Shoirning she’rlarini o‘qir ekanmiz, ularda inson qalbiga yaqin, uning ma’naviy ehtiyojini qondiruvchi sharbat borligini his qilamiz. Chunki, shoir she’rlarida insoniylikni ulug‘lovchi jozibador, yoqimli, sehrli ohang bor. Bu ohangda xalqimizning ruhi, tabiatiga mos fazilatlar ifodasi mavjud:

*Vatanga muhabbat vijdon amridir,
Sadoqat va poklik imon amridir.
Imonsiz yashashdan o‘zni tiy, ey jon,
Beburdni ayblamoq zamon amridir (35).*

Shoirning bu to‘rtligida inson hissiyotining barcha jilolarini, hayotdagi jamiki hodisa va voqealarga aks-sado beruvchi qalbning eng nozik tebranishlarini ko‘ramiz. Shoir she’ridagi falsafiy mushohada o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmagan, u shoir qalbidan o‘tib, uning hayajonlari va tug‘yonlari bilan yuzaga kelgan. Shu sababdan, shoir ona yurt haqida yozganida, uning she’rlarida optimizm, hayotbaxshlik ohangi baland jaranglaydi:

*Sen borsanki, mening qalbim butundir,
Sen borsanki, luqmam totli yutimdir.
Sen borsanki, orzum sig ‘mas dunyoga,
Sen bo ‘imasang, muhabbatim yetimdir (127).*

¹ Shuhrat. Lirika. –T.: Adabiyot va san’at, 1973. –B 5

² Shuhrat. Bemalol yashasang bo‘ladi. –T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008. –B.168. (Bundan keyingi she’rlar shu nashrdan olinadi, beti qavs ichida ko‘rsatiladi).

Ushbu to‘rtlikda vatan haqidagi she’rlardagi butun-butun mazmun ixcham va ta’sirchan qilib ifoda etilgan. Shoirning ona-Vatanni va inson qalbining go‘zallashuvini ehtiros bilan tarannum etuvchi bu she’ri vatanni mehr-la ulug‘lovchi hayotbaxsh she’rdir. She’rdagi lirik qahramonning his-hayajonlari, tug‘yonli tuyg‘ulari, g‘oya va muqaddas ona tuproqqa mehr tuyg‘usi nihoyatda yuksak. Shoir Vatan tuprog‘i, Vatan qadrini shu satrlarga singdirar ekan, bunda chiroyli so‘z, tashbeh, balandparvoz iboralarni qo‘llamaydi, aksincha sodda ifoda qilish yo‘lidan boradi. Binobarin, “...shoir o‘z fikrlarini ifodalovchi so‘z qidiradi; uning uchun niyati va tuyg‘ularini aniq, ravshan yetkazib beruvchi ifoda hamda obrazni tanlash muhim”¹ ekan, Shuhrat hayotga, uning rang-barang, mushkul, murakkab qirralariga e’tibor qaratib, uni qalamga olib, bu vazifani mohirona uddalay olganligini ko‘rishimiz mumkin:

*Kechqurun shafaqni o‘g‘irlab kecha,
Ertalab ufqqa qaytadan sochdi.
Kechqurun o‘kinchdan xo‘rsingan g‘uncha,
Ertalab shod-xandon labini ochdi (119).*

Tabiatning go‘zal, sehrli bu manzarasida ortiqcha yasamalik yo‘q. Shoir tabiat bilan inson o‘rtasidagi uyg‘unlikni, ya’nikim, tabiat bilan to‘la bir uyg‘unlik, shaxsiy, insoniy uyg‘unlik, bog‘liqlikni berar ekan, insonni shod-xandon g‘unchadek bo‘lishga chorlaydi.

Shoir she’rlarining aksariyati inson haqidagi, uning mushkul va murakkab hayoti haqidagi, insonni inson qiladigan fazilatlar to‘g‘risidagi o‘ylardan iboratdir. Bu o‘ylar shoirning hayotiy tajribasiga yo‘g‘rilgan bo‘lib, qalbining eng teran joylaridan chiqqani uchun g‘oyat ibratli:

*Dushmanning oshidan, do‘st toshi yaxshi,
Shirin so‘z yurakning bezagi, naqshi.
O‘zga yurt bahori, chaman yozidan,
Ming bora a‘lodir ona yer qishi! (144).*

Shoir g‘oyaviy-estetik ta’sirchanlikni kuchaytirishda ulkan dard bilan yo‘g‘rilgan kechinmalarining chuqur falsafiy fikrga to‘yingan ifodasini she’r satrlarida singdira olgan. “Bu ustalik ichki dunyoni doimo bir holatda emas, har gal yangi vaziyatda, yangi tomondan ochishga imkon beradi”².

*Do‘st achchiq gapirsa, qulog‘ingni tut,
Gar og‘u tutsa ham indamasdan yut.*

¹ Bryusov V. Remeslo poeta. –Moskva.: Sovremennik, 1981. –S.169.

² Sharafiddinov O. Shuhrat ijodi haqida fikrlar / Yosh leninchi, 1971, 21 may. №98.

*Har achchiq gapining lazzati bolcha,
Har tomchi og'usi malhamadir va qut (143)-,*

she'rdagi har bir so'z mohiyati nihoyatda chuqur falsafiy teranlik kasb etadi.

Shuhrat she'riyatini kuzatar ekanmiz, uning o'ziga xos ohangraboligi nimada, degan savol tug'ilishi tabiiy. Shu o'rinda adabiyotshunos Jamol Kamolning Shuhrat lirikasi yuzasidan bildirgan e'tirofini keltirish joiz: Real hayot faktlarini hamisha romantik ruh bilan omuxta qilib berishga intilish, konkret hayot faktlari atrofida o'ziga xos mayin lirik muhit yaratishga qaratilgan tamoyil Shuhrat individual poetik uslubini belgilovchi jihatlardir¹. Darhaqiqat, shoirming yaratiqlariga xos bo'lgan jo'shqinlik, jozibadorlik, uning o'ziga tegishli bo'lgan xarakter-xususiyatlar mahsuli. Shu bois ijodkor she'rlarida sehrli so'z, kuy-ohang va yorqin manzaraning qo'shilmasi bor:

*Lochinga ko 'z kerak, burgutga qudrat,
Insonga ikkisi va yana odob.
Odob bu har kunga kerak bir kitob,
Varaqlab turganni kutar shon-shuhrat (174).*

Mumtoz adabiyot nazariyachilarini aniqlagan aksariyat badiiy san'atlari XX asr shoirlari she'rlarida ham o'z o'mnida munosib qo'llangan. Aslida ham, ustoz san'atkornarning boy tajribalaridan ijodiy foydalanish shoirlarga doim qo'l kelgan. Boshqacha ta'bir bilan aytganda, "...quyosh nuri potensial quvvatni ishga solib nozne'matlar yaratishga sabab bo'lgani singari, ustoz san'atkornarning tajribalaridan o'rinli va ijodiy foydalanish, ilg'or an'analar zaminida original poetik asarlar yaratish Shuhratga ham nasib bo'lgan"².

Shoir va yozuvchilarimiz qo'llayotgan badiiy san'atlarning asosiy qismi xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyotda shakllangan. Shuhrat o'z ijodida badiiy san'atlardan qay darajada foydalana bilgan? Ijodkorga nima turtki bergen? Shoiring ijodiga ta'sir ko'rsatgan omillar qaysilar? Bu masalalarga o'tishdan oldin an'ana va ijodiylik tushunchasiga to'xtalsak. Badiiyatda an'ana va vorislik muhim tamoyil bo'lib, hech bir ijodkor yo'qli, o'zidan oldin ijod qilgan qalam ahlidan ilhomlanmagan, undan o'rganmagan bo'lsa. Borliqda har bir narsa ikkinchi bir narsaning kelib chiqishiga sabab bo'lganidek, she'riyatda ham biri ikkinchisi ta'sirida yaraladi, faqat yangicha ohang, yangicha ko'rinishda. Demak,: "...iste'dodning o'sib, kamol topishida traditsiyaning roli juda katta"³.

¹ Kamol J. Shuhrat she'rining uslubiy xususiyatlari // Lirik she'riyat. -T.: Fan, 1986. -B.134.

² Azimov A. M. Shuhrat ijodida ijobiliy qahramon problemasi. Fil.f.n. disser. -Samarqand, 1975. -B.43.

³ Haqqulov I. An'ana va mahorat. Navoiy va ijod saboqlari. -T.: Fan ,1981. -B. 90.

Shuhrat iste'dodining o'ziga xos tomonlari nimada? Shoir she'riyati qaysi sifatlari bilan kitobxonlar e'tibori va muhabbatini qozondi? Masalaga shu jihatdan yondashamiz. An'analardan foydalanib, kalomda go'zallikka erishish an'anasi shoirdan mumtoz nomalarni teran bilgan holda ulardan ijobjiy foydalanishga, yangilik kiritishga, o'zidan ilgari she'riyatda qo'llanilmagan obraz va usullardan foydalanishga, ularni o'z davri erishgan adabiy yutuqlar bilan boyitishga urinishni talab qiladi. Shuhrat lirkada poetik tafakkurning yangi qonuniyatlarini kashf etgani yo'q, ammo badiiy san'atlar orqali she'riyatning nafis, go'zal namunalarini yaratdi. Shuhrat ham boshqa yuzlab shoirlar kuylagan narsalar haqida – Vatan, muhabbat, mehnat va inson to'g'risida yozdi. Shoirni boshqa shoirlardan ajratib turadigan muhim jihat, uning tug'ma yoniq qalb egasi ekanligi. Shuhrat she'rlerida yonib kuylaydi, chunki shoir lirk qahramonida qalbi to'ridagi og'riqli nuqtalarni ko'ra oladi va ularni ko'tarinki jo'shqinlik ila she'rлari satrlariga singdira olgan. Shoirning har bir she'r bandi, qalbining urishida, hayotdagi jamiki ohanglar va kuylarning hayqiriq va nidolarining aks-sadosini she'riy san'atlar asosida yaratilgan ohanglarda eshitamiz. She'rda "Musiqiylik tovush va so'z takrori kompozitsion xalqa va zanjir, anafora va epiforik takrorlar, qofiya va vazn jilolari orqali yuzaga keladi"¹, ekan shoir she'riyatda lafziy san'at turi bo'lgan takrirdan unumli va o'rinli foydalanganini quyidagi she'rlerida kuzatdik:

*Har inson umrining o'z cho 'qqisi bor,
Cho 'qqidan cho 'qqini kansitmoq bekor.
Past-baland cho 'qqilar bo 'lmasa agar,
Purviqor cho 'qqilar topmas e'tibor².*

Shoir ushbu she'rida "cho 'qqi" so'zini takrorlash natijasida so'z ma'nosini, uning mohiyatini ta'kidlab ko'rsatmoqchi bo'lgan-ki, bu takrir san'atining asosiy xususiyatidir. Badiiy san'atlar haqida so'z borganda, shuni alohida e'tirof etish kerakki, "She'rdagi so'zga fikr va tuyg'u o'raydigan qog'oz deb qaramaslik kerak. She'rdagi fikr va tuyg'u so'z orqali takomillashib, o'quvchi qalbiga ohang, ritm, qofiya, musiqiylik tovushlar jilosi bilan yetib boradi"³. Bizning bu boradagi kuzatishlarimizni yanada rivojlantirish uchun diqqatimizni yana bir she'rga Dunay bo'yalarida fashistlarga qarshi olib borilgan janglarda halok bo'lgan o'zbeklarni ulug'lovchi "Sen bunda yotasan" marsiyasiga qaratamiz:

Onangning uyida hamon tiriksan,

¹ Sabirdinnov A. Oybekning she'riy mahorati. – T.: Fan, 2005. –B.137.

² Shuhrat. Tanlangan asarlar. 3 jildlik, 1-jild. –T.: Adabiyot va san'ati, 1969. –B.289. (Bundan keyingi iqtiboslar shu nashrdan olinganda, sahifasi qavs ichida ko'rsatiladi).

³ Озеров Л. Работа поэта. –Москва.: Сов.писатель, 1963. –C.163.

*Xotining kuyida hamon tiriksan.
 Bog'laring ko'rkida hamon tiriksan,
 Gullarning bag'rida hamon tiriksan!
 Tiriksan yurtingning bahor, qishida,
 Tiriksan do'stlarning qutlug' ishida (167).*

Shoir bunda she'rning asosiy mag'zini tashkil qilayotgan so'zni – "tiriksan" so'zini avvalo radif tariqasida "hamon tiriksan" to'rt marta qaytargandan keyin, yana ikki misraning boshida "tiriksan" so'ziga urg'u beradiki, ijodkor bunda inson tirikligi, uning boqiyligiga daxldor ekanligiga ishora qiladi. She'rning mazmun-mohiyati, asl maqsadi shu o'rinda ko'zga tashlanadi, ya'ni insonning yashashdan maqsadi o'zgalarga, xususan ona yurtiga fidoyilik qilishda ekanligi ochiqlanadi.

Bizga ma'lumki, she'riyatimizda "**savolu javob**" uslubi bo'lib, bunda she'r misralarida ikki shaxs, ko'pincha oshiq bilan mahbuba o'rtasidagi savol va javobni aks ettiradi. She'riyatimizda ushbu usuldan keng foydalanilgan. Shuhrat ijodida buning o'ziga xos shaklini ko'rishimiz mumkin. "*Murodingni ayt?*" she'ri quyidagicha:

*Go'dakdan so'rdilar: – murodingni ayt?
 – Bu olam liq to'la qo'g'irchoq bo'lsa!
 Yigitdan so'rdilar: – murodingni ayt?
 – Yonimda bir go'zal kelinchak bo'lsa!
 Kelindan so'rdilar: – murodingni ayt?
 – Qoshimda nur to'la belanchak bo'lsa!
 Onadan so'rdilar: – murodingni ayt?
 – O'g'ilu qizlarim orqamda qolsin!(131)*

She'r matnidan ayonki, ijodkor she'rda faqat savolu javob uslubidan foydalanishni maqsad qilib qo'ymaydi, u orqali insonlar ko'nglidagi orzu-umidlarni to'lqinlanib ifoda qilgan holda, kitobxon qalbiga kirib boradi. Shoирning "Dialog", "Savol-javoblar", "Odamlar va obidalar" she'rlari ham "**savolu javob**" san'atining go'zal namunasidir. "Shuhratning 60-yillar she'riyati ikki jihatdan ibratli: avvalo, ular jangchi shoирning, ko'pni ko'rgan odamning dil rozlari, hayot tajribalari ifodasi; ikkinchi tomondan, bu she'rlar o'zining samimiyligi, haqqoniyligi, jo'shqinligi, hayotbaxsh romantik ruhi bilan ajralib turadi. Shoирning 60-yillar she'rlariga xos realistik soddalik va romantik jo'shqinlik yoniga so'nggi yillarda boy hayotiy tajribalar samarasini o'laroq, o'ychan falsafiy mushohadakorlik kelib qo'shildi"¹. Shoирning "**Savol - javob**" she'ri shunday falsafiy mushohadakorlik ustiga qurilgan:

¹ Normatov U. Adibning baxti / Shuhrat. Xotiralar. –T.: Sharq 1998. –B.190-193

- Bunchalar chuqurdan chiqmasa, buloq,*
- *Chuqurda bo‘ladi tiniq, toza suv.*
 - *Bunchalar pirpirab yonding, ey chiroq?*
 - *Dunyoda bo‘lmasin zulmat va qo‘rquv.*
- Burgutdan so‘rdilar: – cho‘qqida ne bor?*
- *Cho‘qqida yaxshiroq ko‘rinar jahon.*
 - *Bunchalar oppoqsan, ey qirdagi qor?*
 - *Men hali ro‘yobga chiqmagan armon!(126)*

Ijodkorning bu she’ri yuqoridagi she’r kabi savolu javob uslubida yozilgan bo‘lsa-da, bunda butkul boshqa g‘oya mujassam. She’r chuqur falsafiy ma’noga ega bo‘lib, buloq suvining chuqurdan chiqishiga sabab tiniq, toza bo‘lishi, pirpirab yonayotgan chiroqning vazifasi esa dunyoda zulmat, qo‘rquv bo‘lmasligi oldini olish sababligi uchunligi uqtiriladi. Cho‘qqida istiqomat qilayotgan burgut kabi insonlarning jahonni yaxshi ko‘rishini xohlagan lirik qahramon javoblari bilan qirdagi oppoq qorni shoir insonlarning orzu umidlariga mengzaydi.

Shuhrat ijodida uchraydigan yana bir ma’naviy san’atlardan biri **tazoddır**. She’riyatda qo‘llanilgan tazod san’ati qarama-qarshi ma’noli so‘zlar yordamida voqeа-hodisalarning, predmet va narsalarning belgi xususiyatlarini, harakatining bajarilish holatlarini bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilishidan yaratilgan kuchli emotсional-ekspressiv va stilistik vosita hisoblanadi. Bu she’riy san’at odatda tasvirni bo‘rttirib ifodalash, fikrni ixcham va ta’sirli bayon qilishda muhim vosita sanaladi.

Demak, tazod mazmunan turlicha, biri-ikkinchisiga zid bo‘lgan ikki qutb (obraz, tushuncha, jism, jarayon va boshqalar)ning biri ikkinchisini rad etuvchi yoki inkor qiluvchi ikki qutb o‘rtasida qandaydir ichki va tashqi aloqa ham bo‘ladi: ulardan biri ikkinchisini keltirib chiqaradi. Shuhrat tazodning bu xususiyatlariga amal qilib, original lavha va obrazlar yaratadi:

- Issiqni sovuqqa, kunduzni tunga,*
Zid qo‘yib yaratdi usta tabiat.
- Demak u demoqchi: aniq baxtingni,*
Baxtsizlik quvadi – hushyor bo‘lg‘oyat!.

“Poetik obraz his va aql bilan bir xilda to‘yintirilsagina unga istagancha falsafiy bosim, lirik kechinma yukini ortish mumkin”¹ligini shoir yuqoridagi to‘rtligida to‘liq isbotlay olgan, ya’nikim baxt obrazi ana shunday falsafiy bosim bilan to‘yintirilgan.

¹ Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. –T., 2004. –B.62.

Shoirni yana bir o‘ziga xos xususiyati takrir va tazod san’atini qo‘llash bilan falsafiy she’rlar ham yarata olgan.

*Bor ekan dunyoda shodlik va g‘urbat,
Bor ekan dunyoda kunduz va kecha,
Bor ekan to ‘g‘ri yo ‘l va egri ko ‘cha,
Shoirga muhtojdir kishilar albat!
Bor ekan dunyoda issiq va sovuq,
Bor ekan dunyoda nur va ko ‘lanka.
Bor ekan dunyoda saxiy ila suq,
Shoirga muhtojdir el-elat, o ‘lka!(142)*

Shuhratning she’rlarida hayotning mohiyati, uning muttasil harakati, insonning hayotdagi o‘rni, yashamoqdan maqsadi, yaxshilik va yovuzlik, oliyjanoblik va razillik o‘rtasidagi kurash, sevgi va nafrat, sadoqat va xiyonat kabi masalalar haqida o‘ylar ko‘p. Bizningcha, shoir antonim so‘zlarga ko‘p murojaat qilishining asosiy sabablari avvalo u yoki bu fikrni bo‘rttirib, jonlantirib berishga o‘quvchi tafakkurida umumlashma hosil qilishni nazarda tutadi. U badiiy tasvirda yuksak emotsionallikka erishish, ifoda ixchamligi va mantiqiyligini ta’min etish maqsadida qarama-qarshi ma’noli so‘zlar asosidagi tazod san’atidan foydalanadi. Bu boradagi mulohazalarimizni aniqlashtirish maqsadida, “*Maslahat*” she’riga e’tiborni qaratamiz:

*Ko ‘nglingni keng tut sang dunyo senga keng.
Fe ‘lingni tor tut sang dunyo katalak.
O ‘zingni teng tut sang -hamma senga teng.
Hammaga yetadi bu charxi falak.
G ‘am cheksang, g ‘amingni so ‘ngi bo ‘lmaydi,
Tark etsang, ko ‘ngling ham yorishar shu on.
Hasadgo ‘y bo ‘limagin, baxting kulmaydi.
Tantilar mehridan yorug ‘dir jahon (330).*

Ushbu she’riy misolda *kengni torga, hasadgo ‘yni tantiga* qarama-qarshi qo‘yish orqali fikr ta’siri kuchaytirilgan. Xullas, shoir bir qancha she’rlarida tazod san’atidan mohirona foydalangan. Tazod san’ati shoir she’rlarida shakl va mazmun mutanosibligida yorqin namoyon bo‘lgan. Shu o‘rinda, adabiyotshunos olim S.Mamajonovning she’rni tushunish uchun shoir qalbini bilish, uning hayot haqidagi qarashlarining naqadar muhim ekanligini to‘g‘ri anglay olish zarur degan fikrlaridan kelib chiqib “..shoir she’riyatining o‘z ohangi, ruhi bo‘ladi, u kitobxonni qandaydir

bir kayfiyatga, holatga tushiradi”¹, degan asosli qarashlari ayni haqiqat ekanligini tasdiqlaymiz. Demak, biz hayot to‘g‘risidagi shoirning jamiki o‘ylari, murakkab voqeа va hodisalarga munosabati aniq va barqaror, mustahkam qarashlarga asoslanganligini kuzatamiz.

Shuhrat she’riyatida uchraydigan yana bir san’at tashxis (jonlantirish) bo‘lib, bu san’at hayvonlar, qushlar, jonsiz narsalarga inson xususiyatlarini ko‘chirishdir. “Tong manzarasi” she’rida tashxis san’atining go‘zal namunasi mavjudligini kuzatdik:

*Milt-milt etib uchgan yulduzlar,
Quvib ketdi tunning izini.
Quyosh asta ufqni ko ‘zlar,
Shudring bilan yuvib yuzini (268).*

Shoir ta’biricha, ko‘kda porlab turgan yulduz go‘yoki tunning izini quvgan, quyosh esa ufqqa bosh qo‘yar ekan, shudring bilan yuzini yuvgan. Qarangki, ijodkor tashxis san’atidan foydalanib, she’riyatda quyma, noyob topilma topgan. Tabiat manzaralariga bag‘ishlangan “Shamol” she’rida ham tashxis san’ati o‘ziga xos tarzda ifodalangan:

*Sokin turgan ko ‘Ining betiga,
Jimir-jimir tanga sochgan u.
Derazaning qo ‘sha qatiga,
O ‘zin urib, birdan ochgan u.
Bahorni ham u uyg ‘otadi,
Qulog ‘idan tortar giyohni.
Shoирга ham ruchka tutadi,
Gunafshadan siqib siyohni!(1;115)*

Shoir uchun tabiat manzarasini tasvirlash – ko‘zga tashlangan borliqni, sasni, suvlarni, bog‘larni, gullarni, qushlarni, yulduzlarni, tog‘larni va hokazolarni suratkashga o‘xshab ko‘chirish emas, ichki yoniq sezgi, his – muhabbat, ehtiros bilan anglashning in’ikosidir. Shoir tasvirdagi giyohlarni qulog‘idan tortib undirayotgan, gunafshadan siyoh siqib chiqarib, shoir qo‘liga ruchka tutayotgan shamol obrazi shunday bir badiiy kashfdirk, buni kashf etish hamma ijodkorga ham nasib bo‘lmaydi. Tabiatni jonlantiradigan omil insonning unga munosabati, mehr ko‘zining o‘tkir nigohidir. Shoir qalbi ana shu go‘zallikka g‘oyibona oshufta bo‘lib, bahor shamolining insonlarga ilhombaxsh ta’sirini ko‘ksida tuyib, uni o‘zi uchun najot, ilhom farishtasidek unga talpinadi. Shoir nazdida shamol go‘yoki gunafshalardan

¹ Mamajonov S. Ranglar va odamlar. –T.: Adabiyot va san’at, 1977. – B.22.

siyoh tayyorlab, qalamkashga “Yoz, yarat, kuyla!” deb mehnatga undaydi. Shoirning “*Ko ‘klam*” she’riga diqqatni qaratamiz:

*Sevinchi ichiga sig ‘masdan g ‘uncha,
Labini tutolmay xandon kulibdi (63).*

baytida *g ‘uncha* insonga xos xususiyatini kasb etgan. “*Ko ‘hna qal’ā*” she’rida ham yana bir holat bor:

*Ko ‘hna qal’ā, tosh qal’ā,
Kekkayasan tog ‘boshida bir o ‘zing.
Ikki ko ‘zi zardob ila yosh qal’ā
Yoki bormi avlodlarga arz so ‘zing? (324)*

Shoir takrir, tashxis va tazod san’atini mujassamlantirgan qal’ā qiyofasida insonga xos kekkayish va xo’rlanish xususiyatini ifodalagan. Jonsiz va mavhumiy narsalarni shu xilda tasvirlash vositasida shoir ilgari surayotgan muayyan g‘oyalar aniqlik, yorqinlik, jozibadorlik kasb etadi. So‘zlar takroriga asoslangan satrlar she’r ohangdorligi va so‘zlarni o‘rin almashtirib qo‘llash orqali yuzaga kelgan ma’no tovlanishlarida namoyon bo‘lgan. Umuman, shoir hissiyot olami tabiat manzaralari – buloqlar, tog‘lar, daryo va dengizlar bilan uchrashuv chog‘larida, oy va yulduzlar qo‘shig‘i jaranglab turgan sokin kechalarda to‘lqinlanib ketadi. Shu ma’noda Shuhratning peyzaj lirikasi shoirning shunday paytdagi jo‘shqin his-tuyg‘ulari yorqin ifodalangan badiiy olamdir.

She’riy san’atlardan yana biri *tajohuli orif* bo‘lib, (bilib turib bilmaslikka olish) bunda shoir baytda aks ettirilayotgan biron obrazli iborani aniq aytmasdan, o‘zini bilib bilmaslikka olgandek ko‘rsatishni nazarda tutadi. Xususan, shoirning quyidagi she’rida tajohuli orif san’atini qo‘llashdan maqsadi, o‘ziga rom etgan mahbuba husni jamolini tasvirlashda shoir mubolag‘a san’atidan foydalaniib, yor qiyofasini o‘zga narsaga qiyoslash orqali, kitobxon e’tiborini, his-tuyg‘usini ravshanlantirish:

*Sohilda go ‘zal qiz ko ‘rindi.
Bilmadim, qizmidi yo pari,
Husnidan hayratda yosh qari... (68)*

Albatta, shoirda sohilda uchratgan dilbarning afsona pari emas, real inson farzandi ekanligini yaxshi biladi, biroq o‘zini bilmaslikka solib, obrazga e’tiborni jalb etadi va mubolag‘a yo‘li bilan ta’sirini kuchaytiradi.

Tajohuli orif san’atini qo‘llagan shoir goho hayajon ichida o‘z-o‘ziga yoki boshqa birovga savollar yog‘dira boshlaydi. Maqsad – ma’lum javoblar olish (zero, ular shoirga oldindan ma’lum), balki ana shu yo‘sinda yirik ta’sirchanlikka

erishishdir. Shoirning quyida she’rida takrir va tajohuli orif san’atining go’zal namunasini mavjudligini kuzatdik:

*Shu bog ‘lar bo ‘lmasa men kimman, kimman!
Shu tog ‘lar bo ‘lmasa men kimman, kimman!
Shu daryo bo ‘lmasa men kimman, kimman!
Shu dunyo bo ‘lmasa men kimman, kimman!
Men kimman bahoru azim bo ‘lmasa,
Qo ‘limda sozlangan sozim bo ‘lmasa!
Men kimman sevgidan yona olmasam!
Hayotning zavqiga qona olmasam!(1;146)*

She’r bandlari davomida “men kimman” so‘zining takroridan hosil bo‘lgan shoir so‘roqlari fikrning o‘ziga xos tugallanmasi vazifasini bajarayapti. She’rdagi ritorik so‘roq, lirk qahramon qalbida kechayotgan evrilishlar “Men kimman?” so‘zining takroriga singdirib yuborilgan. Ritorik so‘roqning o‘zida javobi ham yashirin. Shoir takrorlagan bandlardagi so‘z kompozitsiyada yaxlit holda musiqiy ohangni yuzaga keltirgan. She’r mantig‘idan ayonki, she’rda Vatanni ardoqlaydigan inson obrazi o‘z-o‘zini taftish qila oladigan, xalq ravnaqi uchun o‘zining munosib hissasini qo‘sha oladigan mukammal shaxs. Shoir poetik asar yaratishda original yo‘lni tanlay olgan, ya’ni o‘ylagan orzu-umidlarini poetik mazmuniga yuklay bilgan. Aytish mumkinki, “Shoirning o‘y, xayolida, lirk kechinmalarida-lirk qahramonning fikr-tuyg‘ulari o‘z ifodasini topadi”¹. Shuhratning lirk qahramoni ma’naviy dunyosi boy, dono nigohi o‘tkir shaxs. U hayotni juda teran qabul qiladi, hayotdagi ko‘pgina voqealar uning qalbida chuqur iz qoldiradi va uning ehtirosli hislarini, salmoqli fikrlarini qo‘zg‘aydi.

Shoir ijodida tashbeh san’ati ham o‘ziga xos original tarzda qo‘llangan. U.To‘ychiyev so‘z takrorini she’r tuzilishi elementi sifatida talqin qilgan: Vazn, qofiya va band she’r tuzilishining doimo ishlatiladigan elementidir. She’r tuzilishining ba’zan ishlatiladigan elementlari ham bor, ular so‘z takrorlari va tajnis (omonim)dir. Demak, she’r tuzilishi elementlari beshta, ular: vazn, qofiya, band, so‘z takrori va tajnisdir². Lug‘aviy birliklar badiiy tasvirning muhim vositasidir. Ammo ularning badiiy matnda qo‘llanish darajasi, badiiylikni ifodalash imkoniyatlari turli-tuman³, degan tamoyilga asoslansak, shoir lola so‘zining takrori bilan tashbeh yaratib, she’rdagi musiqiylik bilan ta’sirchanligini kuchaytirgan:

*O, jonon, chiqibsan lola tergani,
Loladay yuzing ham gul-gul ochilgan.*

¹ Azimov A. M. Shuhrat ijodida ijobiy qahramon problemasi: Filol.f.d-ri disser. –Samarqand, 1975.–B.28.

² To‘ychiyev U. O‘zbek adabiyotida badiiylik mezonlari va ularning marommlari. –T.: Yangi asr avlod, 2011. –B.39.

³ Boymirzayeva S. Oybek prozasining lingvostistik tadqiqi: Filol.f.n... diss. avtoref.– Samarqand, 2004. – B.9.

*Lablaring qirmizi gulni gochirgan,
Lolalar bag‘ri dog‘ seni ko‘rgani* (77).

Shoir hayot va tiriklikning eng muhim muammolarini yechishga, topishga o‘zini chog‘laydi. Eng muhim bo‘lmagan narsalar ichidan eng muhim narsani – fikrni, g‘oyani, voqeani, kechinmani topib olish har doim ham qiyin bo‘ladi. Shoir insonga ko‘z va qudrat bilan birgalikda odob kerakligini, odob insoniylikning ustuvor ramzi ekanligini e’tirof etadi. Bizningcha, Shuhrat lirikasining ikki tomoni bor: g‘oyaviy ko‘tarinkilik va hayotiy-lirik to‘lqinlik.

Xulosa qilib aytganda, a) Shuhratning she’rlarida butun jahon taqdirini o‘ylayotgan, muttasil inson hayotining ma’nosini izlovchi va bu izlanishda muhim haqiqatlarni kashf etuvchi, ruhan boy inson qiyofasi mavjud. b) Ijodkor she’rlarida she’riy san’atlar mohirona qo‘llangan: bu san’atlar badiiylikning oshishiga, lirik ifodaning chuqur emotsiyal tus olishiga xizmat qilgan. Bunday san’atlar vositasida lirikada so‘zning ayricha o‘rin tutishi yaqqol ko‘zga tashlangan. Bu xususiyat shoir she’riyatining abadiyligini ta’minlovchi omillardan biri hisoblanadi.

HAJVIYOTDA POETIK TASVIR VA LIRIK QAHRAMON TALQINI

Individual poetik olamining serqirraligi, original ifoda usullarini san’atkorona qo‘llay olishi bilan qalam ahli xalqning qalbidan o‘rin oladi. Hayot ko‘zgusi hisoblangan badiiy adabiyot vogelikning muhim qirralari va hayot haqiqatini turfa xil janrlarda, ijodkor g‘oyaviy niyatini badiiy vositalar orqali mazmun hamda shakl birligida tasvirlaydi. Ijtimoiy hayot muammolarini, odamlar dardini, davr ruhini aks ettirishda masal va hajviy she’rlar nisbatan katta imkoniyatlarga ega. Bunday tipdagi she’rlarga Shuhrat nima uchun qo‘l urdi, ijodkorning masal va hajviy she’r yaratishdan maqsadi nima bo‘lgan? Tadqiqotimizning ushbu faslida shoir yaratgan masallar uning ijodida qanday ahamiyat kasb etadi?,- degan bir qator masalaga e’tiborimizni qaratamiz.

*Men o‘tib ketaman, sen keyin qolib,
Haqimda rost so‘zni aytib yur, she’rim!
Do ‘stimning bag‘riga boshingni olib,
Raqibga tosh qahrim otib tur, she’rim!*¹,

deya kuylagan, sinovli, hayot mashaqqatlariga to‘la yillarni boshdan o‘tkazgan ijodkor qalbidagi og‘riqli iztirob-u alamlarni she’rlarining qat-qatiga sig‘magan adolatga tashnalik va haqiqatparastlikdan bo‘lsa kerak, tuyg‘u - fikr - g‘oya zanjiri

¹ Shuhrat. Tanlangan asarlar. 3 jildlik, 1-jild. –T.: Adabiyot va san’at, 1978. –B.13 (Bundan keyingi iqtiboslar shu nashrdan olinib, sahifasi qavs ichida ko‘rsatiladi).

ostida masal janri va hajvga ham murojaat qilgan. Masal va hajviy she’rlaridagi lirik qahramon timsoli tasvirida shoir insonlar ichki dunyosi, iymon-e’tiqodi, diyonati qay darajada ekanligini ko‘rsatib bera olgan. She’rlar ijodkorning poetik tafakkuri mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi.

Gap Shuhrat lirikasida hajviy she’rlarning o‘rni haqida borar ekan, eng avvalo, shoir lirik tasvirda muhim g‘oyaviy-estetik vazifalarni o‘z oldiga qo‘yanligini kuzatdik. Nazarimizda, bu ijodiy jarayonda muhim g‘oyaviy-estetik vazifalar, poetik matnni yuzaga chiqaruvchi lirik tasvir, shoir kechinmalari orqali badiiyat namunasiga aylantirilgan. Natijada, shoir adabiy-estetik qarashlarini badiiyat orqali tasvirlaydigan o‘ziga xos go‘zal yaratiq namunasi namoyon bo‘lgan.

Masallarda insonlarga xos qusur va illatlar hayvonlar, parrandalar, baliqlar obrazi orqali ko‘rsatiladi. Allegoriya ertaklardagi kabi masallarda ham hayvonlarga xos bo‘lgan ko‘pchilikka ma’lum xususiyatlar, masalan, tulkingin ayyorligi, bo‘rining ochko‘zligi, eshakning ahmoqligi, quyonning qo‘rroqligi, sherning qudratliligi, bulbulning xushovozligi tarzida maydonga keladi. Masal mazmuni ko‘pincha siqiq, o‘tkir va kichik voqeа orqali ifodalanadi. Masalga xos bunday syujet unda ifodalanayotgan mazmun ruhiyatini aniq-ravshan yuzaga chiqarish, allegorik shakl esa asardagi personajlar xarakterini qiyosiy yo‘l bilan yorqin ko‘rsatishga olib keladi. Masallar inson tabiatini, o‘y-kechinmalarini o‘ziga xos rakursda, kulgining g‘oyaviy-estetik mohiyati va badiiy xilma-xil funksiyasi orqali ko‘rsatishga xizmat qiladi.

Shoirlarning masal yozishdan asosiy maqsadlari allegorik obrazlar orqali o‘zlarining didaktik mazmundagi fikrlarini majoziy usulda bildirish bo‘lgan. Zero, ijodkor “...mahorat, malaka, tug‘ma iste’dodlari tufayli bo‘yoqlar va shakllar yordamida ko‘p narsalarning tasvirini yaratadi”¹ – ekan, undan ko‘zlangan muallif maqsadi asarlari orqali dunyo yuzini ko‘radi. Xususan, inson muammolarini hal etish uchun, avvalo, uni yot illatlar va qusurlardan tozalash kerakligini anglagan Shuhrat ijodida masal va o‘tkir hajviy she’rlar shunday asarlar sifatida yaratildi. Shu bois shoirlarning asarlari, hamma zamonlar uchun taaalluqli bo‘lib qolaveradi, unda olg‘a surilgan didaktik g‘oyalar, vaqt o‘tishi bilan o‘zining ta’limiy-tarbiyaviy ahamiyati bilan zarracha o‘zgarmaydi.

Shuhratning “*Tulki va quyon*” masalini mana shunday umri boqiy asarlar sirasiga kiritish mumkin. Masaldagi munofiqlikni o‘ziga libos qilib olgan ayrim kimsalarning timsoli bo‘lgan *tulki* holati yuqoridagi fikrimizni to‘liq asoslaydi. O‘zidan kuchsiz *quyonni* tutib olib, uni sabzi o‘g‘irlashda ayblagan *tulki*, shu

¹ Arastu. Poetika. Axloqi kabir. Ritorika. – T.: Yangi asr avlodи, 2011. –B.20.

bilangina qanoatlanmay, unga qattiq jazo berish kerakligini uqtirishini, shoir o‘zining tabiiy sodda, ohangi xalqchil, ravon misralarida bayon etadi:

*Tulki tutib Quyonni shu on,
Atrofiga yig ‘di olomon.
Va dedi u: – Shu gazzob Quyon,
Qo ‘shni bog ‘da sahardan buyon,
Sabzi yeydi o ‘g ‘irlab hamon.
Nomus axir! Chidar qanday jon!
Mana uni tutib keltirdim,
Qattiq jazo berilsin derdim!* (454)

Shuhrat jamiyatda ildiz otib borayotgan ko‘zbo‘yamachilik, loqaydlik, munofiqlik,adolatsizlik kabi illatlarni keskin qoralash maqsadida bu illatlarni *tulki* misolida ko‘rsatib beradi. Shoирга ilohiy ilhom kelsa, u vaqt, joy tanlab o‘tirmaydi. Asar “ilhom bilan yozilsa, obrazlar o‘z-o‘zidan gavdalanadi, hatto o‘zining qiladigan ishini, aytadigan gapini yozuvchiga aytib, luqma solib turadi”¹. Ilhomni ijodkorga hayotning o‘zi taqdim etadi. Zero, shoir tulkisimon odamlarni hayotida ko‘p ko‘rgan. Ularning o‘zlarining so‘zлari bilan aytganda “*adolat*” ostida qiladigan “*jirkanch, tuban*” ishlari necha-necha begunohlarni abgor qilayotgani, albatta shoirni izardibga solgan, dilidan tiliga solib, ularni shu bois tulki timsolida yoritishga harakat qilgan.

*Tol shoxida o ‘ynardi chittak,
Quloq solib turdi-da jittak,
Hayrat bilan Tulkiga boqib,
Nafratidan titrab, tutoqib,
Pastga uchib tushdi-da, shu on*(454).

Matnda tasvirlanishicha, ko‘rinishdan juda kichik bo‘lgan tol chetida o‘ynab o‘tirgan chittak qush tulkining qilayotgan razilona ishiga qarshi chiqishda o‘ziga kuch topa oladi va unga qarshi bosh ko‘taradi. Shoir chittak misolida insonni fikrlashga, hayotning mazmun-mohiyati haqida mushohada qilishga undaydi:

*Dedi unga: – Kecha-ku Arslon,
Yeganida o ‘g ‘irlab buzoq,
Axir qarab turding-ku uzoq!
Na dod solding va na bir nido,
Go ‘yo burchin etardi ado!
Go ‘yo uning bu ishi yoqib,*

¹ Abdulla Q. Asarlar. 6 tom. –T.: O‘zadabiy nashr, 1971. – B.474-475.

*Turar eding so 'laging oqib!
Lablaringda bordi tabassum,
Axir buni ko 'rdim men o 'zim!
Qachondan sen nomusli bo 'lding,
Adolatli, hak so 'zli bo 'lding! (454)*

Chittakning o‘zini “adolatpesha” sanagan tulkiga qo‘rqmay aytgan so‘zлari kishini o‘yga toldiradi va xalqimiz yaratgan “boyning o ‘g ‘li qilsa sho ‘xlik, kambag ‘alniki jinoyat” qabilidagi naqlni yodga soladi. Shuningdek, “...Eng emotсional poeziya ham vazifa va mohiyat e’tibori bilan siyosiy masaladir, she’r – shoirning ijtimoiy vijdoni”¹, ekanligini she’r xulosasidan anglab olish mumkin. Zero, bu masalning yozilishidan maqsad munofiqlikni o‘ziga to‘n qilib olgan insonlarga nisbatan shoirning qalbidan otilegan nafrat va alam hayqirig‘i deb tushunish lozim.

Bu masalning mantiqi ayon:

Munofiqlik hammadan yomon!(454)

Ma’lumki, badiiyatda “...inson kechinmalari – bu uning real hayotining sub’yekтив томони, шахс умр ўолининг об’yekтив аспектидир”². Shu nuqtayi nazardan qaraganda, shoirning ruhiy olamida ro‘y bergen o‘zgarishlar, iztiroblar, tushkunlik yoki xushnudlik hollari uning ijodida turli kayfiyatdagi she’rlarning maydonga kelishiga sabab bo‘lgan. Shuhrat “Tulki va quyon” masalini yozishda mashhur rus masalchisi I.A.Krylov va o‘zbek hajnavis shoir Gulxaniy masallaridan ilhomlanganligi sezilib turadi. Zero, Shuhrat masalini o‘qiganimizda rus shoirining “Bo ‘ri bilan tulki” masali xotiraga keladi. Ammo bu hol Shuhratning bu va boshqa masallarining Krylov masallari tarzida yozilganini anglatmaydi. Shu hol Shuhrat masallarining original masallar deyishimizga to‘la asos beradi.

Shuhratning “Tulki va quyon” masalidagi *tulki* obrazi, umuman, munofiqlik, vijdonsizlik, iymonsizlikning jonli timsoligina emas, shoir tulkidek munofiq kishilarni ko‘p ko‘rgan. Ularning biri shoir asarlaridan siyosiy xatolarni “topib”, shoirni millatchilikda ayblab Moskvaga, “Pravda” gazetasiga 20 - 25 varaqli tuhmatnomasini yuborgan bo‘lsa, ikkinchisi, bu xatning Yozuvchilar uyushmasidagi muhokamasida tuhmatchini qo‘llab-quvvatlagan. Uchinchisi esa shoir siyosiy ayblar bilan qamoqqa olinganida tergovchiga shoirga qarshi ko‘rsatma bergen. Shuhratning bu masalida real kishilarning munofiqligi *Tulki* obrazida mujassamlangan bo‘lsa, boshqa masallarida ham shunday imonsiz kimsalar turli hayvonlar obrazida o‘z abadiyatini topgan.

¹ Qarang: Muxtor A. She’r - shoirning ijtimoiy vijdoni. / Parfi Rauf. Sabr daraxti. –Т.: Adabiyot va san’at, 1986. –B.9.

² Рубинштейн С. Основы общей психологии. – Питер, 2000. – C.13.

Endi, ma’no mantig‘i jihatdan “*Tulki va quyon*” masaliga yaqin Krylovnning “*Bo‘ri bilan tulki*” masaliga murojaat qilsak, unda ham do‘stlik, o‘rtoqchilikka xiyanat qilgan, munofiq tulki obrazini uchratamiz. Krylov masalida tovuq go‘shtini maza qilib yeb, ortganini yashirib, endi uqlashni niyat qilib turgan tulki oldiga qorni och bo‘ri o‘rtog‘i kelib ahvolining yomonligi, ochlikdan sillasi toza qurigani, itlardan quvg‘in bo‘lganini tulkiga shikoyat qiladi. Uni eshitgan tulki o‘zini unga xayrixoh qilib ko‘rsatadi va marhamat qilib:

“*Hali shunaqa de*” “*Ha, xuddi shunday*”.
“*Juda qiyinalibsan, bechora hay-hay,*
Yemaysanmi, o‘rtoq, maboda pichan?
Mana, bir haram bor, tortinma hecham”.
Do‘stining pichanmas, go‘shtdaydi dardi,
Tulki yashirgandan og‘iz ochmadi,
Ammo mehribonlik qildiki chunon -
*Bo‘ri och jo ‘nadi o‘z ini tomon*¹.

Ikkala shoir masalidagi tulki obrazi munofiqlik, vijdonsizlik, iymonsizlikda bir-biridan qolishmaydi. Ijodkorlar tulkisimon kishilardan ehtiyyot bo‘lishni, ulardan uzoq bo‘lishlikni, chunki bunday kimsalardan yaxshilik chiqmasligini uqtirishadi. Qat’iyat, sadoqat va fidoiylik shaxsiyatiga ega Shuhrat, o‘zligini unutgan, iymonsiz, qo‘rroq, manfur kishilarga bo‘lgan nafrati sifatida “*Qurbaqa*” masalini yaratgan. “*Qurbaqa*” masali ham mazmun-mohiyat jihatdan, shoirning yuqoridagi masalidan qolishmaydi. Mushohadaga, obrazli tasvir vositalariga boy bo‘lgan “*Qurbaqa*” masali shoirning ijodida yangi sahifa ochdi. Masalda badiiy tasvirning muhim vositalaridan biri portret qahramon ruhiyatini ochishda katta rol o‘ynagan.

Odam bo‘lgan ekan bir vaqt Qurbaqa,
Kelishgan, xushbichim, gap-so‘zga chechan.
Otlarda ucharkan qoqdirmay taqa,
Suhbatda pahlavon, tanti, ko‘ngilchan!
Bir kuni nogihon tildan ilinib,
Podshoning qahriga bo‘libdi duchor.
Beshafqat o‘limga hukm qilinib,
Bozorning boshiga qurilibdi dor.
Dod solib yig‘labdi shunda u odam,
Yolvorib o‘rtaga qo‘yibdi kishi(442).

¹ <https://ertak.uz/masal/359>.

Keltirilgan parchada ayonki, bir vaqtlar odam bo‘lgan qurbaqa, ko‘rinishdan “*Kelishgan, xushbichim, gap-so‘zga chechan., Suhbatda pahlavon, tanti, ko‘ngilchan*” ekanligi aytildi. Bu uning tashqi qiyofasi tasviri. Lekin, dono xalqimizda shunday maqol bor “*usti yaltiroq, ichi qaltiroq*”. *Shoir qalamga olgan lirik qahramon esa xuddi shunday “usti yaltiroq, ichi qaltiroq”* lardan. Shu o‘rinda aytish joizki, “Badiiy asarda portretning vazifalari turlicha bo‘ladi. Biroq portretning eng muhim xarakteri, uning ko‘proq psixologik portret bo‘lishidadir”¹. Psixologik portret shoirga qahramonning tashqi qiyofasi orqali uning ruhiy dunyosini ochishga yordam beradi. Podshoning qahriga duch kelgan ko‘rinishdan e’tiborga molik bo‘lgan odamning ong-u tafakkurida katta bir burilish, tubanlik sari o‘zgarish hosil bo‘lganini shoir uning o‘z so‘zлari orqali namoyon qiladi. Mana uning ichki dunyosi, ma’nan jirkanch qiyofasi:

*“Mayli men shahriga qo ‘ymayman qadam,
 Shu bo ‘lsa shohimniig istak-xohishi.
 It bo ‘lib hurishga roziman hatto,
 Qurbaqa bo ‘l desa, roziman, mayli,
 Iltimos, jonimdan qilmasin judo,
 Bir parcha yumshoq et- tilim tufayli!”
 Podshoh kulibdi, O ‘ylab qarasa,
 Osishga arzimas jo ‘n odam ekan!
 G ‘azabdan titragan xaloyiq esa,
 Qo ‘rqaqqa otibdi gul emas, tikan! (442)*

Shoirning bu masalni yozishdan maqsadi, bizningcha, “*It bo ‘lib hurishga roziman hatto, Qurbaqa bo ‘l desa, roziman, mayli*” degan misralarda o‘z ifodasini topgan. Shoir uchun eng og‘ir narsa o‘lim emas, balki millatning nazar-e’tiboridan qolishdir. Kimgadir yoki kimlargadir yomonlik qilgan kimsa garchand podshoning qahr-g‘azabidan omon chiqqan bo‘lsa ham, el-u yurt qarg‘ishiga qolib kelganki, bu uning uchun o‘limdan ham dahshatli holdir. Shuhrat shu masalida shunday zotlarning razillagini *Qurbaqa* obrazida ro‘y-rost ko‘rsatgan. Shoir fikricha *qurbaqaga* aylangan insonlar Yaratganning jazosiga mahkumligini aytar ekan, ularning iflos hayoti boshqalar uchun ibrat bo‘lmoqligi lozim, degan g‘oyani masalda uqtiradi, o‘quvchining har bir hujayrasiga singdirgandek bo‘ladi:

*Elu yurt qo ‘rqaqdan yuz o ‘giribdi,
 Qo ‘rqaqni tutibdi elning qarg ‘ishi.*

¹ Shodiyev N. Ruhiyat rassomi. –T.: Fan, 1977. –B. 27.

*Kechqurun odamdek yotgan bu kishi,
Ertalab Qurbaqa bo 'lib turibdi!
Vaqillab yurarmish o 'shandan beri,
Ochilib el aro qo 'rqaqlig siri! (442)*

Shuhrat ijodining boshqa ijodkorlar yaratiqlaridan ajratib turadigan muhim xususiyat – xoh she’riyatda, xoh nasrda, xoh masallarida bo‘lsin, qariyb barcha asarlarida, xira pashsha, xoin, qurbaqa va tulkisimon kimsalarni fosh qiladi. Ulardan hazar qilib, chin insoniylik xislatlarni madh etadi. Shoir barcha janrdagi asarlarida o‘z qalbini jarohatlagan xoinlik va yomonlik, shuningdek, o‘zi uchun ideal hisoblangan sadoqat va yaxshilik mavzusiga qayta - qayta murojaat qiladi, shu bois bu mavzu uning asarlarida bosh mazmun va yetakchi leytmotivga aylangan.

Shuhrat lirik qahramoni orqali kitobxonni hayotda uchraydigan voqeahodisalardan ruhan boyitadigan mazmun - ma’no topishga undaydi. She’r matni bilan tanishgan o‘qirman, hayotning murakkab xilqat ekanini, bu kurashdan iborat maydonda agar ma’naviyati sust bo‘lsa, har qanday zabardast polvon ham mag‘lub bo‘lish mumkinligini yaxshi anglaydi. Shoir “*Bo ‘ri edi, tulki bo ‘ldi*” degan hajviy she’rida haromxo‘r kishining yanada jirkanch qiyofaga kirishi mumkinligini tasvirlagan:

*Ismi edi Alijon polvon,
Polvonlikdan bir ish chiqmadi.
Qay maydonga bo ‘larkan ravon,
Bir kishini halol yiqmadi.
Bo ‘ri kabi chang soldi goho,
Goh bo ‘ridek bosib yiqitdi.
Bo ‘lsa hamki barcha norizo,
U o ‘zini g ‘olibdek tutdi(451).*

Shoir Alijon polvon obrazi timsolida, xudbin, pastkash, nafs balosi quli, hamma narsaga bir paytning o‘zida erishaman deb o‘ylagan ochko‘z, jirkanch kimsa qiyofasini yaratadi. Alijon polvon ma’nana qashshoq, o‘z nafsi, hoyu-havasi yo‘lida hech qanday tubanlikdan qaytmaydigan, polvon nomiga munosib bo‘lmagan badkirdor, gumroh. Agar Alijon polvon, bizning zaminimizdan yetishib chiqqan ko‘plab allomalar, adib va shoirlarimizning asarlarini uqib o‘qib, mutolaa qilganda, o‘z hayot yo‘lini bunday sharmandalik ustiga qurmagan bo‘lar edi. Zero, birgina Ahmad Yassaviyning “Hikmatlar”ida nafsning yomon oqibatlarga olib kelishi haqida bir qancha ibratli fikrlari borki:

*Nafs yo 'lig 'a kirgan kishi rasvo bo 'lur,
Yo 'ldan ozib, toyib, to 'zib gumroh bo 'lur¹,* –

degan satrlarida nafsning – ichki dushman, dushman bo‘lganda ham juda katta dushmanligini, unga tobe bo‘lish, yengilish natijasida insondagi butunlik sinib, ma’naviy osoyishta hayoti barham topishi mumkinligini nazarda tutgan. She’r qahramoni Alijon polvon esa, Yassaviy ta’biri bilan aytganda, nafs quli, hayoti izdan chiqqan kimsadir. Inson zoti yaralibdiki, yaxshilik (ezgulik) bilan yonma-yon yomonlik (tubanlik) birga yashab keladi. Shoir Alijon polvon xarakteriga xos illatlarni she’rda ayovsiz fosh etar ekan, salbiy obraz butun bo‘y-basti bilan gavdalanadi. Har bir inson, avvalo, yaxshilik nima-yu, yomonlik nima farqiga borishi, o‘z ongi, aql-u farosati bilan anglab olishi kerak, yo‘qsa Alijon polvon holiga tushishi hech gap emas.

*Bora-bora ismi yoniga,
Bo 'ri so 'zi qo 'shilib qoldi.
Bu shum laqab tegib joniga,
Hiyla qilish yo 'lini oldi.
Hiyla bilan bitmadi ishi,
Hiyla bilan bo 'lmadi polvon(451).*

Shoir Alijon polvon xarakterida uchrovchi illatlarni she’rda ayovsiz fosh etar ekan, haqqoniylig asar mazmunining yoki obraz mohiyatining salmoqdorligi, boshqacha aytganda, konseptualligi orqali belgilanishini tom ma’noda isbotlaydi. Alalxusus, “Nodon - eshak. Balki eshakdin ham kamrak. Eshakka har ne yuklasang ko‘tarur va qayon sursang ul yon borur, aql va tamiz da’vosi yo‘q. Mashaqqati minnatsiz va suubati kulfatsiz. Nodonni eshak degandin mutaxayyir, eshak qoshida yamon va yaxshi degan bir:

*Birida muncha hunar, ul birida muncha uyub,
Qaysining xo 'b ekanin, ahli xirad bilgay xo 'b,² –*

deb kuylagan Alisher Navoiyning eshakdan nodon lirik qahramoni qaysidir ma’noda Shuhratning “*Bo 'ri edi, tulki bo 'ldi*” she’ri qahramoni *Alijon* polvonni yodga soladi. Shuningdek, shoir hajv vositasida tanqid qilish bilan birga, hiyla qilish inson uchun foydali emas, balki zararli qusur ekanligini obrazli qilib ko‘rsatishga harakat qiladi.

*Endi uni ko 'rgan har kishi,
“Ali tulki shu!” – deydi hamon.*

¹ Yassaviy A. Hikmatlar. Nashrga tayyorlovchi I.Haqqul. –T.:Adabiyot va san’at, 1990. –B.102.

² Navoiy A. Mahbub ul - qulub. –T.: Adabiyot va san’at,1983. –B.75.

*“Ali tulki” demasa uni,
 Bu atrofda hech kim bilmaydi.
 Bilganlar ham g ‘irrom polvonni,
 Tulki deya, izzat kilmaydi.
 Polvonlikdan nomi qolmadi,
 Avval bo ‘ri, so ‘ng tulki bo ‘ldi.
 Polvonligin el tan olmadi,
 Oxirida bir kulgi bo ‘ldi! (451).*

Shuhrat she’rlarini mutolaa qilish jarayonida shunday xulosaga kelish mumkinki, nurga ma’naviy yorug‘likka intilgan shoir Shuhrat ham munaqqid e’tirofidek, “...olamni oydin haqiqatlarda ko‘rib, yorug‘ hissiyotlarda qalam tebratadigan shaxs, tashqi dunyonigina emas, u insonning ichki olami ham nurli bo‘lishi dardida yashaydi”¹. Shoir asarlaridagi she’riy obrazlar orqali, munofiqlik, xudbinlik, qo‘rqaqlig, zararkunandalikka nafrat, muhabbatga da’vat va oliv tuyg‘uni ulug‘lash asosiy o‘rin tutishini ko‘ramiz. Binobarin, “...badiiy asar sarlavhasining ixcham, lo‘nda, betakrorligi matnning pishiqligidan, sistemaning mustahkamligidan nishona”, deb hisoblaydigan bo‘lsak, shoirning “*Xira pashsha*” hajviy she’ri o‘zini to‘laqonli oqlaydi. Yana shuni alohida qayd etish kerakki, “Inson va uning tabiat, ruhiyati haqiqatni kashf etishda hech bir soha adabiyot bilan tenglasha olmaydi va uning o‘rnini bosolmaydi”². Albatta, hajviy she’rlar ham bundan mustasno emas. Shoirning ushbu she’ri ham inson tabiatiga xos bo‘lgan illatni ko‘rsatishga bag‘ishlangan.

*Uyga kirib qolibdi nogoh,
 Qayerdandir xira bir pashsha.
 Endi boshim qo ‘ygan edim, oh,
 U boshladi rosa xarxasha! (443).*

She’r mazmun-mohiyatidan ko‘rinib turibdiki, pashsha obrazi orqali shoir xirapashsha, zararkuranda insonlarni tasvirlashga harakat qiladi. Shunday kimsalar borki, hayotda ularning foydadan ko‘ra ko‘proq zarari tegishi yetmaganday, “tegmaganga ham kesak otadigan” xunuk qiliqlari bor. Bunday insofsiz kimsalar na eshitadi, na bu odatdan voz kechadi.

*Goh labimga qo ‘nadi kelib,
 Goh burnimga, goho quloqqa.*

¹ Haqqul I. Mushohada yog‘dusi. II. –T.: Tafakkur, 2019. –B.162.

² Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. –T.: Ma’naviyat, 2000. –B.98.

*Ko 'zim ochsam ushlamoq bo 'lib,
 Uchib ketar allaqayoqqa!
 Ko 'z yumdimmi, yana keladi,
 Yana qo 'nar yuz-ko 'z, qoshimga.
 Yo g 'ing 'illab xonish qiladi,
 Shu atrofda tegib g 'ashimga(443).*

Shuhrat hayoti davomida juda ko 'p xirapashsha insonlarga duch kelgani tabiiy, buni shoirning boshdan kechirgan hayoti to 'liq isbotlaydi. Tom ma'noda "Ijodkor qalami ostidan chiqqan haqiqiy san'at namunasi – mo'jizakor badiiy asar matni"¹, – ekanligi aniq. Haqiqat vaadolat shoir ijodining mazmun-mohiyatiga singib ketgan, bunday holat ijod jarayonida muallifning zamon va zamondoshlariga munosabatida ham ochila boradi. She'rda shoirning so'zlarga va so'zlarning bir-biriga munosabati katta ahamiyat kasb etadi. Poetik so'z shunchaki o'z ma'nosigagina ega bo'lib qolmay, o'zida boshqa so'zlarning ma'nosini ham jamlaydi. Bunga she'rni o'qish davomida shohid bo'lamiz.

*Bor-ey! – dedim boshimni burkab,
 Ko 'zim yumsam tushga kiribdi.
 Tushimda ham xira muttaham,
 Labim uzra qo 'nib turibdi!
 Ta 'bim xira, uyg 'ondim cho 'chib,
 Harom bo 'ldi tushki uyqu ham.
 Pashsha esa yuribdi uchib,
 Xonam ichra - na qayg 'u, na g 'am! (443).*

So'z zargari tuyg'ularning rost tasvirini berish uchun badiiy til, adabiy ifodaga e'tibor qaratadi. Har bir ijod namunasi she'r - shoirning qalb mulki. Ijodkor shaxs olamga, odamlarga befarq qarab turolmaydi, dunyoning turfa hodisa, tuyg'ulari uning yuragiga cho 'g' soladi, kuydiradi, yondiradi, natijada shoir bu holatni she'rga soladi, yuragini bo'shatib oladi. "Xira pashsha" she'rida ham shoir aytmoqchi bo'lган "...ifodaning istiorali usuli, ya'ni so'z ma'nosini boshqa predmetga ko'chirish, shama, kinoya yoki ramzlarning yaratilishi"²ni she'rning so'nggi to'rtligida ko'rish mumkin. Ya'ni, lirik qahramon g'ashiga tekkan pashshani ushlab, o'ldirib, o'ligini derazadan uloqtirib yuboradi va shu bilan o'ziga ozor yetkazayotgan mahluqotdan osongina qutiladi. Lekin shoirni izardirobga solgan, o'yga toldirgan narsa boshqa, ya'ni pashshadek yo'lidan olib

¹ Karimov B. XX asr o'zbek adabiyotshunosligida talqin muammosi (qodiriyshunoslik misolida): Filol.f.d-ri diss. –T., 2002. –B.17.

² Тамарченко Н. Теория литературы. –М.:Академия, 2004. –C.143.

tashlashi mumkin bo‘lмаган “*pashshasifat kimsalar*”ning hayotda uchrashi. Bu inson uchun og‘ir musibat. Unday kimsalar bir umr hammaga ozor berib, g‘ashiga tegib yashaydi. Shoир shundan afsus nadomat chekadi:

*Bu bir pashsha. Oxiri ushlab,
Derazamdan otdim o‘ligin.
Pashshasifat odamlar uchrab,
-Qolsa bormi hayotda lekin... (443).*

So‘zni ruhiga bo‘ysundira bilish har bir shoир oldida turgan muhim vazifa. Ijodkor she’rlarida inson va tabiat ashylari o‘rtasidagi yashirin yaqin mohiyatni izlaydi. Ushbu she’rdagi “*pashshasifat*” obraz talqinida ham inson ma’naviyatsizligi muammosi she’r markaziga qo‘yiladi va bu she’rga falsafiy ruh bag‘ishlaydi.

Xulosa qilab aytadigan bo‘lsak, Shuhrat mahorati shundaki, masal va hajviy she’rlarida kechinmalarini o‘zi tanlagan so‘zlar bilan ifodalay olgan. Davrning ijtimoiy - siyosiy, ma’naviy - axloqiy masalalarini she’rlarida dadil aks ettirish orqali inson tabiatining zaif tomonlari, nuqsonlari, qusur-kamchiliklari, noto‘g‘ri xattiharakatlarini aniq, o‘tkir hajv yo‘li bilan ochib beradi. Shuhrat masal va hajviy she’rlaridagi poetik obrazlarda ko‘zga tashlanuvchi uslubiy o‘ziga xosliklar, shoirda voqelikni tushunish, idrok etish, o‘zlashtirish va baholash tamoyillari yuqori darajada ekanligidan dalolat. Shuhratning masal va hajviy she’rlari aql o‘rgatmagani, pandu nasihat qilmagani holda tabiiy shavqi bilan tuyg‘ularni tarbiyalaydi. Bu holat, hech ikkilanmay aytish mumkinki, didaktik tarbiyaning muhim vositasi sifatida bashariyatni tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu bois shoир masal va hajviy she’rlari XX asr adabiy maydonidagi ma’naviy ibrati bilan hozir ham o‘z ahamiyatini to‘la saqlab qolgan.

XULOSA:

1. O‘zbek poeziyasini o‘rtamyonachilik saviyasidan yuqori ko‘tarilishiga olib chiqqan shoир Shuhrat she’rlarining yengil, o‘ynoqi xalqona ohangda yozilishiga lirik qahramonning ruhiy olamini tabiat hodisalariga qiyoslash, qarshilantirish asos bo‘lgan. Shoирning she’rlarida parallelizmdan mohirona foydalanishi, ularning badiiy-estetik ta’sirchanligini kuchaytirgan.

2. Shuhratning ko‘p she’rlari xalqona usulda yozilgan. Ulardagi fikr xalqchilligi va sodda talqinlar ko‘proq xalq qo‘shiqlariga xos ifoda yo‘sini ekanligini ko‘rsatadi. Shoир ta’sirchan tasviriy ifodalardan samarali foydalana olgan. U she’riyatda davr va inson muammolari bilan bog‘liq fikr ifodasini topganki, bu bilan botiniy ruhiyati, hiskechinmalari bor murakkabligi bilan chuqur falsafiy o‘laroq tizmalarda ko‘ringan.

Fikrning sodda misralarda aks ettirilishi yetakchi o‘rinni egallagan. Shoир lirkasi mazmunan kitobxon tafakkuriga, intellektual mushohadasiga, so‘zning ma’no qatlamlari qaratilgan bo‘lib, g‘oyaviy-badiiy talqin, badiiy tasvir va detallar vositasida yuzaga kelgan milliy manzara, milliy voqelik va obrazlarning aks etishi ahamiyat kasb etgan.

3. Shuhrat lirkasining ikki tomoni bor: g‘oyaviy ko‘tarinkilik va hayotiy-lirk to‘lqinlik. She’rlarida butun jahon taqdirini o‘ylayotgan, muttasil inson hayotining ma’nosini izlovchi va bu izlanishda muhim haqiqatlarni kashf etuvchi, ruhan boy inson qiyofasi mavjud. Shuningdek, shoир lirkasida she’riy san’atlar badiiylikning oshishi, lirk ifodaning chuqur emotsiyal tus olishiga xizmat qilgan. Ular vositasida lirkada so‘zning ayricha o‘rin tutishi yaqqol ko‘zga tashlangan. Bu xususiyat shoир she’riyatining abadiyligini ta’minlovchi omillardan biri hisoblanadi.

4. Davrning ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy masalalarini masal va hajviy she’rlaridagi lirk qahramon obrazlarida dadil aks ettirish orqali shoир inson tabiatining nozik, zaif nuqsonlari, qusur-kamchiliklari, noto‘g‘ri xatti-harakatlarini aniq, o’tkir hajv orqali ochib bergan. Shuhrat masal va hajviy she’rlaridagi ko‘zga tashlanuvchi uslubiy o‘ziga xosliklar, shoirda voqelikni tushunish, idrok etish, o‘zlashtirish va baholash tamoyillari yuqori darajada ekanligidan dalolat beradi. Shu bois shoirning masal va hajviy she’rlari XX asr adabiy maydonidagi ma’naviy ibrati bilan hozir ham o‘z ahamiyatini to‘la saqlab qolgan.

LIRO-EPIK VA DRAMATIK ASARLARDA XALQONA PAFOS IFODASI

Ballada va dostonlarida xalqona poetik tafakkur

XX asr o‘zbek she’riyatida ballada janrining yuksak badiiy namunalarini yaratilgani adabiyotshunoslikda yaxshi ma’lum. “**Ballada**” (frans.ballade, so‘nggi lot.ballo – raqsga tushaman) 1)XIV – XY asrlar fransuz adabiyotidan qat’iy o‘rin olgan lirik janr (F.Viyon); 2) ingliz xalq poeziyasida liro - epik janr va romantizm poeziyasidagi ayni shunday janr (R.Berne, G.Byurger, I.V.Gyote va b.)¹ bo‘lib, balladalar xalq hayotining tarixiy sanalari, davrlariga bag‘ishlanishi va ijtimoiy, oilaviy, maishiy turmushining mohiyatini, xalq kechinmalarini aks ettirishi jihatidan ahamiyatlidir. Ballada janri poetikasiga oid bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan². Balladalar xalq hayotining tarixiy sanalariga, davrlariga bag‘ishlanishi, ijtimoiy, oilaviy, maishiy turmushini fojeaviy vaziyatlar ta’sirida o‘zgarganligining mohiyatini, xalq tasavvurlarini aks ettirishi jihatidan tarixiylik xususiyatiga ega bo‘ladi. Shuningdek, tarixiylik yangi ijtimoiy borliqning xalq tafakkuridagi idroki va eski badiiy an’analar to‘qnashuvi natijasi bo‘lgan balladalar syujetida ham aks etadi³.

Ijodda o‘z uslubi, fikran tiniq tafakkuri va qarashlari bilan an’anaviy dunyoqarashimizga o‘zgarish kiritgan shoir ijodida xalq dardini ifodalagan, xalqona pafosga ega ballada va dostonlar talaygina. Shuhrat “*Keksa communist hikoyasi*”, “*Sirdaryo*”, “*Raymonda*”, “*Mening o‘rtog‘im*”, “*Bobo va nabira*”, “*Mardlik afsonasi*”, “*Guldursun*”, “*Quvg‘indi*” kabi o‘nlab balladalar yaratganki, ularning ayrimlarini tahlil ob’yektiga jalb etdik.

“*Mardlik afsonasi*” balladasida shoir tarixga nazar tashlab, yurti uchun ayol boshi bilan kurashib xalq qahramoniga aylangan, olov yurakli To‘marisning jasoratini kuyladi. Ma’nан yuksak axloqiy go‘zal fazilatlar sohibasi To‘maris obrazi orqali kitobxonni ona yurtini sevishga, ardoqlashga, kerak bo‘lsa, xalqini himoya qilish uchun jon fido qilish har bir inson uchun oliy burch ekanligini ko‘rsatib berdi. Shuhratning balladalari mavzu jihatdan xilma-xil bo‘lishiga qaramay, barchasining mazmun-mohiyati bir, ya’ni ona yurtni mustamlaka bo‘lishdan, qullikdan saqlash, shu

¹ <https://qomus.info/encyclopedia/cat-b/ballada-uz/>.

² Ларцев В.Баллада в современной поэзии // Звезда Востока, 1963. №9. –С.123-134; Normatov U. Balladada zamon va qalb dramasi // Sharq yulduzi, 1967. №3. –В.184-192; Ibragimov M. O‘zbek balladasi.–Т.: Fan, 1974. 200 6; Балашов Д. Русские народные баллады. –М: Современник, 1983. –С.95-123; Bolliyeva M. Balladada tuyg‘u tasviri // O‘zbek adabiyoti qiyosiy adabiyotshunoslik aspektida: ta’sir va tipologiya. Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari. –Т.: Muharrir, 2013. –В.364-368.

³ Eshqobilov A. O‘zbek balladasining nazariy-poetik tahlili. (XX asrning 70-90-yillari misolida): Filol.f.f.d. (PhD) diss. –Samarqand, 2020. –B.18.

yo‘lda birlashish, vatan uchun sidqidildan xizmat qilishga chorlovdan iborat, desak to‘g‘ri bo‘ladi.

“Quvg‘indi” nomli balladasida shoir Ukrainianing “vulqon shoiri” Taras Shevchenkoning fojiali hayotini qalamga olar ekan, shoir obrazi orqali o‘z orzu umidlarini ifodalaydi. Shuhrat “Guldursun” balladasida Ko‘hna Xorazm tarixini varaqlab, o‘z “muhabbati”, to‘g‘rirog‘i, hayvoniy hirsi uchun xalqini sotgan, vatanfurush kimsaning basharasini ochib tashlagan. Bizningcha, bu mavzularni yoritishdan shoirning o‘z oldiga qo‘ygan birdan bir maqsadi shuki, inson hech qachon *Inson* degan sharaflı unvoniga dog‘ tushirmasligi, iymon-e’tiqodidan ayrilmasligi, oldiga qo‘ygan katta maqsadidan adashmasligi kerak. Shu g‘oya balladaning boshidan oxiriga qadar xalqa ip bo‘lib o‘tadi “Guldursun” balladasidagi quyidagi misralar yuqoridagi qarashlarimizni yana bir bor dalillaydi:

*Ikki marta chiqmaydi bir kunda quyosh,
Ikki marta kelmaydi dunyoga bu bosh!
Bir boshga bir o‘lim bor, yasha insoncha!
Kimga kerak tutqunlik, oh-voh, iskanja!*

Sirasini aytganda, bu g‘oya Shuhratning aksar she’riy va nasriy asarlarida ham turli shaklda – goh qahramonlarning shiddatli nutqi, goh lirik kechinmalari, goh g‘oyaviy raqibi bilan qilgan bahslarida aks-sado berib turadi. Shuhrat hayotlik paytida ham shu g‘oya bilan yo‘g‘rilgan fikrlarini o‘qtin-o‘qtin takrorlab, armon to‘la qalbini bo‘shatib olardi. Binobarin, shu g‘oyani nafaqat Shuhrat ijodining, ayni paytda hayotining ham leytmotivi, deyishimiz mumkin.

*Yov keldimi o‘lkaga bosib, o‘g‘rincha,
Yovga yovcha qarshi tur umring boricha,
Erksiz o‘tgan bir yildan ozod on yaxshi!
Dushman tutgan ol guldan tarki jon yaxshi!
Qachon, axir, qafasda sayrabdi bulbul!
Qachon, axir, zulmatda yashnabdi bir gul?*

Ko‘ramizki, bu misralar shoirning zulmga, zolimga, bosqinchiga bo‘lgan isyonini, bir so‘z bilan aytsak, qatag‘on qurbanlari Qodiriy, Cho‘lpon, Usmon Nosirlar g‘oyaviy qarashlarining, ular ijodida balqib turgan erk va hurriyat g‘oyalarining davomidek aks-sado berib turadi.

Darhaqiqat, Shuhrat “Beruniy, Farg‘oniy, Xorazmiy, Navoiy, Ulug‘beklarga mansub ulug‘ millatning qayg‘usi bilan yashamoqni, Shiroq, To‘maris, O‘g‘uzxon, Muqanna, Manguberdi, Amir Temurlar ruhiga payvand buyuk Turkistonning menligini tiklash yo‘lida kurashmoqni boshqa hoyu-havaslardan muhimroq sanab,

burchini shaxsiy huzur-halovatidan ustun qo‘ya oldi. Necha vaqtlar o‘tsa-da, yozuvchining ismi, asarlari biz uchun hanuz ardoqli bo‘lib qolayotganining bosh sababi ham shu”¹.

“Poema (юн. poiema) – katta hajmdagi liro - epik badiiy janr (q.Doston)”², “Poema” atamasi – “doston” atamasining g‘arbona ekvivalenti”³. “Doston, poema - liro-epik janr; shu janrdagi badiiy asar. Dostonda muayyan voqealik keng ko‘lamda qamrab olinadi, bir yoki ikkita bosh qahramon ishtirok etadi, personajlar esa ko‘p bo‘ladi. Syujeti sertarmoq, rang-barang. Dostonlar yozuvchining dunyoni o‘ziga xos tarzda idrok etishi, baholashi va o‘z fikr-g‘oyalari, orzu-armonlarini ifodalash tarzi, usulida farqlanadi”⁴. Adabiyotshunos olima “poema”, ba’zan “doston” deb atab kelingan yagona adabiy janr aslida bir xil badiiy-estetik vazifani bajaradi⁵, degan xulosani beradi. Shu bois shoir poemasi va dostonlari tahlilida shu qarashga asoslanamiz.

Shuhratning dastlabki poemasi XX asrning 37-yillarida yaratilgan. Uning yozilish tarixini eslab ijodkor shunday deydi: “Men frontda yarador bo‘lib gospitalga tushdim. Uzoq vaqtlar janglarda yurib kitobni sog‘inib qolgan ekanman, yaradorlikdan bir oz o‘zimni o‘nglab olgach, maktab kutubxonasidan (gospital, ta’kid bizniki N.S) Pushkin asarlarini, xususan, uning “Yevgeniy Onegin”ini olib, qayta-qayta mutolaa qildim. “Farzand” mana shu mutolaa natijasida, to‘g‘riroq‘i, A.S.Pushkin ta’sirida paydo bo‘ldi”⁶.

Shoirning “Farzand” poemasidan keyin “Kichik sarguzasht”, “Mehrol”, “Xotin qalbi”, “Mangulik”, “Orzu va qasos”, “Farzand”, “Chol”, “Jamila”, “So ‘lmas chechaklar” kabi o‘nlab poema dostonlari yaratildi.

“Kichik sarguzasht”, “Orzu va qasos”, “Farzand” poemalari tarixiy mavzuda bo‘lib, 1937-yilda yozilgan “Kichik sarguzasht” poemasida grajdalar urushi voqealari qalamga olingan. Doston shoirning o‘z boshidan o‘tkazgan, ko‘rgan-kechirgan voqealarni badiiy lavhalarda qahramon tilidan yuqori pafosda ifodalab berilishi bilan ahamiyatli.

“Orzu va qasos” poemasini 1940-yilda yozgan shoir, poemada A.Chexov, Pushkin, Lermontov, Fuzuliy, xalq qo‘shig‘i va xalq iborasi bir necha boblari boshida epigraf sifatida keltirar ekan, ayniqsa XIII bobning boshida keltirgan “Ot chidamas

¹ Rahim I. Nomi o‘chmaydi / Shuhrat. Xotiralar.–T.: Sharq, 1998.–B.145.

² <https://qomus.info/encyclopedia/cat-p/poema-uz/>.

³ Hasanov Sh. XX asrning ikkinchi yarmi o‘zbek dostonlari poetikasi: Filol.f.d-ri diss.avtoref.–T., 2004.–B.68.

⁴ <https://qomus.info/encyclopedia/cat-d/doston-uz/>.

⁵ Quvvatova D. XX asr ikkinchi yarmi o‘zbek dostonchiligining taraqqiyot xususiyatlari: Filol.f.d-ri –T., 2016.–B.17.

⁶ Shuhrat. Tanlangan asarlar. 3jildlik, 1-jild. –T.: Adabiyot va san’ati, 1978. –B.5.

achchiq qamchi zahriga, Hech kimsa tushmasin zolim qahriga” xalq iborasi doston leytmotivini belgilab bergan. Doston qahramoni oddiy xalq ichidan chiqqan, bir umr mehnat qilib kosasi oqarmagan mehnatkash, qalbida endi Qamarga bo‘lgan o‘tli muhabbatiga yeta olmagan yigit – Samadning boshidan o‘tkazgan ko‘rguliklari tasviriga bag‘ishlangan. O‘z elidagi qabih muhtojlik sabab Samad o‘zga yurtga ketishga majbur bo‘ladi. Shoir buni shunday o‘tli misralarda ta’riflaydi:

*Qaysi yerni qilmasin orzu,
U yerda ham shu tosh-torozu.
U yerda ham mana shu quyosh,
Yig‘lab to ‘kar qonli, olov yosh!* (66)

Farg‘onada ish ko‘p, odam oz degan gapni eshitib, u yerga borgan yigit har eshikka bosh suqib, ish topa olmay oxiri qarol tushishga majbur bo‘ladi, natijada boy o‘g‘lini sayr qildirishdan tortib, samovarga o‘tin yorishu, omborga g‘alla tashish, dalada ketmon urish, barcha - barcha ishlarni qiladi, lekin biri ikki bo‘lmaydi, qo‘li pul ko‘rmaydi. Musofirchilik Samadning tinka-madorini batamom quritadi. Shoir Samadning bu holatini o‘ziga xos uslubda quyidagicha tasvirlaydi:

*O, musofir, g‘arib musofir,
Musofirga jo ‘r bo ‘lar kim bor?
Unga go ‘yo keng olam zindon,
Turgan joyi o ‘shandan parcha,
Shu zindonni bo ‘lib, talashib,
Makon qilgan insonlar-barcha...* (71).

Shoir aytmoqchi bo‘lgan g‘oyani “*barcha*” so‘ziga yuklaydi, buni biz shoir so‘z oxiriga qo‘yan qo‘p nuqtalardan ham bilishimiz mumkin. Shoir *barcha* so‘zini ishlatib, zulmkorning kim ekanligini aniqlashni kitobxonning o‘ziga qoldiradi. Insonlarni o‘z manfaati yo‘lida xor-zor qilgan kimsalar tufayli, shoir so‘zi bilan aytganda, “Samad mard devkor” kabi norg‘ul yigitlarning hayoti ostin-ustun bo‘lib ketishiga olg‘irlarning badnafs iymonsizligi sabab ekanligini alam bilan so‘zlaydi shoir. Hazrati xon farmoyishi bilan ariq qazishga chiqqan qora xalqning og‘ir turmushi dostonda shunday chizgilarda ifodalanadi:

*Quyosh chiqmay boshlaydi qazish,
O‘zbek, tojik, qirg‘iz va qozoq...
Necha badan qildi tarki jon,
Ne tanda goldi qon izi!*(74).

Dostonda shoir ariq qazishga chiqqanlarni bir necha millat vakili ekanligini aytar ekan, band oxiriga uch nuqta qo‘yadi, demak bu yana boshqa millat vakillari ham

borligiga ishora ekan, nazdimizda shoir ko‘p millatli Sovet hukumati mustamlakasida zulm ko‘rayotgan ezilgan xalqni nazarda tutgan bo‘lsa ajabmas. Dostondagi Samad obrazi timsolida hayot nohaqliklariga qarshi chiqadigan, inson haq-huquqini himoya qilishni o‘z burchi deb biladigan haqiqatparvar yo‘lboshchini tasvirlashni shoir maqsad qilgan:

*Yetar endi shuncha razolat,
Bormi bizga farog ‘at tongi?
Yoki hamon bosib yotarmi,
Siynamizni dard-zulmat zangi!..
– Qani shafqat, qaniadolat,
Qani inson qadri-qimmati?!...
Jinoyatmi, zulmga qarshi,
Mardonavor “haq!” – deya kurash (75-78-79).*

Shoir aytmoqchi, “zulmat zangi” xalqimizni mustamlaka ostida yetmish yil ushlashini guyoki shoir bashorat qilgandek, kurashga chorlagan. Va aytish mumkinki, Shuhrat “...chin ma’noda milliy shoir edi. Bu narsa u kishining tabiatlarida borligi uchun ham yozganlari barchaga tushunarli va bir o‘qishdayoq yoqib qolar edi”¹.

“Farzand” poemasi 1944- yilda yozilgan bo‘lib, dostonda o‘z eli urf-odatlarini qadrlaydigan, ona yurti ozodligi uchun jonini fido qilgan kazak Kuban farzandi Volin-Vadimning fashistlarga qarshi jangi va bu urushda qahramonona halok bo‘lgani hikoya qilinadi. “Farzand” dostoni, bir qarashda, Ikkinchiji jahon urushi mavzusiga bag‘ishlangan bo‘lib ko‘rsinsa-da, asar zamirida, shoirning totalitar tuzum bilan bog‘liq armonlari, iztiroblari, o‘sha davrda eskilik sarqiti, millatchilik deb qoralangan milliy qadriyatlarimizning toptalgani bilan bog‘liq satrlar ustivorlik qilgan. Masalan:

*Jinoyatmi, ayting, yoronlar,
Ota qabrin qilmoq ziyorat?
Jinoyatmi, qilmak ibodat,
El rasmiga kirgach, u faqat?
Eskilik urf tezdan o ‘churmu?
Holva desang og ‘iz chuchurmu?!*
*Jinoyatmi, ota hurmatin,
Vatan mehrin qilmoq tantana?.*

Totalitar tuzum millatimizga xos bo‘lgan urf-odatlar, qadriyatlarning avloddan-avlodga eltuvchi xalqning saralarini qirib tashladi. Ular manglayiga “xalq dushmani” degan tamg‘a urildi. Ular nomini tilga olish, ular asarlari o‘qish taqiplandi. 1956-yilda

¹ Alimov B. Muborak xotira / Shuhrat. Xotiralar. –T.: Sharq 1998. –B.4.

Stalin shaxsiga sig‘inishning fojiali oqibatlari yuzaga chiqib, adabiyot olamidagi jabrdiydalar oqlanganlaridan keyin ham 1937- yil jallodlari Shuhrat, Shukrullo, Said Ahmad singari Cho‘lpon va Qodiriyning izdoshlariga tinchlik bermadilar. Shunga qaramay, Shuhrat shu mavzuning qirralarini “*Orzu va qasos*” dostoni va boshqa asarlarida ham yoritishda mardona davom etdi. Shoир dostonida hayotdagи nohaqliklariga dadil qarshi chiqa oladigan, inson haq-huquqlarini himoya qila biladigan ishni o‘z burchi deb biladigan haqiqatparvar yo‘lboshchi – Samad obrazini katta mehr bilan yaratdi. Mana, uni qiyagan masalalar... Mana, xalqning osuda va baxtli hayotiga o‘tmish soyasini tashlab turgan va lirik qahramonni minbarga chorlagan masalalar... Va aytish mumkinki, o‘z asarlaridagi obrazlar orqali lozim bo‘lgan gapni aytish Shuhratgagina xos jasorat, bir xususiyat edi. Bu jasoratni shoирning Abdulla Qahhor bilan o‘rtasidagi do‘stlikda ham ko‘rish mumkin. Shuhrat qalami o‘tkir ijodkorgina emas, hayotda ham qalbi daryo, mustahkam irodali inson edi. Abdulla Qahhor Moskvada jon talashib yotganda ham Shuhrat uning yonida mardonavor tura oldi. Mana bu xotira ham Shuhratning aslida xalqimizning asl oltin farzandi ekanligini ko‘rsatadi: “Abdulla Qahhorni ustoz deb bilgan ayrim shogirdlar orasida undan uzoqlashganlar va mukofotdan mahrum bo‘lmayin, deb ta’ziyasiga bormay qo‘yanlar ham bor. Ammo Shuhrat shularni bila turib Abdulla Qahhorga o‘zini yaqin tutdi. Tabiiyki, bu narsa Shuhratning foydasiga bo‘lmaydi, o‘ziga jabr qiladi. Abdulla Qahhor Moskva kasalxonalaridan birida og‘ir xastalikdan vafot etgan damlarda ham adibga munosabatni bila turib, Shuhrat uning yonida bo‘ladi. Mashaqqatlar bilan adib jasadini Toshkentga olib kelishda ham jon kuydiradi. Dafn marosimidagi rasm-rusumlarni, xufiya janozasini o‘tkazishda ham o‘zi bosh-qosh bo‘ladi. O‘ldi, endi menga nima foydasi tegardi, demadi. Shuhrat ana shunday odam edi. U e’tiqodi mustahkam, riyordan or qiladigan, e’tiqodi yo‘lida har qanday mashaqqatni tortishga tayyor ijodkor edi”¹.

Yuqoridagi dostonida milliy urf-odatlar, qadriyatлarni hurmatlash, qadrlash jinoyatmi deya hayqira olgan shoир Abdulla Qahhorning “*Dafn marosimidagi rasm-rusumlarni, xufiya janozasini o‘tkazishda ham o‘zi bosh-qosh*” bo‘la olishi uning so‘zi bilan dili bir chin inson ekanligidan dalolat. Yana shuni aytish kerakki, Shuhrat shu bilangina kifoyalanmadи, ya’nikim, Qahhorning janozasiga kelishga qo‘rqan insonlardan farqli o‘larоq marosimlarni o‘tkazish barobarida “Adib (A.Qahhor, ta’kid bizniki N.S) vafotidan keyin “Ustozning oxirgi kuni” degan maqola e’lon qildi. Bu maqola ham katta shov-shuvlarga sabab bo‘ldi. Gap shunda ediki, Abdulla Qahhor og‘ir kasal holda ba’zi mansabdorlarning nayranglari tufayli ko‘p aziyat chekkan

¹ Shukurullo. Ijodkor matonati / Shuhrat. Xotiralar. –T.: Sharq 1998. –B.154.

ekan. Shuhrat o'sha vaziyatlarni tap tortmasdan, bat afsil oshkor qildi”¹. Shuhratning bu jasorati, odamiyligi, iymoniga sobitligi, o'sha tariximizning qora turg'unlik yillarida qanday taqdirlandi “Abdulla Qahhorning janozasidagi nutqi, “Guliston” jurnalida bosilgan maqolasi uchun ta'qib ostiga olindi. Yana sinov, yana imtihon... Romanlari bosmaxonlarda, she'rlari redaksiya papkalarida qolib ketdi. U tengilar oltmis yoshlarini nishonlaganlarida hukumat mukofotlariga, unvonlariga sazovor bo'ldilar. Ammo Shuhratning yubileyi muzdekkina bo'lib o'tdi. Bunday munosabatlarga o'rganib qolganidanmi, yo irodasi kuchli ekanidanmi, harqalay o'zini tutdi. Ichidagi alamlarini sezdirmadi. Nolib yurmadi. O'zini ijodga urdi, qalami bilan sirlashdi... Hayot uni yana bir bor, ammo dahshatli sinovga tortdi. U xastalanib to'shakka yiqlidi... O'ttiz yildan ortiq chekkan iztiroblari o'z ishini qildi. Kamsitishlar, unutishlar, nazardan chetga surishlar Shuhratning sog'lig'ini so'rib oldi. U shu ahvolda ham qo'lidan qalamini qo'ymadni. Titroq barmoqlari boshqatdan xat yozishni o'rgandi. Shu mehnatkash nimjon qo'llar she'r yozishdan to'xtamadi”². Mana Shuhrat qanday inson edi, o'z ta'biri bilan aytsak “Oltin zanglamas” ekan, ijodkor ham shunday yolg'on dunyodagi zar kimxoblarga, mansabu amalga uchmaydigan, xalqi baxti saodati uchun bir nafas kurashdan to'xtamaydigan maslagi kuchli, iymoni mustahkam qalam sohibi edi.

Shoirning “So'lmas chechaklar” nomli dostoni Vatan urushida fashistlarga qarshi kurashib, ularning qo'liga asir tushgan qahramon jangchi xotirasiga bag'ishlab 1962- yilda yozilgan. Rotasidan ajralib, olti kecha-kunduz yo'l yurib, partizanlarga kelib qo'shilgan jangchi, yana qo'liga qurol olib, fashistlarga qarshi kurashar ekan, janglarning birida nogahoniy portlashdan oyog'idan ayrıldi va nemislar qo'liga asir tushadi. Qanchalar zulm, azob berishmasin, uning og'zidan bironta so'z, ma'lumot ololmagan dushman jangchini keng maydonga olib borib qonli dorga osishadi:

*Qonli qo'lin artdi fashist,
Mamnun edi, shod edi.
“Kim partizan bo'lsa, biling,
Oqibati shu!” – dedi (130).*

Dostonning g'oyaviy pafosini shunda ko'rish mumkin: har kun ertalab qahramon jangchining qabrini gul-chechaklar qoplaydi. Qancha soqchi qo'yilmasin, nazorat qanchalik kuchaytirilmasin, buning oldini ololmagan, qish kelganida endi iz qolishidan qo'rqib qabrga hech kim gul olib kelishiga va bu sovuqda gullar yashnamasligiga ishongan fashistning umidlari sarobga aylanadi. Qahraton sovuqning

¹ Qo'shjonov M. O'tdan ham, suvdan ham.../ Xotiralar. –T.: Sharq, 1998. –B.186.

² Ahmad S. Uch mungli qo'shiq so'ngsiz imtihon / Adib hayotiga bir nazar. –T.: Sharq, 1998. –B.101.

qor izg‘irinida yashnab turgan so‘lmas chechaklar barq urib turaveradi, gul sochganni fashist qo‘lga ololmay xunobi chiqaveradi. Shoir bu voqelikni mahorat bilan quyidagicha misralarda bitadi:

*Ular sochgan gul-chechakda,
Vatan mehri bir parda.
Fashist ko ‘zi uni ko ‘rmas,
Va ko ‘rishdan ojizdir.
Iflos fashist! Yoqangni yirt,
Tirnoq g ‘aji-befoya.
Vatan sodiq farzandini,
Ardoqlaydi har joyda!(135).*

Doston nihoyatda ko‘tarinki ruh, hayotiylik va samimiylik bilan tasvirlanganligi jihatidan muhim ahamiyatga molik. Shuhratning “*Mehrol*” ertak-dostoni xalq ertagi syujeti asosida yozilgan bo‘lib, shoir uni yaratishda A.Pushkin, H.Olimjon an’analarini davom ettirgan. Doston tasvir usuli, xalqona ohangda yaratilganligi bilan kishini o‘ziga tortadi. Tinch hayot qurishga o‘zini bag‘ishlagan mehnat qahramonlari obrazini yaratishga bel bog‘laydi va ko‘p o‘tmasdan “*Xotin qalbi*” nomli poemasini 1948-yilda yaratdi. “*Xotin qalbi*” qirqinchi yillar an’analari asosida yozilgan. Asarning markazida bir o‘zbek ayolining qora kechmishi turadi. Doston qahramoni Xoldor asar boshida ipaklarga o‘ranib, o‘sma-surmani qosh-ko‘zlariga qo‘yib, etiklarni g‘archillatib, kampirlar tili bilan aytganda “*Satang Xoldor*” bo‘lib yurgan ayol, paxtali shim, soldatcha etik kiyib, kolxoz uchun jonini tikkan turmush o‘rtog‘i Vatan urushi jangiga ketgandan keyin, butun oila og‘irligini o‘z nozik yelkasiga olgan, satanglidan asar qolmagan, eridan kelgan qora xatdan keyin esa:

*Shundan beri shohi atlaslar,
Gardirobda hayrona qoldi.
Shundan beri shoda marvaridlar,
Qo ‘sh uzuklar ardona qoldi.
Shundan keyin betiga ajin,
Sochlariga inmishdi qirov (22),*

deya, shoir Xoldor tasvirini chizadi. Xoldor endi bor kuchini turmush o‘rtog‘ining peshona teri tomgan paxtazor dalalariga mehrini beradi, ayol boshi bilan raisalik darajasiga ko‘tariladi, yolg‘iz farzandi Maratga mehrini berib, uning tarbiyasi bilan shug‘ullanadi. Doston orqali shoir o‘zbek ayolining urush davridagi taqdiri, Xoldor hayotida marhum turmush o‘rtog‘i xotirasi uchun ko‘rsatgan jonbozligini aks ettiradi. Doston shoirning boshqa dostonlariga nisbatan hajman ancha katta bo‘lib, Xoldorning

butun faoliyati to‘lig“icha bo‘rttirilmay “O‘zaro tekshirishda”, “Ilk ochilgan ko‘sak”, “Birinchi karvon”, “Kuz”, “Vakila”, “Xotima” qismlarida izchil yoritib berilgan. Dostonda ayol boshi bilan yozning issig‘ini issiq demay, qishning qahraton sovug‘ini sovuq demay dalada yurib, pahta yetishtirishda katta natijalarga erishgan, halol mehnati tufayli el izzat-hurmatiga sazovor bo‘lgan oddiy bir o‘zbek ayolining histuyg‘ulari, quvonchi, ko‘ngil to‘rida yotgan iztiroblari yaqqol aks ettirilganligi bilan qimmatlidir.

Shuhrat ijodida inson ruhiyati va qalb kechinmalarini, xalq dardini ifodalagan, xalqona pafosga ega dostonlar talaygina. Har bir ijodkor xalq dardini o‘z yaratiqlarida bayon qilar ekan, unda hissiy jo‘shqinlik bo‘lishi tabiiy, shu barobarinda “...san’at asarining mag‘zi, javhari estetik mohiyatga ega bo‘lgan his-tuyg‘ulardan iborat bo‘lsagina, o‘ziga xos pafosni ifoda etadi”¹.

“Mangulik” dostonida epik she’r tuzilishi, ya’ni band, vazn va qofiya masalalari tahlili xususinda so‘z yuritishni lozim topamiz. Shoирning “Mangulik” dostoni tahliliga o‘tishdan oldin, avvalo, dostonchilik an’analariga to‘xtalish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

She’r – so‘z bilan aytib bo‘lmaydigan hissiyot. Unda musiqa bor, aql bovar qilmas sehr bor². She’rning asosini tashkil qilgan band “...qofiya, ritm va mazmun jihatdan o‘zaro she’riy bog‘langan she’riy parcha; manzuma”³dir. Qofiya esa “she’rda bir necha bayt yoki misralar oxiridagi so‘zlarning o‘zaro ohangdosh, mos bo‘lishi”⁴.

Ma’lumki, so‘zga singgan hissiyot, uning sehrli qudrati esa band, qofiya, vazn tufayli yuzaga kelgan ritm va musiqiylikda namoyon bo‘ladi. Musiqiylik esa vazn kengligida yuzaga keladi. “Vazn – she’rning ilk tashkillanishi. U she’r motori, til materiali, yonilg‘isi”⁵. “Shakl va uning bosh unsurlari hisoblanadigan “vazn” va “qofiya” she’rda zarurdir. Faqat ular mazmunning oldiga tushib olmasligi, she’r ularning asiriga aylanib qolmasligi kerak. She’r bularni oshib o‘tmog‘i darkor. Darhaqiqat, she’r “shakl ichida shaklni oshib o‘tadigan”dir”⁶. Ma’noni harakatlantiruvchi va inson borlig‘ini sehrlovchi she’rning asosi-vaznni takomillashtirish borasida Shuhrat dostonlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Har bir millatning asrlar davomida badiiyatda shakllangan zavq-shavqi, adabiy-estetik didi bor. Ijodkorlar hamisha shu xalqona estetik tamoyilga amal qilib

¹ Olimov M. Hozirgi o‘zbek adabiyotida pafos muammosi. –T.: 1994. – B.7.

² Vohidov E. Iztirob. –T.: O‘zbekiston, 1992. –B.227.

³ www. Ziyoruz.com. kutubxonasi. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. –Б.155.

⁴ www. Ziyoruz.com. kutubxonasi. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. –Б.349.

⁵ Отнев В. Книга про стихи. –М.: Сов писатель, 1963. –стр.188.

⁶ Kenan Akyuz. Bati tesirinde turk siiri antolojisi.- Istanbul: “Inkilap” kitabevi, 1995. 936-sayfa.

yashaydi. Xalq og‘zaki ijodi yaratiqlari yozma adabiyot uchun asosiy omil ekanligini chuqur anglagan Shuhrat “*Mangulik*” dostonini o‘zgacha muhabbat bilan yaratadi. Yengil xalqona vaznda bitilgan doston boshlamasidayoq o‘ynoqi satrlarda muallif badiiy zavqi - estetik didi ravshan namoyon bo‘ladi:

*Ma’shuq! Ma’shuq! Mag’rur bir tog’,
Azamat tog’, mashhur tog’.
Har qadami bir afsona,
Har o‘ngiri-xilvatgoh.
Har irmog‘i bir qo‘ng‘iroq,
Har tosh osti bir buloq.
Zo‘r boshiga kiyib olgan,
Oppoq qordan cho‘ng popoq¹.*

Dostonda tasvirlanayotgan *tog’* obrazi va obrazli ifoda mukammalligida, hamda fikr va tuyg‘u tasvirida Shuhratning xalq dostonchilik an’analardan mohirona foydalana olgani yaqqol ko‘zga tashlanadi. “*Mangulik*” dostonini mutolaa qilish, o‘rganish va tahlil qilish jarayonidan kelib chiqib aytish mumkinki, xalq dostonlariga xos bo‘lgan lirizm va chuqur falsafani shoir o‘z dostonida ta’sirchan ifoda va ohangdorlikni uyg‘unlashtirish orqali bera olgan. Dostonda *ma’shuq, tog’, afsona, xilvatgoh, qo‘ng‘iroq, bir buloq, cho‘ng popoq* tarzdagi band so‘ngida obrazlar talabi bilan yuzaga kelgan ohangdorlik so‘zлari qofiyadosh so‘zлar bo‘lib, shoir dostonidagi o‘ziga xos ifodasi uchun xizmat qilgan.

Shu o‘rinda, dostondagi vaznni aniqlash va musiqiylikni uyushtirish nuqtayi nazaridan barmoq she’r vaznining turlariga to‘xtalish joiz. Vaznlar sodda vazn, qo‘shma vazn, aralash vazn, erkin (sarbast) vaznga bo‘linadi. Sodda vazn misralardagi bo‘g‘inlar soniga teng bo‘ladi va shu bir xillik she’rning barcha misralari uchun xos bo‘lib, she’rning boshidan oxirigacha izchil saqlanadi. Qo‘shma vazn esa birdan ortiq turkumga asoslanadi. Qo‘shma vaznda misralardagi bo‘g‘inlarning soni turlicha bo‘lib, tovlanib turadi, turoqlar ham rang-barang bo‘ladi. Mana shu rang-baranglik ma’lum tartibda takrorlanadi. “*Mangulik*” dostoni ham qo‘shma vazn talablari asosida yozilgan bo‘lib, 8,7, 8,7 rang-baranglik kabi ma’lum tartibda takrorlanadi.

*Yoz kelganda gul-chechakka,
To‘lar zangor etagi.
To kuzgacha yashil turar,*

¹ Shuhrat. Dostonlar. –T.: Adabiyot va san’at, 1977. –B.7.

*Bahor yozgan kurtagi..
 Kim kezmagan bu tog‘larda,
 Kim uzmagan chechagin!
 Kim bilmaydi bu yerlarning,
 Afsonayu cho ‘pchagin!*

Tog‘ obrazi berilishida shoir doston musiqiyigini, ifoda quvvatini ifodalashda she’riy san’atlardan unumli foydalangan va tog‘ obrazi tasviri to‘liq o‘xshatish san’atiga asoslangan. Shuningdek, shoir tog‘ni ma’shuq ekanligini e’tirof etar ekan, *mag‘rur, azamat, mashhur, gul-chechak, afsonayu cho ‘pchak, deya ta ’riflab tanosub san’atini, bir tog‘, azamat tog‘, mashhur tog‘, har qadami, har irmog‘i, kim kezmagan, kim bilmaydi* kabi takrir san’atini qo‘llaydi. Shoir doston davomida lirik kayfiyat va lirik syujetini satrlarda takomillashtirib, mavzu va g‘oyaning ta’sirchan ifodalarini original bera oladi. Ushbu dostondagi parchada *etagi, kurtagi, chechagin, cho ‘pchagin* so‘zlari qofiyadosh so‘zlar bo‘lib, bu qofiyalar “..badiiy ekspressivlikni, obrazlilikni tashkil qilgan holda g‘oyani ifodalashda ko‘makchi vazifasini o‘taydi”¹.

Doston bir qarashda sotsrealizm talablari asosida yozilgandek taassurot uyg‘otadi o‘quvchida. Ya’nikim, doston proletariat rahbari Lenin siyemosini qoya toshga solmoqchi bo‘lgan rassom haqida yozilgandek, “...balladada shoir Lenin bilan bog‘liq bo‘lgan konkret voqeа orqali bir tomondan, Lenin haqida yuragidagi gapni aytishga erishadi, ikkinchi tomondan, davr dramasini ko‘rsatishga muvaffaq bo‘ladi”². Nazarimizda, munaqqid “Lenin haqida yuragidagi gapni aytishga erishadi”, deganda ehtimol o‘ta ehtiyyotkorlik qilgan, aslida shoir Lenin haqida emas, o‘z xalqi haqidagi so‘zlarni aytganini bildirmoqchi bo‘lgandir. Doston yozilgan vaqtga e’tibor beraylik, 1961- yil yanvar, munaqqid tahlili esa 1969- yil.

Hech kimga sir emaski, XX asrning ikkinchi yarmidan asr so‘ngigacha bo‘lgan vaqt oralig‘i sovetlar hukumati siyosatining kuchaygan va dunyoda hukmronlik mavqeiga ega bo‘lgan davri hisoblanadi. Bu davrda mazkur hukumat o‘z mavqeini mustahkamlash va ta’sirini oshirish uchun mamlakat ichkarisida xalqni qo‘rquv va sarosimada saqlab turish uchun ko‘p bor siyosiy qatag‘onlar olib borgan. Shoir ham bu tahlikali davr qurbanlaridan. U endi aytmoqchi bo‘lgan gapini yetti o‘lchab emas, yetmish o‘lchab aytishga majbur. Shu nuqtayi nazardan qarasak, shoirning “*Mangulik*” dostoni qahramoni rassom qalbidagi armon, orzularini aytish uchun chizajak bo‘lgan rasm *proletariat* rahbari Lenin deyishdan o‘zga iloj yo‘q.

¹ Mirhaydarov H. O‘zbek poeziyasida qofiya va individual uslub masalalari: Filol.f. n.diss. –T., 1972. –B.12.

² Normatov.U. Shuhrat. Adabiyot portret. –T.: Adabiyot va san’at, 1969. –B.45.

Zeroki, sotsialistik realizm davrida ijod etgan ijodkorlar haqida adabiyotshunos olim, G‘aybullo as-Salom “...ko‘pgina hushyor yozuvchilar xalq rivoyatlari, afsonalari, asotirlarini yozma adabiyotga olib kirishga harakat qildi yoki tarixiy mavzularga murojaat etdi, o‘zgalarning (ko‘pincha o‘ris yozuvchilar yoki xorijiy mualliflarning) asarlarini o‘zbekchaga o‘girishga moyillik qildi, masal yozdi. Basharti, asliy (original) asar yaratganda ham, majoziy bir tilda, “lisonul g‘ayb” yo‘sinda, turli imo-ishoralar bilan, “qizim senga aytaman, kelinim sen eshit” qabilida qalam tebratdi” deb e’tirof etgan fikrlari naqadar asosli ekanligini, “lisonul g‘ayb” yo‘ldan borgan Shuhratning “*Mangulik*” dostonida ham yorqin ko‘rishimiz mumkin.

Dostonda tabiatning yaratig‘i tog‘ oralab yurgan rassom “Chigirtkalar sibizg‘asi, kapalaklar bazmiga” tahsin, hasanot o‘qish bilan yuragidagi o‘tni o‘chira olmay halak:

*Rassom kezar.... yuragida,
Qaynar ilhom bulog ‘i.
Qaysi birin xatga olsin,
Yetarmikan bo ‘yog ‘i.
Birdan fikrin tortib qoldi,
Ulkan, yassi qoya tosh.
Qoya toshki, ajab emas,
Quyosh bo ‘lsa teng qurdosh!
Ne-ne dovul, ne-ne chaqmoq,
Hamlasiga bergen dosh,
Ne-ne sellar, ne-ne yellar,
Qilmoq bo ‘lgan xomtalash.
Hammasidan g‘olib chiqqan,
Turar hamon purviqor.
Hamon uning qalbi metin,
Etaklari gulbahor.*

Dostonda shoir rassom obrazini yaratar ekan, uning orzu umid, tilagi, yuragini, qalbini o‘rtagan hasrat g‘amini “Ne-ne dovul, ne-ne chaqmoq, Ne-ne sellar, ne-ne yellar” xomtalash qilib mahv etolmagan, barcha balolardan g‘olib chiqqan purviqor ko‘ksi qiya, tekis toshga yo‘nishni maqsad qilganini o‘ziyoq, xalqimiz siyimosini xuddi shunday ko‘rishga orzumand ekanligini ko‘rsatadi, nazarimizda. Aytish mumkinki, ramzlar zamirida ijodkor o‘zi aytmoqchi bo‘lganlarini bayon qiladi. Dostondagi bunday tasvirlar ma’lum ma’noda ijodkorning o‘z ideallari bilan ham bog‘liq tarzda tarannum etilgan. Dostonda rassom toshga Lenin suratini solgani, yillar

o‘tib yurtga maxluq fashist hujum qilgani va beayov g‘azab bilan suratni yo‘q qilish niyatida bo‘yab tashlashganini aytadi. Lekin Allohning qudrati bilan bo‘yalgan rasmdagi bo‘yoq yomg‘ir bois ketib, rasm tik boqib mag‘rur turganligi tasvirlanadi. Doston mazmun-mohiyati ezgulik va yovuzlik, yorug‘lik va qorong‘ulik, bosqinchilar va ozodlikka bo‘lgan ehtiyoji sifatida bo‘y ko‘rsatgan. Keltirilgan parchada *bulog‘i*, *bo‘yog‘i*, *tosh*, *qurdosh*, *dosh*, *xomtalash*, *purviqor*, *gulbahor* so‘zlari qofiyaga olinishi orqali poetik fikr va tuyg‘ular ta’sirchanligi oshirilgan. “*Ne-ne dovul, ne-ne chaqmoq, Ne-ne sellar, ne-ne yellar*” misralarida shoir takrir va tanosub san’atidan o‘rinli foydalana olgan.

Soxta bo‘yoq qanday ko‘msin,
Surat emas axir u!
Unga mangu jilo bergan
Xalqning yurak mehri-ku!
Kim mehrga bo‘yoq surkab,
O‘chiribdi yurakdan!
Kim quyoshga bo‘yoq churkab,
Ko‘chiribdi falakdan!
Kim idroku aql-shuurni,
Mahv etolgan bo‘yoq-la,
U tog‘larning jonli qalbi,
U tug‘ishgan shu tog‘-la!
O‘chmas! O‘chmas! U - mangulik!
Xalqning aynan o‘zidir.

Yuqoridagi parchadan ham aniq, ravshan ko‘rinib turibdiki, nemis fashistlar chaplagan bo‘yoqlar yo‘q qila olmagan, mahv eta olmagan rasm aslida Leninning emas, balki xalqning aynan o‘zi ekanligini, tug‘ishgani bir el ekanligiga shoir satrlar silsilasida yashirin ishora beradi.

Biz dostonni o‘rganganimizda, uning ichidagi tom ma’noda yashiringan shoirning ideal g‘oyasiga e’tibor qaratmog‘imiz lozim. “*Orzu va qasos*” dostonining IV bo‘limida “*Qizil gul ochilar g‘unchadan-g‘uncha, Sarson bo‘ldi ko‘chalarda bir necha*” xalq maqolini epigraf qilib olgan shoirning o‘zi xalqdan ilhom olishini, o‘zi yozayotgan ijod namunalarida o‘zi mansub bo‘lgan xalk poetik tafakkurining ulushi borligini e’tirof etadi. Bu hol adabiyotshunoslikda she’riyatdagi xalqona pafos xususida fikr yuritishga imkon beradi. Chinakam ijodkor deb, o‘zidan oldin o‘tgan salaflari ijodidan ijodiy ta’sirlanib, ulardan ilhomlanib, o‘z so‘z va fikrlarini ularni takrorlamasdan, balki g‘oyalarini rivojlantirgan adibni ayta olamiz. Zero, ijodkorning

“...tasavvurini qo‘zg‘ovchi, unga turtki beruvchi boy haqiqiy assotsiatsiyalar tug‘diruvchi, tasvirlanuvchi voqelikni to‘la va o‘z bo‘yog‘ida bera oluvchi turli murakkab taassurotlar yaratuvchi kuchli badiiy xazinadir”¹. Dostonda musiqiylikni ta‘minlagan “*axir u, mehri-ku, surkab, churkab, yurakdan, falakdan, bo‘yoq-la, tog‘-la*” qofiyalari orqali bandlar aro yaxlitlik, tasviriylik so‘zlar takrori bilan uyg‘unlasha olgan.

Kuzatishlarimiz natijasida shunday xulosa keldik: Shuhratning ballada va dostonlari badiiy jihatdan g‘oyat go‘zal. Bunga sabab, shoir ballada va dostonlarida takrorlanmas poetik obrazlar, yangi detallar topganligidadir. Folkloarning bitmas-tuganmas an‘analaridan bahramand bo‘lganligi shoirning mahorati yuksakligini ta‘minlagan. Ijodkorning liro-epik asarlariga xos muhim xususiyatlar sifatida, matnlarning serma’no metaforalarga boyligi, yaratilgan obrazlarida ramziy-timsollar, ko‘chimlar yordamida ulkan milliy va umumbashariy falsafiy fikrlarning ko‘tarib chiqqanligini qayd etish mumkin.

DRAMATIK ASARLARDA XALQONA PAPOSNING ESTETIK MOHIYATI

O‘zbek dramaturgiyasiga oid ko‘pgina izlanishlar amalga oshirilgan². Shuhratning xalqchil dramatik asarlarida xalqona pafosga xos jihatlarini aniqlash, ularni tahlil qilishda milliy qadriyatlar, an‘analar va badiiylik tamoyillari kabi bir qator masalalar hanuzgacha o‘rganilmagan. “Kitobxon ijodkordan har doim murakkab, original obrazli fikrlardan iborat yangicha “hayot darsligi” yaratib berishni kutadi”³. Biz ana shu ob‘yektiv qonuniyat mezonlarini nazarda tutgan holda, tadqiqotimizning ushbu faslida, XX asr o‘zbek dramaturgiyachiligidagi Shuhrat dramalarida xalqona pafosning estetik mohiyati masalasiga munosabatimizni bildirishni lozim topdik.

Biz muammo sifatida o‘rganayotgan “Pafosda shoir xuddi jonli, go‘zal mavjudotga ko‘ngil bergandek, g‘oyaga maftun bo‘lgan zot sifatida namoyon bo‘ladi, bu mavjudotning o‘zi ana shu g‘oya bilan ehtirosli ravishda to‘lib toshgan bo‘ladi va san‘atkor g‘oyani ongi, idroki bilan emas, faqatgina bir his bilan emas va o‘z ruhining

¹ Mo‘minov F. Izlanishlarimdan qatralar. – T.: Fafur Fulom NMIU, 2006. – B.199.

² Imomov B. Dramaturgik mahorat sirlari. –T.: Adabiyot va san‘at, 1991.; Abdusamatov H. Drama nazariyasi. – T.: Adabiyot va san‘at, 2000.; Abdusamatov H. Tarix va badiiy talqin. –T.:Adabiyot va san‘at, 1995.; Mirvaliyev S. Iste‘dodning qo‘sh qanoti. –T.: Yozuvchi, 1993.; Rizayev Sh. Jadir dramasi. –T.: Sharq, 1997.; Soliyev A. Hayot, dramaturgiya, qahramon. –Samarqand.: Adabiyot va san‘at, 1990.; Soliyev A. Hayot haqiqati va badiiy talqin. – Samarqand.: SamDU nashriyoti, 2002.; Soliyev A. O‘zbek dramaturgiyasida inson talqini. –T.: Zarqalam, 2006.; Jo‘rayev M. O‘zbek adabiyotida komediyaning janr xususiyatlari va ularning tarixiyligi (“Maysaraning ishi”, “Tobutdan tovush” hamda “Temir xotin” asarlari misolida). Filol. f. d-ri diss....–Jizzax, 2021.

³ Rasulov T. Adabiy ijodda uslub //Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. 11 tom (Adabiy - tarixiy jarayon). –T.: Fan, 1979. – B.123.

birorta qobiliyati bilan emas, balki o‘z ma’naviy hayotining butun to‘laligi va yaxlitligi bilan mushohada etadi¹. Muayyan asar pafosi o‘z bag‘rida yashiringan g‘oyani manzilga eltuvchi ehtiros ekanligini I.Sulton “Adabiyot nazariyasi” kitobining “Yozuvchi ijodining pafosi va badiiy asar” bo‘limida tadqiq etgan². Har bir ijodkor xalq dardini o‘z yaratiqlarida bayon qilar ekan, unda hissiy jo‘shqinlik bo‘lishi tabiiy, shu barobarinda “...san’at asarining mag‘zi, javhari estetik mohiyatga ega bo‘lgan his-tuyg‘ulardan iborat bo‘lsagina, o‘ziga xos pafosni ifoda etadi³. Biz o‘rgangan Shuhratning “Besh kunlik kuyov” (1969), “Qo‘scha qaringlar” (1971), “Ona qizim” (1972-1973), “Do‘stimning o‘g‘li” (1981-1982) kabi pesa va komediyalari shunday yaratiqlar sirasiga kiradi.

Dramatik asarlar sahna uchun yozilganligi sababli qahramonlar nutqi, dramada olg‘a surilgan g‘oya xalqona pafos bilan yo‘g‘rilgan bo‘lsa, tomoshabinlar qalbiga tezroq yetib boradi. Shu ma’noda g‘oya va pafos bir daraxtning ikki shoxidir. Asar g‘oyasi negizi pafos bilan bog‘liq bo‘ladi. Pafos asar qahramonining voqealar silsilasidagi o‘rnini, uning yuragidan otilib chiqayotgan jo‘shqin fikr va qarashlarga ko‘tarinkilik bag‘ishlaydi, bosh qahramon olib borgan kurashningadolatli kurash ekanligiga tomoshabinni ishontiradi yoki ishontirishga majbur etadi.

Modomiki, inson badiiy asarning asosiy ob‘yekti ekan, qahramonning boshidan kechirganlari, to‘g‘rirog‘i, boshidan kechirayotganlari, ruhiy holatlari, boshiga tushgan balo toshlariga chidolmay, “oh” urib yig‘lashi yoki boshiga qo‘ngan baxt qushidan shodlig-u quvonch favvorasida cho‘milishi tabiiy holdir. Inson baxt og‘ushidagi sevinch-u quvonchlarini ham, musibat girdobidagi fig‘on-u dardlarini ham ichiga sig‘dira olmaydi. U kimgadir yorilishi, quvonchu alamlarini eng yaqin kishisi bilan “baham ko‘rishi” lozim: “..ikki turli o‘zgarub turar, ba’zi vaqtda falak bir odamni qayg‘uga solar, ul o‘zi tushunib, o‘ylab turub, oh tortub yig‘lar. Bu hasratlarni o‘z ichiga sig‘dirolmas. Birovga aytsa, “Voy bechora” deyurmukin, deb qayg‘usini birovga aytmakka tilar”⁴ ekan, shu murakkab masalada teatr dramaturgga yordamga keladi. Tomoshabin ilk sahnadanoq asar qahramonlarining qaysi biri ijobiy, qaysi biri salbiy ekanini farqlab olib, ijobiy qahramonning boshiga tushgan kulfatdan iztirob chekayotgan qahramon va uning rolini ijro etayotgan artist bilan baravar iztirob chekadi.

Xullas, teatr, dramaturg va aktyor tomoshabinni ko‘rinmas iplar bilan ushlab olib, uning qalb torlarini, kerak bo‘lsa, ko‘tarinki, kerak bo‘lsa, tushkun kuyni ijro

¹ Belinskiy V.Tanlangan asarlar. –T.: O‘zdavnashr, 1955. –B.378.

² Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. –T.: O‘qituvchi, 1986. –B.159.

³ Olimov M. Hozirgi o‘zbek adabiyotida pafos muammosi. –T., 1994. –B.7.

⁴ Cho‘pon. Adabiyot nadir. –T.: Cho‘pon, 1994. –B.35.

etishga sozlab boradi. Ammo har ikki holda ham spektakl (drama)ning finali tomoshabinning teatr zalidan yaxshi kayfiyatda chiqib ketishini kafolatlaydi. Shuhrat teatrning tomoshabinni gipnozlovchi shu xususiyatini yaxshi biladi va sahna asrlarini yozganida shu fenomenni nazarda tutadi.

“Pesa qahramonlarini ataylab aqli qilib ko‘rsatish yaramaydi. Ularni shunday sharoitga tushirib qo‘yish kerakki, bunda ular o‘z-o‘zlaridan aql ishlatishga majbur bo‘lsinlar”¹. Javlon – “*Qo‘sha qaringlar*” komediysi qahramoni xuddi shunday qahramonlar sirasiga kiradi. Komediya ikki pardali, to‘qqiz ko‘rinishli. Komedyada Javlon xotini Tasaddiqxonning ortidan ishga borib, kasalxonada o‘lim bilan olishayotgan bir yosh yigit-bemorning boshiga qo‘lini qo‘yib o‘tirgan holatini ko‘rib, ich-etini yeishi, jufti haloli – ayoliga shubha bilan qarashi, buning natijasida tinch hayotining ichidan zil ketishi achchiq kulgili holatda tasvirlanadi:

Smenadan charchab, uyg‘a kelib jigarbandi – farzandini bog‘chaga qo‘yib kelgan ayoliga:

Javlon. Bolangizni yaslisiga qo‘yib keldingizmi?

Tasaddiqxon (kulib). Nega bitta meniki bo‘ladi, sizniki ham. Bolamizni deng.

Javlon. Yo‘q, yarmi sizniki ekani-ku, anik. Ikkinci yarmiga shubham bor², degan, ya’ni o‘z bolasini ham tan olmay, ishonchsiz, zaharxandalik bilan aytgan so‘zлari uning ma’naviyati naqadar past ekanligini ko‘rsatadi. Javlon ko‘rgan narsasi xiyonat emas, balki kasb yuzasidan qiladigan ishi, og‘ir bemorga beg‘araz ko‘rsatayotgan yordami ekanligini qancha tushuntirmasin, eshitishni xohlamaydi, zulm qilishdan, haqoratlashdan tiyilmaydi. O‘z farzandini “laycha” deya, xotinini san “laychang bilan kimga keraksan”, deb yerga uradi. Tasaddiqxonning eriga aytgan “Olangiz ichingizda ekan. Sizning ilon po‘st tashlaydigan bunaqa nordon so‘zлaringiz bor ekan, shuning uchun oldingi xotiningiz bechora miq etmasdan chiqib keta qolgan ekan” degan so‘zlaridan Javlonning birinchi ayoli bilan ajrashgani asarda ayon bo‘ladi.

Ma’lumki, sahna uchun yozilgan asarlarda qahramon qiyofasi, xarakteri nasr yoki nazmdek muallif hikoyasi, xarakteristikasi, portret tasviri orqali ochilmay, balki qahramonning boshqalar bilan munosabati, o‘z nutqi hamda boshqa personajlarning u haqdagi so‘zлari, fikrlari orqali ochila boradi. Tasaddiqxon bilan Javlonning dialogidan, erining kaltabin, qalbi nopol xarakteri to‘liq namoyon bo‘ladi. Komedyada keltirilgan mana bu matn fikrimizning tasdig‘ini ko‘rsatadi:

¹ Дидро Д. Собрание сочинение. –Москва – Ленинград.: Наука, Т.5. – С.107.

² Shuhrat. Besh kunlik kuyov. Ръыесалар. –Т.: Adabiyot va san‘at, 1985. –B.4 (Bundan keyingi shu asardan olingan iqtiboslar sahifasi qavs ichida ko‘rsatiladi).

Tasaddiqxon (jahl bilan). Buzuq erkak-chi?

Javlon (istehzo bilan). Erkakka hech narsa emas, juda oshib ketsa, “xotinboz” deyishadi. Bu unchalik ayb emas. Erkakning farishtasi ulug“” degan so‘zлari Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanidagi Homidning “Xotinga muvofiq bo‘lish va bo‘lmaslikning uncha keragi yo‘q... xotinlarga “er” degan ismnинг o‘zi kifoya... muvofiq kelmas ekan, muvofiqini olib, xotinni ikki qil! Bunisi ham kelishmasa, uchinchisini ol..¹”, – degan so‘zлarini yodga soladi. Komediyada Javlonning o‘ziga o‘xshagan ma’naviyati past, o‘z hayotini izga solo流氓an, uch bolasi, jufti halolini ko‘chaga haydagan, ikkinchi ayolini “ichishni kamaytiring” degan so‘zлari uchun qo‘yib yuborgan, doimo kayfi baland bo‘lib yuradigan Tayloqxo‘janing xotini Tasaddiqxon haqidagi ig‘vo so‘zлariga uchib, ayolini uydan haydab yuboradi.

Tasaddiqxon qaynonasi qishloqda turgani uchun u yerga bormay dugonasi Sevaranikiga boradi. Sevaraning so‘zлari bilan aytganda, “uchgan qushning qo‘nadigan yerini biladigan” qaynotasi Sobithafsala Tasaddiqxoniga yordam berish taklifini beradi. Voqealar rivojida Sobithafsala hiylasi bilan Javlonning ko‘zлari moshdek oshib qo‘yilishi ishonarli komik tarzda tasvirlanadi. Shu o‘rinda aytish lozimki, komediyada bosh qahramon bilan birga ikkinchi darajali qahramon Sobithafsala obrazi “..voqeanning borishi va taraqqiyot mexanizmida zarur bo‘lmagan bitta ham shaxs bo‘lmasligi kerak”², degan qarashning to‘g‘riligini ko‘rsatib bergen. Voqealar tafsilotini ipidan ignasigacha o‘rgangan Sobithafsala ishga kirishadi, uning rejasicha Javlonning ko‘zлarini ochish uchun Tasaddiqxonning turmushga chiqish sahnasini uyushtirish kerak. Puxta reja. Kelini Sevaraning erini, uylanmagan yigit alfozida, go‘yoki Tasaddiqxonni yoqtirib qolib uylanmoqchi bo‘lgan qilib ko‘rsatish kerak. Komediyada bu jarayon Shuhrat tomonidan maromiga yetkazib tasvirlanadi. Sobithafsalani Javlonning oldiga kelib, go‘yoki tanimagan holda o‘zini sipo tutib, kelin qilish maqsadida Tasaddiqxonni surishtirishi Javlonni shoshirib qo‘yadi. Zero, “..kulгili holatlar ko‘pchilik hollarda shakl bilan mazmun, intilish va natija, da‘vo bilan haqiqat, ulug‘vorlik bilan real puch mohiyat o‘rtasidagi aniq yoki yashirin nomuvofiqlikda, ziddiyatda ko‘rinadi”³. Ayolim deb aytolmagan Javlon, Sobithafsaladan o‘g‘li haqida surishtirar ekan, uylanmaganini bilgach, bitta bolasi bor juvonga nima sababdan uylanadi, degan savoliga “podshoning ishqi qurbaqaga tushgan ekan” degan javobni eshitgach, o‘zi ham baqadek qotib qoladi. Birovdan qolgan xotinu, birovning bolasini bolasi qilish naryoqda tursin, o‘z jufti halolidan noo‘rin sabab bilan yuz o‘g‘igan Javlonni (rashkiga sabab bo‘lgan og‘ir bemor yigit

¹ Qodiri A. O‘tkan kunlar. Tanlangan asarlar. –T.: Sharq, 2014. –B.10-11.

² Belinskiy V. Tanlangan asarlar. –T.: O‘zdavnashr, 1955. –B.194.

³ Abdug‘afurov A. Navoiy ijodida satira. –T.: Fan, 1972. –B.30.

ertasiga vafot etgan edi) Sobithafsalaning aytgan gaplari o‘ylantirib qo‘yadi. Bizningcha, ijodkor bu so‘zlarni Sobithafsala tilidan aytgan bo‘lsa-da, bu qarashda adibning dunyoqarashi o‘z aksini topgan:

Javlon. Baribir birovdan qolgan xotinu birovning bolasi-da.

Sobithafsala. Yo ‘q, boy bo ‘lgur, qishning kuniday juda qisqa o‘ylayapsiz. Bu zo ‘r ish. Birinchidan. Dunyoda bir tirik yetim kamayadi, ikkinchidan, bir bevaning ko ‘z yoshi tinadi. Qiz olib ko ‘ngilsiz bo ‘lganlar, ajralishib ketganlar ozmi? Gap qizjuvonlikda emas, insofda, diyonatda. Qizdur, juvondur ayol zotida hayo, iffat, nomus bo ‘lishi shart(19).

Mana shu o‘rinda adibning xotin-qizlarga qarashlari, iymon-e’tiqodli ayollarga bo‘lgan xayrixohligi ko‘rinadi. Sobithafsalaning Tasaddiqxonga uylanmoqchi bo‘lgan o‘g‘li injener ekanligini bilgan Toyloqxo‘ja Javlonga: *Bir mashina g‘isht falon pul!. Obreznoy taxta-chi? Bir mashinasini oshirsa bormi. Bitta matabning zavxozi men shuncha ishni qilib yuribman-ku*, – degan so‘zlaridan jamiyatda o‘sha paytda urchib kelayotgan poraxo‘rlik, davlat mulkiga hiyonat qilishlik kabi illatlarni mohirlik bilan Sobithafsala nutqida berib ketilishi dramaning ahamiyatini oshirgan.

Komediyada Tasaddiqxon ichki bo‘qoqini davolatish uchun kasalxonaga yotishligini aytib, bolasini qarab turish uchun Javlonga berib ketishi asar dramatizmini kuchaytirgan. Dramaturg asar qahramoniga bolasini qaratish bahonasida, ham ishlab, ham ro‘zg‘or qilib, bola boqayotgan ayolning zimmasida bo‘lgan og‘ir ro‘zg‘or ishlarini ko‘rsatib berar ekan, erkaklarni shuncha zalvorli yukni nozik yelkasiga ko‘targan ayolga iliq munosabatda bo‘lishlikni ko‘rsatib beradi. Yillar davomida ayoli qilayotgan ishni bir kun eplay olmaydi, yordamga qo‘shni juvонни chaqiradi, undan ham “onasini haydab nima qilasiz. Bola boqishning o‘zi bo‘ladimi?”, undan keyin yig‘idan ko‘ndira olmagan bolasini kasal bo‘lib qoldi deb o‘ylab chaqirgan tez yordam xodimiga ayoli ketib qolganini aytganda, uning “*Ketkazib yuborgandirsiz. Ko ‘zingiz bejo!*” degan so‘zları jon-jonidan o‘tib ketadi.

Dialogsiz dramatik asarni tasavvur qilish mumkin emas. Zero, “Pesada ishtirot etuvchi shaxslar faqat ana shu shaxslarning nutqlari vositasida, ya’ni tasvir tili bilan emas, sof jonli til vositasida yaratiladi”¹. Xuddi shunday dialoglardan biri eshik qoqib kelgan Sobithafsala bilan Javlon o‘rtasidagi suhbatdir. Javlon eshikdan kirib kelgan Sobithafsalani ko‘rib hafsalasi pir bo‘ladi. Kelin bo‘lmish kasal bo‘lib yotib qolganini aytganda, ichdan zil ketib:

¹ Gorkiy M. Adabiyot haqida. – T.: Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1962. – B.192.

“Javlon. Boyvachcha kuyov bolaga ayting-da mashinasida aylanirib yurganda, oynasini bekitib qo ‘ysin, shamol bo ‘qoqqa yoqmaydi.

Sobithafsala. Siz shunaqa qilarmidingiz? O’sha uchrashganimizda ogohlantirmagan ekansiz-da, boy bo ‘lgur. Endi hisobga olamiz, o‘g‘limga aytaman hisobga oladi.

Javlon. Iloji bo ‘lsa paranji yopintirsin, shamol tugul, begona erkakning ko ‘zi tushmaydi.

Sobithafsala. “Begona erkakning ko ‘zi”, bu har kimning vijdoniga bog‘liq. Ko ‘chada ochiq yurgan har bir ayol g‘ar-u, har erkak harom niyat emas. Harom ish qiladiganlar paranji-chachvon dovrug‘li paytda ham bo ‘lgan, boy bo ‘lgur. Erkakka ham olam paranjidagidek qorong‘u(35). Sobithafsala so‘zlaridan Javlonning dunyoqarashi torligini, kitob o‘qimaganligini, jumladan Abdulla Qahhorning “Mayiz yemagan xotin” yoki dunyo adabiyotining durdona namunasi bo‘lgan “Ming bir kecha”ni o‘qimagani kundek ravshan bo‘ladi, o‘qiganda u dunyoga hozirgidek emas, Sobithafsala ko‘zlaridek nazar tashlagan, ravshan fikrlagan bo‘lar edi.

Dramada Sobithafsalani Javlonga bergen maslahati ayoliga o‘z ehtiyojini qondiradigan tegishli bir buyumdek qaraydigan, ayolining his-tuyg‘ulari bilan qiziqishni bilmaydigan erkaklarga qaratilgandek yangraydi: *Hech qanday qulfu zanjirning keragi yo‘q, boy bo ‘lgur. Siz shunday yashangki, siz aytgandek shirin so‘zni boshqa hech kimdan ko ‘rmasin. Xotin tutish ham bir san’at. Bulbulning ham erkagi sayraydi, boy bo ‘lgur! Go ‘zal go ‘zal emas, sevilgan go ‘zal! Axir asalari ham so‘ligan guldan bol emmaydi* (35-36).

Sobithafsalaga bolani berib jo‘natib, ming bir yomon xayollar og‘ushida o‘tirgan Javlon eshikdan kirib kelgan Tasaddiqxonga zahrini sochadi, uni benomusdan olib benomusga soladi, hatto hamtovog‘i Toyloqxo‘janing tuhmat gaplariga asoslanib, erga tegadiganing o‘shami, yo yangisimi, deya so‘rashdan toymaydi. Eri Tasaddiqxonni Toyloqxo‘ja bilan yuzlashtirish uchun uchrashtganda esa Toyloqxo‘ja talmovsirab, juftakni rostlab qoladi.

Dramada Javlonning onasi qishloqdan tashrif buyurishi, ayolsiz uyning fayzi bo‘limgandek, hammayoq ivirsib yotganini ko‘rgan onasi O‘g‘ilbibi Javlonni qilgan xatosi uchun qattiq koyishi, unga javoban uni erga tegayotganini aytganda onasi o‘g‘liga ishonmay, kelini Tasaddiqxonga borib bergen dashnomi dramada alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki qaynona tanbehida oila quradigan har qizga ibrat bo‘ladigan saboqning berilishi asarning ta’sirchanligini oshirgan:

Bir uyning to ‘rt burchagi bor. Ikki burchagidan bol, ikki burchagidan qon tomadi. Bolidan lazzat ko ‘rgan, qoniga ham chidaydi. Yoki bir xil xotinlarga o‘xshab

eringizga ustunlik qilgingiz kelib qoldimi! Qo ‘ying-e, sizga yarashmaydi. O‘z qadrini bilmagan xotin shunaqa qiladi.

Sevar. Voy, xolajon, Tasaddiqxon opam unaqa xotinlardan emaslar. Erlarini orqasidan ham sizlab gapiradilar.

O‘g‘ilbibi. Gapirgani shumi! U unda zor, bu bunda zor. Ming qilganda ham eravra, xotin-astar. Avra astardan ortiq turmaydi.

Sevar. Voy, xolajon-ey, biram qiziq gaplarni topib gapirasizki..bizlar astarmi?

O‘g‘ilbibi. Ha, astar! Avrani avra qiladigan astar. Yaxshi bo ‘lsangiz ipak astar, yomon bo ‘lsangiz bo ‘z astar.

Sevar. Ruslar “xotin – bo ‘yin” deyishadi. Sizniki ularnikidan ham o‘tib ketdi, xolajon.

O‘g‘ilbibi. Ha keling, o‘shalar aytgandek bo ‘yin bo ‘la qolinglar. Lekin esinglardan chiqmasinki, bo ‘yin qancha uzun bo ‘lmasin, bari bir boshdan quyida turadi (46).

Drama ikki yoshning qayta topishishi bilan tugaydi, bunga aqli raso kattalar: Sobithafsala va O‘g‘ilbibining hissalari katta bo‘ladi. Ayniqla, asar oxirida Sobithafsala tilidan aytilgan “*qaynanali kelin qarqara kelin, qaynanasiz kelin masxara kelin*” degan so‘zлari komedyada o‘zbekona milliylikni ko‘rsatgan.

“Kulgili narsaning asosida g‘oya bilan shakl yoki shakl bilan g‘oya o‘rtasidagi nomuvofiqlik, ziddiyat yotish”¹ligini yozuvchining “*Besh kunlik kuyov*” komediyasida ko‘rish mumkin. Komediya ikki parda, olti ko‘rinishdan iborat. Asar g‘oyat ta’sirchan, shu bilan birga hayotda uchraydigan insonlarning nafs yo‘lida tashlagan noto‘g‘ri qadamlari natijasini ko‘rsatgan. Asarni o‘qir ekanmiz, ijodkorning badiiy mahorati “..chiroyli ifodalar, antiqa voqealar, kulgili yo qayg‘uli holatlar topish emas, xalqqa aytadigan zarur so‘zi kitobxon qalbiga olib kiradigan obrazlar yaratish”², bo‘lganligini Azlarbek, Kishvarxon, Mirzabahrom timsolida isbotini ko‘ramiz.

“Komediya – odamlarni masxaralab emas, kulgi bilan tuzatishga harakat qiladi”³. “*Besh kunlik kuyov*” asarida yakka-yu yagona, o‘qishni tamomlaydigan qizi O‘lmasxon uchun otasi Azlarbek va onasi Kishvarxonning bir “Volga”ning puliga yetadigan marvarid sotib olib kelishidan boshlanadi. Qizining orzu havasini ko‘rishni orzu qilib yurgan ota-onaning boshida katta muammo bor, u ham bo‘lsa, qizi O‘lmasxonni o‘qish tugashi bilan institut shartnomaga asosida qishloqqa ishlashga yuborishi. Buning yechimini topa olmagan Azlarbek bilan Kishvarxon orasida

¹ Белинский В. Полное собрание соч. в 13-ти томах. том 7. –М.: АН, 1969. – стр. 238.

² О‘ljaboyev U. Zamon talabi va ijodkor mas’ulligi. –Т.: 2012. –В.54.

³ Лессинг Г. Гамбургская драматургия. –М.: Академия, 1936. – стр.112.

beto‘xtov tortishuvlar bo‘la boshlaydi. Onaizor qanday bo‘lmasin qizining shaharda qolishini azbaroyi xudo qattiq istagani uchun erini pora berib bo‘lsa-da olib qolishga ko‘ndirishga harakat qiladi. Pulga kelganda ziqlalik qiladigan ota esa osonroq yo‘lini topishni xohlaydi. Shunday yo‘l bor, faqat bitta. U ham bo‘lsa O‘lmasxonni turmushga berish va zags qog‘ozini institutga topshirib, olib qolish. Lekin onaizor qizining o‘z so‘zлari bilan aytganda: ...*qizimni kaftida, siz bilan meni kiftda tutadigan kuyov kerak: olivy ma‘lumotli, teg-taxtli, husn-jamolli, yursa ko‘cha to‘lib, o‘tirsa o‘rnini sotib oladigan aqli barkamol yigit bo‘lsin. Shu andozamga tushmaydiganining yugani egarining qoshiga tashlog ‘liq, tuyog ‘ini shiqillataversin* (71).

Lekin tabiiyki, hali ularning standart talablariga javob beradigan yigitda sovchi eshik qoqib kelgani yo‘q, kelganlari esa Kishvarxon qo‘yan talabga javob bermaydi. Mana shunday vaziyatda Azlarbekning oshnasi unga vaqtinchalik, yashirinchalik zagsdan o‘tib turadigan kuyov topishni maslahat beradi. Pul ko‘zini ko‘r qilgan, oxirini qisqa o‘ylagan Azlarbekka bu fikr ma’qul tushib, darrov ko‘z o‘ngida qishloqdan ish, baxt izlab kelgan Mirzabahrom o‘tadi. Azlarbek bilan Kishvarxon gapini bir joyga qo‘yar ekan, buni hech kimga bildirmay, ovoza qilmay amalga oshirish haqidagi o‘rtalarida bo‘lib o‘tgan dialoglari asarda dramatizmni kuchaytirish, voqealarni rivojlantirish, konfliktni yuzaga chiqarish kabi badiiy vazifalarni bajarishga asos bo‘lgan:

Azlarbek. Bo‘lmaydi. O‘zing tilingni tiysang, ovoza bo‘lmaydi.

Kishvarxon. Ho..mening tilim shunaqa uzun ekanmi! Kimning ostonasida cho‘zilib yotganini ko‘rdingiz? (74). Kishvarxonning bu gapiga Azlarbek kula-kula xotini ko‘nglini og‘ritmaslik maqsadida aslida hammani tili uzunligi uchun, jazo sifatida toshdan qattiq tishlar devoridan saqlanishini aytar ekan, hind yelimidan surtish kerak, deydi.

Azlarbek tomonidan Hind yelimi haqidagi hikoyatning dramada aytilishi, dramaturgning qoliplash san’atidan o‘rinli foydalanganligini ko‘rsatadi.

Azlarbek. Bir odam Hindistondan yelim olib kelibdi. U bilan yopishtirilgan narsani na issiqda, na sovuqda ko‘chirib bo‘lar ekan. Juda qattiq ushlarkan. Buni bir o‘rtog‘i eshitib qolibdi. Zig‘irday so‘rab kelibdi. Yelimdor: Xo‘s, o‘rtoq nimaga buncha zarur bo‘lib qoldi?, debdi.

O‘rtog‘i: Sababini so‘rama, beraver, juda zarur, debdi.

Yelimdor: Aytsang beraman!, deb oyog ‘ini tirab turib olibdi.

Ey, do‘stim, -debdi o‘rtog‘i, -xotinimning tilidan o‘lar bo‘lsam o‘ldim, tushimga ham gapirib kiradi. Shuning tilini tanglayiga yopishtirib qo‘ymoqchiman. Unday bo‘lsa, -debdi yelimdor, -o‘zimdan ortmas ekan(75). Bekorga ovora bo‘lib kelibsan

deganligini voqealar rivojida isbotini ko‘ramiz. Azlarbekning taklifini eshitgan Mirzabahrom o‘zini sipo, kamtarin tutib “*hammasi yeng ichida bo‘ladi*” degan taklifiga go‘yoki ko‘nib, zagsdan o‘tishga rozi bo‘ladi. Bu gapni eshitib, fig‘oni falakka ko‘tarilgan O‘lmasxonni, otasi Azlarbekning “*Yo‘q, desang ana eshik ochiq, jo ‘na! Menga sendek qizning boridan yo‘g‘i*”, onasi Kishvarxonni esa hushidan ketib qolgani sababli, O‘lmasxonni noiloj rozilik berishga majbur bo‘lganligini ko‘rish mumkin.

Dramaning kulminatsion nuqtasi ular zagsdan o‘tgandan keyin yuqori darajaga ko‘tariladi. “Personajlarning dialogik nutq tuzilmasi dramalarning asosiy matn shakllari”¹ ekanligini, O‘lmasxon arab mamlakatida bir yil o‘qib qaytgan sevgan yigit Odil bilan istirohat bog‘ida o‘tirganda Mirzabahrom kelib, ular o‘rtasida bo‘lib o‘tgan dialog dallilaydi.:

Mirzabahrom. Bu bizning xotinni quchoqlab o‘tirishingiz qandoq bo‘ldi?

Odil (hayron). Tushunmadim.

Mirzabahrom. Tushunmaydigan yeri yo‘q, Odiljon, zakonniy xotinim. Mana, pasportimni ko‘rishingiz mumkin! Zagsga ishonasizmi? (97).

Bo‘lgan voqealar tafsilotini eshitgan Odil Mirzabahromni qanchalik insofga chaqirmasin, bu shunchaki, O‘lmasxonning qishloqqa ishga ketishi uchun ota-onasi chiqargan xiyla qaror ekanligini aytsa-da “besh kunlik” kuyov rolini o‘ynashga rozi bo‘lgan Mirzabahrom battar yuqorida kelar, ularni eshitmas edi.

Odil. Qani, Mirzabahrom, masxarabozlikni qo‘ying. Boring yo‘lingizga!

Mirzabahrom. Men o‘z zakoniy xotinimni begona erkak bilan xilvatda qoldirib ketadigan erlardan emasman. Boshimda do‘ppim bor. Qani oldimga tushing!

O‘lmasxon. Bu qanday bema’nilik, endi nima qildim? Odiljon aka, haydasangizchi, bu surbetni!

Odil. Mirzabahrom, keling, bizni tinch qo‘ying. Keting!

Mirzabahrom. Xotinim shu yerda turib men qayoqqa ketaman? (99).

Matndan ko‘rinib turibdiki, drama qurilishida dialoglar qahramonlar orasidagi konfliktni belgilashda, dramatizmni kuchaytirishga xizmat qilgan. Ko‘rinadiki, komiklik va fojiaviylik asar pafosi bilan bog‘liq bo‘lib, uni anglash muhimdir. O‘lmasxon boshiga tushgan fojiani dramaturg komiklik bilan yuqori pafosda bera olgan. Asarda Odil bilan Mirzabahrom o‘rtasidagi tortishuv katta janjalga aylanib, unga militsioner qo‘shiladi. Uyiga yig‘lab kelgan O‘lmasxon dan Mirzabahromni unga tegajoqlik qilayotganini bilgan onasi:

¹ Зайцева И. Современная драматургическая речь: структура, семантика, стилистика: Дисс. докт. филол. наук.–Москва, 2002. –Б.12.

Kishvarxon. Voy, yovvosh mushuk bo‘lmay o‘lgur, ichidan pishgan ekan-ku. Voy suyuq loyga o‘xshab betga sachramay umring qisqa bo‘lgur, qaysi yuzi bilan shu gaplarni aytdiykin?

Azlarbek (o‘kinib). Choy bo‘lib to‘rga chiqqan suv, bir mahal ariqda oqqanini unutmasa?! Voy la’nati-yey! Shu rostmikan?!

Kishvarxon. Voy, dadasi, O‘lmasxon yolg‘on gapiradimi?! Ignaning to‘mtoq tomoni qo‘lga kirmaydi, deb sizga kim aytdi?

Azlarbek. “Ilon yomon ko‘rgan giyoh uning ini og‘zida o‘sadi” degandek, bu xumparning o‘z uyimdan chiqishini qara.

Kishvarxon. Uningiz o‘lgur, bozor ko‘rgan echki, har balo qo‘lidan keladi. Tezroq daf qiling.

Azlarbek. Anavi ish bor-da, bo‘lmasa, isni bisga qo‘ymay dumini tugatardim-a!

Kishvarxon. Ha aytgancha.

Azlarbek. Mayli, sen podadan oldin chang chiqarmay, dampingni ichingga yutib tur. U bilan o‘zim gaplashaman.

Kishvarxon (o‘zicha). Yot tovuq katak buzadi, bo‘lmasa go‘rga edi!

Azlarbek. Tavba!

Kishvarxon. Tavba, demang. Yomonning shox-butog‘i bo‘lmaydi. Uningizning bir qaynovi ichida.

Azlarbek. Doim kulib yuradigan-ahmoq, pisib-yuradigan firibgar, deb donolar bekor aytmagan(104-105).

Dramadagi Azlarbek bilan Mirzabahrom o‘rtasidagi komik holat, komik ziddiyatlar dramaturg tomonidan maromiga yetkazib tasvirlangan. Azlarbek uni insofga chaqirgan sayin, yuqorida kelar “Ishxonangizga boraman, prokurorga boraman” deb pishqirar, qo‘shnilar eshitmasin degan sayin, balandroq gapirar, “Sizning pul bilan o‘ynashingizni bilmaymanmi? Bu xonodonning miridan-sirigacha menga ma’lum”ligini bilasiz o‘zingizga yomon bo‘ladi, yaxshilikcha shartimga ko‘ning, yo qizingizni chinakamiga menga berasiz, yoki bo‘ynidagi marvarid, deydi. Noiloj qolgan Azlarbek va Kishvarxon Mirzabahrom so‘ragan marvaridni berishga majbur bo‘ladi. Marvaridni olgach, Mirzabahrom ularga uyning domovoyiga kirganligini aytib, rasman shu yerda turishini e’lon qiladi. O‘lganning ustiga tepgan qilib O‘lmasxon ota-onasiga xat yozib qoldirib, bu bezbet kuyovdan qochib institut taqsimlangan yerga ishga ketganligini bildiradi. Drama so‘ngida Azlarbek va Kishvarxon Mirzabahromdan qizini “Bir kami kuyovimdan tezak hidi kelishi qoluvdimi” bermagan Odiljon bilan ketganini eshitib, ikki o‘tni orasida qolsa, Mirzabahrom esa bir “Volga” mashinaga yetarlik pul egasi bo‘lib qolganidan

mamnunligi bilan yakunlanganligi “Epopeyada voqeа, dramada odam hukmron”¹ ekanligini ko‘rsatadi.

Dramaturgning “*Ona qizim*” dramasi uch pardа, yetti ko‘rinishli musiqali sahna asaridir. Drama Hasanni Charosga oshiqu beqaror bo‘lganligidan muhabbatini qo‘shiq qilib kuylashidan, uning ishqida yonishini ko‘rgan chinni zavodda birga ishlaydigan kutubxonachi Asad bilan o‘rtasidagi dialogdan Hasan ammasi bilan birga tushgan qizga oshiqligi, uni turmush qurgan qurmaganini ham bilmasdan oshiq bo‘lgani, bu rasm xotini bilan ajrashgan kuni ertasiga ammasi yozgan xat bilan birga kelgани ma’lum bo‘ladi. Qizni ammasi boqib katta qilganligi, buni hatto Charosning o‘zi ham bilmasligini, shu bois ammasining joni uning qo‘lida ekanligini “*Xayolga cho‘mib, podsho bo‘lmagan kim bor! Ishqilib, ataladan suyak chiqib, tishing sinib qolmasa bo‘ldi*” (126) degan Asadga maqtanib aytadi.

Lutfi ammasining qizlik hovlisi, ya’ni Hasan istiqomat qiladigan uy, u bilan birga ishlaydigan Maston buvining qizi Go‘zal bilan qo‘shni bo‘lishgan. Ancha vaqtdagi ayrılıqdan keyin Qashqardan Lutfi amma qizi Charos bilan ota uyiga keladi. Lutfi ammani Qashqarga borib qolishi, dramada Maston buvi so‘zlaridan aniqlanadi. Yoshgina Lutfini Fayziahmadxon to‘raga uchinchi xotin qilib uzatilgani, to‘ra hukumatdan davlatini olib qochganda kichik xotin Lutfini olib ketganini Go‘zalga aytar ekan, ular kirib kelishadi. Dramada Lutfining monologi katta ahamiyat kasb etadi. Zero, “..dramatik asarlarda monologlarning badiiy-estetik vazifalar doirasi ancha keng. Jumladan, monolog dramatik personajning ruhiy holati, uning ongi-yu qalbida kechayotgan jarayonlarni tasvirlashning asosiy shakli”² .:

Lutfi (ayvon ustunini quchoqlab). Otam qo‘ygan ustun! Otajonim suyangan ustun! (Uy eshigini ochib, tavob qilib). Onam kirib-chiqib yurgan eshik. (Ostonaga yopishib) Otamni ko‘rgan, onamni ko‘rgan ostona! Ota-onam faryod urib qolgan ostona! Men o‘pib, ko‘z yoshimni to‘kib ketgan ostona! Ko‘zlarimga surtay gardingni! Oh, yurtim! Aziz yurtim, ona yurtim! Bobokalon, momokalonlarim xoki jo tuproq, muqaddas tuproq! Seni qanchalar sog‘indim. Qanchalar o‘ylab, armoningda yondim. Qadringga yetmaganlarning ko‘zları sitilib oqsin! (128).

Lutfi amma qizi Charosga o‘kinch bilan ona sutidek pok vatanga sog‘inchini, boshiga tushgan ko‘rguliklar uchun eslab, “..nurdan tiniq ko‘z yoshlarimiz haqqi, darbadar o‘tgan qora yillarimiz haqqi – uni tavob etaylik” deydi. Hasan bilan uchrashgan Lutfi amma kelinni so‘raganda, kelin yo‘q uylanmaganman deb, javob qiladi. Lutfi amma hayron bo‘lib xotinim,

¹Belinskiy V. Tanlangan asarlar. –T.: O‘zdavlashr, 1955. –B.143.

²Quronov D, Mamajonov Z, Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. –T.: Akademnashr, 2013. –B.184.

bitta qizim bor degan edingku, deganda hazillashgan edim, deydi. Dramada monolog va dialog bilan birga juda ko‘p xalqona ohangda personajlar qo‘shiqlar kuylashgan. Masalan:

*Qo‘limdagi qo‘suzukning
O‘zi bor-u, ko‘zi yo‘q.
Toleimni bor, deydilar,
Oti bor-u, o‘zi yo‘q.
Ko‘kda uchgan uch kaptar,
Ola emas, ko‘k kaptar.
Yuragimni varaqlamang,
Armon to‘la cho‘ng daftar* (134).

Charosga dugona bo‘layotgan Go‘zal unga chinni zavodga ishga kirishni taklif qiladi, Hasan ham mug‘obirona, men shu zavodda choynak-piyolalarga gul solaman desa, Asad ishga kirsangiz, kutubxonamga a’zo qilib olaman, yaxshi kitoblardan bahramand bo‘lasiz, deydi. Ular bilan birga bo‘lgan Go‘zal chinni zavodda ishlaydigan Ixlosni choynak va piyolalarga solgan naqshlariga ishqি tushib qoladi. Hasan esa fursatni qo‘ldan berishni xohlamay unga poy-patak bo‘la boshlaydi. Ular orasidagi dialogda Charos xarakteri yaqqol namoyon bo‘ladi: “*Charos. To‘g‘ri, otiona tanlash farzandning ixtiyorida emas, lekin er tanlash, yor-do‘st tanlash kishining o‘z xohishida*” (143)degan qarashlari, Charosni mustaqil fikrga ega, qat’iyatli ekanligini ko‘rsatadi. Lekin shunda ham Hasan niyatidan qaytmaydi “*Qiz nozsiz, qish-qirovsiz bo‘lmaydi*”.

Shu o‘rinda aytish mumkinki, Shuhrat “drama shoiri – qalbning o‘rgatuvchisi (suflyori)dir¹. Dramada deyarli barcha personajlar o‘rni bilan qo‘sinq kuylashi, boshqa dramalaridan farqli o‘laroq Shuhratning ijodkor sifatidagi o‘ziga xos xususiyatini ko‘rsatadi. Ayniqsa, Go‘zal aytgan ashula dramada jo‘shqinligi bilan kitobxonni rom etadi:

*Paxta gulli piyolam bor, piyolam,
San’atimni ko‘rib qo‘ysin bu olam.
Nusxasidan nusxa olsin diliga,
Qo‘sishqlari yangrab chiqsin tiliga.
Sharbat ichsa arzigudek piyola,
Piyolamas, sharob to‘la gul-lola.
To‘yib-to‘yib gar simirsang bir bora,
Yuragingda qolmas hasrat va nola.
Ona yurtim tuprog‘ingdin tuprog‘i,*

¹ Веселовский А. Историческая поэтика. –М.: Высшая школа, 1989. –С.38.

Gulbog 'larga yarashgan bu piyola (137).

Ijodkor dramada xalqona pafosning estetik mohiyatini bir necha ko‘rinishlarda namoyon bo‘la olishini ko‘rsatib bera olgan. Jumladan, Charosning ko‘nglini ovlashga bel chog‘lagan Hasanning aytgan qo‘shig‘i ham xalqona pafos bilan yo‘g‘rilgan bo‘lib, dramaga o‘zgacha shukuh bag‘ishlaydi:

*Bir tutam sochlaring olsam qo ‘limga,
G‘ijimlab o ‘psam-u, taroqlab o ‘rsam.
Nur bo ‘lib yoyilsa atri dilimga,
Belingda to ‘lg ‘ansa, yoningda yursam.
Kel, gulim, o ‘rayin haydar kokiling,
Bo ‘ynimga zanjirdek solsang ham mayli.
O ‘zgalar ishqida yonmasin diling,
Men o ‘zim Majnunman, sen esa, Layli! (148).*

Dramada qahramonlarning his-tuyg‘ulari, orasidagi munosabatlar keskinlashib borgani, Hasan Charosni, Charos Ixlosni, Go‘zal Ixlosni yoqtirishi, obrazlar o‘rtasidagi konfliktlarni yuzaga keltiradi, ularning turli xil kayfiyatlarda, ruhiy iztirob qiyonoqlarida bo‘lishligini keltirib chiqaradi. Ixlosni butun vujudi bilan sevgan Go‘zal o‘ziga befarq ekanligini, uning Charosni sevishini bilib, o‘zini tortadi, ularga baxt tilaydi, o‘zi esa o‘rtanib yonadi:

*Men suydim-u, u suymadi,
Men kuydim-u, u kuymadi.
Sevgi otash zahmatin,
Men tuydim-u, u tuymadi.
Bag ‘rim to ‘la nola-firoq,
Yoqsam endi yonmas chiroq.
Arosatda qoldim, yana.
Yorim ketib mendan yiroq (158).*

Go‘zalning chin muhabbat, yuksak qalb egasi ekanligi, o‘z sevgisidan kechishi, Ixlos bilan Charosga chin yurakdan baxt tilashi, ularning baxtli yashashlarini ko‘rish unga huzur bag‘ishlashining o‘zi, Go‘zalning ma’naviy qiyofasini buloq suvidek naqadar toza ekanligini ko‘rsatadi. Bunga javoban Charos ham Ixlosning oldidan o‘tadi, uni sevishini aytar ekan, Ixlos Go‘zalni odobli, qobiliyatli qiz ekanligini, uni singlisidek yaxshi ko‘rishi, yuragi esa faqat Charos uchun urishini aytadi. Ular o‘rtasidagi beg‘ubor, pok sevgi dramaturg tomonidan shavq-zavq bilan qalamga olinadi. Bularni ular o‘rtasidagi dialog, duet qo‘shiqlarda ko‘rish mumkin. Va aytish kerakki, dramada Shuhratning shoir bo‘lganligi qo‘l kelgan.

Dramada Hasanning Charosga bo‘lgan muhabbatini Go‘zalning Ixlosga bo‘lgan muhabbatiga qiyoslab bo‘lmaydi. Uning muhabbati qanchalik sof bo‘lsa, Hasanning muhabbati manfaat ustiga qurilgan edi. Bu Hasan bilan Asad dialogida yorqin ko‘zga tashlanadi:

Hasan. Ichim yonib ketayapti.

Asad. Yolg‘iz qiz-yalama tuz bo‘ladi, birodar. O‘zigami, moligami?

Hasan. O‘ziga ham, moliga ham. Eshitmaganmisan, oltin kosa o‘zi yaxshi, boli bo‘lsa undan ham yaxshi. Sepsiz xotindan dod!

Asad. Tiling kuyganmi?

Hasan. Bir gilami bor-“qizil oyoq”. Sening katta uyingga ikki buklab solsa bo‘ladi (166).

Hasan Charosga erishish uchun har qanday pastkashlikdan qaytmaydi, Charosning menga aka bo‘lib qoling degan so‘zlariga parvo qilmaydi, uning qalbi bilan qiziqmaydi, suymaganini bilsa ham ahdidan qaytmaydi. Charosga po‘pisa qilishga o‘tadi, unga: ...menden xafa bo‘lmang. Men og‘zidagi oshini birovga yedirib ketaveradigan landovurlardan emasman (167), deydi. Ana shu gaplar Hasanning asl basharasini ko‘rsatadi. Charosni ko‘ndira olmagach, Lutfi ammaga bosim o‘tkaza boshlaydi. Dramada Hasanni xotinim bilan ajrashishga xarakterimiz to‘g‘ri kelmadи, degan gapiga Lutfi ammaning tilidan aytilgan gaplar dramaning o‘zak g‘oyasini oldingga suradi:

Xarakter! Xarakterga o‘t tushsin! Kimni ko‘rsang: “Xarakter!” Bu gap qayoqdan chiqdi?! Er-xotin degan bir-biriga yon bosib, fazilatini oshirib, nuqsonini yashirib yashaydi. Baqaterakday kekkayganning turmushi turmush bo‘ladimi! (171). Lutfi amma aytgan bu gaplar bugungi kun yoshlari uchun ham bir saboq. Hech kimga sir emaski, hozirda ko‘p oilalar shu vaj bilan osongina ajrashib ketmoqda.

Dramada Hasanning jirkanch basharasi bir necha o‘rinlarda yaqqol ochib tashlangan. Qizining ko‘ngliga qarab unga bermasligini aytgach, Hasan bezbetlarcha uyning to‘rini bo‘shatib bergenligini minnat qiladi. Shunda unga berilgan uy otasining uyi ekanligini aytgan ammasiga “Otamdan qolgan mish! Remontiga hazilakam pul ketganmi！”, deydi yuzsizlarcha. Kamiga yana ammasiga po‘pisa qilib, Charos tuqqan qizi emasligini bilishini, shartiga ko‘nmasa, hammaga ma’lum qilishini aytadi.

Dramaturg, bag‘ri kuyuk, kun ko‘rmagan, gul yoshligi bir qari chol bilan o‘tgan onaizorning hasratlarini uning tilidan shunday ma’sum kuylatadiki, eshitgan bag‘ir ezilmay turolmaydi. “Drama faqat sahnada yashaydi, sahnasiz u qalbsiz vujudga o‘xshaydi”¹, ekan asarda bu qo‘schiqlarning kuylanishi sahna tomoshabinlarining e’tiborini yanada ko‘proq tortilishini ta’minlaydi:

¹ Гоголь Н. Полн.собр.соч.в 14-ти т., Т. 10. –М.: Изд-во АН СССР, 1940. –С.263.

*Yetmasmidi yig'lab o'tgan qora kunlarim,
 Yetmasmidi faryod urgan zaif unlarim!..
 Yoril, osmon, boshlarimga toshlar yog'ilsin,
 Nola qilgan bu tillarim, mayli lol qolsin!
 Yig'la, ko'nglim, ko'zyoshlaring yana bor bo'lsa,
 Shimib olsin bu qaro yer agar zor bo'lsa!(172).*

Hasan aytganini qilib, hammaga Charosni asrandi qiz ekanligini, onasi tuqqan zahotiyoy birovning eshigiga tashlab ketganligini ovoza qiladi. Bu gaplar Ixlosning onasi Robiya xolaning ham qulog'iga yetib boradi. O'z yog'iga o'zi qovrilib o'tirgan onaga, qayinsingilisini olmagani uchun eridan dashnom eshitib yurgan alamzada Xajarning bobillab kirishi, o'lganning ustiga chiqib tepgan bo'ladi. Qiziga ukasi shundan boshqani olmayman deganini har qancha tushuntirmasin, Xajar tushunishni xohlamas, qimmatchilik yillari eshak so'yib yotgan kishining qiziga uylanib, ikki bolali bo'lgan erkak, shuni bilib qolib, bolalariga ham qaramay qo'yib yuborganda, nahotki "...nodon ukam tagi-taxtining tayini yo'q qizni olarmishmi? Uyati yo'q. Ro'mol o'rasis... Shunga uylanadigan bo'lsam, sendek jigarim yo'q mening!" (175), deydi. Ona bola qancha urinishmasin Xajarni achchiqdan tushirib bo'lmas, ukasiga dag'dada qilishdan to'xtamasdi. Shunda Ixlos opasiga: ...eringga ham shu tilda gapirasanmi? Kishilar "opang bozorning kindagini kesadi" deyishardi, ishonmasdim, deydi. Xajar esa shunda ham gapdan qolmay: Nima, senga o'xshab, ammamning buzog'iday mo'ltilab o'tiraymi? Insonning mardi bozorchi bo'ladi. Birovning cho'ntagidan bitta tangasini chiqarib olishning o'zi bo'ladimi! Zabon kerak (178).

Dramaturg yaratgan Xajar obrazi hozirda ham ahyon-ahyonda bo'lsa-da uchrab turishi, ijodkorning uzoqni ko'ra oladigan iqtidori borligini ko'rsatadi. Chunki, dramaning vazifasi kishilardagi nuqsonlarni tuzatish uchun ularga ko'zgu tutishdan iborat. Robiya xola esa ikki o't orasida qovrilgancha, yig'lab nola qiladi. Qizining fe'lini yaxshi bilgani uchun, to'yga bosh qo'shmayman deb ukasining to'yiga berilgan sarpolarni olib ketganidan qattiq iztirob chekadi. O'zini Charosni yaxshi surishtirmagani uchun o'zini aybdor his qiladi:

*Ko'rmayin bosdim tikanni,
 Tortadurman dardini.
 Ko'rsam erdim, bosmas erdim,
 Tortmas erdim dardini.*

Dramatik asar ijtimoiy va g'oyaviy masalalarni chuqur pafos bilan yetkazish bilan qimmathi ekanligini, asar mutolaasi davomida shohidi bo'lamiz. Robiya xolanikidagi voqealardan farqli o'laroq, Lutfi amma uyida sovuq sukunat hukm

surardi. Bir umr o‘zini ona deb hisoblagan, bugunda jigarbandining yuziga qarab, uni o‘z qizi emasligiga iqror bo‘lish Lutfi ammaga azob bersa, o‘zining kimligini bila olmay arosatda qolgan Charosda o‘zining kimligini bilishga ishtiyoyq balandligi, lekin onaizorini xafa qilib qo‘ymaslik uchun, uning issiq bag‘riga bosh qo‘yishi, kitobxonni hayajonga solmay qo‘ymaydi. Charosga otasini gomindonchilar qatl etgani, onasi judolikka dosh berolmay yotib qolib vafot etgani, ularning bag‘ri keng, yaxshi inson ekanligini bilishigina, ozroq bo‘lsa-da tasalli beradi. Charosning yig‘layotgan Lutfi ammaga aytgan: *Men sizning qizingizman, o‘z qizingizman. Siz bir parcha etligimdan yuvib-tarab, sevib-ardoqlab, yemay-yedirib, ichmay-ichirib, o‘ksitmay katta qilgan onamsiz, onajonimsiz. Oq sut bergen onamday onamsiz, jondan aziz mehribonimsiz.* Men sizning jigarporangizman. Suyansangiz tog‘ingiz, boqsangiz bog‘ingizman

(180), so‘zлari Lutfi ammaning umri bekorga o‘tmaganini, qilgan mehnatlari zoye bo‘lmaganligini isbotlaydi.

Dramaning kulminatsion nuqtasi to‘yni qaytarish uchun bo‘g‘cha olib kelgan Xajarning Lutfi ammaning so‘zlarini eshitmay haqoratlaganida, Ixlosning Charos bilan Lutfi ammani bu g‘urbatxonadan yangi kvartirasiga olib ketishi, to‘y qilishini aytgani kitobxonni ko‘nglini yorishtiradi, quvontiradi. Jamiyatni Ixlos singari hur fikrli, iyomon-e’tiqodli odamlar borligi ushlab turishi, adibning azaliy bir orzusi sifatida asarda bong urgan.

Shuhratning “*Do ‘stimning o‘g‘li*” asarini ham yuqoridagi dramalar qatori “..davrning dolzarb ma’naviy-axloqiy muammolarini badiiy til orqali yoritishga, jamiyat, tuzum ma’naviy-axloqiy jihatdan tanazzulga uchrayotganini ko‘rsatishga, bundan ogoh etishga bag‘ishlangan”¹ asarlar sirasiga qo‘shish mumkin.

Drama bugungi kunda ham katta ahamiyat kasb etishini, uni o‘qiganimizda ich-ichimizdan his qilamiz. Negaki, dramada bo‘lib o‘tgan voqealar yaqin kunlarimizda nihoyat darajada avj olib ketganligi, bu drama mana shu yaraning oldini olish uchun yozilganini vaqtida anglay olmaganimizda, deb o‘ylaymiz. Yuqorida aytganimizdek, Shuhratning o‘ziga xos iqtidori, xalq tafakkuri rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan og‘riqli nuqtalarni oldindan ko‘ra olishida va ularni asarlarida badiiy bo‘yoqlarda tasvir ettira olganida yaqqol ko‘rinadi.

Drama ikki parda, besh ko‘rinishdan iborat bo‘lib, u ikki yosh – Manzura bilan Intiqomning to‘y oldi uchrashuvidan boshlanadi. Ularning to‘ylariga ozgina kun qolgan, Manzuraga nikoh ko‘ylagi tashvishi tushgan, shunday shirin tashvishlarni kuyib-pishib so‘ylar ekan, Intiqomning uni eshitmay xomush turish sababini so‘raydi. Intiqom kechasi bilan yaxshi uxmlay olmay, allabalo tushlar ko‘rgani, kamiga bir

¹ Nazarov B. Abdulla Qahhor badiiy haqiqati // O‘zbek tili va adabiyoti, 2007. №4. –B.7.

kafedrada ishlaydigan Berdialiyevnin bugun leksiyadan chiqishi bilan ikki organ xodimi, yana darsim bor, deyishiga qaramasdan olib ketganini aytib, boshi og‘riyotgani uchun ketishga izn so‘raydi. Manzura bilan xayrlashib, endi keta boshlagan chog‘da uni ham organ xodimlari hibsga olishadi. Dramaning ishtirokchilari haqida so‘z yuritayotgan bo‘lsak, Intiqom Vatan urushida bir safda xizmat qilib, jangga kirgan prokuror O‘tkir Qilichevning quroldosh do‘sti Qurbonning o‘g‘li. Ikkinchisi tomondan yakkayu-yagona opasi Masturaning qizi Manzuraning bo‘lajak turmush o‘rtog‘i.

Intiqomning qamalib qolganini eshikdan yig‘lab kelgan qizidan eshitgan Mastura oyog‘ini qo‘liga olib ukasining uyiga yuguradi. Opasini to‘y tashvishida keldi deb o‘ylagan O‘tkir Qilichev voqeani eshitib hangu-mang bo‘lib qoladi. Telefon orqali tafsilotini bilgach, opasini tinchitishga harakat qiladi, lekin sergak turgan opasi ukasining rangi o‘chib ketganligidan ish jiddiy ekanligini payqaydi. Xoli joniga qo‘ymagach, noiloj bo‘lgan ishni, ya’ni institut o‘qituvchilari bilan uyushgan holda ko‘pchilik bo‘lib pora olganligi bois hibsga olganligini aytadi va ertaga borib to‘liq ma’lumot olishini bildiradi.

Ertasiga ishga borgan O‘tkir Qilichevning huzuriga Qurbon do‘stining ayoli Mehriniso arzi xoli bilan keladi, unga ham ishni o‘rganib chiqib, imkon darajasida yordam berishini aytadi. Drama boshidanoq kuchli dramatizm bilan boshlanadi. Bugun gumondorlikda hibsda saqlanib so‘roq qilinadigan yigit har tomonlama O‘tkir Qilichevga aloqador. Nima qilmoq kerak. Vaziyat jiddiy, Intiqom esa tergovchini qiyab, o‘jarlik qilib savollarga javob bermaganini bilgan O‘tkir Qilichev, sheriklarini so‘raganda, ular ayblariga iqror ekanligini, faktlar ham tasdig‘ini topganini biladi.

Dramada “..dialog fikriy “qilichbozlik”: bir personajning zarbasi uning qarshisidagi personajning ham zarbasi sabab bo‘ladi”¹. Bu holatni O‘tkir Qilichev bilan Intiqom o‘rtasida ko‘rish mumkin. U bilan so‘roq o‘tkazib, yonidan chiqqan omonat cassasi daftarchasida yig‘ilgan pullarning qayerdan kelganligini so‘raganda “Chayqovchilik qilmagandirman. Yoki yo‘l to‘siganmikanman?” (208) deya achchiqlanib javob beradi. O‘tkir Qilichev esa bosiqlik ila uni insofga chaqirib, savollarini davom ettirar ekan, kandidat bo‘lganiningizga ikki yil bo‘lgani yo‘q undan oldin, aspirantlik stipendiyasi olgan bo‘lsangiz, buncha pulni yig‘ish mumkinmi, degan so‘rog‘iga g‘azablanib, o‘g‘irlaganman, degan javobiga o‘g‘irlamagansiz, lekin boshqacharoq yo‘l bilan kelgan shuni aytindeganda:

Intiqom. O‘g‘irlaganman, deyapmanku, bu kammi?!

O‘tkir (xotirjam) Albatta, kam. Sizning qilgan ishingiz o‘g‘irlikdan yomon.

¹ Sulton I. Adabiyot nazariyasi. –T.: O‘qituvchi, 2005. –B.193.

Intiqom. Menikini ko‘zingiz ko‘rdimi? Men cho‘ntak kesgan, yo‘l to‘sigan muttahamdan ham yomon bo‘ldimmi? Shularning hammasi peshona teridan topilgan pulga olinganmikan?! Oktyabr massiviga borib ko‘rdingizmi? Dang‘illama uchastkalarni tomosha qildingizmi? Oq uy, ola bargak. Naqshin darvozasida garaji ham bor. Shular ham beli bukilib, qo‘li qadoq bo‘lib topgan pullariga solinganmikin? Bir surishtirib ko‘rmaysizmi, o‘rtoq prokuror. Magazinchи va bazachi boyvachchalarining ro‘zg‘or tutishini ko‘rganmisiz? Kurortga borib, xarajat qilishlariga ko‘zingiz tushganmi? Ular mendan ortiq maosh olishmaydi. Bu davlatlar qayyoqdan kelayotgan ekan, qiziqmadingizmi, o‘rtoq prokuror (208–209). Intiqomdan bu gaplarni eshitgan O‘tkir Qilichev uni tinchlantirmoqchi bo‘lib, ularning barisini haromxo‘rga chiqarishga haqqi yo‘qligini qonun borligini, hamma vaqt soati bilan hisob–kitobini berishini aytganda, unga javoban Intiqom: ...bir chalasavod magazinchining hayoti o‘n besh yil o‘qib, oliy ma’lumot olgan, uch yil aspiranturani o‘tagan, kandidatlikni yoqlab, o‘n yildan ortiq doktarant bo‘lgan fan doktori yoki 30 yil dars bergen professornikidan yaxshi. Xotinining barmoqlarida qo‘sh–qo‘sh brilliant uzuklar, bo‘ynida Qizil dengizning oltirang g‘adir–budir yirik marvaridi 4–5 qator. Eng asil, hali modaga kirmagan narsalarni o‘shalar kiyadi. Zallaridagi xrustal qandillar bilan Yapon magnitofonlarini aytmay qo‘ya qolay! (209), deydi. Ular orasidagi bu dialog fikrlar jangi sifatida asarda dramatizm kuchaytirish, konfliktni yorqinlashtirishga xizmat qiladi.

Dramaturg Intiqom tilidan jamiyatimizdan bo‘layotgan ko‘pgina illatlarni aytib ketadi, jumladan, katta-kichik amaldorlarning uyiga tug‘ilgan kun bahonasi bilan sovg‘a-salomlar-u, o‘g‘il-qizining to‘ylarida qilinayotgan katta-katta to‘yonalar, kurortga ketayotganda “*bizni ham eslab bir-ikki kun o‘ynab qo‘ying*” (210) deb qo‘liga tutilayotgan in’omlar.

Dramada O‘tkir Qilichev qilgan ishidan pushaymon yeb kechirim so‘rasa kerak deb o‘ylagan O‘tkirning bu gaplarini eshitib, hayratga tushadi “*hamma qilganda, men ham qilsam, nima bo‘libdi?*” *demoqchi nodon. Nahotki, fan kandidati bo‘lgan bir odamning hayot haqiqatiga fahmi yetmasa!*” (210) deya kuyinadi. Opasi bilan quroldosh do‘stini ayoli undan yordam so‘rab kutib turganda, uning aybdor ekanligi ma’lum bo‘lib turibdi. Nima qilmoq kerak, qanday yo‘l tutsa to‘g‘ri bo‘ladi, agar qonun bilan ish tutsa opasi bilan yuz ko‘rmas bo‘lib ketadi, qonunga zid ish qilishga olgan tarbiyasi yo‘l qo‘yamaydi. Axir “Hammaga yaxshi ko‘rinaman degan odam hech qanday ezgu ish qila olmaydi, chunki yomonlikni haqorat qilmasdan, unga qarshi kurashmasdan turib, yaxshilik va ezgulikni yuzaga chiqarish mumkin

emas”¹ligini bilgan “*O’tkir Qilichev uzil-kesil bir xulosaga keladi, ularning ishini sudga oshiradi. “Poraxo’rga shafqat yo‘q!”* (211).

Yuqoridagi dramatik asarlar tahlilidan ko‘rinib turibdiki, Shuhratning dramalari hozirda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan ekan “..sahnaga qo‘yilmagan dramatik asar uyqudagи go‘zal”²ligini hisobga olgan holda, o‘z vaqtida sahnadan tushmagan ijodkor dramalarini bugungi kunda ham o‘z tomoshabinlariga yetkazish muhim, deb o‘ylaymiz. Demak, Shuhrat dramalari mazmunida xalqimiz tafakkuri, ruhiyati va amallaridagi umumiy jihatlari, ulardagi qaytarilmas o‘ziga xoslik, dramatizmda monolog va dialoglarida namoyon bo‘lgan.

XULOSA:

1. Shuhrat ballada va dostonlarida Vatan mavzusini yoritishda shoir lirik chekinish bilan o‘z armonlarini, iztiroblarini, totalitar tuzum man etgan eskilik sarqiti, millatchilik deb qoralagan qadriyatlarimizning toptalayotganini qalamga olib ketgan. Shuningdek, asarlari g‘oyasida shoirning maqsadi, adabiy-estetik qarashlari o‘z tajassumini topgan.

2. Shoir xalq dostonlariga xos bo‘lgan lirizm hamda chuqur falsafani ballada va dostonlarida ta’sirchan ifoda ohangdorligida uyg‘unlashadirish orqali Qodiriyl, Cho‘lponlarning g‘oyaviy qarashlarini qahramonlarcha davom ettirgan va aytish mumkinki, milliy urf, qadriyatlarni hurmatlash, qadrlash jinoyatmi deya hayqira olish Shuhratgagina xos jasorat, bir xususiyat edi.

3. Shuhratning xalqchil dramatik asarlarida xalqona pafosga xos jihatlar: milliy qadriyatlar, an'analar va badiiylik tamoyillari drama janr sintezi jarayoni mahsuli sifatida lirik xususiyatlarini o‘zida singdira olgan.

4. Dialog va monologlarni asarda qo‘llanishi ijodkorning voqelikni falsafiy-lirik uslubda idrok etish, qahramonona-romantik obraz yaratish, falsafiy-psixologik yondashuvini keltirib chiqargan. Natijada, Shuhrat komediya va dramalarida dramatizm, tragediyaga xos fojeaviylik, voqeabandlik kabilar uyg‘un holda namoyon bo‘lgan.

5. Shuhrat ijodini atroflicha tadqiq etish nafaqat bir individual ijodkor, balki XX asrning ikkinchi yarmidagi avlod she’riyati, nasr va dramaturgiyasining mavzumundarijasi, uslubiy-shakliy izlanishlari borasida ham muhim nazariy xulosalar chiqarish imkonini yaratadi.

¹ Qosimov U. Haqgo‘ylik va xalqchillik ibrati // Til va adabiyot ta’limi. №11. 2009. –B.75.

² Погодин Н. Автобиографическая заметка.– В кн.: Советские писатели. В 2-х т., Т. 2. – М.: Госполитиздат, 1959. – С. 227.

IJODIY USLUB VA O'ZIGA XOSLIK

Hikoyada syujet va obraz yaratish mahorati

Hikoya – alohida mahorat, lo‘ndalik, fikr va tuyg‘ularni bir yerga to‘plashni talab qiladigan qiyin janr. O‘zbek adabiyotshunosligida hikoya janri bo‘yicha bir qancha dissertatsiyalar¹ himoya qilingan. Ammo biz tahlilga tortgan Shuhrat hikoyalarida syujet va obraz yaratish mahorati alohida tadqiq va tahlil qilingan emas.

Adibning “Balog‘at” hikoyasi bosh qahramoni O‘lmasxon ruhiy olamida kechayotgan bu g‘alayonlar hayotiy vaziyat tufayli shakllangan. Hikoyada O‘lmasxon ko‘ngli g‘ash bo‘lib, ruhan ezilib, qiynalib yurishi adib tomonidan ishonarli tasvirlangan. Injenerlikda o‘qiydigan O‘lmasxon ikki yil o‘qishini musofirchilikda davom ettiradi. Mana shu o‘qish davrida o‘z kasbining ustasi bo‘lgan Varvara Petrovnadan saboq oladi. Nafaqat ma’ruzalarini tinglaydi, balki uning mehr-shafqatidan bahramand bo‘ladi. Musofirchilikda bir oycha kasal bo‘lib qolganida, undan tinimsiz xabar olib, hattoki topilishi qiyin bo‘lgan kamyob dorini topib berdi. O‘lmasxon bundan o‘ng‘aysizlanganda, Varvara Petrovna uni urishib: “-Uzug‘ingning ulog‘i, yirtig‘ingning yamog‘i bo‘lmagan do‘sning boridan yo‘g‘i yaxshi. Do‘sning sinovi tashvishli kunlar, ayriliq, shundaymasmi? Axir siz bilan biz bir daraxtning barglarimiz, nega o‘ng‘aysizlanasiz!”², degani va keyin uni tuzalib qaytishi bilan dachasiga olib ketib, avval sog‘liq kerak, busiz ilm olib bo‘lmaydi, deb yaxshi parvarish qilgani yodiga tushib vijdoni qiyaldidi. Ikki o‘t orasida qoldi, nima qilish kerak, hammasidan ko‘z yumishimi, yoki uyat andishani yig‘ishtirib qo‘yib, haqiqatning yuzaga chiqishi uchun o‘ziga yaxshiliklar qilgan insonga qarshi chiqishimi? Adib asar qahramonini to‘laqonli obraz sifatida yaratish uchun inson ruhiyatini yaxshi bilmog‘i lozim. Sababi “Qahramon – bu quyulma (prototip - izoh bizniki N.S.). Uni yaratish uchun yuzlab odamlarni uchratish kerak, biroq bu uchrashuvlar kamlik qiladi – quyulmani yaratish uchun avtor o‘zidan biron narsa qo‘shishi kerak”³, – degan qarashlarga amal qiladi. Shuhrat Bashorat obrazini yaratish uchun jamiyatdagi o‘nlab prototiplarni kuzatdi, o‘rgandi. Natijada mukammal obraz yaratishga muvaffaq bo‘ldi.

¹ Alimuhammedov A. Abdulla Qahhor hikoyalarida odam obrazi: Filol. f. n... diss. –T., 1948; Норматов У. Основное тенденции развития современного узбекского рассказа (1956-1961): Филол. ф. н.... дисс. –Т., 1963; Владимирова Н. Развитие жанра рассказа в узбекской советской литературе. –Т.: Фан, 1977; Владимира Н.В. Развитие узбекской прозы XX века и вопросы художественного перевода. –Т.: Фан, 2011; Odilov Sh. Keyingi yillar o‘zbek hikoyalarida zamondoshimiz obrazi (70-80 yillarda): Filol. f. n... diss. –T., 1989; Doniyorova Sh. Shukur Xolmirzayev hikoyalarining badiiy uslubiy o‘ziga xosligi: Filol. f. n... diss. –T., 2000.

² Shuhrat. Tanlangan asarlar. 3jildlik, 2 jild. –T.: Adabiyot va san’ati, 1980. – B.411.

³ Umurov H. Badiiy psixologizm va hozirgi o‘zbek romanichiligi. –T.: Fan, 1983. –B.81.

Bosh prorab, yosh bo'lsa-da o'z kasbining ustasi darajasini egallagan Bashorat ulkan, besh qavatli binodagi ministrlikdan tushgan ustozi Varvara Petrovnaning proyektini sinchkovlik bilan ko'rib chiqishida, uy balkonlarini ortiqcha serbezak va dabdabali hashamatdor bo'lishi natijada bino qurilishi qimmatga tushishini aniqlagani va o'ziga qarshi fikrlarini aytishi hikoya tugunini yuzaga keltirgan.

"Ustoz otangdek ulug"" aqidasiga rioya qilayotgan, sharqona tarbiya olgan O'lmasxon, qolaversa, uning mehr-muhabbatidan bahramand bo'lgan inson sifatida, ustozning loyihasiga qarshi chiqishi va o'z loyihasi taklifini berishi uning yurakbag'riga nishtar kabi sanchilar edi. Buni ustozi qanday qabul qilishini bilmas, uni ranjitib qo'yishni o'ylasa, vijdoni qiynalar edi. Adib Bashoratning ruhiyatida kechadigan ikkilanish holatini quyidagicha tasvirlaydi. Go'yoki Varvara Petrovna unga qarab: *Balli, balli! Shuncha yaxshilim evazigami bu? Qachon yaxshilikka yaxshilik qaytibdi!* (413) deyayotgandek ko'rinaldi. Bashorat bu holatga, ya'ni ustozi qarshisiga chiqishga aslida uzoq tunlar o'ylanib, aytadigan fikrlarini pishitib, oxiri uzil-kesil xulosaga kelgandan keyin bosh injenerga ma'lum qilgan edi. Endi esa sarosimada, nima qilish kerak, yuz-ko'zga tushib, andisha Bashoratni bir pasda shogirdlik maqomiga tushirdi. Lekin O'lmasxonning Varvara Petrovnadan olgan tarbiyasi yuzaga chiqib, haqiqatni har qanday sharoitda bo'lsa ham aytish kerak, degan qarorga keldi.

Mana endi o'sha kutilgan kun keldi. Varvara Petrovnaning o'zi proyekt taqdimotiga kelayotganini eshitgach, Bashoratni qora ter bosdi. Kamiga dugonasi Hanifa ustozi qilgan behisob yaxshiliklarni pisanda qilib, insofga chaqirib: *Siz mendan o'rganing*, deysanmi? *Yaxshimas, O'lmas! Kishiga hayo kerak. Bilimdonlik ham evi bilan! Hali ham shu ishingdan qayt, hali kech emas. Keyingi pushaymon – o'zingga dushman* (413) – degan so'zları battar O'lmasxonni hayajonga solar edi. Ichini tinmay tirnayotgan savollar, taxminlar uning jussasiga og'irlilik qildi.

O'lmasxon xarakteriga xos o'jarlik xususiyati hikoyada mohirona tasvirlangan. Proyekt muhokamasiga O'lmasxon ustozi, qolaversa, markazdan kelgan vakilaning proyektini qanday qilib tanqid qilar ekan, degan qiziqishda yig'ilishlarga kelmaydigan master va brigadirlargacha kelgan. Hikoya o'z kulminatsion nuqtasiga shu o'rinda yuqoriga ko'tariladi. Bosh injener bilan proyekt smetasini ko'rib chiqayotgan Varvara Petrovna O'lmasxon bilan doimgidan boshqacharoq ko'rishdi. Bu albatta O'lmasxonning nazaridan chetda qolmadı. Lekin O'lmasxon o'jarlik bilan proyekt haqida qarashlarini yig'ilish muhokamasiga kelganlarga bildirib o'tdi. Muhokama boshlangandan to oxirigacha jim o'tirgan Varvara Petrovna o'z proyektini himoya qilishga ham, qurilish boshlig'i "Varvara Petrovna, so'zlaysizmi?" deganda "yo'q,

o‘ylab ko‘rishim kerak”, degancha yig‘ilish tugashi bilan xayrashmay ketishi bosh qahramon O‘lmasxonga yomon ta’sir qilganini, hikoyada yozuvchi qahramon ruhiyati, ichki kechinmasida shunday tasvirlaydi: *Mendan xafa bo ‘ldi. Hanifa to ‘g‘ri aytgan ekan*”, *degan xayolga keldi. Mundoq atrofiga qaragan edi, Hanifaning ko‘zini uchratdi, Uning ko‘zлari “xo‘sh, endi qalaysan? Kim haq ekan? Maslahatimga ko‘nmading, ayb o‘zingda” degandek edi....Erining dalda berishlaridan ancha ko‘ngli tinchigan bo‘lsa ham, baribir tuni bilan tinch uxlolmadi: allaqanday mujmal tushlar ko‘rdi. Ertalab og‘ir kasal bo‘lgan kishidek rangi siniqib turdi* (416).

Ijtimoiy hayot, ish jarayoni bilan bog‘liq islohotlar tufayli O‘lmasxon tafakkuri, dunyoqarashi, ruhiy dunyosi, ma’naviy qiyofasining o‘ziga xosliklari hikoyada yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ustozi Varvara Petrovnani ranjitib qo‘ydim, endi yuz ko‘rmas bo‘lib ketamiz, degan o‘y unga bir zum bo‘lsa-da tinchlik bermasdi. Muhokamaning ertasiga qo‘li ishga bormagan, rangi siniqqan O‘lmasxonnikiga Varvara Petrovnaning kirib kelishi O‘lmasxon uchun kutilmagan sovg‘a bo‘ldi. U Varvara Petrovna to‘g‘risida noto‘g‘ri fikrga borganligi uchun biroz o‘ng‘aysizlandi. O‘lmasxon, ayniqsa ustozining to‘lqinlanib aytgan “*Xafa bo‘lish xayolimga ham kelgani yo‘q. Aksincha, sening o‘sganiningni, balog‘atingni ko‘rib quvondim. Yo‘q, yo‘q, to‘g‘ri daraxtdan egri soya tushmaydi! Nahot men do‘stona fikr, tanqiddan yuz o‘girsam. Axir sen bilan bizni balog‘atga yetkazgan, ulg‘aytirgan mana shu do‘stona tanqid va tuzatishlar-ku!* Demak, sen mening o‘rnimda bo‘lganingga xafa bo‘larkansan-da. Shundaymi? O‘lmasxon javob o‘rnida boshini quyi soldi. – *Tanqiddan xafa bo‘ladigan kishi kelajagidan umidini uza bersin. Do‘stona, to‘g‘ri tanqid, tuzatishlarga quloq solmagan odam ildiziga buzoqboshi tushgan mevali daraxt. Hosildan qoladi.* To‘g‘ri tanqid jizzaki, o‘z kuchiga, uquviga ishonmagan kishilarda qasos, alam tuyg‘usini uyg‘otadi. Axir shamol ham yengilni uchiradi-da, og‘irni qo‘zg‘atib ko‘rsin-chi!” (418), degan gaplari O‘lmasxonning butun noto‘g‘ri o‘y-fikrlarini tarqatib yubordi. Bu parchadan shu narsa anglashiladiki, inson uchun nafaqat o‘zganing, balki o‘z ruhiyatini anglash, tushunish ham ancha qiyin ekanligini yozuvchi O‘lmasxon obrazida “*Mana endi, shu gapingdan xafa bo‘ldim. Chindan xafa bo‘ldim. Sen meni bilmas ekansan!*” (418) degan Varvara Petrovna so‘zлari orqali ko‘rsatib beradi. Hikoyada O‘lmasxon ruhiyatidagi xatti-harakatlari va sezimlari hikoyada mantiqan uyg‘unlashib, hayot mantig‘iga monand kelgani hikoyaning o‘qimishli chiqishini ta‘minlagan.

“Adabiyot shunday borliqki, unga qaragan kishi (millat) go‘yo ko‘zguga boqib o‘z holini ko‘radi”¹. Adibning xuddi shunday “*Aldanish*” hikoyasi hayotiy konflikt

¹ Hamdamov U. Ruhni uyg‘otuvchi so‘z. –T., 2017. –B.3.

asosida yaratilgan bo‘lib, unda jamiyatda urchib kelayotgan nojo‘ya harakatlarni ko‘ramiz. Hikoya institutning aspirant o‘qituvchisi Nosirjon bilan univermag sotuvchisi Nazokatxon o‘rtasidagi munosabat va ziddiyat asosiga qurilgan. Hikoya Nosirjonning boshidan o‘tkazganlarini aytib berish yo‘li bilan yozilgan.

Hikoyadagi qahramon Nosirjonning o‘zi haqidagi hikoyasini qandaydir mungli ohang, alam bilan: *Nima bo ‘ldi-yu, vaqtida uylanolmadim, yoshim o ‘tinqirab qoldi. Tepa sochim siyraklashib, chakkamda uch-to ‘rtta oq tola ham paydo bo ‘libdi. So ‘ligan guldan asalari bol emmaydi – bu to ‘g‘ri gap. Bo ‘lmasa birorta qizga yoqib qolardim. Yo o ‘zim xushomad qilishni bilmaymanmi?* (420), deya o‘ylay boshlagan Nosirjon tezda pessimistik holatdan o‘z hayot yo‘liga boqishi orqali, masrurlanib, o‘n yillik o‘qishni yaxshi tugatib, er yigit qilishi kerak bo‘lgan xizmatni – armiyani sharaf bilan bajarib, o‘qishga kirib, a’lo baho va yaxshi xulqi uchun aspiranturada qolganini aytar ekan, g‘ururlanib “...*Xullas mendan, nazarimda, kamchilik topib bo ‘lmaydi: yigitmisan, yigitman. Bir jonon, sanama rasta qizning qo ‘ltig‘ida yursam xijolatda qo ‘ymayman. Bir shoxda ochilgan qo ‘shoq gulga o ‘xshab ketsak kerak*” (420), deydi.

Lekin hayot murakkab, goho beshafqatligini unutgan hikoya qahramonining chin yurakdan qilgan orzusi “*astoydil sevmoqchiman, sevilmoqchiman va sag‘ana toshini bosgunimcha birga-birga umr kechirmoqchiman*” degan o‘ylari sarob bo‘lib chiqishi hikoya syujetini tashkil qiladi. Hayoti mazmuni o‘qish va ishdan iborat bo‘lgan Nosirjon yangi yil kutish bahonasida qo‘yarda-qo‘ymay uyiga taklif qilgan qadrdon do‘sti Qosimnikiga bordi-yu, sof taqdiri yo‘liga o‘z manfaati uchun kirib kelgan Nazokatxonni uchratdi.

Hikoyada yaxshi turmush yo‘lida o‘zini o‘tga-cho‘qqa uradigan, sabr-u qanoatdan yiroq Nazokatxonning ruhiy dunyosi favqulodda vaziyatlar tasviri asnosida g‘oyat ta’sirli ko‘rsatib berilgan. Hikoya qahramoni Nosirjon nazariga tushgan, uning hushini o‘g‘irlagan Nazokat sakkizinchisinfni bitirgan yili otasi vafot etganligi uchun ishlashga majbur bo‘lganini, hozir univermagda ishlashi, maqsadi bitta ukasini institutga kirgazish ekanligini sekingina gap orasida qistirib o‘tadi. Ko‘zlari bir onda uzoq yillar kutib yurgan muhabbatini topgandek bo‘lgan Nosirjon hayotida tub burilish shu lahzadan boshlandi.

Nosirjon bilan Nazokatxon ikki dunyo kishilari bo‘lib, ularning dunyoqarashlari ham turlicha edi. Nosirjon ilmga chanqoq, ishini yurakdan yaxshi ko‘rar, o‘zi ishlaydigan institutga sidqidildan xizmat qilishni o‘zining burchi deb bilar, har bir ishga mas’uliyat bilan yondashar edi. Buni biz hikoyada keltirilgan Nosirjon bilan Nazokat suhbatidan ham anglashimiz mumkin:

—Muncha kitobga mukka tushmasangiz, moyi chiqadimi. Sog'liq ham kerak. Tashqarida biram ajoyib havoki, yurgan sari, yurging keladi. Shuncha mashq qilganingiz yetar, -dedi ming bir karashma bilan atrofga atir hidlarini taratib. — Mashq qilib, boyitib turilmagan ilm suvning bug'lanishiga o'xshaydi, yaxshi qiz, biror yildan keyin hech narsa qolmaydi (425).

Hayotiga ilk kirib kelgan muhabbatni baxtli qilish Nosirjonning birdan-bir orzusiga aylangan, uning kamchiliklari, nuqsonlarini ko'zlar ko'rmas edi. Nazokat uning hayotiga yo'lini yorituvchi bir mayoqdek kirib, uni o'z asiriga aylantira olgan edi. Asarda Nosirjonning bu holati o'z tilidan shunday hikoya qilinadi: *Nazokatxon menga yoqib qolgandi. Kunlar o'tgan sari uning o'zidan ham xayoli shirin bo'la boshladi. Xayolimda aslidan ham chiroyliroq ko'rinar, yo'q fazilatlari ochilardi. Endi uning o'zi emas, u turgan ko'cha ham jozibali bo'lib xayolimdan o'tardi. Bir kun hatto tushimga ham kirib chiqdi* (424). Shunday kuchli muhabbat ila beg'araz sevgan Nosirjondan Nazokat o'z manfaatlari yo'lida foydalanishni maqsad qilgani hikoyada ishonarli tasvirlab beriladi.

Nazokatxon yaxshi yashash, oilasidagi turmush muammolarini hal qilish, xususan, ukasining hayotini izga solish uchun har qanday pastkashlikdan qaytmaydigan, ming taassufki xudbin ayol obrazidir. Ukasini Nosirjonning oldiga tanishtirgani olib kelar ekan, ukasiga yaxshilab tanib olishini "*Qo'y boradi qo'zi bilan, bir-birining izi bilan. Etaklaridan mahkam ushlasang bo'lgani*"(424) degan so'zlar Nazokatxonning g'arazli niyatini ma'lum darajada oshkora qilganini ko'rgan Nosirjon uni univermagdagi bejirimgina bir xotin bilan avvaliga pichirlashib, xayrlashgan kishidek bo'lib, yashirinchha xotinning qo'liga bir narsa qistirganini ko'rib hayron qoladi. Yozuvchi hikoyada Nazokatxon qiyofasini, uning xarakterini ishonarli tasvirlarda ifoda etgan: *Ukam o'qiydigan maktab direktorining xotini. Bir narsa iltimos qiluvdi, bugun mavridi kelib qoldi. Oila boshlig'i bo'lganidan keyin qiyin: ukam bechora qiyalmasin, bitirib olsin deyman. -Ma'yuslangansimon so'zladi u, keyin kulibgina qo'shib qo'ydi: —Shunaqa, Nosirjon aka, burga tutish uchun ham barmoqni ho'llash kerak!* (426).

Nazokatxonning xatti-harakatlari yozuvchi tomonidan katta dard bilan tasvir etilgan. Chunki jamiyatda urchib kelayotgan bu og'riqli nuqtalar adibning nazaridan chetda qolmagan. "*Nazokatxonning bugungi xatti-harakati ko'zga tushgan oqdek menga g'alati ko'rinish ketdi. Tezroq chiqib ketgim kelib qoldi. Ichki bir tovush menga "Qayoqqa borasan shunday qizni tashlab. Kimda nuqson yo'q" deb hayqiradi. Oyog'imdan darmonim quridi. Ana shunda uning muhabbatni yuragimga qo'rgoshin bo'lib quyilib ketganini butun vujudim bilan his etdim. Uning nuqson bo'lib ko'ringan*

xislatlari ham dabdaba bilan ko 'kdan tushib, bir necha daqiqada erib ketgan do 'l donalariga o 'xshardi. Menga uning nuqsoni hech gapmasdek tuyuldi, o 'zimni sovutdim; tarbiyalab olaman, tarbiya taqani to 'g 'rileydi! (426).

Nosirjon ruhiyatida sodir bo 'ladigan ichki qarama-qarshiliklar, ziddiyatlar hikoyada yorqin tasvirlangan. Nosirjon ruhiyatidagi sezimlar qarama-qarshiligi, hissiyotlar kurashi jamiyatdagi real hayotda mavjud bo 'lgan voqealar aks-sadosi. Hikoya davomida Nazokatning o 'z manfaatini o 'ylab, benihoyat darajada mehribonlik, shirinsuxanlik bilan Nosirjonga muomala qilayotgani yetmagandek ukraincha ko 'ylak sovg 'a qilishining jumboqli siri ochildi, Nazokatning ukasi Nosirjon ishlaydigan institutga hujjat topshirgan, uni institutga kirgazish uchun ko 'mak so 'ragan edi. Nosirjondan ukasi konsultatsiyalarga kelib tayyorlanishini eshitgan Nazokatxon ukasining nimjonligini, tayyorlanmasdan kirgazish kerakligini so 'raganda Nosirjon sevgidan ko 'r bo 'lgan ko 'zlari ochilgandek bo 'ldi, bu mehribonliklar nimaga ekanligini anglatdi. Nazokatxon gapirishdan to 'xtamas "...hamma o 'qituvchilar tanishingiz, o 'rtog 'ingiz. Men lol bo 'lib qoldim. O 'z qulqlarimga ishonmasdim. Bu iltimos bo 'ynimga osilgan tosh bo 'lib boshimni egdi. Oldimda ikki masala turardi: yo oshna-og 'aynigarchilik, yo haqqoniyat, to 'g 'rilik. Keyingisi yengdi" (427).

Agar hikoyaning 1957 yilda yozilganini hisobga olsak, yozuvchi jamiyatga kirib kelayotgan poraxo 'rlik, tanish-bilishlikning yomon illat ekanligini, bu illat urchiy boshlasa, uni yo 'qotish oson emasligini tushunib, go 'yo zamondoshlarini ogoh bo 'lishga undagandek bo 'ladi.

Adibning mahorati, Nosirjondan rad javob olgan Nazokatxon portretini ishonarli chizganida, dilidagi zaxa ochib yotgan gapni tiliga ko 'chganini ko 'rsatib bergenida namoyon bo 'ladi: ...birdan men tanimas holda o 'zgarib, burun kataklari kengayib, oqardi, qoshlari chimirildi, lablari cho 'chchaydi. - Nokas tarog 'lik bo 'ldi, tarog 'i kerakli bo 'ldi! -deb bir o 'shqirdi-da, shartta burilib, orqasiga qaramay yurib ketdi. Men o 'z o 'ljaso qo 'lidan uchgan ovchiday ortidan termilib qoldim. O 'z ko 'zlarimga ishonmasdim Ertasiga ko 'chada ko 'rdim, teskari qarab o 'tdi. Uch kundan keyin bir bola kelib, u sovg 'a qilgan "yangi nusxa" ukraincha ko 'ylakning pulini so 'radi... (428).

Hikoyada adib Nosirjon ruhiyatidagi ranj, alam, qayg 'u holatini shunday tasvirlaydiki, personajlarning hayotiyligini sezmaslikning va bundan ta 'sirlanmaslikning iloji yo 'q. Boylik orttirish, oshna-og 'aynichilik qilish, poraxo 'rlik, tanish-bilishlik kabi qusurli illatlarning xalqimiz hayotiga kirib kelayotgani hikoyada juda ishonarli tasvirlangan.

Shuhrat hikoyalarining aksariyatida irodasi kuchli, diyonati mustahkam, iymone’tiqodli qahramonlar tasvirlanadi va yana shuni qayd etish kerakki, adib hikoyalarida batafsil bayon qilish yo’lidan bormaydi. “Chunki hikoya janri batafsil bayonni ko’tarmaydi”¹. Qisqa, ammo ta’sirli badiiy lavhalar hikoya tasvirining zalvorini oshirar ekan, adibning “*Dakki*” hikoyasini shunday hikoyalar sirasiga kiritish mumkin.

Hikoya boshlanishidanoq kitobxonni o’ziga tortadi. Hikoya bir o’zbek oilasi hayotida bo’lishi mumkin bo’lgan voqeа tafsilotiga bag’ishlangan. Yuqorida aytganimizdek, hikoya qahramoni Rustam ota diyonatli, iymon-e’tiqodli, xalqimizning boyligi bo’lgan paxtani qadrlovchi, loqaydlik va isrofgarchilikni ko’rsa yonib-kuyib ketadigan obraz. Hikoya “*..pari olingen ukkidek hurpayib g’azabi to ’lgan*” (429) Huri xola eshikdan kirib kelgan Rustam otaga: –*Ha, qarib quyilmagan, achib suyilmagan chol. Qizimda nima alamingiz bor edi, dunyodan toq o’tsin, devmidingiz? El-yurtdan uyalmadingizmi? Eshitgan odam nima deydi?*?, deyishi bilan boshlandi. Ayolining bunday g’azablanishiga nima sabab bo’lganini bilib turgan Rustam ota yotig’i bilan javob qaytardi. –*Nima derdi, Rustam chol yaxshi qilibdi, deydi-da. –Ha, yaxshi qilibdi! Hammaning sizga o’xshab qariganda miyasi suyilmagan, es-hushi butun. Oldingizda indamasa ham orqangizdan kulishadi,* (429) degan so’zlari bilan boshlanadi.

Rustam ota uyga borsa shunday bo’lishini kutgani uchun, bosiqlik bilan ayolini tinchlantirishga harakat qilib, “–*Orqadagi gap – oxurdagi nushxo ‘rd. Mard betga gapiradi. Hech kim gapi rayotgani yo’q*” (429) dedi-yu battar baloga qoldi. Hikoyada er-xotinning tortishuviga sabab bo’lgan narsa, xalqimizning boyligi hisoblangan, Rustam ota uchun nondek aziz bo’lgan paxtaning yerda sochilib yotishi edi. Hikoyadagi Rustam ota qat’iyatli, vijdonli, insonparvar, mehribon inson obrazi. O’rinli savol tug’ilishi tabiiy, shunday inson birovni bejizga xafa qilishi mumkinmi? Huri opani shunchalik ranjitgan, jig’ibiyron bo’lishiga sabab aslida nima edi? Beixtiyor hikoya kitobxonni mana shu jihatи bilan qiziqtirib qo’yishi tabiiy. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Rustam ota faqat o’zini emas, o’zgalarni ham o’ylaydigan, vaqtি kelsa qadrlay oladigan inson edi. O’zining brigadasida paxta yig’im-terimi yaxshi, ko’ngildagidek boryapti. Lekin Chuqursoy tomondagi brigada brigadiri, musobaqadosh Norbo’ta karvon terimining borishi sust bo’lgani sababli erta bilan u yo’lini do’stidan xabar olish uchun o’sha tomonga burgan edi. Yo’lda esa haligi holat, aravaga ortilgan paxta yo’l bo’ylab to’kilib borar edi. Aravakashning ishlaridan g’azablangan Rustam ota shaxdam qadamlar bilan aravaga yetib borib, ne ko’z bilan

¹ Karimov H. Nasr baxshisi. –T.: Yangi asr avlod, 2003. –B.11.

qarasa, kechagi haftada ko‘zining oqu qorasi Komilani unashirgan yigit Mirsaid turar edi. Hikoyadagi bu to‘qnashuv, yoki ilmiy til bilan aytadigan bo‘lsak, kulminatsion nuqta, adib tomondan shunday tasvirlanadi: “*Rustam ota qiziq holga tushdi. Uni ikki narsa qiyndi: biri bo‘lajak kuyovining izzat-hurmati, ikkinchisi to‘kilgan mehnat terining qadri. Insofli kishi uchun ikkalasi ham aziz. Buni yaxshi bilgan mirishkor dehqon Rustam otaga biri deb, birini qurban qilish juda mushkul edi. Ikkisi ikki barmog‘i: qaysi birini tishlasa, o‘shanisi og‘riydi*” (432).

Hikoya qahramoni Rustam ota bir dam hammasini unutdi, ko‘ziga faqat uvol bo‘layotgan paxta ko‘rindi va g‘azabini bosa olmay:

- *Kun tig‘ida ketmon urmabmidingiz, qadriga yetmaysiz. Aravangiz orqasidan tuyu yamlab ketsa ham bilmaysiz. Nomus kerak kishiga. Sizdan boshqa nimjonroq kishi yo‘q ekanmi arava mingani! Uyat!* (433).

Huri opa bu bo‘lgan voqeani eshitgan, eshitgan-u o‘tirgani joy topolmay, jig‘ibiyroni chiqar “...*qopni teshgan sichqonga ham hech narsa demaydigan mo‘min-qobil yigit*” (434) kuyoviga Rustam ota bergen dakkini hazm qila olmas, endi nima bo‘ladi, degan o‘y unga tinchlik bermasdi. Shu bois tinmay javrar, jondan aziz bo‘lgan qizi uchun kuyinar, shuncha gapni eshitgan kuyov to‘yni qaytarsa nima bo‘lishini o‘ylab, yig‘lagudek bo‘lib, bor alamini Rustam otadan olishga harakat qilar edi. Hikoyaning eng ahamiyatli joyi bosh qahramonning kampirning javrashlariga javoban aytgan quyidagi so‘zlari bo‘lsa ajab emas. Hikoyadagi Rustam otaning so‘zlari uning qalbida og‘ir dard bo‘lib kelayotgan so‘zlardir:

-*Yigit degan shunaqa qilib pishiydi. Pishigan loyning chinnisi toza bo‘ladi. Ularning oyoq yalang loy kechib, kolxozning og‘ir xizmatini qiladigan payti. Ha, sen uning yonboshiga par yostiq qo‘ya berma, ertaga to‘rga chiqib olib, qizingga “Meni ishlab boq!” deydi. O‘shanda nima qilasan? Uyingga ko‘chirib kelib boqasanmi?* (431).

Matndagi Rustam otaning bu so‘zlari kitobxonni o‘ylashga majbur qiladi. Darhaqiqat, Rustam otadek insonlarning dakkisini eshitmay katta bo‘lgan ayrim kimsalar bugungi kunda xuddi, ota aytgandek, o‘ligini ayoliga yuklab, uyga kirib olgani, asarning bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganini ko‘rsatadi. Hikoya Mirsaidga o‘xshab o‘z xatosini tushunib, to‘g‘ri xulosa chiqaradigan insonlar bo‘lishga da‘vat kabi yangraydi. Komilaning xafa bo‘lmadingizmi, degan gapiga: *Rost, avvaliga ancha og‘ir botdi, lekin siz yodimga tushishingiz bilan bahorda yoqqan qordek darrov erib ketdi. “Ming qilsa ham qaynatam-da!” deb qo‘ydim. Axir, otangiz menga yomonlik ko‘zlamas, yo pichoq o‘z sopini kesadimi? –Yo ‘-o ‘q!- dedi Komila erkalangandek, –axir siz ham o‘shanaqa qilib arava minmassiz endi. Komila bu bilan*

“*endi siz shunaqa nojo ‘ya ish qilmassiz*” demaqchi edi, buni, Mirsaid payqadi. – Aravasini yelkamning chuquri ko‘rsin (434). Adibning bu hikoyani yozishdan maqsadi o‘quvchilarni obrazlar timsolida to‘g‘ri qaror chiqarish, xalq uchun, jamiyatning kichik bo‘g‘ini bo‘lgan oilani asrab-avaylash kabi g‘oyalarni ilgari surishga undash bo‘lgan, deb o‘ylaymiz.

“Iztirob qanchalik san’atkorona aks etsa, muallif undan ham og‘irroq dardni boshdan kechirgan”¹ligini adibning “*Bahrinisa*” hikoyasida ko‘ramiz. Hikoya qahramonlari Sadir bilan Bahrinisa ana shunday iztirob tufayli qalblari kemtik bo‘lgan insonlar. Inson borki, yoshi yetgach oila qurib, o‘zidan yaxshi surriyod qoldirishni orzu qiladi, nainki orzu qiladi, balki hayotining oliv bir maqsadiga aylantiradi. Bu baxtdan mosuvolik–chi? Tirnoqqa zor bo‘lish har qanday qaddi tik odamning ham qaddini dol qiladi. Hikoya bu qahramonlarning farzandsizlik tufayli aziyat chekayotgani, botiniy dunyosidagi alam-g‘amlari toshni mayda-mayda qilib parchalab yuboradi, lekin Bahrinisaning shu iztiroblari Sadirning muhabbat bilangina nafas olayotgan bir vaqtida, eri tomondan aytilgan “*so ‘zlarindan ezg‘ilab o‘ldirilgan qandala hidi keladi*” gapi jon-jonidan o‘tib, ko‘zlarini qorong‘u qildi. Yozuvchi Bahrinisaga aytgan Sadirning “*saratonda bo‘yra ostida yotgan yetti bo‘g‘inlik chayon zahriday*”²i hikoya qahramonining anchadan beri yuragida saqlab, tiliga chiqara olmagan gaplari bo‘lib, bu gap Bahrinisaning sokin hayotiga vulqon otlishi bo‘lib kirdi. Bahrinisa bir umr chin yurakdan sevib qadrlaydigan eridan buni kutmagan edi: Yozuvchi Mehrdag‘i bunday holatning badiiy asoslarini mantiqan haqqoniylashtirishga bera olgan:

—*Bu nima?- dedi. Hech narsadan xabari yo‘q bechora Bahrinisa, oq ko‘ngillik bilan javob berdi:*

—*Qo‘noq o‘t. Bug‘doyga o‘xshaydi, to‘g‘rimasmi? Boshog‘i xuddi bug‘doynikining o‘zi. Sodda shahar odami buni bug‘doy ham deyishi mumkin, shundaymasmi?*

—*To‘g‘ri. Boshog‘i-ku bor, bug‘doyga ham o‘xshaydi, lekin ichida doni yo‘q, quruq savlat. Sen ham xuddi shunga o‘xshaysan: donsiz bug‘doy nusxa boshoqsan* (440). Hikoya qahramon xarakteri qirralarini yorqinroq aks ettirish uchun adib qahramonlar nutqida “hammadan ko‘ra noyob va ko‘chma so‘zlardan foydalanish”²i asar badiiyatini ta’milagan, bir so‘z bilan aytganda, bu holat adibning mahorati uchun o‘ziga xos fazilat ekanligiga dalolat.

¹Eshonqul N. Menden “Mengacha”. –T.: Akademnashr, 2014. –B.185.

²Arastu. Poetika. Axloqi kabir. –T.: Yangi asr avlod, 2004. –B.57.

Mehrning tortgan botinan dard va azobi, Sadirdan eshitgan bu yoqimsiz xo'rlik, dashnom oldida shamoldek to'zib ketdi. Umidlarini chilparchin qildi, birinchi marta o'zini keraksiz insondek his qildi. Nozikkina jismiga uning siyrati-yu fitratida yashiringan ulkan, uqubatli iztirob bo'roni, shamoldan-da kuchli, olovdan issiq bag'rini kuydirdi. Shu oilaga bog'lab turgan oxirgi ip, bu gapdan keyin batamom uzildi. Endi hammasini tushungandek bo'ldi, eriga yalinib farzand asrab olaylik, deganda, qarshilik qilgani, aslida ko'nglida boshqa niyat bor ekanligini Bahrinisa tushundi-yu a'zoyi badani titrab ketdi, oxirgi ilinj barg shirt etib uzildi. Baxt istab, yuragiga issiq tushib kelgan xonadonidan, muzlab, bo'zlab bosh olib chiqib ketdi.

Ma'lumki, "Badiiylik doirasida intim tuyg'ular va kayfiyatlarni tasvir etish jarayoni inson individualligi, shaxs ibtidosiga jiddiy diqqat qaratish lozimligini ko'rsatadi"¹. Adib ham bu hikoyani yozishda shu tamoyilga amal qilgan. Hikoya boshlanishi "*Sadirning aytishicha, uning o'tgan umrida eng quvonchli kuni bitta. U ham bo'lsa mana shu ikkinchi xotini Mehrining homilador bo'lganini payqagan kuni! Agar xotini omon-eson bo'shalib olsa, ikkinchi baxtli va zo'r quvonchli kuni shu bo'ladi...*" (435). Lekin taqdirning o'yinini qarangki, to'qqiz oy davomida boshiga ko'targan, hattoki ro'zg'or yumushlaridan ozod qilib, og'zidan chiqqanini muhayyo qiladigan Sadir Mehrining ko'ngli dalaga chiqishni tusab qolgani uchun qishloqdagi qarindoshinikiga olib kelganda, bexosdan xotinini dard tutib qoladi. Qaytib olib ketay desa iloji yo'q, qolaversa uy egasining bu yerda ham qo'li yengil akusher ginekologlar borligini aytishi, ularning qishloq kasalxonasiga boshladi. Adib hikoyada Sadirning bu holatini ta'sirchan qilib tasvirlaydiki, zero yillar davomida farzand ko'rmagan odam uchun bu holat, albatta, tabiiy hol.

Hikoyaning kulminatsion nuqtasi shu o'rinda eng yuqori cho'qqiga ko'tariladi. Sadirning ne umidlarda zo'rg'a yetadigan farzandini dunyoga keltirishni sobiq xotini, bir mahallar tug'magani uchun malomat qilib, uydan chiqarib yuborgan Bahrinisa amalga oshirishi, nafaqat Sadirni, hatto hikoyani o'qiyotgan kitobxonni ham cho'chitib, qiziqtirib qo'yishi aniq. Vaziyat jiddiy, tug'ruq jarayoni og'ir, bolani saqlab qolish mushkul, ona hayoti xavf ostida.

Sadir dakki yeb, taloq olgan sobiq xotini Bahrinisani kasalxonada ko'rib dong qotib qoldi. Sadirdan ajralgach, bosh olib chiqib ketgan Bahrinisa o'qib, bugunda shu darajaga yetibdi. Sadirni bir narsa qattiq cho'chitar edi, endi hammasi uchun Bahrinisa o'ch olsa-ya. Nima qilish kerak, Sadir bir xulosaga kelib olguncha voyvoylab yotgan xotinini ichkariga olib ketishdi. Sadir bo'lsa jon talvasasida hamshiradan ayoliga boshqa odam doyalik qilishini so'raganda, hamshira Bahrinisa

¹ Веселовский А. Избр. Произведения. –М.: Наука, 1939. –С.70.

Rahimovna kasalxonaning eng qo‘li yengil do‘xtiri ekanligini aytgani ham uni tinchita olmadi. Uning bu holatini ko‘rgan hamshira hayron bo‘ldi va uning qo‘rqmasligi kerakligi, yaqin orada xushxabar bo‘lishini bildirdi. Sadir uchun bu vaqt asrga yetgudek bo‘lib, o‘zini qo‘yarga joy topa olmas, ko‘nglini yomon o‘ylar kemirar edi. Sadir qizlik bo‘lganini eshitganda oyoq qo‘li bo‘shashib ketdi.

Yozuvchi hikoyasida “...qahramon ruhiyatini ochishda asosan qarama-qarshi tuyg‘ular kolliziysi yetakchilik qiladi. Natijada ruhiy tasvirda har tomonlama ishonarli, yorqin obrazlar va xarakterlar yaratilganini kuzatish mumkin”¹. Mana Bahrinisa Sadirning o‘tkazgan ozorlari, xo‘rliklari evaziga yaxshilik qilmoqda, u ayoli ekanligini bila turib yordam qo‘lini cho‘zdi. Sadir bo‘lsa u haqida yomon o‘yxayollarga borganligi uchun ich-ichidan o‘zini koyir edi. Undagi xuddi shu holatni bilgandek, kasalxona ichidan xotini Bahrinisa haqida yozardi: ...*Shu opa bo ‘lma ganda bilmadim nima bo ‘lardim. Juda qiyaldim. Shunda bechora oyog‘i kuygan tovuqdek atrofimda zir yugurishini ko ‘rsangiz, begona ham shunchalik jonkuyar bo ‘larkanmi – jigaring shunchalik qilmas. Keyin hushimdan ketib qolibman. O‘zimga kelib mundoq ko ‘zimni ochsam, tepamda yana Bahrinisa opa o ‘tiribdi. Qon quydi. Aytishlaricha, o ‘zi qon bergen mish* (441). Hikoyada badiiy obrazlar butunligini ta’minalash “...portret adib ijodida ruhiyat tasvirining muhim shakllaridan biri”² ekanligini yuqorida keltirgan matn to‘liq isbotladi.

Sadir ayolining xatini o‘qir ekan, Mehrining tug‘rug‘i og‘ir kechib, ko‘p qon yo‘qotgani uchun qon kerak bo‘lib, uning guruhiga mos tushadigan qon kasalxonada bo‘limganligi uchun qon guruhi to‘g‘ri kelgan Bahrinisaning o‘zi qon bergenini, bu ayol “*qizingizning doyasigina emas, uning onasini o ‘limdan saqlab qolgan kishi ham*” degan gaplari Sadirning Bahrinisa haqida yomon o‘yga borgani, xotiniga shunchalik mehribonlik ko‘rsatgani uchun vijdoni qiyalar edi. Mehrining Sadirga yozgan xati Bahrinisa obrazini, uning qanday inson ekanligini to‘liq qiyofada ochib berishga xizmat qilgan. Buni birgina “..*qizimizning ismini shu doya sharafiga Bahrinisa qo ‘yardik, qarshimas misiz?*” (441) degan so‘zlaridan ham bilish mumkin.

Adib tomondan hikoyada “...ishtirok etuvchi personajlarning asosiy vazifani hal qilishdagi roli va ularni o‘z o‘rniga qo‘ya bilish mahoratini analiz qilish ham kompozitsiya masalasiga kiradi. Qahramonlarning asardagi umumiyl g‘oyaviy vazifani hal qilishdagi rolini analiz qilish muhim”³ligini “Quduq” hikoyasi misolida ko‘rib chiqamiz.

¹ Qo‘chqorova M. Zamonaviy prozada ruhiyat talqini // ulug‘bekhamdam.uz 18.04.2013.

² Nosirov A. Odil Yoqubov poetikasi. – Samarqand, 2018. –B.16.

³ Qo‘sishjonov M. Saylanma. 2 tom. –T.: Adabiyot va san’at, 1983. –B.279-280.

Hikoya tuzilish jihatdan ixcham, lekin g‘oyaviy jihatdan ulkan asarlar sirasiga kiradi. Hikoya Jamshidning buvasi tog‘ etagini toshlardan tozalab, ekin uchun quduq qazib kelgan kunidan boshlanadi. Jamshidning buvasi tabiat irim-jirimlariga ishonadigan g‘alatiroq odam bo‘lib, u qazib kelgan suvning shirin chiqqani uchun qo‘ni-qo‘shni bo‘sh chelak bilan kirib, to‘ldirib chiqib ketaverishi uning nazdida yaxshi emas, xonadondan baraka ko‘tarilishiga sabab bo‘lishi mumkin, deb o‘ylashi natijasida ularni yomon ko‘rgani hikoyada haqqoniy tasvirlarda berilgan.

Hikoyada buvaning avvaliga mayda, istehzozli gaplariga javob qilmagan qo‘shnilar kamiga quduqning atrofini yaxshi taxtalar bilan o‘rashi, qo‘lda tortadigan suvni chig‘iriq bilan aylantirib oladigan qilishi “o‘lganni ustiga tegpan bo‘lishi” usta obrazida ko‘rsatilgan. Tabiatan qiziqchiroq ustaning bu jihatini adib buvaga aytgan gaplari orqali bildirib o‘tadi:

– Bu bosh qudug‘imiz, ya’ni osh qudug‘imiz. Tartibli bo‘lgani yaxshi. Ustaning hazillariga javob bermagan, ichida “bu qo‘rami, karvonsaroymi?” degan o‘y o‘tgan buva indamasa-da, ichida ularni yanib qo‘ydi. Eshikdan chelak bilan kirgan kishilarga kirmanglar, demasada ichida g‘ijinib yurdi. “*Ko‘pga kesak otib bo‘lmaydi, naq toshbo‘ronda qolib ketasan*” degan aqidaga rioya qilgan buva yo‘lini topgandek bo‘ldi. Bahorga chiqib quduqning atrofiga turli-tuman ekin ekdi, natijada ekinlar katta bo‘lib, quduqqa boradigan yo‘lni juda tor qildi. Hattoki olib chiqib ketayotgan chelakdagi suvga barglari tusha boshladи. Adib *buva* obrazini yoritar ekan, uning naqadar tuban ketganligini, suvda qo‘shnilarning ham haqqi borligini unutayotgan cholning ayanchli avholini, personajlarning qochiriqli gaplariga bergen javobida shunday tasvirlaydi: –*Ekinlar juda g‘ovlab ketibdi-ku, buva!- deb til tegizdi. Buva ham sir boy bermadi: –Yangi yer-da, baquvvat!*. Suv olishdan oyog‘i uzilgan qo‘ni-qo‘shnilardan qutulgan buva tasvirida o‘zini haq deb o‘ylagan odam qiyofasi aks etadi “*bo‘zchining mokisidek qatnaydiganlardan qutuldum*”.

Hikoyaning mana shu yerida kulminatsion nuqta yuqori pog‘onaga ko‘tariladi. Quduqdan oyog‘ini tiygan hamqishloqlar buvadan xafa bo‘lib, ma’rakalarga ham aytishmay qo‘yishadi. Buva esa hamon boyagidek, o‘z qilgan ishini to‘g‘ri, deb hisoblar, qishloqdoshlarining sovuq munosabati garmseldsk o‘tib ketishiga ishonar edi. Lekin unday bo‘lmadi, buvaning qilgan ishi nafaqat o‘ziga, balki nabiralari hayotiga ham ta’sir qildi. Buvasini ko‘rganda quvonib ketayogan arzanda nabirasi Jamshid ham undan o‘zini olib qochadigan, istar-istamas, zo‘rg‘a salom bergani yetmagandek bir kuni maktabdan kelgach, uyga kirib yig‘lagani, buning sababini so‘ragan onasiga “*Maktabda hamma bolalar “ziqnalar, xasislar” deyishyapti, deb javob qaytaradi. “Tabiatning suvini ayagan ochko‘zlar*”, deyishayotganligini eshitdi,

lekin kirib nabirasiga hech nima deya olmadi. Hikoya so‘ngida ko‘ngli g‘ash bo‘lib uyg‘ongan buva ertalab quduqqa olib boradigan so‘qmoqning ikki yonidagi jo‘xori hali pishmasdan o‘rib tashlangani, yo‘l keng qilib ochilganini ko‘rdi.

Hikoyada Jamshidning buvasi hayotiy muvofiqlik va badiiy izchilllik asosida tasvirlangan. Buva obrazining ruhiy-psixologik holati personajlarga nisbatan xolis munosabatida bo‘rttib ochilishida ko‘zga tashlanadi. Buva ichki olamidagi kechinmalar personajlar bilan hayotiy ziddiyatlar vositasida hikoyada aks ettiriladi.

Xulosa qilib aytganda, adib hikoyalari qahramonlari tafakkuri, dunyoqarashi, ruhiy dunyosiga ko‘ra bir-biridan jiddiy farq qiladi. Bu qahramonlar butun chigalligi, murakkabligi va o‘ziga xosligi, yutuq va kamchiliklari bilan hikoyalarida real ifodalangan. Ular qiyofasida inson ma’naviy olami davr bilan hamohang, hamnafaslikda tasvirlangan.

QISSADA BOSH QAHRAMONNING INDIVIDUAL TABIATI TAHLILI

Qissa bosh qahramon taqdiri vositasida hayotning u yoki bu qirralarini o‘rta epik shaklda rivoyaviy usul bilan aks ettiruvchi asardir¹. Shuhratning “Bir kecha fojiasi” qissasi xuddi shunday asarlar sirasiga kiradi. Asar qahramonlarining individualligi masalasi muhim ilmiy-nazariy masalalardan biridir. Shuhrat “*Bir kecha fojiasi*” qissasida inson qismatini Nazokat ruhiy-psixologik kechinmalarini tasvirlash orqali olib beradi.

Ma’lumki, hayotiy voqelik badiiy asar syujeti uchun asos hisoblanadi. Lekin yozuvchilar hayotda ro‘y bergan biror muhim voqeani qalamga olganlarida shu voqeaga turli nuqtayi nazardan va, avvalo, o‘zlarining badiiy maqsadlaridan kelib chiqqan holda shunday asarlar yaratishlari mumkin. Bunday asarlar faqat syujet chiziqlari bilangina emas, balki qahramonlarining xarakteri bilan ham bir-biridan keskin farqlanishi mumkin. Bu yozuvchining pozitsiyasi va mahoratiga bog‘liq masaladir. Hayotiy voqelikning ijodkor tomonidan g‘oyaviy va badiiy tafovutlanishi natijasida adabiyotda yangi tiplar, yangi obrazlar olami maydonga kelishi mumkin.

Asar adibning “Men bu qissamni sevishganlar va sevishmoq niyatida yurganlarga bag‘ishlayman”²- degan epografi bilan boshlangan. Yozuvchi nega bunday epigraf tanlaganini qissa o‘qish davomida anglagandek bo‘lamiz. Qissa

¹ Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. –T.: O‘zbekiston, 2002. –B. 468.

² Shuhrat. Tanlangan asarlar. Bir kecha fojiasi. –T.: Sharq, 2019.–B.666 (Bunday keyingi iqtiboslar shu nashrdan olinadi va sahifasi qavs ichida ko‘rsatiladi).

qahramoni Nazokat shaxsiyatida ayol ruhiyatiga uyg‘un his-tuyg‘ular mohiyati yoritiladi.

Har bir adib ijodida tasvir uslubi turlicha yo‘sinda bo‘lgani kabi, Shuhrat ijodiga xos xususiyatlar: xarakterlarni individuallashtirishda, asar qahramonlarining tashqi ko‘rinish chizgilari, ruhiyatida ro‘y beradigan o‘zgarishlar, qahramon portreti, voqealarning dramatik rivojiga alohida ahamiyat berishda yaqqol namoyon bo‘ladi. Adib qissaning boshlanmasidayoq o‘quvchiga asar qahramoni Nazokatning boshiga tushgan kulfatning hissiy-ta’sirchanlik tasvirini beradi, bu asarning ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilgan: “Hammasi erining o‘limidan boshlandi” (666). Adib shundan so‘ng Nazokatning qisqa, lekin go‘zal, tinch-totuvlikda turmush o‘rtog‘i bilan o‘tkazgan damlar tasvirini chizadi “...*eri bir qaraganda ko‘zga cho‘g‘dek yonib tashlanadigan xushqomat, kelishgan bo‘lmasa ham ko‘ngli ochiq, qalbi, fe’l-atvori chiroyli edi. Ikki yil yashab “siz”ini “san” qilmadi, yalab-yulqadi, sevib erkaladi. Bozor-o‘charni birga qilib, og‘irini o‘zi ko‘tarib olardi. Ovqatga hozirlik ko‘rgan Nazokat “ko‘nglingiz nima tusaydi?”*” (666) desa, oldidagi ikkita so‘yloq tishini ko‘rsatib, “*sizga yoqqanni!*” deb bag‘riga bosib qo‘yardi” (666), “*Er qilganda oqi oq, qizili qizil bo‘lib tovlanadigan*” (666) Nazokat avval yolg‘iz suyanchig‘i bo‘lgan turmush o‘rtog‘i mehmonga ketib, birpasda mazasi bo‘lmay qaytib kelib, yotmay-turmay Allohga omonatini topshirishidan chigirtkadek holga tushib qolgan bo‘lsa, yolg‘iz qizini yaslidan gripp yuqtirib, otasining orqasidan shoshib ketishidan Nazokat yerparchin bo‘ldi. Bir oydan ziyod yotib qolgan Nazokatning ko‘nglini ko‘taradigan ota-onasi ham yoshligida bevaqt ajal tufayli tashlab ketgan bo‘lib pochchasining qo‘lida keraksizdek katta bo‘lgani yetmagandek, hayotning bu zarbasi uni butkul gangitib qo‘ydi. “*Chidadi-yu, olqindiday bo‘lib qoldi. Jimjildog‘iga sig‘magan uzugi o‘rta barmog‘iga kattalik qiladi. Kulsa tirjayganga o‘xshaydi*” (667), “*Ertalab so‘lib, olti oy ko‘rpa-yostiq qilib yotgan bemordek sarg‘ayib turdi. Bir necha kun dori ichsa ham uxlolmay yurdi*”(669). Adibning bosh qahramon haqidagi bu tasvir chizgilari ularning tashqi va ichki obrazi olamini namoyon etishga xizmat qilgan. “Badiiy adabiyotning markaziy muammosi – xarakter yaratish, adabiyotga yangi odam obrazini olib kirish. Yozuvchi ko‘targan masalaning jiddiyligi, pozitsiyaning aniqligi, asarning zamonaviyligi oqibat-natijada avtorning xarakter yaratishdagi san’atkorligiga bog‘liq. Asarda to‘laqonli shaxs, hayajonli hatti-harakat, qiziqarli insoniy taqdir bor ekan, demak unda jiddiy gap bor. Realistik xarakter o‘zining tabiiyligi, ishontirish kuchi bilangina tirik. Xarakterga ulkan ma’no singdirish bilan barobar unga jon ato

etish ham nihoyatda muhim¹ligini hisobga olgan Shuhrat, qissa so‘ngigacha shu pozitsiyada qoladi.

Asar qahramonlarining individual tabiatini badiiy ijodda muhim ahamiyat kasb etadi. To‘g‘ri, hayotiy vogelik badiiy asar syujeti uchun asos bo‘ladi, lekin adibning ijodiy niyati ijrosi mazmunga, muallifning poetik tafakkuriga bog‘liq holda rivojlanadi. “Bir-biriga o‘xhash hayot hodisalaridan yozuvchilar o‘z g‘oyaviy niyati, ijodiy maqsadlariga ko‘ra turli syujetlar, turli xarakterlar yaratadi, ijodkor maqsadiga ko‘ra, real hayot hodisalari g‘oyat katta o‘zgarishlarga uchraydi”². Bunda hayotiy vogelikning ijodkor tomonidan sintezlanishi natijasida badiiy mukammal obrazlar olami maydonga keladi. Qayd qilinganidek, hayotni tasvirlashda turfa xil obrazlar olami, ularning badiiy talqinida namoyon bo‘ldi.

Nafisa dugonalari tashabbusi bilan, dardlarini unutish, o‘ziga kelishiga yordam bo‘lish uchun “Qora dengiz”ga dam olishga bordi-yu, bu safar Nazokatning hayotida katta tub o‘zgarish bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Nazokatning mahzun, nursiz bo‘lib qolgan hayotiga yorqin bir yog‘du sifatida Himmatilla kirib keldi va uning hayotida tub burilish yuz berdi. Mehrga tashna, uy ko‘rgan Nazokat ruhiyatidagi bu holatini adib quyidagicha tasvirlaydi: *Nazokat qanchalik alamzada, taqdirning qanchalik achchiq qahriga yo‘liqqan bo‘lmasin, yosh emassi, o‘scha o‘rtangan, yongan, endi hech qachon asl holiga qaytib kelmas bo‘lib ko‘ringan zaha qalbining allaqayerida hali o‘chmagan muhabbatning, tirik, hayotbaxsh muhabbatning uchquni yotardi. Vaqt-i-vaqt bilan yarqirab qolardi. Ana shu uchqunga Himmatilla bir quchoq qupu-quruq shox tashlagan edi. Nazokat uni o‘chiraman deb qanchalik urinmasin, u aksincha gurillab yonardi, butun vujudini qoplab kelardi. U sevib qolgan edi!* (672).

Qissada hamma muammo shundan keyin boshlanadi. Yoshi katta bo‘lib qolgan bo‘lsa-da hanuzgacha yetimligi, onasining orzu-havasi tufayli, Himmatillani o‘z so‘zi bilan aytganda “o‘zbekning to‘yi o‘zi bo‘ladimi: yo‘g‘on ingichka tortib, ingichka uzilishi”(672) sababli uylana olmagan yigit er ko‘rgan xotin muhabbatiga yo‘liqqan edi. Adib Nazokatdagi bu holatni “tunuka tarnov og‘ziga uya qo‘ygan musicadek omonat his qiladi” deya tasvirlar ekan, o‘zidan besh kun oldin qaytgan Himmatillaning sog‘inch iztiroblarini, qaytgach esa unda o‘ziga nisbatan dam olishda bo‘lgan o‘tli haroratni emas, sovuqlikni sezib, ich-ichidan kuyinadi, yonadi, o‘rtanadi, azob chekadi. Qissa qahramonlari o‘rtasidagi konflikt mana shu jarayondan boshlanadi. “Konflikt, - deb yozadi adabiyotshunos Dilmurod Quronov, - badiiy asar personajlarining o‘zaro kurashlari, qahramonning o‘z muhiti bilan ziddiyatlari,

¹ Normatov U. Nasrimiz an’analari. –T.: Adabiyot va san’at, 1978. –B.130.

² Mahmudov M. Talant va ijod falsafasi –T.: Adabiyot va san’at, 1976. –B.164.

shuningdek, uning ruhiyatida kechuvchi qarama-qarshiliklar”¹ekan, ushbu qissada ham badiiy asar qahramonlarining turfa xil xarakter qirralari voqealar rivoji zamirida yoritiladi.

Yozuvchining o‘ziga xos uslub egasi ekanligi qissada qoliplash usulidan mohirona foydalanganligida ko‘rinadi. “Qissa ichida qissa kelishi - qoliplash ham xalq og‘zaki ijodi namunalariga xos go‘zal usullardan biri ekanligi ma’lum. Chunonchi, “Chor darvesh” “qoliplash usulida tuzilgan bo‘lib, qoliplovchi hikoya Ozodbaxt hikoyasidir; dastlab Ozodbaxt o‘z farzandsizligidan so‘z boshlab, mozorda ikki darvesh hikoyasini eshitadi; so‘ng darveshlarni o‘z saroyiga taklif qilib, Xojayi sagparast nomi bilan mashhur bo‘lgan savdogar sarguzashtini ularga so‘zlab beradi, keyin, kelgan ikki darvesh sarguzashtini tinglaydi; nihoyat, Ozodbaxt Baxtiyor nomli farzand ko‘rib, parilarning ulug‘ shohi Malik Shohboz yordamida hammalari murod-maqsadlariga yetganliklari haqidagi hikoya bilan “Chor darvesh” tugallanadi”².

Yozuvchining o‘ziga xos uslub egasi ekanligi, qissada keltirilgan bulbul haqidagi afsona bilan qoliplangani³da ko‘rinadi. “O‘tkan kunlar” romanida ham shunday yozuvchi uslubini usta Alim tilidan so‘zlangan “mujassami ishq” hikoyatida ko‘rish mumkin. Mushkul voqealar girdobida qolgan Otabek o‘z boshidan o‘tkazgan usta Alimning hikoyasini tinglar ekan, uning boshiga yog‘ilgan kulfatlar oldida o‘ziniki hech narsa, – degan qarorga kelgan bo‘lsa¹, Himmelillasining nazaridan qola boshlagan Nazokat esa aybni undan emas, o‘zidan ko‘radi va nogahoniy bir afsona yodiga tushadi: *Chol bog‘ oralab o‘tib borayotsa, daraxtning baland shoxida bir bulbul shunday xonish qilayaptiki, olam sukunatda quloq solib tinglamoqda. Pastda bolalar tuzoq qo‘yib, poylab o‘tiribdi. Buni ko‘rgan chol:* “Hoy, bulbul, o‘z kuyingga o‘zing mast bo‘lib g‘aflatda qolma, tuzoqni ko‘ryapsanmi?” -debbi. *Bulbul:* “Xabarim bor. U qayerda-yu, men qayerda! -debbi istehzoli kulib va yana zavqqa to‘lib sayrayveribdi. Chol qaytib kelayotsa, bulbul tuzoqqa tushgan, bolalar uni o‘ynab yuribdi”. “Xo‘s, bu qanday bo‘ldi?” -desa, *bulbul bo‘ynini qisadi.* “Axir tuzoqdan xabaring bor edi-ku!” -desa, “xabarimku borlikka bor edi, bir mahal butun olamga o‘t ketdi, men turgan daraxt xam gurillab yonyapti. Nima qilishimni bilmay shoshib qoldim. Bundoq qarasam, olamni tutgan o‘t orasida chovgumning og‘zidek tuynuk bor. Jon holatda shu tuynukka o‘zimni ursam, u tuzoq ekan, bolalar qo‘ygan tuzoq ekan. Mana, holimga maymunlar yig‘lab o‘tiribman!” – deydi. *Nazokatning Himmelilla bilan ishqiy munosabati xuddi ana shu bulbul qilgan ishga o‘xshardi. U*

¹ Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. –T.: Navoiy universiteti, 2018. –B.176.

² Mahmudov M. Xiromiy va uning “Chor darvesh” dostoni haqida // Xiromiy. Chor darvesh. –T.: O‘zadabiynashr, 1960. –B.335.

³ Qarang: Shuhrat. Tanlangan asarlar. –T.: Sharq, 2019.–B.678.

tanishgan kunlariyoq bildiki, Himmatilla hali uylanmagan-bo ‘ydoq, buning ustiga o‘zidan ikki yosh kichik, yolg‘iz o‘g‘il, ne-ne mashaqqatlar bilan umid ko‘zini tikib, balog‘atga yetkazgan onaning arzandası. O‘lsa ham ona er ko‘rgan bevani kelin qilmaydi (678). Shuni bila turib, Nazokat parvona singari o‘zini o‘tga urdi. Mana endi qo‘rqqani bo‘lib o‘tiribdi. Himmattillaning Nazokatga bo‘lgan ko‘ngil ishqiga darz ketgan. Bunga kurortdan kelguncha, onasi Ohistaxonning ko‘z ostiga olib qo‘ygan Satimxon sabab edi. Himmattilla otasi tanlagan qizni ko‘rgan-u, ko‘z oldi jimirlashib, ishqı unga tushgan. Chunki u Nazokatni chin dildan sevmagan, o‘tkinchi bir hirs havas qurbaniga aylanib qolgan Himmattilla endi bo‘lsa undan qutilish yo‘lini topolmay, sekinlik bilan undan uzoqlasha boshlagan edi. Ayol qalbi aldamaydi. Himmattilla Satimxonga uylanishini eshitgan Nazokat faryod ko‘tardi, lekin taqdır o‘yini oldida noiloj lol qoldi. Lekin Nazokat umidini uzmadi, ketma-ket Himmattillaga xat yozar, kelmayotgani, telefonini olmayotgani uchun do‘q urmas, sha’niga tegadigan gaplar yozmas, faqatgina ginaxonlik qilardi: *Senga yuqadigan gard mening boshlarimga tosh bo‘lib yog‘ilsin. Baribir men senga yomonlik emas, yomon tushni ravo ko‘rmayman. Mening senga da‘vom yo‘q. Mayli, huvillab yotgan kulbamga kelma, chiroq yoqma, fayz kiritma, lekin uzoqdan bo‘lsa ham diydoringni ko‘rsatib tur. Qachonlardir menga baxt va‘da qilgan ko‘zlarining ko‘rib tursam-menga kifoya. Oldimdan oydam, yildami bir bor o‘zingga mos bosiq qadamlar bilan o‘tib borsang-shu menga katta davlat. Faqat mendan o‘zingni olib qochma, yolg‘on vaj qilma, senga hech yarashmaydi. Sen nurday pok, buloqday tiniqsan. Senga yomonlik ko‘zlaganning imoni kuyadi. Men baxtingga chang solmayman, nomard qasoskor bo‘ladi. Senda ayb yo‘q, xotiningda ham, hatto onang ham aybdor emas. Sen ko‘ngilchan bechora onangga botinib sevgimizni himoya qilolmading yoki menga ko‘ngling to‘lmaganidan, o‘rtoqlaring ta‘nasidan qo‘rqib tinchingni axtarding. Ehtimol, qiz muhabbat menikidan yoniqroqdir. Men Allohnning qahri kelgan kuni tug‘ilgan baxti siyoq nogironman. Mening qismatim ayriliq bo‘lsa kerak. Gunohim seni sevganim, iltimosim sendan begona bo‘lmaslik. Shafqat qil(681).*

Oshiq-ma’shuqning bir-birlariga maktub yo‘llashi mumtoz adabiyotda keng tarqalgan an’ana. Ishqiy dostonlarning deyarlik barchasida bu holni ko‘ramiz. Bu maktublar romantik bir ruh, shoirona bir ohang, hassos bir muhabbat tuyg‘ulariga yo‘g‘rilgan bo‘ladiki, bu an’anani biz Shirinning Farhodga, Laylining Majnunga, Kumushning Otabekka yo‘llagan maktublarida ham ko‘ramiz.

Shirin va Kumushning yozgan xatlaridan ko‘ra Laylining Majnunga yozgan xati ko‘prok Nazokatning xatiga hamohangdir. Layli Navfalning qiziga uylanmoqchi

¹Soatova N. A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida epik tasvir an’analari: Filol.f.n.disser.–T,2001.– B.51.

bo‘lgan Majnundan o‘zini unutmaslikni so‘ragani kabi Nazokat ham Himmatilladan, eski qadrdonlik hurmati, o‘ziga gohi-gohi marhamat etishini so‘raydi. Laylining Majnunga yozgan xatiga e’tibor qaratsak, bu fikrimizning to‘g‘ri ekanligiga shohid bo‘lamiz:

Xitoy naqshlariga o‘xshagan bu satrlar bir shikastaning bir xastaga yozganlaridir. Ya’ni: men zoru mubtalodan, balodan qutulmagan sengadir.

*Yana mana shunday afsonalarni ham aytadilar, go‘yo sen Navfal bilan til biriktirib, uning bezalgan uyiga ko‘z tashlab, qiziga uylanmoqchi bo‘lib, og‘iz solibsan. Baxting yor bo‘lsin, billoh, men bunga ishonmadim. Sening maqsading shunday bo‘lsa, mening ham maqsadim shudir. Bir kuni bog‘da tomosha qilib yurganimda, u sanamni ko‘rgan edim. O‘zi durust, elga mehribon, yaxshigina jon desa ham bo‘ladi. Haq taborak senga yo‘ldosh bo‘lsin! Bu xayrlik ishing muborak bo‘lsin. O‘sha bilan xurram bo‘lgan chog‘laringda bu xastani ham goh-goh eslab qo‘y! Insofni ham tark etmagin, meni ham bir yo‘la unutib yuborma!*¹.

Layli Majnunga yozgan maktubida o‘tinch ila insof tilagandek, Nazokat Himmatilladan “*Gunohim seni sevganim, iltimosim sendan begona bo‘imaslik. Shafqat qil*” – deya o‘tinadi. Qissa murakkab konfliktlar, ichki iztiroblar tasviri asosiga qurilganini bir necha o‘rinlarda ko‘rish mumkin. Masalan, Nazokatning xatini o‘qigan Himmatillani vijdon azobi o‘rtaydi, o‘z-o‘zidan nafratlanadi: *Ha, nodon, – dedi o‘ziga-o‘zi, – aniq bir niyatning yo‘q ekan, birovni yo‘ldan urib, tinchini buzganining nimasi? Endi nima bo‘ldi: uvoliga qolding!...Xuddi shunday kayfiyatda ovqatdan qaytar ekan, chindan ham Nazokat yo‘lini to‘sib chiqdi. Gunohkor kishidek boshi quyida. Sevganiga motam tutayotgandek qora libos, ko‘rimsizgina tuflida, o‘y o‘ylab, o‘yidan toliqqan ko‘zlari so‘lg‘in* (681). Yolg‘izlik, ayriliq, qadrsizlik, inson yuragini tashvishga solib, ich-ichidan yemiradi, hayotining mazmuni befayz bo‘lishiga olib keladi. Biladiki, Nazokatni hayotda ushlab turishda undan boshqa ilinji yo‘q. Shularni bir zumda xayolidan o‘tkazgan Himmatilla rozilik bildiradi.

Qissada adib badiiy obrazlardan – Nazokat, Himmatilla, Satimxonning individual xususiyatlarini ko‘rsatish orqali voqelikni konkretlashtiradi. Bu holat asarga jonlilik, hayotiylilik, tabiiylik baxsh etib, o‘quvchi hissiyotiga ta’sir qiladi, uni ishontiradi. Qissa qahramoni Nazokat xuddi shu ko‘yga tushib qolgan edi, Himmatillaga oxirgi marta unikiga borishini o‘tinib so‘raydi. Himmatilla noqulay ahvolda qoladi, boraman desa, suykli ayoli Satimxonni ko‘zi qiymaydi, bormayman desa boshiga tushgan ko‘rguliklardan ezilib tamom bo‘lgan Nazokat o‘zini bir nima qilib qo‘yishidan cho‘chiydi.

¹ Navoiy A. Layli va Majnun. –T.: Adabiyot va sanbat, 1990. –B.316-318.

Qissada voqealar hayot haqiqatining real talqini fojalarga uzviy bog‘lanib ketgani uchun ham qissa badiiy jihatdan mukammal chiqqan. Qayd qilingan xususiyatlar adib asarlaridagi turli toifadagi obrazlarida o‘z ifodasini topganligini kuzatish mumkin. “Odam ichki dunyosi, ruhiyati o‘ylarining badiiy manzarasi va uning ham ijtimoiy, ham xususiy asoslari tasviri muhim hisoblanar”¹ -ekan, Satimxonning o‘ziga xos individual xarakterini adib qissada ishonchli dalillaydi: *Satimxon “erkak bo‘lib tug‘ilishiga bir bahya qolgan” qizlardan. O‘z kosasini birovga yalatmaydi. Ushlaganini uzadi, haqni nohaq qilmaydi. Bir hodisaning guvohi bo‘lishganda Satimxon Himmelating yuragini olib qo‘ydi; ikki uy naridagi bir qo‘shni juvon erini begona xotin bilan ushlab olibdi. Uch-to‘rt kun xarsang ko‘chirar dovul turdi. Keyin bosdi-bosdi bo‘lib ketdi. Buni eshitib Satimxonning tepe sochi tikka turdi. “O‘rtada ikkita bola bormish, o‘nta bo‘lmaydim! Kimning bolasi ko‘chada och-yalang‘och qolib tentib yuribdi! Xotin bo‘lmay o‘l, yuvindixo ‘r!”.* Satimxon o‘sha juvon bilan tuzukkina edi, gaplashmay qo‘ydi, kirdi-chiqdini yig‘ishtirdi. *Himmatilla: “Senga nima, uyat bo‘ladi, desa, “Toza qo‘lini paytavaga artgan unga uyatmas-u, menga uyatmi! Xotin zotiga isnod keltirdi”, deb balanddan keldi (680).*

Himmatilla Satimxondagi bu g‘azabni ko‘rib, boshi hushidan uchdi, siri ochilib qolishidan judayam qo‘rqan, Nazokatdan o‘zini olib qochib yurgan edi, lekin bugun uning mahzun ahvolini ko‘rib rozi bo‘ldi-yu, katta xatoga yo‘l qo‘yganini bildi. Nachora ortga yo‘l yo‘q. Endi oxirgi marta borib, Nazokat bilan orani butkul uzib keladi va o‘z sevgilisi bilan tinch yashaydi. Shularni maqsad qilgan Himmatilla Nazokatning uyiga borish uchun uydagilariga navbatchiliginibahona qilib chiqib boradi-yu, baloga yo‘liqadi. Hayotining eng og‘ir damlari shundan keyin boshlanadi. Tongga yaqin Nazokatga butkul ayrilishini aytishning uddasidan chiqmagan Himmatilla uning uyidan chiqdi-yu, vaqtli chiqqani uchun o‘z uyiga borishni ep ko‘rmay, tentirab, xayollar og‘ushida yurar ekan, noma’lum it hujumiga uchrab kepkasidan ayrildi va ishga qarab yo‘l oldi. Yuragidagi barcha gaplarini xatga to‘kib soldi va pochta qutisidan Nazokatga jo‘natib yuborib, yengil tortdi.

Qissaning shu joyidan boshlab, voqealar ikki liniyada rivojlanib boradi. Qariganida qiz farzand ko‘rib, uni moh-mohlab o‘stirgan Joniqul ota turmushga bergen qizini eri bilan kurortga ketgani uchun, ularning uyida kelgunlaricha yashab turar edi. O‘zini montyorman degan yigitni uyga kirgazgan qari otaxonni qo‘rqitib, uydagi qimmatbaho narsalar: bir shoda marvarid, gavhar ko‘zli zirak, ikkita tilla uzuk, besh-oltita qimmatbaho ipak kuylak, kuyovining nikoh uzugi-yu, papaxa tikdiraman deb olib qo‘ygan qorako‘lini o‘g‘irlab olib chiqib ketgan kun, xuddi shu Himmatilla

¹ Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. –T.: Yangi asr avlod, 2006. –B.70.

Nazokatning uyiga borgan kuniga to‘g‘ri kelgan edi. Kamiga o‘g‘rining bitta barmog‘i Himmatillaniki kabi to‘mtoq ekan. Natijada tergovchi tomondan o‘tkazilgan savol-javobdan keyin Himmatilla asosiy aybdor sifatida qamoqqa olindi. Jinoyat sodir bo‘lgan kun uyida emas, ishxonada navbatchi bo‘lganman, deb aytgan gapi yolg‘onligi, kamiga kepkasining jinoyat yeridan topilishi, o‘g‘irlangan mollarning bir qismi Himmatillalar turgan uyning keyingi pod’yezdidan topilishi, Himmatillani yemagan somsaga pul to‘lashiga sabab bo‘ldi. Axir qanday aytadi, oy kuni yaqin bo‘lgan ayoli bor Himmatilla o‘zga ayolning uyiga borganman deb aytishi, uning uchun fofia edi. Bir tarafdan Satimxon, ikkinchi tarafdan or-nomusi bunga yo‘l bermasdi, kamiga u bilan yuzlashtirilgan Joniqul ota ham uni o‘g‘ri ekanligini tasdiqlab o‘tiribdi. O‘g‘lining qamoqqa tushishidan iztirobga tushgan ona nima qilishini bilmay boshi garang, o‘g‘li ishlaydigan zavod pravleniyesiga bordi, yig‘ladi, yalindi, lekin “*yaxshi tarbiya qilmagansiz!*”, “*keyingi paytda qatiq bilan qaymoqning farqiga bormaydigan, sal shoshibroq qolgan edi*” (701), degan gaplarni eshitdi. Kamiga o‘g‘lining surati “*Hurmat taxtasidan*” olib tashlangan, do‘sit bo‘lib atrofida yurgan ba’zi kimsalar, hatto qo‘ni-qo‘shnilar ham o‘zini olib qocha boshlagan edi. Kelini Satimxonni qaynonasidan tortinib, eldan uyalib, kelinlik pardozini tark etib, kiyim-boshining mundoqrog‘ini kiyib yurganini ko‘rgan onaning ko‘ngli o‘ksib: – *Kelin, allakimlarga o‘xshab shu ko‘ylagingizni kiymang... Ko‘rgan nima deydi. Men roziman: bemalol yasanib yuravering* (704).

Onaning hasratlarida jon bor edi, farzandi Himmatillaning qamalishi, ortidan bo‘htonlar tarqalishi Ohistaxonni xarob qilgan, kelinining bu avholda yurishi, go‘yoki yuqoridagi gaplarning to‘g‘riligini tasdiqlaydigandek edi.

Adib onaning bu musibatlarini “*...advokat onani ko‘rib qo‘rqib ketdi, odam bolasi ham bir haftada shunaqa o‘zgarib ketadimi. Quruq ustixon. Faqat qorasi yirik ko‘zlarigina kul bosgan olovdagи cho‘g‘lardek turibdi. Yuz-ko‘zini g‘ijimlangan qog‘ozdek ajin bosibdi*”, (713) – deya asarda tasvirlaydi.

Insonni davr va muhit voyaga yetkazadi, shakllantiradi va ma’lum ma’noda hayotiga ta’sir ko‘rsatadi. Ohistaxonni voyaga yetkazgan muhit Vatan urushi yillariga to‘g‘ri kelgan bo‘lib, yuragiga cho‘g‘ tashlagan sevgan yigit frontga ketgan, uning dom-daraksiz ketishi, qizining yoshi o‘tib qolayotgani sababli, onaga uni uzatish qayg‘usi tushdi. Shu o‘ylarda yurgan bir paytda, aptekasiga doriga kelgan, xastalanib qolgan musofir student yigit onaga ma’qul kelib, unga Ohistaxonni uzatdi. Turmush o‘rtog‘iga muhabbat yo‘qligi, qolaversa suygani frontdan orden medallar bilan kelib, taklifi kuchida ekanligini aytgach, Ohistaxon undan javobini so‘ragan, afsuski, undan ayrilgach jismida bir vujud borligini bilgan, lekin unda kech bo‘lgan, u suygani bilan

birga yashay boshlagan edi. Qilgan ishi Allohga yoqmadimi yoki yaralangandagi jarohati tufaylimi eri ham bevaqt, hatto Himmatilla tug‘ilmasdan burunroq vafot etdi. Taqdirning o‘yinini qarangki, bugun Himmatillani sud qiladigan, hozirda besh qizning otasi, sudya Himmatillaning o‘z otasi bo‘lib chiqdi. Ohistaxon nima qilishni bilmay qoldi, eridan, hatto jonidan ham, yashirin tutgan bu sirmi ochmay desa, ko‘ziga farzandi, og‘iroyoq kelini, erta-indin dunyo yuzini ko‘radigan nevarasining otasiz qolishini o‘ylab, tahlikaga tushdi va ming istihola ila sudyani, ya’ni Himmatillaning haqiqiy otasining oldiga boradi. Yozuvchi bu dramatik uchrashuvni shunday tasvirlaydi:

- *Shu aybdor yigit kim, bilasizmi?*
- *Sudyaning yuragi kutilmagan xabarni sezayotgandek shuv etib ketdi, eti jimirladi, ohista:*
 - *Yo ‘q, – dedi,*
 - *O‘g‘lingiz!*
 - *O‘g‘lim? – qanchadan-qancha ishlarni ko‘raverib, eti o‘lib, diydasi qotib qolgan sudya shoshib qoldi.*
 - *O‘sha siz ketayotganingizda, – dedi Ohistaxon “ajralishganimizda” deyishga tili bormay, – “o‘shanaqa” bo‘lib qolgan ekanman. O‘zim ham keyin bildim buni. Siz esa, bir ketganizingcha g‘oyib bo‘ldingiz-ko‘ydingiz.*
 - *Praktikaga ketdik, keyin ish (726).*

Badiiy asarda obraz turfa xil ziddiyatlarda yaratilsagina, adabiyotga daxldor bo‘lgan badiiy asar vujudga keladi. Ya’nikim, “Xarakterlar olamini yaratish yozuvchining o‘zligini tanishga, ruhiyati qatlamlaridagi sirlarni bilishga, uni tadqiq va tahlil qila olishga va g‘oyaviy-badiiy niyatini ochib beradigan qilib tasvirlash sifatiga bog‘liq”¹. Ushbu ta’rif adib qissasida to‘laqonli o‘z ifodasini topgan. Qissadagi voqealar rivoji onaizor Ohistaxon, sudya, advokat, Nazokat va Satimxon tabiatining o‘ziga xos individual tomonini namoyon qilgan.

– *O‘g‘limiz borligini aytganingiz uchun ko‘pdan-ko‘p rahmat. Yoshlikdagи befahmligimizni kechirib, endi o‘zini tanishtirib qo‘yasiz-da. Ohistaxon masalaning bu yog‘ini o‘ylamagan ekan, ko‘zi moshdek ochilib ketdi, hushyor tortdi: o‘g‘liga bu gapni qanday qilib aytadi-yu, o‘g‘li qanday qabul qiladi. Uning bu holatini sezgan sudya o‘zi dalda berdi:*

– *Bu masalaning ikkinchi tomoni. Ko‘nglingiz to‘q bo‘lsin, tortib olib qo‘ymayman. Omon bo‘lsin. Og‘iri masalaning bu tomoni. Chindan ham aybdor bo‘lsa, oldindan ochig‘ini aytib qo‘ya qolay, bir narsa qilish juda qiyin. Qonun bir*

¹ Umurov H. Adabiyot nazariyasi. –Samarqand, SamDU nashriyoti, 2001. –B.51-52.

parcha loy-yu, sudya kulol emas – nima istasa shuni yasasa! Qonun muqaddas, hamma narsadan yuqori, qonun oldida hamma teng, eskicha qilib aytganda shohu gado barobar (728).

Jamiyat ta'siri obrazlar ruhiyatida o'z ifodasini topishi aniq. Odatda, badiiy adabiyotdagi obrazlar bazan ma'lum bir ijodkor xayoloti, fantaziysi o'laroq tug'iladi. Uni to'laqonli shakllantirish va murakkab hayotiy voqealar mazmuniga singdirish uchun ijodkor olamni, borliqni teranroq his eta olishi zarur. Hayotiy voqelik badiiy asar syujeti uchun asos bo'lishini “*Bir kecha fojiasi*” qissasida ko'rish mumkin. Qissadagi voqealar yuqoridagi vaziyatdan keyin keskin tus oladi, onaizor umid bilan kelgan sudya, ya'ni Himmatillaning haqiqiy otasidan bu gaplarni eshitgach, titrab ketadi, lekin nima bo'lsa-da onada, taqdirga tan bermaslikka, ko'zining oqu qorasi yolg'iz farzandini bu botqoqdan tortib olish uchun o'zini o'qqa ham, cho'qqa ham urishga tayyor. O'g'li bilan uchrashganda bor kuch bilan chirani, uni haqiqatni aytishga ko'ndirmoqchi bo'ladi. Barcha urinishlari bekor ketgach, noiloj uyga qaytdi. Ona bajarolmagan ishni ustamon advokat bajardi, oxiri o'sha jinoyat bo'lgan kun Himmatilla o'g'irlik qilmagani, balki begona ayolning uyida tunaganini tan oldi. Endi ishni og'iri qolgan edi, Himmatilla ham advokatni ogohlantirgan, men uni xafa qiladigan xat yozganman, qolaversa ayollik or-nomusi, hech qachon kelib, meni foydamga guvohlik bermaydi, deydi. Shunday bo'lsada, advokat umid ila Nazokatning uyiga borib, Himmatillaning boshiga tushgan voqeadan xabardor qildi. Advokat harchand harakat qilmasin, Nazokat bo'sh kelmas, meni yaxshi ko'rmaydi, yaxshi ko'rgani qutqarib olsin deganda, yo'qsa qamalib ketadi deganda, achchig'idan Nazokat: —*Mayli! Sevgan xotiniga ham yo'q, menga ham yo'q.*

—*Boyqush niyat bo'l mang, singlim, sizga hech ham yarashmaydi. Bir maydonidagi giyohdan sigir oppoq sut, ilon qop-qora zahar tayyorlaydi, Nazokatxon. Ilon bo'l mang!*

Nazokat miyig 'ida qochiriqli jilmayib, uning gapiga mosladи:

—*Qo'lga tushgan ikki tulki xayrlashayotib, biri “endi qayerda uchrashamiz?” desa, boshqasi “mo'ynado 'z do 'konida!” degan ekan.*

Advokat tovush chiqarmasdan miyig 'ida kului: baloga aqli yetadi! Qahri darajasida mehri ham bor. Bunaqalar do'stining g'arq bo'layotganini ko'rsa o'lar-tirilariga qaramay o'zini tashlaydi yo birga cho'kadi, yo olib chiqadi. Lekin qirg'oqda qarab turmaydi. Advokat yon bosib ko'rди:

—*Mayli, singlim, qo'yni ham, echkini ham o'z oyog'idan osadilar. Bu ishingiz insofdan emas. Qarg'a uchsa, chumchuqni tirqishda ko'r, qabilida bo'layapti* (746).

Qissadan keltirilgan matndan anglashiladiki, hayotdagи ziddiyatlar inson qalbiga o‘z ta’sirini o‘tkazish bilan bir qatorda, uning iztiroblarini ham yuzaga chiqaradi. Bu tasvirlar qahramon xarakter va ruhiyatini yoritishga xizmat qiladi, qahramon xarakterining shakllanishi uchun zamin tayyorlaydi. Asarda advokatning ko‘p urinishlaridan so‘ng Nazokat nomus orining kishilar oldida toptalishi, o‘zining xo‘rlanishini bilsa-da, sevgan kishisini qutqarish uchun yopiq majlisda guvohlik berishga rozi bo‘ldi. Lekin sudya yopiq majlisga rozi bo‘lmaydi. Nazokat hammaning oldida jinoyat bo‘lgan kecha Himmatilla uning uyida tunab qolganligini aytib, sudya, prokuror, maslahatchilar savollariga javob berdi va gapining isboti sifatida ertasi kuni Himmatilla unga pochta orqali jo‘natgan xatni taqdim qildi. Himmatillaning aybsizligi sud jarayonida qayta surishtiruvlar natijasida ochildi va sud zalidan ozod etildi. Lekin uyda Himmatilla va onasini noxushlik kutib turardi, Satimxon bu isnod, xiyonatga chidolmay uyga kelib yig‘lab, mazasi bo‘lmay kasalxonaga tushib, bolasi nobud bo‘ladi, orqasidan borgan qaynonasi Ohistaxonni yaxshi qabul qilmay, qachon javob beradi degan savoliga yuzini buradi, “*Bu harakatning ma’nosini Himmatilla yaxshi biladi*” (757) – degan so‘zlar bilan qissa yakun bo‘ladi.

Qissa tahlilidan kelib chiqib aytish mumkinki, “...san’atkor muayyan mavzuga qo‘l urib, voqelikni maromiga yetkazib tasvirlasa, har qanday inson ko‘ngliga o‘tiradi, ko‘pchilikni o‘ylantiradi, qalbiga zavq, tafakkuriga yuk”¹ – berar ekan, “*Bir kecha fojiasi*” qissasini hech ikkilanmay shunday asarlar sirasiga kiritish mumkin. Haqiqatdan ham, Shuhratning qissasi hayotiylik, inson qalbidagi tuyg‘ularni mujassamlashtirganligi bilan kitobxon qalbini larzaga solishi tabiiy.

Shuhrat uslubining o‘ziga xosligi, qissalarida inson qismatini, ruhiy holatini ko‘rsatuvchi voqeа va holatlar qalamga olinishida yaqqol o‘z ifodasini topadi. Mana shu holat yuqorida tahlilga tortilgan “*Bir kecha fojiasi*” qissasida ham Ikkinchи jahon urushi va uning fojalari tasviriga bag‘ishlangan “*Yaxshi niyatli kishi*” va “*Changoqlik*” qissalarida to‘liq namoyon bo‘lgan. Adib bu qissalarida bosh qahramon hayoti bilan bog‘liq voqealarni shunday tasvirlaydiki, kitobxon bu voqealar qahramon hayotida haqiqatdan ham ro‘y bergeniga astoydil ishonadi. Yozuvchi u yoki bu qahramon xarakterini tasvirlar ekan, uning xalq bilan, tasvirlanayotgan tarixiy davr bilan aloqasini ko‘rsatishga alohida e’tibor beradi.

“*Yaxshi niyatli kishi*” qissasi Kuban territoriyasida nemislarga qarshi jang qilayotgan Rakitinning qizidan xat olishi bilan boshlangan. Qizi xatida otasini sog‘inganini yozar ekan, bolalarcha qachon urush tugab, qaytishini so‘rab, dugonasi Valyaning dadasi bir oyog‘idan ayrilib, yog‘och oyoqda yurganini aytar ekanman,

¹ Karim B. Ruhiyat alifbosi. –T.: Adabiyot va san’at, 2016. –B.41.

cho‘loqligi umuman bilinmaydi, deydi. Mana shu xatidagi so‘zlaridan qizchaning otasi bir oyoqda bo‘lsa-da, bag‘rilariga sog‘-omon qaytishni orzu qilayotgani anglashiladi. Maktab remont qilinmaganligi, qishda isitgich yaxshi emasligidan palto kiyib o‘tirishganini, shu sababli xat xunuklashib ketayotganini yozar ekan, adib bola tilidan urush nafaqat janggohda, balki urush ortida ham o‘z asoratini ko‘rsatayotganini badiiy lavhada ko‘rsatib bera olganligini ko‘rish mumkin. Adibning o‘ziga xos xususiyati, badiiy mahorati asar qahramoni tashqi ko‘rinishi, portretini, ruhiyatini qizaloq yozgan xatida, uning so‘zlarida bergenligida ko‘rinadi: *Ertalab qorong‘ida kutubxonasiga ishga ketib, kech g‘ira-shirada keladilar* (ayasi, izoh bizniki N.S). *Juda charchab keladilar. Ba’zan “bu qurib ketkur urush qachon adoyi tamom bo ‘ladi”, deb Gitlerni qarg‘aydilar. Ayamni ko‘rsangiz endi tanimaysiz. Siz olib bergen paltolari ado bo ‘lib, endi pufaykada yuribdilar. Hozir hamma pufaykada yuradi. Yakshanba kunlari ham ishlashadi. O‘zlari aytmasalar ham yuz-ko‘zlaridan bilaman: ayam juda charchaydilar. Ishdan keladilaru naridan-beri jiz-biz qilib, darrov yotadilar, ko‘p gapirmaydilar. Tunov kuni besh kunlik non kartochkamizni yo‘qotib qo‘yganimizda juda kuyib ketdilar. Yo‘q, ishxonada o‘rtoqlari yordam berishdi. Ha, aytgandek, katta tog‘amdan qora xat keldi. Buvim kasal bo‘lib yotib goldilar. Ayam ham ko‘p yig‘ladi. Qaysi birlariga dalda berishni bilmayman. Ayam “buvingga yomon bo‘ldi, o‘lib qolmasa go‘rga edi”*, - deydi¹.

Xat mazmunidan mittigina qizalog‘ini urush katta qilib qo‘yganligi, katta odamlardek turmush mashaqqatlarini ko‘rib, o‘ylashga majbur qilganligi oydinlashadi. Xatni o‘qigan Rakitin kechagina qo‘g‘irchoq o‘ynab yurgan qizi urush tufayli ulug‘ayib qolganini o‘ylar ekan, bu urush insonlar hayotini, o‘zini shunday tez o‘zgartirib yuborganiga quroldosh do‘sstarida ham namoyon bo‘lganlarini xayoldan o‘tkazadi. Shu yerda aytib o‘tish kerakki, yozuvchi yuqorida asar qahramoni tashqi ko‘rinishi, portretini, ruhiyatini qizining xatida qizaloq tilidan bergen ijodkor, endi quroldosh do‘satlari tasvirini Rakitin xayolida tasvirlab beradi: ...*shu sodda Turdiyev bilan Misha Gorkunov frontga tushganida qanaqa edi? Odam qalbini bilmagan ba’zi “bilag‘on” komandirlar “shular bilan jangga kirib bo‘ladimi?” deb faryod urardi. Endi ko‘rsin, naq sichqonning inidan dushmanni topib, ta’zirini beradi* (145).

Yozuvchi mahorati, chinakam san’atkorligi asarda tuzilgan jumlalarda to‘liq ko‘rsatib berilgan. Masalan, “bilag‘on” komandir “shular bilan jangga kirib bo‘ladimi?”. Mana shu birgina jumla qissada adibning asarga yuklagan badiiy g‘oyasini ko‘rsatuvchi eng muhim vosita hisoblanadi. Asar davomida shu savolning

¹ Shuhrat. Yetim boshini silaganlar. –T.: Sharq, 2005. –B.143 (Bundan keyingi iqtiboslar shu nashrdan olinadi va sahifasi qavs ichida ko‘rsatiladi).

javobi olib borilayotgan janglar misolida adib tomonidan reallikda yoritib boriladi. Asarni o‘qib chiqqan o‘quvchi urush va uning asoratlari haqida keng mushohada qiladi. Adib urushda o‘zi bevosita qo‘liga qurol olib jangga kirgani asarning hayotiy chiqishini ta’minlagan. Qissada urushda yengilib chekinayotgan fashistlarning alamzadalik bilan hujum qilayotgan qismni boshpanasiz qoldirish maqsadida tovuq katagigacha buzib, yondirib ketishi-yu, ishga yaroqli aholidan mudofaa sifatida foydalangani, ko‘nmaganlarini yo‘l-yo‘lakay qirib ketishlarini adib qayg‘uli dard ila qissada qalamga oladi.

Qissaning kulminatsion nuqtasi dengizga chiqishda so‘nggi stansiya “G”da ro‘y beradi. Adib qissada “G” stansiya tasviri va u yerda istiqomat qilayotganlarni shunday tasvirlaydiki, kitobxon uni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgandek bo‘ladi: *Uning baland daraxtidan qarasang, dengiz ko‘rinadi. Tong yorishi bilan yo‘lga chiqqan kishi, nonushtaga baliq keltiradi. Aholi shamollagan kishini “dengiz shamoli uribdi” deydi. Bo‘ydon qamishlar shunda o‘sadi. Har xonada qayiq topiladi, o‘n yashar bolasi yaxshi eshkakchi. Ular shamol tiliga yaxshi tushunishlari va yelkanlar jilovini mahkam tutishlari bilan faxrlanadilar* (148).

Hayot haqiqatining real talqini fojalarga uzviy bog‘lanib ketgani uchun ham qissa badiiy jihatdan mukammal chiqqani seziladi. Qayd qilingan xususiyatlar adib asarlaridagi turli toifadagi obrazlarida o‘z ifodasini topganligini kuzatish mumkin. Qissada nemislarning shu qishloqqa obdan yaxshi joylashib qolganini, kamiga qishloq atrofini o‘ragan har qamish ostini minalashtirganligi uchun batalon komandiri Nodirov har qancha razvedka uyuştirmasin, aviatsiyadan foydalanmasin qo‘lga krita olmaganligini real tasvirlarda ifodalaydi. Eng yomoni bu qishloqda boshqa stansiyalardan haydar kelingan odamlar hisobiga aholi haddan ziyod ko‘p ekanligi, agar hujum uyuştirilsa nemislar ulardan qalqon sifatida foydalanishi mumkinligi edi. Kamiga nemislar uch-to‘rt ityaloq oqsoqollar bilan birlashib, aholi yerto‘lalariga joylashib olgan, qilingan hujumdan nemislardan ko‘ra aybsiz aholi jabr ko‘rishi razvedka ma’lumotlaridan ma’lum bo‘lgan. Vaziyat jiddiy, qaror chiqarish mushkul. Hayot haqiqatini badiiy obrazlarga singdirish adib iste’dodining qay darajada ekanligini belgilar ekan, adib jangdagi bu holatni shunday tasvirlaydi: *Batalon komissari Rakitin Nodirovga dedi: –o‘rtoq starshiy leytenant, fritslar kovaklarda bo‘lsa, zararni aholi ko‘rayotgan bo‘ladi. Shuni bir o‘ylab ko‘rish kerak edi. – Masalan? –Biz aholi bilan urishmaymiz. Agar buni jangchilar eshitsa, o‘q ham uzishmaydi. Axir pichoq o‘z sopini kesadimi? –Sizingcha nima qilish kerak? Otilgan o‘qqa “aholiga tegma” deb bo‘lmasa* (150).

Ma'lumki, "Asar mazmuni xarakter tasviri tufayli hayotiy aniqlik kasb etadi va shu bilan birga, bizning hislarimizga ta'sir etish xususiyatiga ega bo'ladi"¹. Shuhratning ushbu mazkur adabiy mezonlarga to'liq mos keladi. Jumladan, qissada yuzaga kelgan ziddiyatlarning tasvir jarayonida adibning ixcham iboralar bilan ifoda etishi, badiiy obraz va uning ruhiy holatini teran mazmun kasb etilishida bu holat kuzatiladi. Qissa bosh qahramoni Rakitinning shu o'rinda naqadar insonparvarligi namoyon bo'ladi. Rakitin oq bayroq bilan borib ultimatum tuzishni, nemislarga taslim bo'lishni taklif etish kerakligini aytadi va buning uchun o'zi borishligini bildiradi.

Polk komandiri, polk komissari uning taklifini qo'lllab-quvvatlashadi, lekin: – *Oq bayroq qonga bo'yalib qaytmasa edi. To'ng'iztabiat dushman parlamentyorlar dahlsizligini hurmat qilarmikin?* (151) degan o'y ularni qo'rqtardi. Rakitin ikkita avtomatchini olib, dushmanga oq bayroqni hilpiratib, mudofaani qoq yorib stansiyaga kirib bordi. Dushman o'q uzmay kutib olgan bo'lsa-da, Nodirovning yuragi g'ash, iymonsiz fashistdan yaxshilik kutmaganligi uchun chuqur o'nya cho'mgan edi.

Ultimatum bilan ketgan Rakitin qaytmas, stanitsa jimjit. Adib bu jimjitelik, sukunatni tabiat tasviri bilan omuxta parallel tarzda tasvirlaydi. Osmonga ko'tarilgan quyosh taftidan yer bug'lanayotgani, bahor yomg'iridan yerga qapishgan maysalar mag'rur kekkayib, shamolda silkinayotgani, daraxtlarda esa qushlarni part-part urishib, quvlashib stanitsiya tomonga uchib ketishayotgani tasvirini berar ekan, adib endi Nodirov xayolida parlamentyor bo'lib ketgan Rakitin o'y tasvirida shunday chizadi: *Ular-ku, hozir qaytib kelib, yana shu daraxtga qo'nishar, ehtimol part-part urishar, bir ozdan keyin totuv yashashi, ko'lam quchog'ida yayrab ketishar. U yerda ularning dushmani yo'q. Istasa bemalol yashay beradi. Rakitin-chi? Qaytadimi? Nega mucha kechikib qoldi? Tinchlik bo'lsin-da! Aholining g'amini yeb, o'z boshini dushman sirtmog'iga tutib bermadimikin? Ajoyib odam, u yerda gunohsiz kishilar borligini eshitdi-yu, tinchligi yo'qoldi. Ularning taqdiri, hayoti ko'ziga ko'rinish ketdi. Go'yo o'sha yerda bola-chaqasi bor kishidek, hali zamon qirilib ketib, o'ligi ustidan chiqib borayotgandek tipirchilab qoldi. o'zi bir umr ko'rmagan kishilar dardi bilan yondi* (154).

"Hayotni obrazli badiiy idrok etish, ijodiy konsepsiyanı mazmunga mutanosib shaklda ifodalash badiiy voqelikning ishonchliliginı ta'minlaydi"². Nodirov o'ylagani bo'ldi, Rakitin o'zgalarni deb o'z jonini qurban qildi. Nainki agitator Borisov, komsorg Yo'ldosh, Nodirov, balki butun qism parlamentyorlar hayoti haqida

¹ Sulton I. Adabiyot nazariyasi. –T.: O'qituvchi, 1986. –B.131-132.

²Nosirov A. Odil Yoqubov poetikasi. –Samarqand, 2018. –B.14.

tashvishlanib turishganda, u yoqda parlamentiylarni odatiy qoida bo‘yicha kutib olgan gitlerchilar Rakitinni quolsizlantirishib, fashist ofitseri so‘roq qilmoqda edi.

Qissada o‘ziga xos tasvirlar qahramon xarakter va ruhiyatini yoritishga xizmat qilgan. Rakitin bilan nemis ofitseri orasida bo‘lib o‘tgan so‘rov jarayoni bunga yorqin misol bo‘la oladi. Bu qisqa suhbatdan bosh qahramon Rakitin xarakter va ruhiyatini ko‘rish bilan birga nemis fashistlarining ham aniq basharasi ochib tashlanganini bilish mumkin:

Ultimatumni qabul qilasizmi, yo‘qmi, u sizning ishingiz. Ammo meni qo‘yib yuborishga majbursiz. Parlamentiylar diplomatdek daxlsiz! Bu xalqaro qonun.

- *Daxlsiz...Xalqaro qonun...Kim qo‘l qo‘ygan u qonunga! Ulug‘ Fyurerning imzosi bormi? Unda meniki yo‘qdir! Xo-xo-xo, xalqaro qonunni biz diktovka etamiz, biz* (160).

Dushmanning bunday javobi gitlerchi fashistlarning basharasini ro‘y-rost, borligicha ochib tashlaydi. Ularning urushda olib borgan siyosatlari, qonxo‘rliklari hech bir qolipga sig‘masligi, insoniyat uchun qilgan xunrezliklarini oqlab bo‘imasligini ko‘rsatadi.

Asar qahramoni haqidagi quyidagi tasvirlar o‘quvchi etiborini tortadi. Rakitinni qanchalik so‘roqqa tutishmasin, qiynashmasin, zax, mog‘or hidi keladigan yerto‘лага qamab qo‘yib, kiyimlarini yirtib olib, yalang‘och qilib ustidan chelak-chelak suv quyishmasin, barcha bergan azoblari natijasiz qoladi, barcha azoblarga matonat bilan chidab, o‘z qismi haqida bironta ma’lumot bermaydi, vataniga sodiq qoladi. Asarda, uning qiynoqli so‘rog‘i quyidagicha talqin etiladi:

—Men sizga so‘roq berish uchun emas, javob olish uchun kelganman. Uriningiz bekor. Meni qo‘yib yuboring, – dedi Rakitin. Ofitser tutoqdi. Do‘q qildi. Rakitining dahanidan ushlab, basharasiga qaradi. Rakitin ham ko‘zlarini uning so‘nik, betoqat ko‘zlariga qadadi... — Siz o‘zingizni ortiqcha urintirmang. Qismimizning kuchi haqida hech narsa aytmayman. U hozir o‘zini ko‘rsatadi, sinaysiz (160).

Rakitining kelishidan umidini uzgan Nodirov bataloni bilan hujumga o‘tdi. Nodirov har bir snaryad Rakitining boshida yorilayotgandek yuragi “shig‘-shig“lar ekan, aviatsiya bombardimon boshlaganda Rakitinni “menga ehtiyyot bo‘ling, men bunda, sal nariroq tashlang”, deyayotgandek bo‘ladi.

Dushman tomonidan qiynoqqa solinib, o‘sha suvlar yig‘ilgan chuqurga ikki qo‘lini ikki qoziqqa bog‘lab tashlangan Rakitinni o‘zi yotgan yerto‘laning og‘ir, zalvorli eshigiga qulf solib nemislar jo‘nab qolishadi.

Nodirov bataloni bilan jang boshlaganda ne ko‘z bilan ko‘rsinki, Rakitin aytgan ish bo‘layapti. Uzun, keng ko‘cha bo‘ylab qo‘llarini ko‘targan qishloq aholisi kelyapti. Narigi tomonga boqib yana shundaylarni ko‘rdi. Erkak-ayol aralash, bolalar ham bor. Ular orqasidan nemis avtomatchiları borligiga shubha qilmadi. Nemisning bunday nayranglar ishlatganini ko‘p eshitgan edi. O‘z ko‘zi bilan ko‘rish, Nodirov nima qilishini bilmay bir zum shoshib qoldi. Qanday qilib dushmanga qalqon bo‘lib kelayotgan qurolsiz, begunoh kishilarga o‘q uzsin. Jangchilarning ham bir ko‘zi komandirda, bir ko‘zi yiqila-yiqila kelayotgan aholida edi. Ularning qiy-chuvi bemalol eshitilib turar, ba’zilari “orqamizda nemislar” deya baqirar edi. Nodirov ular buni aytmasa-da yaxshi bilar, nima qilishga hayron edi. O‘qning aqli yo‘qki, o‘zimiznikilarga tegmay dushmanga qadalsa, polkdan hamon javob yo‘q. Yozuvchi bu jang jarayoni tasvirini shunday tasvirlaydi: *Aholi hamon bostirib kelardi. Endi ularning aft-basharalarini, kiyim-boshlarini ajratish mumkin. Mana, bir kampir munkillab kelmoqda, yonida choli ham bor. Undan nariroqda bola yetaklagan xotin* (165).

Qissa shu yerda kulmanitsion nuqtaga ko‘tarilgan. Jang ko‘rgan Nodirov sim uzilganligi sababli shtab bilan bog‘lana olmaydi. Bir dam sarosimada qoladi, o‘t ochay desa aholi qiriladi, ochmay desa dushman bostirib kelib, batalon o‘t ostida qoladi. O‘t ochsa ham jinoyat, ochmasa ham. Bondarning qo‘lidagi avtomatni sapchib olgan Nodirov Vatan uchun deya tarillatib aholi ustidan oshirib o‘q ota boshladi, boshqalar ham unga qo‘shilib komissar uchun deya o‘t ochishdi. Aholi tappa-tappa o‘zini yerga otar, ba’zilari oldinga qarab yugursa, ayrimlari “otavering-otavering” deb orqa tomondagи nemislarni ko‘rsatardi.

Bu vaqtida Rakitin ne-ne mashaqqatlar bilan suv to‘ldirilgan chuqurdan chiqib, hushsiz yotardi. Qissada Rakitining bu avholi shunday tasvirlangan: ...*аъзоўиу badani mo‘mataloq bo‘lib ketgan, tishlar qirsillaydi. Fikrida mujmal, anglab bo‘lmaydigan o‘ylar ini buzilgan aridek g‘uvillashar, qulogqlari allaqanday tovushlarni eshitayotgandek bo‘ladi. Ko‘zlarini ochishga jur’at etadi, ammo qurbi yetmaydi, qulog‘iga chalg‘iyotgan tovushlarni aniqroq eshitishga urinadi-yu, yana allaqanday vahima o‘ylar chalg‘itib yuboradi. Badanining titrayotganini fahmlaydi., o‘zini qo‘lga olishga, idrok bilan ish tutishga jazm etadi. Lekin a’zoyi badani o‘z ixtiyorida emasligi xalaqit berardi. Yana hushini yo‘qotdi. Yana o‘ziga keldi. Ko‘z oldida bittayu bitta qizi paydo bo‘ldi. U yana xat yozyapti. Kechagi xatidagidek, urushning qachon tugashini so‘rayapti, qachon kelishini so‘rayapti. Uning tepasiga kelib, xatiga ko‘z tashlagan ayasi: “Tentak qizim, urush tugasa dadangning o‘zi ham qanot chiqarib uchib keladi”, deb qizining ipak sochlarini silaydi. Birdan bular*

ikkalasi g‘oyib bo‘lib, o‘rnida bundan bir necha yillar oldin vafot etgan onasi paydo bo‘ldi. U o‘g‘liga keng bag‘rini ochib turibdi. Barmoqlarining tirmog‘i juda o‘sib ketgan mish. Lekin u kulib emas, xo‘mrayib turibdi. Birdan u ham qora tuman ichida erib ketgandek ko‘zdan yo‘qoldi. Issiq pech ko‘rindi. Temiri qizarib ketgan mish. Shuncha qo‘lini tutadi, badaniga issiq o‘tmaydi, aksincha pechdan sovuq yel betiga uradi. Qaynoq pech bo‘lsa-yu, kishini isitmasa, deb o‘kinib turganida yana chalg‘ib ketdi. Hushini yo‘qotdi (167).

Rakitin qamab qo‘yilganini xolasining chordog‘idan ko‘rgan Jenya onasi bilan kelib, nemislar jang bilan ovora ekanligidan foydalanib, uni qutqarib olishdi. Bola komissarni “Sovuq qotgan” deb badanlarini ishqaladi va ustiga palto yopdi. Onasi ko‘chadan topib kelgan kiyimlarni kiygazishdi va uylariga olib ketishdi.

Ikki qavatli maktab binosida bo‘lib o‘tgan jang tasviri yozuvchi tomondan mahorat bilan tasvirlab berilgan. Turdiyev bo‘linmasi bir talay granata va uch-to‘rttadan zapas o‘qdon bilan bиринчи qavat koridorini egallagan bo‘lsa-da, ikkinchi qavat hamon nemislar qo‘lida edi. “*Bular chiqolmas, nemislar tusholmas edi. Stansiyada otishma ham tugadi. Nemislar hamon tushmas, nido ham bermasdi. Mundoq chiqib qarashsa, birorta tirik jon yo‘q: o‘n beshga yaqin nemis o‘lib yotibdi. Faqat bittasi chalajon. Bir mahal tilga kelib, shuni hikoya qildi. Ular ichida bitta ofitser bo‘lgan, stansiya qo‘ldan ketganiga fahmi yetgach, “endi taslim bo‘lamiz” deb hammaning qo‘ldan qurolini yig‘ib olgan. Keyin hammasini otib tashlagan. Oxirida o‘zini ham halok etgan*” (174).

Adib tomonidan o‘z “mudofaa” san’atini butun vahshiyligi bilan qo‘llagan gitlerchi fashistlarni o‘zlariga ham beshafqatlarcha bo‘lganligini ushbu matnda tasvirlangan lavhadan ko‘ramiz.

Stansiyani yarmini qo‘lga kiritgan Nodirov, Bondar boshchiligidida qidiruv brigadasi bilan parlamentiylarni va komissar Rakitinni qorong‘i tushguncha qidirishdi, lekin qanchalik harakat qilishmasin topisha olishmadi. Ertalab Rakitinni kuzatib kelgan bir avtomatchining o‘ligini topishdi, u balchiqda yotardi. Undan keyin yana bir avtomatchini bir yerto‘ladan chala o‘lik topdilar. U o‘ziga kelib, qanday qilib qo‘lga tushganlarini, ularni fashistlarga xizmat qiladigan tuban kimsalar qurolsizlantirib, qo‘lga olishganini so‘zlab berdi. Tushga borganda bir chol kelib, uch o‘lik ko‘rganini, shundan bittasi notanish kishi ekanini aytdi. Lekin murdani tanish imkoniyati yo‘q, yuzlari dabdala, badani mo‘mataloq holda edi. Shunda hammomda komissar bilan birga yuvungan Yo‘ldoshning yodiga komissarning o‘ng to‘shi ostidagi bodomdek xoli borligini ko‘rgani va “bunday kishilarni bizda Xoldor deydilar”, deb aytgani yodiga tushdi, borib “murdaning to‘shidan ko‘ylagini yirtib,

xolni qidirdi. Qaysi ko‘zi bilan ko‘rsinki, xol bor edi, baqirib yubordi: – Rakitin. Xuddi o‘zi! (180).

Keyinchalik ma’lum bo‘lishicha Rakitinni qutqarib olgan ona-bola uning uyiga olib borib parvarish qilishgan. Rakitinni yo‘qligini ko‘rib uni izlashga tushgan uchta nemis uyma-uy tintuv qilib qidirib kelishganda, uni ukasi ekanligi, ichburug‘ bo‘lib oyoq bodi tufayli yotganini aytadi. Ofitser ona so‘ziga ishonib chiqib ketgach, hech qancha vaqt o‘tmay uni qo‘lga tushirib bergan “*sizlarni kuta-kuta ko‘zlarimiz to‘rt bo‘ldi, bor ekansizlar-ku*” deb tulkilik bilan gapga chalg‘itib, nemis qo‘liga tushirib bergan xoin bilan qaytib keladi: *Ofitser komissarning boshiga keldi, ko‘rpasini ko‘kragidan sal pastga tushirdi, Rakitin ko‘zini ochdi: – Shumi? – Shu... Shu... janob ofitser, he-hehe, xuddi o‘zi. Xotirjam bo‘lsinlar, qulbachchangiz adashmaydi. He-hehe. Ko‘zidan taniyman, -o‘ta xushomadgo ‘ylik bilan sarg‘ayib ketgan kemtik tishlarini ko‘rsatib kulib dedi xoin (184).*

Yozuvchi xoin oqsoqol tasvirini berganda uning yuz qiyofasini ixcham misralarda jonlantirib bera olgan. Xoin yana bir sotqinlik tufayli keksa jangchilar tomonidan “pok qalbli inson” deb ulug‘lanadigan, har bir jangchining dardini oladigan Rakitin nemislar tomonidan otib tashlanadi. Bu, ayniqsa, Mishaga yomon ta’sir qildi, otasining o‘limidan keyin unga otalik qilayotgan insondan ayrilish uni og‘ir ko‘yga solib qo‘ydi. Polk G.stanitsasida dushmani butunlay majaqlab tashlagach, komissar Rakitinni katta tantana – motam bilan stanitsa qarshisidagi maydonga dafn etib, chamanzordan saralab-saralab chechaklarni qabr ustiga qo‘yib, qirg‘oq mudofaasiga ko‘chdi. Batalon stanitsada bo‘lgan vaqtida agitator Borisovning ikki-uch siyosiy suhbat shu qabr tepasida o‘tkazildi. Jangchilar bu yerni ziyyoratgohga aylantirishgan bo‘lsa, yerli aholi nihollar o‘tqazdi. Armanistonlik serjant Asiryan Misha Gorkunovdan Rakitin suratini olib va ming qiyinchiliklar ila g‘isht va sement topib qabri ustiga qo‘yish uchun Rakitin byustini yasadi. Qissa shunday tasvirlar bilan tugallanadi: *Asiryan indamay byustni stol ustiga qo‘ydi; komissar Rakitin faqat o‘ziga xos bo‘lgan keskin, irodali, chuqur va shu bilan bir vaqtda mehribonona, samimiyl, sadoqat to‘la mayin qarash bilan uzoq-uzoqlarga termilib turardi.*

– *Boplabsan, Asiryan, – dedi Nodirov.*

– *Juda yaxshi, – dedi Borisov. Uch kun o‘tgach, katta tantana bilan, sag‘ana o‘rtasidan ko‘kka qad ko‘targan ikki metrli sement ustun ustiga o‘rnatildi. Tantana ertasiga Nodirov polk suratchisiga qabrning har tomonidan turlichcha qilib suratlarini oldirdi va Rakitinning uyiga yubordi(205).*

“San’atning betakror salohiyati ham shundaki, u ayni shu davrdagi odamlar ongi shuurini, hayot nafasi va jamiyat ehtiyojlarini tasvirlanayotgan mazmunga singdirib

yuboradi. Natijada o'sha ifoda ob'yekti barcha xalqlar va elatlarning nazarini tortadigan, e'tiborini qozonadigan mohiyati bilan umumbashariy qadriyat maqomiga ega bo'ladi"¹. Shunday asarlar sirasiga adibning yuqorida tahlilga tortilgan "Yaxshi niyatli kishilar" va "Chanoqlik" qissalarini kiritish mumkin.

"Chanoqlik" qissasi hajman kichik, mazmunan katta bo'lgan qissalar toifasiga kirib, u ham urush dahshatlarini bola hayotida qoldirgan og'ir izlari tasviriga bag'ishlanganligi bilan qimmatli. Qissa G'arbiy Ukrainianing Velikiy Lyubin qishlog'ida istiqomat qilgan g'arib bir oilaning farzandi Roman haqida. Qissa "Besh yashar bolaga qo'yilgan haykalni ko'rghanmisiz? Ishonmayapsizmi? Ana, xolos! Rost, chindan. Ishonmasangiz, adresini beraman, borib ko'ring, yoki o'sha mакtabga xat yozsangiz javobini olasiz" (205) degan so'zlar bilan boshlanar ekan, kitobxonni qiziqtirib qo'yishi aniq.

Qissaning asosiy qahramoni Roman tug'ilgan xonodon sohiblari, bir amallab ro'zg'orni o'tkazish ilinjida ertayu kech mehnat qilib, ilm va ma'rifikat olishdan yiroq bo'lsalarda, farzandlarining ilmli inson bo'lishlarini chin yurakdan istashar, uni suyib orzular qilishardi. Ota-onasining duolari ijobat bo'ldimi, Allohnning irodasi bilan Romanni uch yoshda tili chiqdi va qo'liga tushgan kitob va jurnallardagi rasmlarni ko'rib, o'zicha unga hikoyalar to'qib, ota onasiga biyron til bilan so'zlab berar edi. Bunga ko'rgan otasi o'g'limiz rassom bo'ladi, besh yoshida harf tanib, kitoblar o'qib, she'rlar yodlab aytib barchadan olqish olganda esa otasi, o'g'limiz shoir bo'ladi, deganda mushfiq onasi yana kim bo'lsa bo'lsin, faqat ilmli bo'lsin deya duo qilar edi.

"Bosh qahramonlarning romantik ko'tarinkiligi, ular tuyg'ulari va axloqiy prinsiplarining musaffoligi go'zal va ilhombaxsh namuna bo'lib qoladi"², ekan Roman ham xuddi shunday obrazlardan hisoblanadi. Qissada eshiklari oldidan maktabga borayotgan o'quvchilarga zavqlanib qarab qolgan Roman tasviri o'zgacha zavq-shavq bilan beriladi. Roman bolalar ortidan she'rlarini qo'shiq xirgoyi qilib aytar, uning o'z oldiga qo'ygan bitta ezgu maqsadi bor edi, u ham bo'lsa tezroq katta bo'lib maktabga borish. Romanning o'ziga xos tahsinga loyiq xususiyati, u boshqa bolalarga o'xshab tixirlik qilmas soatlab o'tirib "...harflarni o'rganar, harflarni bir-biriga qo'shib, so'z chiqarar, bu so'zlardan yasalgan jumlalarni esa darrov yodlab olardi. Ishdan endi mammun qaytadigan bo'lib qolgan dadasining qoshiga peshvoz chiqib, biyron tillari bilan takrorlab berardi.

¹ Rahimjonov N. Istiqlol va bugungi adabiyot. –Т.: О'qituvchi, 2012. –В.27.

² Пархоменко М. Типология и взаимосвязь средневековых литератур Востока и Запада. –М.: 1974. –С.368.

–O‘g‘limizning zehni o‘tkir, – deb ota quvonsa, ona yana yuz-ko‘zlarini nurga to‘ldirib: – Ilohim, zehni o‘tkir bo‘lsin, sen bilan mening savodsiz o‘tganim evaziga ham yaxshi bilimdon bo‘lsin! – deb erini yana ham xursand etardi” (208).

Qissada ikkinchi jahon urushi boshlanishi va Romanlar yashaydigan qishloqqa nemislar bostirib kirishi hikoya qilingan. Urushning oqibatlari ayrim qahramonlar taqdiri orqali ko‘rsatib berilishi bilan xarakterlanar ekan, bu qissaning boshqa asarlardan farqli va yutuq jihatni, asar qahramonining besh yoshlik bola ekanligi. Roman urush nimaligini ota-onasining ko‘zidagi sarosimalikdan, qolaversa nemisfashistlarning u yaxshi ko‘rgan maktabini yopib qo‘yganidan bolalarcha beg‘ubor ko‘ngli bilan his etdi. Romanga, ayniqsa, o‘sha mакtabda o‘qituvchilik qilayotgan shop mo‘ylovli muallimni qamoqqa olishgani, shuningdek otasi qo‘lidagi ba’zi kitoblarni olib yashirib qo‘ygani, onasi buning sababi anavilarga yoqmasligini aytganda, nemislarning naqadar yomon odam ekanligini go‘daklarcha fahmlab yetgandi.

Roman yashaydigan qishloq etagidan temir yo‘l o‘tgan bo‘lib, poyezdlarning o‘tishini Roman juda yaxshi ko‘rardi. Ayniqsa poyezdni boshqarayogan mashinistlarga havasi, hurmati o‘zgacha edi. Roman poyezd o‘tadigan vaqtini bilar, shu vaqtga chiqardi: *Vagonlarning Romanga “sen kimsan, sen kimsan?” deganga o‘xshab izlarning uzuq yeriga qoqilib o‘tishi allaqanday zavq-shavq bag‘ishlaydi, ko‘ngilga til bilan aytib bo‘lmaydigan g‘ulg‘ula soladi. Roman rang-barang va uzun vagonlarning eng oxirgisi o‘tib, ko‘zdan g‘oyib bo‘lguncha ulardan ko‘zini uzmaydi. Oldin uzoqdan parovozning zalvorli guldurashi yerni larzaga solib, Romanning vujudini hayajonga to‘ldiradi, keyin uning o‘zi pishqirib ko‘rinadi, shiddat bilan yelib kelib hech narsani nazar-pisand qilmay o‘shqirib o‘tib ketadi. Atrofni gulduros shovqin bilan bug‘ tutadi. Qoramoy hidi anqib ketadi. Undan keyin bir-biriga puxta ulangan rang-barang vagonlar o‘tadi. Go‘yo ular parovozdan uzilib qolsa, ahvollari nima kechishidan xavotir olib bir-birlarini quvlashayotgandek yelib o‘tishadi. Eng oxirgisida kichkina bayroqcha hilpirab turadi. Roman ana shu bayroqchaga tikilishni yaxshi ko‘radi. Poyezd o‘tib bo‘lgandan keyin ham o‘sha bayroqchadan ko‘zini olmaydi. Poyezd uzoqlashgan sari bayroqcha ham kichrayib boradi, oxiri ko‘z ilg‘amas bo‘lib, atrofdagi manzaraga singib ketadi* (214).

Asarning bosh qahramoni Roman yozuvchining asosiy g‘oyaviy niyatini ifodalash uchun yetakchi o‘rinda harakatlanadi. Roman ham qissada shu vazifani to‘liq bajargan. Urush boshlanib, nemislar qishloqqa kirkach, Romanning bolalarcha beg‘ubor hayotida jiddiy o‘zgarishlar bo‘ldi. U endi o‘zi xohlagan vaqtda temir yo‘l yoqasiga chiqolmas, bunga ota-onasi ham ruxsat bermas, qolaversa o‘zi ham

qo‘rqadigan bo‘lib qolgan edi. Temir yo‘ldan endi ilgarigi chiroyli poyezdlar o‘tmas, zambarak, tank, brezent ostiga yashiringan allanimalar ortilgan uzun-uzun vagonli poyezdlar o‘tar edi. Qissada yana bir ahamiyatli tasvir: *Ulardan kaskasini bostirib kiygan, avtomatini ko‘kragiga osib olgan fashistlar xo‘mrayib qarashadi. Ba’zilari unga avtomatini to‘g‘rilab tahdid qiladi. Roman qo‘rqib boshini bo‘yniga olsa, qah-qah solib kulishadi, to‘g‘risi, masxara qilishadi. Ana shundan keyin Roman ham ularni yomon ko‘radigan bo‘lib qoldi* (215).

Qissada bosh qahramon Roman obrazi talqini alohida ahamiyatga ega. Uning o‘ziga xos xarakter-xususiyatlari qissada tasvirlangan matnlarda yaqqol ko‘rinadi. Shulardan biri Romanning temir yo‘l yoqasiga chiqishi, poyezdning o‘tishini tomosha qilishni yaxshi ko‘rish ekanligi. Uning mana shu qiziqishi asarning eng kulminatsion nuqtasini keltirib chiqargan. Romanning ayanchli taqdiri shu tasvirda, ya’ni dadasi tug‘ilgan kuniga olib bergen velosipedini minib poyezd o‘tishini ko‘rgani borgani va yodlab olgan she’rini beixtiyor o‘qigan jarayonda ta’sirchan namoyon bo‘ladi: *Uchag‘ondir bizning parovoz, Qarab aslo unga to‘ymas ko‘z. Uch parovoz, yo‘llar uzra uch, Uzoq-uzoq ufqlarni quch*”. Romanning ko‘zi yerni larzaga keltirib, gumburlab keladigan parovozlarni sanash bilan ovora bo‘lgan vaqtda vagonda ketadigan fashistlarning yosh go‘dakka qilgan vahshiyarcha ishini yozuvchi shunday qalamga oladi va aytish mumkinki, “...bosh qahramon atrofidagi voqealar tasviridan iborat bo‘lsa va shu munosabat bilan qahramonlarning ichki dunyosini ochishga alohida e’tibor berilsa, romanda kishi “ruhining dialektikasi”ni ochish markaziy o‘rinni oladi¹, ekan: “...bir fashist unga ko‘zini olaytirib ketdi. Boshqa biri burnini qiyshaytirdi. Romanga bu alam qildi. U ham javob qaytardi: ikki barmog‘ini boshi ustida shoxga o‘xshatib ko‘rsatdi. U qo‘lini boshi ustidan olib ulgurgancha yo‘q edi, birdan o‘q uchdi... Roman yiqildi” (216).

Qissada voqelik aks etgani va uning markazida bolakay Roman obrazi turgani, uning real hayotida mavjud ziddiyat nemis-fashist vahshiyligi tufayli asarda badiiy aksini topadi. Romanning onasi nogahon o‘q tovushini eshitib, birdan yuragi orqasiga tortib ketgani va “...qo‘lining xamiri bilan, oldiga tutgan fartugini olib tashlash ham esidan chiqib, yalangoyoq o‘g‘li ketgan tomonga - o‘q chiqqan tomonga yugurdi. Qora qonga belanib yotgan o‘g‘lini bag‘riga bosdi, faryod soldi” (216).

Asardagi talqinlarni kuzatar ekanmiz, Romanning nogahoni y o‘limidan kitobxonda bolakay obraziga nisbatan achinish hissi uyg‘onsa, gitlerchi fashistlarga nisbatan nafrat hissini ortganini ko‘rish mumkin. Qissada voqealar rivoji badiiy qahramon Roman va dushman nemislar o‘rtasidagi ziddiyat shakllanadi. Syujet

¹ Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – T.: O‘qituvchi, 1986. – B.248.

yo‘nalishining voqealar rivojida Roman gitlerchi fashistlarning o‘qidan vafot etgani, bu ayrılıqni ko‘tara olmagan homilador onasi muddatdan oldin ko‘zi yorib, ismini to‘ng‘ichi nomi bilan Roman qo‘ygani ma’lum bo‘ladi. Urush tugab, nemis-fashistlar vatandan chiqarib yuborildi. Lekin endi Roman va frontda halok bo‘lgan otasi yo‘q. Ularning uyida onasi bilan ikkinchi Roman yashardi. Kichik Roman bevaqt xazon bo‘lgan akasining yo‘lini tutib, dadasi akasidan olib, yashirib qo‘ygan - “fashistlarga yoqmaydigan” o‘sha kitoblarni onasidan olib o‘qidi. Ikkinci Roman onasining so‘ziga qulq soldi, ilmli-bilimli bo‘ldi. Akasi orzu qilgan parovozni mana endi u vang‘illatib haydab yuribdi. Aka halok bo‘lgan o‘sha temir yo‘l yoqasidan o‘tganda uning xotirasi uchun parovozini qichqirtirib signal beradi, onasi esa, bu tovushni eshitib, ish qilayotgan bo‘lsa ishidan bosh ko‘taradi, yurib ketayotgan bo‘lsa, bir lahma to‘xtab u ham o‘sha to‘ng‘ich o‘g‘lini yodiga oladi. Uni begunoh o‘ldirganlarni ich-ichidan yonib qarg‘aydi. Kichik o‘g‘liga esa, baxt-omad, yurt-elga tinchlik tilaydi.

Qissaning eng ahamiyatli, tarbiyaviy jihat yosh, tirishqoq, ilm olishni istagan “Zehnli bola” Romanning nomi o‘chmasligi uchun qishloq yoshlarining tashabbusi bilan mablag‘ to‘planib, Lvov shahridagi badiiy san’at bilim yurtining talabasi Valeriy Vakulyukka Roman xotirasi uchun haykalini yasatishgani va uni Roman o‘qishni orzu qilgan maktab hovlisiga o‘rnatishgani, deb o‘ylaymiz. Asardagi voqealar rivojlanib borar ekan, adib Roman haykali qiyofasida ma’lum darajada ilmga chorlovchi ibrat timsolini qiyofalantirganini ko‘rish mumkin: *U maktabga kirgan har bir o‘quvchiga: “Menga o‘qish nasib qilmadi. O‘qishni joni-dilimdan yaxshi ko‘rardim. Mening uchun ham yaxshi o‘qing, odobli bo‘ling, ona-Vatanimizning ilmli, bilimli sodiq farzandlari bo‘ling!”*, – deb turganga o‘xshardi (205).

Yozuvchi mahorati shundaki, “*Bir kecha fojiasi*”, “*Yaxshi niyatli kishi*”, “*Changoqlik*” qissalaridagi barcha obrazlar bosh qahramonning o‘ziga xos individual tabiatи atrofida mujassamlantirilgan. Qissalari markaziga qo‘yilayotgan ziddiyatlar odam va insoniyat tabiatidagi, haq va haqiqat zamiridagi, tarix va davr qatidagi qarama-qarshilik ifodasi o‘laroq yuzaga chiqqan. Qissalarda qahramonlar yaratishda ruhiy-psixologik tasvir, individuallashtirish usullarini qo‘llash asar muvaffaqiyatini ta’milagan va bu adib uslubining o‘ziga xosligini ko‘rsatgan. Xullas, qissalarida bosh qahramonlar ruhiy holat tavsifi ishonarli tasvirlangan, xarakter sifatida, alohida fe’l-atvor va muomala, hissiyot va fikr egasi bo‘lgan tip sifatida namoyon bo‘lgan. Va aytish mumkinki, Shuhratning qissalari o‘zbek qissashunosligini boyitishga xizmat qilgan.

XULOSA:

1. Shuhrat hikoyalaridagi bosh obrazda inson qalbi, ko'ngil olami, ruhiy kechinmalari, ichki dunyosi, hayotiy, haqqoniy, tadrijiy takomilda badiiy tasvir etilgan. Adib qahramonlarida milliylik, ma'naviy barkamollik, odamiylik va yuksak insoniy tuyg'ular chuqur singdirib yuborish asarlarida bosh badiiy konsepsiya aylangan.
2. Badiiy asarning realistik tasvirida adib individualligi va uslubi alohida o'rinn tutadi. Hayotiy voqelik badiiy asar syujeti qahramonlarining individual tabiat uchun asos bo'lsa, adibning ijodiy niyati ijrosi mazmunga, muallifning poetik tafakkuriga bog'liq holda rivojlanadi. Yozuvchi bosh qahramon portreti tasviri, tashqi ko'rinish chizgilarini muallif so'zida, obrazlar xayol-o'yida, personajlar maktubida ko'rsatib berishga muvaffaq bo'lgan.
3. Shuhratga xos ijodiylik, o'ziga xos badiiy talqin orqali, yuqoridagi qissalarining komponentlarida voqe bo'ladi. Hayotdagi ziddiyatlar inson qalbiga o'z ta'sirini o'tkazish bilan bir qatorda, uning iztiroblarini ham yuzaga chiqargan. Bu tasvirlar qahramon xarakter va ruhiyatini yoritishga xizmat qiladi, qahramon xarakterining shakllanishi uchun zamin tayyorlaydi.
4. Adib asarlari voqealarining dramatik rivojida, maktub, qissada qoliplash usulidan mohirona foydalanganligi Shuhrat individualligining muayyan qirralarini aks ettirsa, ikkinchi tomondan, asarlaridagi realizmning haqqoniyligi, romantizmning ko'tarinkiligi asar badiiyatini ta'minlagan.
5. Har bir yaratilgan yaxshi asar ijodkorning adabiyotdagi o'rnini belgilashga va uni baholashga asos bo'ladi. XX asr adabiy jarayonini anglashda, badiiy tafakkur tadrijidagi yangilanishlarni tadqiq etib, nazariy umumlashmalarga qilishda mazkur davrda yaratilgan asarlar, jumladan, Shuhrat qoldirgan adabiy meros ham tayanch manbalardan bo'lib xizmat qiladi.

O‘ZBEK ROMANCHILIGI TARAQQIYOTIDA SHUHRAT ROMANLARINING AHAMIYATI VA BADIY YANGILANISH

Badiiy g‘oya va tasvir haqqoniyligi

O‘zbek romanchiligi taraqqiyoti, romannavislarning badiiy mahorat qirralari tadqiqiga bag‘ishlangan S.Mirvaliyev, A.Rahimov, D.To‘rayev, Z.Pardayeva, Sh.Doniyorova, I.Yoqubov, G‘.Murodov, A.Nosirov¹ kabi olimlarning ko‘plab dissertatsion tadqiqotlari yuzaga kelgan. Shuhrat romanlari yuzasidan esa O.Ikromov, O.Tog‘ayev, U.Normatov, Q.Qahramonov singari olimlarning fikrlari bor². A.Azimovning tadqiqotida “Oltin zanglamas” romanida ijobjiy qahramon masalasi va asar badiiyati yoritilgan bo‘lsa, romanlaridagi yozuvchining adabiy-estetik qarashlari va muallif pozitsiyasi kabi masalalar N.Karimovaning tadqiqotida o‘rganilgan. M.Yadgarovaning dissertatsiya ishida “Oltin zanglamas” romani ijodiy biografiyasi tarixiylik va badiiylik mezoni doirasida yaxshi ochib berilgan¹.

Ma’lumki, muayyan shaxs taqdiri, uning o‘zini anglab yetishi: ongingin uyg‘onishi, xarakterining tashkil topishi va shakllanishi roman markazida turadi, shaxslar taqdiri vositasida ijtimoiy hayotning u yohud bu jihatini ifodalaydi. Qissa va hikoyadan farqli o‘laroq, romanda qalamga olingan voqeа-hodisalarda ko‘p personajlar qatnashadi, ularning hayoti va kurashlar bir-biri bilan bog‘lanadi, to‘qnashadi. Roman markazida shaxsiy taqdir va o‘y kechinmalarga ega bo‘lgan inson turar ekan, demak, romanda xarakter yaratish masalasi g‘oyatda muhim ahamiyat kasb etadi: roman qahramoni, tamomila individual shaxs va ayni chog‘da, jamiyat bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli romanda individual taqdir orqali ijtimoiy hayotning, xalq turmushining u yoxud bu jihatlari badiiy tadqiq qilinadi. Chindan ham yetuk roman xalq hayotining ma’naviy ko‘zgusi, keng qamrovli, ulkan fikr mahsulidir. Agar, hikoyada qahramon hayotidagi biron bir voqeа hikoya qilinsa,

¹ To‘rayev D. Hozirgi o‘zbek romanlarida badiiy tafakkur va mahorat muammosi (60-80y): Filol.f.d-ri...diss. – T., 1994; Quronov D. Cho‘lpox poetikasi (nasriy asarlar misolida): Filol.f.d-ri...diss. avtoref. – T., 1998; Pardayeva Z. Hozirgi o‘zbek romanining taraqqiyot tamoyillari: Filol.f.d-ri...diss.–T., 2003.; Pardayeva Z. O‘zbek romani poetikasi.–T.: Xalq merosi, 2003.; Doniyorova Sh. Istiqlol davri o‘zbek romanlarida milliy ruh va qahramon muammosi: Filol.f.d-ri...diss. – T., 2012; Yakubov I. Mustaqillik davri o‘zbek romanlari poetikasi: Filol. f.d-ri (DSc) diss. avtoref. –T., 2018.; Yoqubov I. O‘zbek romani tadriji. –T.: Fan va texnologiya, 2006.; Murodov G‘. Tarixiy romanning mushtaraklik va o‘ziga xosliklar uyg‘unligi muammolari: Filol.f.d-ri ... diss. –T., 2018; Nasirov A. Odil Yoqubov romanlari poetikasi. DDA.– Samarqand, 2018.

² Ikromov O. Shuhratning “Oltin zanglamas” romani Ulug‘ Vatan urushi davrining badiiy ifodasi sifatida. Samarqand prof-o‘qituvchilarining II ilmiy konferensiya materiallari. –S.,1963; Yana o‘sha. O‘zbek romanlarida ijobjiy qahramon. – T.: Adabiyot va san’at, 1973; Tog‘ayev O. “Oltin zanglamas”// Guliston, №8. 1967; Normatov U. Shuhrat. –T.: Badiiy adabiyot, 1969; Yana o‘sha muallif. Ijod sehri. –T.: Sharq, 2007; Qahramonov Q. “Oltin zanglamas” romanida darr va shaxs talqini // Sharq yulduzi. № 3. 2003.

qissada barcha voqealar va personajlar qahramon hayotini va mohiyatini ochishga qaratiladi. Romanda esa, qahramon (yoki qahramonlar) obraz, voqealar birikkan holda davr ruhiyatini aks ettiriladi.

Tadqiqotimiz ushbu faslida Shuhrat romanlarining tug‘ilishida nimalar asosiy omil bo‘lgan, degan o‘rinli savolga to‘xtalamiz va milliy manbalarga murojaat etamiz. Adabiyotshunoslikda dastlab roman janrining tug‘ilishi to‘rt manbaga tayanganini professor S.Mirvaliyev ta’kidlagan edi. Ular: 1.Tarixiy hayot – vogelikning o‘zi; 2.Boy xalq og‘zaki ijodiyoti; 3.Mumtoz adabiyotimizning boy an’anasi; 4.Rus va jahon xalqlari romanchiligidir².

Bobda Shuhrat romanlarining maydonga kelishida tarixiy hayot va voqe’lik, xalq og‘zaki ijodiyoti unsurlari hamda mumtoz adabiyotning boy an’anasi bilan birga rus va jahon romanchiligining bir qancha jihatlarining aks etishi taqqoslangan. Yana bir o‘ta muhim unsur – Abdulla Qodiriy adabiy-estetik tajribalarini ham alohida o‘zlashtirgani o‘rganilgan. Adib romanlari quyidagi tamoyillar asosida tahlilga tortilgan:

- “Shinelli yillar” romanida badiiy g‘oya va tasvir haqqoniyligi masalasini davr nuqtayi nazaridan kelib chiqib olib berish;
- “Oltin zanglamas” romanidagi folklorizm, xususan xalq maqollari va adabiy ta’sir masalasini o‘rganish;
- Adib ijodiga Abdulla Qodiriy badiiy-estetik tajribalari ta’sirini yoritish;
- Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Shuhratning obraz yaratishda mushtarak va farqli jihatlarini belgilash;
- “Jannat qidirganlar”, “Mashrab” romanlarining yaratilishida tarixiy realizm va adib badiiy mahoratining o‘rnini ko‘rsatish;

“Shuhrat ko‘p o‘qiydigan, kitob oshig‘i, jahon adabiyoti durdonalaridan xabardor, mullo shoir edi”³. Adibning rus va jahon xalqlari romanchiligidan asarlarini yozishda unumli foydalanganligini “O‘zim haqimda ikki og‘iz so‘z” sarlavhasi ostidagi so‘zboshisidan bilish mumkin. “Hammadan Mopassandagi maishiy jozibadorlik, Jek Londondagi romantik qahramonlik, Chexovdagagi ixchamlik va aniqlik, Lev Tolstoydagi ko‘lam va psixologik butunlik meni o‘ziga maftun qilib qo‘ydi. “Urush va tinchlik” bilan “Anna Karenina”ni ikki-uch marta o‘qib chiqdim”⁴. Qolaversa, “Shinelli yillar” romanining boshida Elmurodning Muhamram haqidagi

¹Azimov A. Shuhrat ijodida qahramon problemasi: Filol.f.n., diss.– S.,1975; Karimova N. Ideyno-esteticheskaya pozitsiya pisatelya (po romanom Shuxrata): Filol.f.n.diss. –T., 1982; Yadgarova M. Shuhratning “Oltin zanglamas” romani ijodiy biografiyasi: tarixiylik va badiiylik: Filol.f.f.doktori (PhD) diss. – T., 2021.

² Mirvaliyev S. O‘zbek romani. –T.: Fan, 1969. –B.26-27.

³ Mirmuhsin. Ulkan iste’dod / Shuhrat. Xotiralar. –T.: Sharq, 1998. –B.171.

⁴ Shuhrat. O‘zim haqimda ikki og‘iz so‘z. Tanlangan asarlar. 3 томлик, 1 том. –T.: Adabiyot va san’at, 1969. –B.7.

o‘ylarida Lev Tolstoy “Anna Karenina”sidan iqtibos keltirgani, bu borada naqadar haq ekanligimizni isbotlaydi: *Nahotki, men payqamagan bo‘lsam? Ha.. Darya Aleksandrovnaning tili bilan bekorga shunday demagan: “siz erkaklar, qizlarni ko‘rasiz, suhbatlashasiz. Ko‘nglingizda birontasiga bo‘lgan sevgingiz pishib yetgandan keyingina qo‘lini so‘raysiz. Bechora qizlar-chi! Doimo kutishda. Qizlik hayosi bosib, ko‘nglidagi bor sevgisini ham ochiq aytolmaydi. Sizning taklifingizga “yo‘q”, yoki “ha” deb javob berishga haqli, xolos!*¹. Shuningdek, asar davomida Elmurodning general bilan bo‘lgan suhbatni ham adibning rus adabiyotidan durustgina xabardorligini ko‘rsatadi:

–*Chaqirilishdan oldin kim bo‘lib ishlagansiz?*
 –*Student, o‘qituvchi o‘rtoq general!*
 –*Qaysi fandan dars berar edingiz?*
 –*Adabiyotdan, o‘rtoq general!*

–*Lermontov, Lev Tolstoyning soldat va ofitser bo‘ganini bilsangiz kerak. Pushkin yaxshi chavandoz, mergan bo‘gan deydilar. Umuman yozuvchilar harbiy hayotni yaxshi ko‘rardilar, shunday emasmi?* (18). Yoki romanning ikkinchi qismidagi Gytotening “Faust”idan olingen epigrafni olaylik:

“*Hayot erkinlikni sevgan har inson,
 Shu yo‘lda kurashar har soat, har on*” (66).

Yozuvchi “Jannat qidirganlar” romanida Qurbonali xarakterini yaratishda psixologik tasvir usulidan o‘rinli va unumli foydalanadi. Qurbonali obrazining mungli va mahzun hamda ishonarli chiqishida yozuvchining I.S.Turgenev ijodini chuqur o‘rganganligiga va undan ijod sirlarini puxta egallaganligi muhim ahamiyat kasb etadi. I.S.Turgenev asari “Mumu”dagi bechora, tilsiz mujikning qalb izardobi qurbonalida mujassamlashganday tuyuladi. Bu fikrni Shuhratning o‘zi ham tasdiqlaydi: Yoshim ulg‘aygach – achchiq-chuchukni taniganimdan so‘ngra o‘qiganimda bechora mujikning tilsiz oh-fiq‘onlari, ichki kechinmalari yurakbag‘rimni parmalab kirib, xayolimni bir qancha vaqt o‘g‘irlab yurdi. Ruhimga o‘rnashib qolgan bu taassurotning samarasi bo‘lib “Jannat qidirganlar” romanida Qurbonali va uning yakka-yu yagona dardkashi Qoplon epizodlari dunyoga kelgan bo‘lsa ajabmas!².

Shuhrat yaratgan romanlar mavzusi ham xilma-xil bo‘lib, “Shinelli yillar” harbiy-vatanparvarlik urushi mavzusiga, “Oltin zanglamas” Stalin qatag‘oni qurbonlari hayotini ichdan yoritish, bu mudhish hodisaning tub mohiyatini ochishga,

¹ Shuhrat. Shinelli yillar. –T.: O‘zbekiston, 2008. –B.4-5.

² Umri boqiy adib / O‘zbekiston madaniyati, 1968, №89, 12 noyabr.

“Jannat qidirganlar” romani qaltis – vatangadolar qismati, “Mashrab” romani esa tarixiy mavzuni yoritishga bag‘ishlangan.

“Shinelli yillar” romani haqidagi kuzatishlarimizni bayon etishdan avval romanning keng ommaga, kitobxonlarga yetib borish mashaqqatlari to‘g‘risida qisqacha to‘xtalishni joiz topdik. Ma’lumki, roman tugallanishida “1947-1957- yillar” deb yozib qo‘yilgan. Bir qarashda, kitobxon hayron qolishi tabiiy, urush dahshatlarini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan, uning azoblarini tortgan ijodkor sifatida, bu roman shuncha uzoq vaqt yozildimi, degan o‘rinli savol tug‘iladi. “Ijodkor hayoti va faoliyati, konkret ijtimoiy-tarixiy sharoitda kechadi, demak, uning hayoti o‘z davriga nisbatan qism bo‘lib, qism butun tarkibidagina to‘liq anglash”¹ligini hisobga olsak, adibning M.Shayxzoda, S.Ahmad, Shukrullo singari ijodkorlar qatorida yolg‘on vaadolatsizlikka asoslangan mustabid sovet davlati tomonidan 50-yillarda nohaq, tuhmat bilan 25 yilga surgun qilingani roman nima sababdan uzoq vaqt yozilganligining sababini oydinlashtiradi. 1955-yilda oqlanib, yurtga qaytgan ijodkorning birinchi ishi O‘zbekiston Davlat nashriyotiga borib, nashr uchun topshirgan “Shinelli yillar” romanining taqdiri bilan qiziqdi, (adib, dastavval romanni 2 kitobga mo‘ljallagan va 1 qismini 1947-yilda tugatib, nashriyotga bergen) afsuski, o‘sha vaqtida nashriyot direktori bo‘lgan Fayzulla Yunusovdan jo‘yali javob ololmaydi, yaxshiyamki adib asarni ruscha tarjimaga bergen ekan, tarjimaga o‘girilgan variantini ming mashaqqatlar bilan qo‘lga kiritishga muvaffaq bo‘ladi. Yozuvchi romanni ikki kitob qilish niyatidan qaytib, qaytadan tahrir ishlarini boshlab yuborib, romanni yaxlit bitta kitob shakliga keltiradi va 1957-yilda tugallaydi. Lekin, “Shinelli yillar” romani taqdiri bu muammolar bilan tugamaganini adibning xotiralaridan bilishimiz mumkin: “Yozuvchilar uyushmasida muhokama etildi (“Shinelli yillar”, izoh bizniki N.Soatova). Ko‘pchilik “Tarjimai hol bo‘lib qolibdi, roman emas”, deb donishmandlik qildi. Baxtimga bu orada romanning ruscha tarjimasi bitib qoldi. “Voyenizdat” nashriyotiga topshirdim. P. Vershigora, E.Kazakovich kabi nomdor yozuvchilar unga taqriz yozishdi. Ayniqsa, P.Vershigoraning roman haqidagi “Armiyamizda ko‘p millatli roman yo‘q. Shuhratning romani bunga to‘la javob beradi”, deyishi menga qanot bo‘ldi. Roman G. Solovyev tarjimasida ilk bor 1959-yili Moskvada rus tilida katta nusxada bosilib chiqdi. Dekadada ham yaxshi baholandi. 1960-yilda o‘zbek tilida bosildi². Ko‘rinib turibdiki, yozuvchining asari osonlik bilan dunyo yuzini ko‘rmadi. Ayniqsa, dastavval rus tilida, so‘ngra o‘zbek tilida bosilgani ham nihoyatda achinarli hol. Axir,

¹ Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. –T.: Akademnashr, 2018. –B.8.

² Ubaydullo T. Mashaqqat / Shuhrat. Adib hayotiga bir nazar. –T.: Sharq, 1998. –B.130-131.

munaqqidning “Bugun harbiy mavzuda yaratilgan asarlar safiga bir nazar tashlasak, Shuhratning “Shinelli yillar”ni yaratib adabiyotimiz taraqqiyotiga katta hissa qo’shganini anglaymiz. Gap shundaki, to’rt yil davom etgan ikkinchi jahon urushida o’zbek xalqi bir millionga yaqin jangchini qurban bergen. Xalqimiz urush orqasida turib moddiy va ma’naviy jihatdan ko‘p aziyat tortgan. Shu ma’noda to’rt yil davomida og‘ir voqealar hanuzgacha adabiyotimizda yetarli darajada o‘z aksini topa olgani yo‘q. Bu ishda birinchi jiddiy qadamni Shuhrat qo‘yanligini bugun alohida ta’kidlash zarur!”¹ligini qayd etilishining o‘ziyoq asar qay darajada qimmatli ekanligini ko‘rsatadi.

Shuhrat “Shinelli yillar” romanida 1941-1945 yillardagi urush voqealarini, xalqimizning mardligi, bosqinchi yovga qarshi birdamlikda qahramonona kurashib, g‘alabaga erishishga hissa qo’shganini real tasvirlab bergen. Romanda voqelikni “yurgizish” manerasi o‘ziga xos bo‘lib, bu asarning badiiy qimmatini oshirgan. Mazkur holat asarning kompozitsion tuzilishida markazda turuvchi – Elmurodning hayot yo‘li, axloqiy qiyofasi, ma’naviy dunyosi, kechinmalari va boshqa tipik xususiyatlar dushmanqa qarshi kurashda, do‘sstariga bo‘lgan munosabatlarda, og‘ir va dahshatli damlarda birma-bir ochilib boradi. Elmurod Vatan urushida matonat va qahramonlik ko‘rsatgan jangchining tipik vakili sifatida kitobxon ko‘z o‘ngida gavdalanadi. Asar voqeasi O‘zbekistonda boshlanib, Volga bo‘ylarida, Kavkaz va Ukrainada, shuningdek, chet mamlakatlarda davom etadi. Voqe Germaniyada gitlerchi fashistlar tor-mor qilinib, buyuk g‘alabaga erishilgandan keyin Elmurodning o‘z uyiga (O‘zbekistonga) qaytib kelishi bilan tugaydi. Romanda tinchliksevar xalqlarningadolat va haqqoniyat yo‘lida olib borgan kurashi va insoniyat oldidagi buyuk xizmati obrazli ravishda haqqoniy ko‘rsatilgan.

“Shinelli yillar” romanining ahamiyatli jihatini, roman Vatan urushi boshlanishidan to oxirigacha bo‘lgan davrni yoritib bergen. Yozuvchining bu romanni yaratishdagi katta yutug‘i, uning urushda qo‘liga qurol olib jangga kirgani, urush voqealarini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgani. Romanda shuning uchun urush tasvirlari, harbiylar hayoti aniq, hayotiy, haqqoniy tasvirlangan. Urushdagi kichik bir voqe ham adib tomondan ishonarli chiqqan. Adib e’tirofidek: ...*o‘zbek soldat-ofitserlarining Ulug‘ Vatan urushi maydonlaridagi jonbozligini ko‘rsatish niyatida voqeani urush arafasidan boshladim. Asosiy material bo‘lib o‘z biografiyam xizmat qildi. To‘g‘risi, ko‘rgan-bilganlarim dalda bo‘ldi. Bunga do‘sstarim hayoti, ijodiy to‘qimalarim qo‘shilib ketdi. Tabiiy, bir kishining biografiyasi bilan badiiy asar yozib bo‘lmaydi,*

¹ Qo’shjonov M. O’tdan ham, suvdan ham.../ Shuhrat. Adib hayotiga bir nazar. –T.: Sharq, 1998. –B.184-185.

bo‘lganda ham u badiiy asarga aylanmaydi. Adib shuning uchun ijodkorki, u o‘zi tanlagan biografiyasiga o‘z fikr-o‘yi, orzu-umidi, ideyalarini, dard-armonlarini, o‘kinch va assuslarini badiiy vositalar orqali qo‘sadi, moslashtiradi, to‘qiydi, boyitadi. Buning hammasi yozuvchining uquviga, mahoratiga, samimiyatiga va e’tiqodiga bog‘liq¹.

Muallifning biografiyası “Shinelli yillar” romanidagi bosh qahramon Elmurod obrazida qisman ko‘rinadi. Urushning bevosita qatnashchisi bo‘lgan Elmurodning biografiyası talqini jarayonida shafqatsiz, berahm, la’nati urushning oqibatlarini birma-bir shohidi bo‘lib boramiz. Mazkur roman faqatgina bosh qahramon Elmurod haqida bo‘lmay, katta bir tarixiy davrni, avlodlar bir umr unutmeydigan - Vatan urushi manzaralarini real chizishga qaratilgan. Nazarimizda, bu romanning xomaki varianti Shuhrat qo‘liga qurol olib yurgan davrlardayoq tayyor bo‘lgan.

Romanda Elmurod oliy ma’lumotli, Vatanini sevuvchi, shuning uchun kurashgan g‘alabaga o‘z hissasini yurak amri bilan qo‘sghan obraz sifatida ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi. Mamajon Turdiyev, Rashid, Muharram, Yo‘ldosh Otayev, Sodiqov kabi vatandoshlarimizning obrazlari ham romanda yorqin bo‘yoqlarda chizilgan. Yozuvchi Elmuroddagi mavjud insoniy fazilatlarni turli munosabatlarda ocha borib, o‘quvchiga ma’naviy ta’sir etish usulini qo‘llaydi. Elmurod xarakterining tarbiyaviy mohiyatini uning atrofidagi kishilarga kuchli ta’sir ko‘rsatishda, o‘z o‘rtoqlariga bo‘lgan samimiyy munosabatlarda, og‘ir vaziyatlar yuz berganda sezildi. Masalan, u o‘z bataloni bilan fashist gazandalari qurshovida qoladi. Oziq-ovqat, qurol-aslahha sanoqliq. Buning ustiga, komandir Danilchenko og‘ir yarador. Dushman borgan sari hujumni kuchaytirar, har bir ko‘ringan narsani nishonga olar edi. Yozuvchi ana shunday qaltis va murakkab situatsiyada o‘z qahramonini tasvirlar ekan, Elmurodda sodir bo‘layotgan har bir o‘zgarishni, psixologik holatni ko‘z o‘ngidan qochirmaydi. Uning ongida sodir bo‘layotgan dushmanlarga nisbatan g‘azab va nafrat (g‘azabidan titrab, oqarib ketishi) o‘quvchi ko‘z o‘ngida namoyon bo‘la boradi. U jangchilar va qolgan qurol-aslahalarni birma-bir sanab chiqadi, oziq-ovqatlarni qattiq kuzatuv ostiga oladi. Eng muhimmi, soldatlarning ruhini cho‘ktirmaslik ekanligini juda yaxshi anglaydi. Elmuroddagi ana shunday jonbozlik va harakatchanlik bo‘limganda edi, ko‘p kunlik qurshovdan yorib o‘tish mumkin emas ekanligini, o‘quvchi, roman o‘qish jarayonida yaxshi anglaydi. Adib asarda Elmurodning xarakter va xususiyatlarini voqealar jarayonida ochish bilan birga, qahramonlikka xos xislatlarning shakllanishida unga general Yagunov, tajribali komandirlari

¹ Shuhrat. O‘zim haqimda ikki og‘iz so‘z / Tanlangan asarlar. Uch tomlik, Birinchi tom. –T.: G‘.G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot, 1969. –B.8-9.

Danilchenko va Rakitin ko'rsatgan barakali yordami hamda ta'sirini ishonarli lavhalarda tasvirlay olgan.

Elmurod bir paytlar, ya'ni qishloqdalik davrida Muharram ismli qizni sevgan edi. Afsuski, urush tufayli bu sevgi barbod bo'ladi. Elmurod armiya safida xizmatga boradi. Xarakterlar rivoji davomida shu narsa aniq bo'la boradiki, shu Muharramning turmush o'rtog'i Rashid Elmurodning bo'linma soldatlari qatorida xizmat qila boshlaydi. Hayotda uchrashi mumkin bo'lgan tasodif. Yozuvchi bu ikki obrazni ataylab bir-biriga to'qnash keltiradi. Shu orqali Elmurodning xarakterini ochib beradi. Elmurod hamma voqeadan voqif, lekin Rashid xabarsiz shu bois oilasi to'g'risida: *Xotinim bilan turgan uch oy nikoh oqshomiday totli o'tdi. Huzur muhabbat, sadoqatda ekan*" degani Elmurodga juda ham og'ir botdi...*Qachonlardir sevgandek bo'lib yurgan va keyinchalik noma'lum sabab bilan boshqaga tekkan qizning fazilatlarini o'z raqibi og'zidan eshitish naqadar dahshat ekanini Elmurod butun vujudi bilan his etdi*¹. Umuman yozuvchi bu ikki obrazni o'ch olish mumkin bo'lgan qulay paytlarda bir-biriga ro'para qiladi. Romanni o'qiyotgan kitobxon biror voqeasodir bo'lishini kutadi. Voqealar ipi tarang tortiladi, konflikt juda keskinlashadi. Rashid rotada yaxshi jangchi, dushman bilan bo'lgan jangda qahramonlarcha oldingi safda harakat qilar ekan, yaralanib yiqilar ekan, ortidan kelayotgan Elmurod uni suyab qoladi. O'quvchi ko'ngilsiz voqeas yuz berishiga amin bo'lib turgan bir paytda Elmuroddagi odamiylik, insonparvarlik ustun keladi. Elmurodning oliyjanobligi, o'z soldatlariga nisbatan mehribonligini ifodalar ekan, yozuvchi psixologik holatlar tasviridan unumli foydalanadi. Bu holat asarda quyidagicha tasvirlangan: ...*suyab qolgan yaradorini quchoqlaganicha soyga olib tushib ketdi. Yerga yotqizganidagina uning Rashid ekanini bildi, shu daqiqagacha yuziga nazar tashlamagan ekan...Ehtimol, u olib chiqmaganda yana bir daydi o'q butunlay nobud qilardi. "Bordi-yu, o'q tekkan zamon Rashid ekanini bilganingda nima qilarding? Olib chiqishga ko'ngling tortib, qo'ling borarmidi? Indamay olg'a o'tib ketishga jur'at etarmiding? Qalbing, ruhing, shunga qobilmidi?" -shu fikrlar uchayotgan o'qlardek xayolidan birin-ketin o'tdi. Xayol tarozusining ikkinchi pallasida: "Ha, albatta olib chiqarding. Avvalo u sening fidokor, qahramon, o'z burchini sadoqat bilan o'tagan jangching, quroldosh do'sting, atakada yelkadosh hamrohing, sen niyat qilgan manzilga yetish uchun kurashgan zahmatkash safdoshing" degan salmoqli fikr yotardi. Bu ikki ichki kurash bir necha daqiqa qonli nayzalar ko'tarib olishdi. Oxir,*

¹ Shuhrat. Shinelli yillar. –T.: G.G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1968. –B.94 (Bundan keyingi shu nashrdan olingan iqtiboslar qavs ichida sahifasi ko'rsatiladi).

shu so ‘nggisi yengdi...Rashidning o‘q tekkan boshini avaylab bog‘ladi va orqaga olib ketdi (145).

Voqealar davomida Elmurodning yetuk komandir bo‘lib yetishgani ko‘rsatiladi. Romanda har bir voqea-hodisalar biri ikkinchisi bilan bog‘langan holda ko‘rsatiladi, asarning bosh syujet liniyasini to‘ldirib boradi. Bahodir Karimovning “Badiiy asar ichkarisida voqealar yuz beradigan, qahramonlar o‘zaro to‘qnashadigan, uchrashadigan adabiy makon va zamon chinakam san’atkorlar ijodida poetik qator, immanent tizim holatiga kelgan bo‘ladi. Bu ijodkorning iste’dodi, san’atkorligi, fahm-farosati, uslubi, voqelikni “yurgizish” manerasiga ham daxldor”¹, degan nazariy fikrlari Shuhrat ijodiy lobarotoriyasiga ham taalluqlidir.

Shuhratning “Shinelli yillar” romanida voqelikni “yurgizish” manerasi o‘ziga xos bo‘lib, bu asarning badiiy qimmatini oshirgan. Bu holat asarning kompozitsion markaz rolini o‘tovchi Elmurodning hayot yo‘li, axloqiy qiyofasi, ma’naviy dunyosi, ichki kechinmalari, undagi tipik xususiyatlar-dushmanga qarshi kurashda, do‘stilariga bo‘lgan munosabatlarida, og‘ir damlarda, dahshatli daqiqalarda, o‘zini tutib idora qilishlarida birma-bir ochilib boradi. U qizg‘in jang paytlarida ham o‘zini yo‘qotmaydi. Har bir vaqtidan unumli foydalanishga harakat qilishiga mantiqan ishonamiz. Aslida ham, adabiyot va yozuvchining muqaddas va oliv burchi ham sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga kitobxonni ishontira olish, qahramonning hatti-harakatining haqligini isbotlay olishdir. Shuning uchun ham Elmurod Ikkinchiji jahon urushida matonat va qahramonlik ko‘rsatgan jangchining tipik vakili sifatida kitobxon ko‘z o‘ngida gavdalanadi. Urushning shafqatsiz qonuniyati uning boshiga ancha kulfatlarni solgan. Jang paytida uning ishi nuqul o‘ngidan kelavermaydi, kurashdan ziyon-zahmatsiz chiqmaydi. U ham boshqalar singari jang maydonida ba’zan adashadi, xatoga yo‘l qo‘yadi, jangga qiziqib ketib, maydonda jang qilayotganda og‘ir yarador bo‘ladi, oyog‘i sinadi, qornidan qattiq jarohatlanadi, o‘lim bilan yuzma-yuz keladi, sevgan qizi Zeboden ajraladi, xullas, ko‘pgina ko‘rgilik va kulfatlarga duchor bo‘ladi. Bu, albatta, yozuvchining jang jarayonini yaxshi bilganligi, o‘z ko‘zi bilan ko‘rganligi, chuqr o‘rganganligi, tasavvur va idrok qilganligidan dalolatdir.

Shuhrat Elmuroddagi mavjud insoniy fazilatlarni turli munosabatlar bilan ochib borib, o‘qirmanga ma’naviy ta’sir etish usulini qo‘llaydi. Elmurod xarakterining tarbiyaviy mohiyatini uning o‘z atrofidagi kishilarga kuchli ta’sir ko‘rsatishida, o‘rtoqlariga bo‘lgan samimiyy munosabatlarida, og‘ir vaziyatlar yuz berganda seziladi. Uning bosiq, mulohazali fikrlari atrofidagi kishilarga tezda borib yetadi. Masalan, u

¹ Karimov B. Abdulla Qodiriy va germenevtik tafakkur. –T.: Akademnashr, 2014. –B.165.

o‘z bataloni bilan fashist gazandalari qurshovida qoladi. Oziq-ovqat, qurol-aslaha sanog‘liq. Buning ustiga, komandir Danilchenko og‘ir yarador. Dushman borgan sari hujumni kuchaytirar, har bir ko‘ringan narsani nishonga olar edi. Yozuvchi ana shunday qaltis va murakkab situatsiyada o‘z qahramonini tasvirlar ekan, Elmuroddha sodir bo‘layotgan har bir o‘zgarishni, psixologik holatni ko‘z o‘ngidan qochirmaydi. Uning ongida sodir bo‘layotgan dushmanlarga nisbatan g‘azab va nafrat o‘quvchi ko‘z o‘ngida namoyon bo‘la boradi. U jangchilar va qolgan qurol-aslahalarni birmabir sanab chiqadi, oziq-ovqatlarni qattiq nazorat ostiga oladi. Eng muhimmi, soldatlarning ruhini cho‘ktirmaslik ekanligini juda yaxshi anglaydi. Elmuroddagi ana shunday tadbirdorlik va ishbilarmonlik bo‘lmaganda edi, ko‘p sonlik dushman qurshovidan yorib o‘tish mumkin emas emasligini kitobxon yaxshi anglab turadi.

Elmurod obraqi roman syujetining asosiy yo‘nalishini boshqaradi. Romanda berilgan yordamchi xarakterlar, personajlar, epizodlarning deyarli hammasi-Elmurod obrazining turli tomonlarini ochishga, bu obraz dinamikasini ta’minalashga qaratilgan. Bu hol Sodiqov va leytenant Maxalov obrazlarida ochiq ko‘rinadi. Bu qahramonlar dushmanning qilgan hujumini mardonavor qaytaradi. Tankka qarshi o‘q-dorilari qolmagach, bir necha granatalarni birlashtirib, dushman tankini portlatadilar. Fashistlarning quturib qilgan hujumini barbod qiladilar. Quyidagi adabiy lavha fikrimizni to‘liq dalillaydi: *Avtomatchilardan ajralgan tank tepalikka sur’at bilan yetib kelib, o‘q otishni to‘xtatdi-da, okoplar ustidan yurib, gusenitsalari bilan ezg‘ilay boshladi, okoplarning, aloqa yo‘llarining cheti nurab, tuproqqa to‘ldi. Sodiqov tankning o‘z ustiga bostirib kelishini kutib o‘tirmadi-da, transheya ichidan unga qarab otildi. U mo‘jalga olgan tank bir yerda turib olib, zanjirlari ustida gir aylanardi. U shunchalik yaqinlashib bordiki, o‘z granatasi parchasidan zarar ko‘rishi xayoliga ham kelmadi. U faqat bir narsadan: granatasi mo‘jalga tegmay qolishidan, mehnati bekorga ketishidan qo‘rqardi. Yaralanish, halok bo‘lish, nechundir shu onda o‘yiga kelmasdi. U granatasini irg‘itishga ko‘targanda, tank manglayidagi oq krest shunchalik aniq va katta ko‘rindiki, uning shunaqa ekanini hech payqamagan ekan. Shu daqiqada u krest ko‘ziga juda ham mudhish ko‘rinib ketdi. Ko‘rindi-yu, granatani qanaqa qilib irg‘itganini o‘zi bilmadi, faqat saldan so‘ng kuchli gumbirlashish va qayendaydir temir bo‘laklarini sharaqlab ketganini eshitdi”* (122).

Romanda adib voqelikni bo‘yamaydi, balki urushda voqealarini qanday bo‘lsa shundayligicha real aks ettiradi. Masalan, asar qahramonlaridan biri – Mamajon Turdiyev obrazini olaylik. Bu obraz qaysidir ma’noda, Abdulla Qahhorning “Oltin

yulduz” qissasidagi Ahmadjon Shukurov obraziga o‘xshash: “...miltig‘ini tig‘idan ushlab, ketmonday yelkasiga qo‘yib shoshmasdan kelayotgan Ahmadjon:

-Stroy bo‘lmasdan shunday ketaversak bo‘lmasmikin? -dedi.

Komandir jahl bilan burilib unga qaradi, bir nima demoqchi bo‘lgan edi, uning miltiq ko‘tarishini ko‘rib kulgisi qistadi.

-Bu qanday miltiq ko‘tarish? Tugmangizni soling! Askar hech qachon, hech qayerda “shunday” keta bermaydi...R-rovnyays! ¹. Matndan ko‘rinib turibdiki, sodda Ahmadjonga armiya tartib-qoidalari yot, unga ma’qul bo‘lmaydi. Asarning diqqatga sazovor bo‘lgan joyi shundaki, adib o‘z qahramoni Ahmadjonni qishloqi, sodda holida qoldirib ketmaydi, bir necha oy ta’lim ko‘rib yaxshi pulemyotchi bo‘lgani, keyinchalik butun jangchilarni qoyil qoldirgani va qahramon sifatida tilga olinganligini Abdulla Qahhor Ahmadjonning faoliyatini aniq kartinalarda, epizodik lavhalarda xarakterli detallar orqali jonlantirib bergen: *Shu yerda Bolshaya Kamenka degan qishloq yuor edi. Uni 1943-yilda fashistlar talab, o‘t qo‘yib ketgan*. Ahmadjonning ko‘z oldiga o‘zining Shovardi qishlog‘i, ko‘cha changitib yurgan o‘g‘li Muhammadjon, ko‘pincha eshik tagiga chiqib o‘tiradigan to‘qson yashar Abduaziz ota keldi. Kuyib kul bo‘lgan Bolshaya Kamenka qishlog‘ida Muhammadjon singari bolalar, Abduaziz ota singari chollar, kampirlar, o‘lim to‘shagida yotgan bemorlar, baxtsiz mayiblar, yangi tug‘ib yotgan xotinlar oz bo‘lganmikan? Yog‘och uyning shiftini, devorlarini alanga yalayotgan vaqtida tutunda dimiqqan go‘dak qanday chirqiradi ekan? Keyin, albatta, hushidan ketgandir, avval mayin sochlari kuygandir, yuzi va talpingan qo‘lchalari qoraygandir... (19).

Adib Ahmadjonning psixologiyasida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni, fashistlarga nisbatan bo‘lgan g‘azab alangalarini hatto uning xayollarida ham aniq ko‘rsatib bera olgan. Ahmadjon yer bilan yakson qilingan qishloqlarni, chala o‘ldirilgan kishilarni, o‘z onasining ko‘zi oldida otib tashlangan yigitni, kuydirilgan kishilarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rar ekan, undagi fashist gazandalariga bo‘lgan nafrat o‘ti yana ham ortadi. Ularni yer bilan yakson qilish uchun o‘z qalbida qasamyod qiladi va qasamyodiga sodiq qolib, qahramonlik qilib “Oltin Yulduz” bilan taqdirlanadi.

Qahramon Mamajon ham xuddi Ahmadjonga o‘xshab sodda, “to‘pori, qishloqi yigit” va xalqona odatlarga ko‘nikkan. V.Belinskiyning “Urf-odatlar xalqning qiyofasidir, ularsiz xalq – qiyofasiz obrazdir”² – degan qarashi shu o‘rinda juda o‘rinlidir. Haqiqatan, xalqona obrazni yaratishda o‘sha xalqning fikrlash tarzi, dini, tili bilan birgalikda urf-odatlari ham muhim ahamiyatga ega. Yozuvchi Mamajonning

¹ Qahhor A. Oltin yulduz. Asarlar 5 jildlik, 3 jild. –T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1988. –B.4.

² Belinskiy.V. Adabiy orzular. –T.: Adabiyot va san’at, 1977. –B.6-7.

xarakterini tasvirlar ekan, uni irim-sirimlarga juda ishonuvchi, lekin tabiatan sofdil, ko‘ngli bo‘sh inson tarzida romanga olib kiradi¹.

Urushga jo‘nash oldidan ammasining: *Bo ‘yningdan olma, bu-duo, juda o‘tkir duo. Vaqt, bevaqt yurasan, hamrohing bo‘ladi” degan nasihat hamon yodida. Hatto yulduzlar uchishini ham biror kishining o‘limi deb biladi.* U “rus tilini yarimta-yurimta qilib (78- бет) gapiradi. “*U tank chiqishida ko‘z olmay turdi-yu, ota boshlashi bilan boshini quyi solib oldi. Ko‘zini chirt yumib, o‘qtin-o‘qtin o‘q uzdi. Qayoqqa tushganini ko‘rmadi. Gorkunov, bundoq qarasa, u boshini shineling yoqasiga o‘rab olgan. Yuragi shuv etib ketdi-unga o‘q tegdimikan? “Turdiyev, Turdiyev!” dedi. U indamadi. Yana chaqirdi, oxiri u “Ha?” dedi. Yoqasining bir chekkasini ochib Gorkunov boshidan yaralangan bo‘lsa kerak deb, ko‘maklashmoqchi bo‘ldi...hech qayeri yaralanmagan. Gorkunov hayron bo‘ldi”* (79). Bunday adabiy holatlar asarning hayotiyligi va realligini ta’minlashda muhim rol o‘ynagan. Chunki, o‘sha damda vaqt tig‘iz bo‘lib, jangga jo‘nayotgan soldatlarimiz to‘liq harbiy mashq muddatini ham o‘tay olmas, pishib, toblanib ulgurmasdilar. Bunga imkon va vaqt yo‘q edi. Bu xulosadan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, Ahmadjon Shukurov va Mamajon Turdiyevga o‘xhash kimsalar uchrashi tabiiy. Yozuvchilarimizning mahorati ularning qanday bo‘lsa shundayligicha ko‘rsatish va ularning ruhiyatida yuz beradigan voqealarni real tasvirlashida to‘liq namoyon bo‘ladi. Ahmadjonda uchratganimiz – dushmanaga nafrat alangalarini Mamajon Turdiyev obrazida ham ko‘ramiz. Turdiyev avvallari fashistlarning shu qadar yirtqichligiga uncha ishonmaydi. “*Nahotki, nemis shunaqa berahm bo‘lsa, bekorga hammani o‘ldirib, shahar yoqa bersa, axir u ham odam-ku, uning ham bola-chaqasi, uy-joyi bordir. U qishloqda ekan, bir mahal germanning o‘qimishli, ishbilarmon xalq ekanni allakimandir eshitgan edi. Shundan beri “nemis” desa, uning ko‘z oldiga shahardan chiqib, bayram kechasi ma’ruza qilgan koverkot kostyumli, galstuk taqqan olifta kishi kelardi. Gorkunov dushmanning kirdikorini gapirar ekan, ichida: “Jilla bunchalik bo‘lmasa kerak”*(82)-deb o‘ylaydi. Janglarda faol ishtirok eta borgani sari, fashistlarning, Gorkunov aytganidek, naqadar yirtqichligini o‘z ko‘zi bilan ko‘rib, unga qat’iy ishonadi. U dushman xarob qilgan shahar va qishloqlarni, tili chiqib “*ona*” so‘zini ayta olmaydigan norasida go‘daklarning o‘limini ko‘rar ekan, qalbida gitlerchilar germaniyasiga bo‘lgan nafrat oshib ketadi. Ongida butunlay boshqacha tasavvur paydo bo‘ladi. Fashizm butun insoniyatning ashaddiy dushmani ekaniga qat’iy ishonch hosil qiladi.

¹ Qurang: Shuhrat. Shinelli yillar. –T.: Adabiyot va san’at, 1968. –B.78.

Yozuvchi Turdiyev xarakterini yaratar ekan, uning ongingin shakllanishini sun’iy va hissiz quruq bayon etish yo‘lidan bormaydi. Real, yorqin, haqqoniy va ishonarli tarzda ko‘rsatishga harakat qiladi. Jang damlari Turdiyevga katta hayot maktabi bo‘ladi. Ayniqsa, jang paytidagi bir epizodik voqeа unga qattiq ta’sir etadi, uni o‘ylashga majbur qiladi: *Turdiyev granatasini beliga qistirib, bolani olgani kelganda, u o‘lib qolgan edi. Shuncha o‘liklarni ko‘rib mijjasiga nam chiqmagan Turdiyev birdan yig‘lab yubordi... -Go ‘dakni asrab qololmabsiz-da? Turdiyev shu savoldan yana ham iztirobga keldi. Titrab-qaqshab yuragni ochib soldi: -Mana shu alam qilyapti. Go ‘dakni-ya, go ‘dakni otdi, xuddi ko‘zimning oldida otdi. Qanday qilib qo‘li bordi, ekan, o‘rtoq doktor: -Turdiyevning tomog‘iga yong‘oqdek bir narsa tiqilib keldi, dimog‘i achidi, ko‘ziga yosh keldi*(219).

Fashistlarning vahshiyligini ko‘rsatuvchi asardan olingan matnni o‘qir ekanmiz, “Yozuvchi ijodining ko‘tarinki ruhi uning badiiy asarlari ohangining asosiy xususiyatlari, ustunlik kasb etuvchi uslubi bilan uzviy bog‘lanadi”, - degan e’tirof¹ Shuhrat ijodiga xos va u muayyan ma’noda to‘g‘ri ekanligini kuzatamiz. Asardagi Mamajon Turdiyev xarakterlarining rivojini olaylik, bu obrazning ma’naviy axloqiy qiyofasini belgilovchi muhim xususiyat-onasi Vatani, qahramon xalqiga bo‘lgan mehr-muhabbatda ekanini anglaymiz. Mamajon Turdiyevning urush jarayonidagi matonati, unda milliy g‘urur hissining kuchliligi adibning ko‘tarinki ruhi bilan tasvirlangani bois asar badiiyatini to‘la ta’minlagan. Jang jadallab ketayotgan paytda komandir yaralandi. Buni asarda adib shunday tasvirlaydi: *Turdiyevni ko‘rdi-yu, “endi bu yog‘i nima bo‘ladi, men safdan chiqdim-ku” deganday bir qarash qildi. Turdiyev uni xuddi shunday deb tushindida, sapchib okopdan chiqdi, chekinib borayotgan soldatlarga qarab: “Qayoqqa!” deb baqirdi. Shu lahzaning o‘zida avtomatini o‘nglab ushladi-da kishilarning orqasidan ergashuviga to‘la ishonch bilan:*

-Olg‘a, o‘rtoqlar, olg‘a! Ura” -deb hayqirdi(306).

Yozuvchi Elmurod, Turdiyev obrazlarining xarakterini ochib berish uchun jang kartinalarini real chizishga harakat qiladi. Fashistlarning vahshiyligini ko‘rsatuvchi xarakterli epizod va detallarni keltiradi. Natijada, qahramonning bajarayotgan ishiga kitobxon ishonadi. Adib romanda obrazlarni haqqoniy tasvirlash, ularning ruhiyatini tasvirlash yo‘lida kichik bir lavhani mahorat bilan yaratadi. Roman xalqimizning, Ikkinchchi jahon urushi davridagi ishtiroki, mardonavor kurashi, qahramonligini keng miqyosda tasvirlab beruvchi yirik asar bo‘lganligi bilan qimmatlidir.

¹Храпченко М. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. – М.: Советский писатель, 1970. – С.124.

“Bu ikki asarning (“Shinelli yillar” va “Oltin zanglamas”, izoh bizniki. N.S) muvaffaqiyat qozonish siri avvalo shundaki, har ikkisi ham, birinchidan, adibning shaxsiy hayotiga daxldor, ikkinchidan, asrning ulkan fojeiy hodisalarini-ikkinchi jahon urushi va bolshevizm qatag‘on hodisalariga aloqador voqealar haqida bahs etadi”¹.

FOLKLORIZM VA ADABIY TA’SIR

O‘zbek romanining mumtoz namunalari sirasiga adib Shuhratning “Oltin zanglamas” asari kiritilgani bejiz emas. Bu asar o‘zbek adabiyotida qatag‘on yillari haqidagi birinchi roman va yaqin - yaqinlargacha “yagona” bo‘lib turardi. “Oltin zanglamas” o‘zga fazilatlaridan qat’iy nazar muallifning ijodiy jasorati uchun ham o‘zbek romanining mumtoz namunalari qatoriga qo‘ssha arziydi. Chunki qatag‘on yillarini eslab, hanuzgacha shivirlab gaplashadiganlar bor. Boshidan shuncha uqubatlarni o‘tkazib kelib, tanasidan Shimol qahratonlarining zahri ketmay, shular haqida oshkora yozish bu hazilakam gap emas”². Adabiyotshunos olimning fikrlariga qo‘shilgan va uni davom ettirgan holda Po‘lat Mo‘min, asar mavzu g‘oyasi, adib adabiy-estetik qarashlari haqida shunday munosabat bildiradi: “Shuhrat o‘zbek adabiyotida birinchi bo‘lib qatag‘on qurbanlari hayotini ichdan yoritish, bu mudhish hodisaning tub mohiyatini ochish, “xalq dushmani” deb qoralanganlar aslida kim o‘sha kezлari o‘zlarini sovet hokimiyati posbonlari, sotsialistik g‘oyalari himoyachisi deb sanaganlar kim ularning asl qiyofasini ko‘rsatishga jazm etadi. Yozuvchi romanda o‘z g‘oya - maqsadlariga mos hayotiy fabula topa bilgan: “xalq dushmani” deb atalgan odamlar aslida xalqning, vatanning sodiq fidoyi farzandlari, o‘zlarini sovet hokimiyati posboni, sotsialistik g‘oya himoyachisi sanagan kimsalar esa qallob, sotqin, vatan xoinlari bo‘lib chiqadilar... Roman muallifi ana shu murakkab vaziyat tufayli qalbidagi tug‘yonlarni – yurtning chin o‘g‘lonlariga bo‘lgan cheksiz muruvvat, mehr-muhabbatini, xoin xiyonatkorlarga nisbatan qahr-g‘azabini, do‘stu dushmanni bir xil qismatga mutbalo etgan mudhish hodisaga nisbatan izchil munosabatini oshkora izhor etadi”³.

Yuqorida muhim jihatlari tilga olingan bu romanning nashr ettirilish jarayoni qanday bo‘ldi, osongina nashr etildimi, yoki u ham “Shinelli yillar” kabi nashr qilinguncha adibni ko‘p sarson qildimi? Tabiiyki, roman osonlikcha nashr bo‘lmadi. “Oybek, Abdulla Qahhor romanlari darajasidagi asar deb baholangan bu romanning

¹ Normatov U. Adibning baxti / Shuhrat. Xotiralar. –T.: Sharq, 1998. –B.194.

² Rizayev Sh. Umr karvoni / Shuhrat. Xotiralar. –T.: Sharq, 1998. –B.278.

³ Mo‘min P. Shuhratning shuhrati / Shuhrat. Xotiralar. –T.: Sharq, 1998. –B.193-194.

ham ming afsuski, kitobxon qo‘liga tegishi oson bo‘lmadi. Nashr qilinguncha ming chig‘iriqdan o‘tdi. Chunki u hayotiy, haqqoniy, katta jur’at bilan yozilgan asar edi”¹.

Adib “Oltin zanglamas” nomli romanini yozib tugatdi-yu tegishli idoralarning domiga tushdi. Kirmagan eshigi, uchrashmagan odami ham qolmadi....Totalitar tizimlari biroz bo‘sagan bo‘lsa-da, bu xildagi haqiqat xususida ochiq fikr bayon qilish, xususan asar bitish o‘ta xatarli ish edi. Shuhrat mana shu xatarli ishga qo‘l urgandi”². Roman yuqorida e’tirof etilgandek, qatag‘on yillari, begunoh qatag‘on qurbanlari hayotini tasvirlagan.

Shuhratning “Oltin zanglamas”i keskin to‘qnashuvlar, o‘tkir konfliktlar asosiga qurilgan. Roman shaxsga sig‘inish davridagi adolatsizliklar, ojni qora deb begunoh kishilarni qamashlar, asossiz jazolashlar aks ettirilganligi, ya’ni mustabid tuzumning halol bir o‘zbek ziyyolisi hayotidagi mashaqqat-u azoblarni tasvirlagani bilan adabiyotshunoslikda o‘z haqiqiy bahosini oldi. “Oltin zanglamas” yozilgan oltmishinchı yillarda, – deydi Pirimqul Qodirov, - “senzura” deb ataladigan taqiq va tazyiqlar hali juda kuchli edi. Shuhrat aka shu taqiq va tazyiqlar orasidan yo‘l solib o‘tdi, halol bir ziyyolini nohaq hibs qilgan va unga kurakda turmaydigan yolg‘on ayblarni taqagan riyokor zolimlarni fosh etadigan katta romanni o‘zbek adabiyotida bиринчи bo‘lib yaratdi”³.

Adibning o‘zi romanning yaratilishi haqida yozgan e’tirofiga to‘xtalsak: “Oybekning “Qutlug“ qon”, “Navoiy” romanlarini, Abdulla Qahhorning “Sarob” romani va hikoyalari, G‘afur G‘ulomning kulgili hikoyalarini entikib-entikib o‘qib, har o‘qiganda bir joziba va mo‘jiza topib, “oh, qanday ajoyib”, deb ko‘nglim sust ketib yurardi. Nazarimda, ana shu havas, maftunlik uchqunlarini keyingi mutolaalarim gurillatib yubordi. (Bularning barchasidan burun Abdulla Qodiriyning o‘lmas ikki asarini o‘qib, shaydosi bo‘lib yurgan bo‘lsam ham, bu vaqtida u “sal esdan chiqibroq” qolgan edi.)”⁴.

E’tiborli jihat shuki, bu sanoqda Shuhrat Abdulla Qodiri nomini asosiy gapga ilova tarzida qavs ichida “bu vaqtida u “sal esdan chiqibroq” qolgan edi”, degan izoh bilan beradi. Bizni esa boshqa narsa qiziqtiradi. Nima, Shuhrat 1968-yilga kelib, “O‘tkan kunlar” bilan “Mehrobdan chayon”ni chindan ham unutib yuborganmidi? “Sal esdan chiqibroq qolgan” bo‘lsa, uni yozib o‘tirmasdan tashlab ketaversa bo‘lmasmidi? Axir o‘zi haqida yozyapti-ku!

¹ Shukurullo. Ijodkor matonati / Shuhrat. Xotiralar. –T.: Sharq, 1998. –B.152-153.

² Qo‘shjonov M. O‘tdan ham, suvdan ham... / Shuhrat. Xotiralar. –T.: Sharq, 1998. –B.186.

³ Shuhrat zamondoshlar xotirasida. – T.: O‘zbekiston, 2008. –B.43-71.

⁴ Shuhrat. O‘zim haqimda ikki og‘iz so‘z. Tanlangan asarlar. 3 томлик. 1 том.–T.: Adabiyot va san’at, 1969. –B.7-8.

To‘g‘ri, odamning xotirasi magnit lentasi emas, esidan chiqarishi, unutishi mumkin. Bu biologik jarayon. Lekin Shuhrat Qodiriyning ham, uning “o‘lmas ikki asari”ni ham esidan chiqargan emas. Shunchaki, qamoqdan chiqib, endigina ro‘schnolik ko‘ra boshlagan yozuvchi o‘ziga yo‘lsizlikdan yo‘l axtaryapti, bir ilojini qilib qavs ichida “esimdan chiqqan edi” deb yozib bo‘lsa-da, Qodiriy nomini aytishning ilojini qilyapti¹. Adabiyotshunos olimaning qarashlariga qo‘srimcha qilib aytish mumkinki, adib “O‘zim haqimda ikki og‘iz so‘z” sarlavhasi ostida so‘zboshisida yozgan e’tirofida garchand qayd etmagan bo‘lsa-da, eng avvalo, yozuvchi xalq og‘zaki ijodi namunalari bilan ham yaqindan chuqur tanish bo‘lganligini ko‘rish mumkin. Chunonchi, ijodkor tabiatida xalqqa ichki yaqinlik borligini, Shuhratning xalqona she’r, dostonlar yaratganligida ham ko‘rishimiz mumkin².

Badiiy asarda maqollardan, ibratli gaplardan foydalanish asarning ifoda kuchi va realistik qudratini oshirib, fikrning obrazli bayon qilinishini ta’minlovchi omil sifatida muhim o‘rin tutadi. Shuning uchun xalq maqollari o‘zining ixchamligi, to‘la qofiyaliligi, hayotiyligi bilan kishilar nutqini bezaydi va o‘zining donolik xazinasi bilan inson tafakkurini, ong-u shuurini boyitadi. Qolaversa, insondagi ruhiy-ma’naviy ehtiyojlar va istaklar unda ijodkorlik xususiyatlarini shakllantiruvchi omil bo‘ladi. Inson o‘zi ko‘rib, his etib yashayotgan dunyosidan o‘zga dunyolar haqida fikr yuritganda uni beixtiyor ijodiy kayfiyat chulg‘ab oladi. Shu yo‘ldagi mashaqqat va izlanishlar san’at asarining dunyoga kelishiga sabab bo‘ladi.

Ma’lumki, badiiy asarda maqollar, hikmatli iboralardan foydalanish asarning ifoda kuchi va bayon qamrovini oshirib, fikrni obrazli bera olishni ta’minlaydi. “Xarakterlar mohiyatini, ularning ruhiy olami va xatti-harakatini to‘ldirish, tasdiqlash maqsadida yozuvchi ular nutqida oddiy folklorizmlarni – xalq maqol va matallarini o‘rinli qo‘llaydi”³.

“Ustoz ko‘rmagan shogird har maqomga yo‘rg‘alar” degan maqolni umrimda birinchi marta Shuhrat domladan eshitganman... Shuhrat aka behad samimiyl, birovning muvaffaqiyatidan terisiga sig‘may quvonadigan, birovga ozor bermaydigan odam edi. Boshimga og‘ir kun tushib, qiynalib yurgan paytlarimda ham, goh yo‘lda, goh ishxonamda Shuhrat akani ko‘rardim, samimiyl muomalasi, nuroniyl chehrasidan

¹ Yadgarova M. Shuhratning “Oltin zanglamas” romani ijodiy biografiyasi: tarixiylik va badiiylik. Filol.f.f.d(PhD) disser. –T., 2021. –B.46.

² Soatova N. Shuhrat ijodida folklor an‘analari. // O‘zbek tili va adabiyoti. –T.: Fan, 2011. № 5. –B.72-74; Yana o‘sha. Shukhrat and folklore. // Mental Enlightenment Scientific–Methodological Journal. Volume 2021 [Issue 2] 2021.ISSN:2181-6131. Uzbekistan Research Online (№ 22. info@oak.uz.www.oak.uz); Yana o‘sha. Shuhratning “Mangulik” dostonida xalqona poetik tafakkur. // Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi. –Xorazm: Xorazm Ma’mun akademiyasi noshirlilik bo‘limi, 2022. №9/4. –B.68-73.

³ Nosirov O., Sobirov O. Xalq ijodi xazinasi. –T.: G‘ASN, 1986. –B.138.

madad olib, ko'nglim, ruhim yengillashardi. “*Birni ko 'rib fikr qil, birni ko 'rib shukr derdilar*”¹, - degan xotiralardan ham adibning xalq maqollarini yaxshi bilishini ko'rishimiz mumkin. Shu bois bo'lsa kerak, yozuvchining romanlarida ham xalq maqol va hikmatlaridan mohirona foydalana olganligi, uning ijodida folklorizmlarning o'rni katta ekanligini ko'rsatadi.

Bu o'rinda ta'kidlash lozimki, Shuhrat romanlarining maydonga kelishidagi muhim omillar, xususan xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyotimiz namunalarining badiiy ta'siri masalasi, nazarimizda hozirga qadar adabiyotshunosligimizda yuzaki o'rganilgan, xususan bu an'analarning Shuhrat ijodida tutgan o'rni, ijodkor mahorati, badiiy uslubi va tilining shakllanishiga ta'siri ochib berilmagan.

Xalq og'zaki ijodi yozma ijodning sarchashmasigina bo'lib qolmay, adiblarimiz hamisha suyanib quvvat olib kelgan bitmas-tuganmas ilhom manbai ekanligi ilmda isbotlangan. Xalq tarix va madaniyatini, moddiy va ma'naviy boyliklarini yaratuvchi buyuk kuch ekanligi ham hayotda tasdiqlangan. Binobarin, har bir xalq asrlar davomida juda katta hayotiy tajriba to'playdi, shu tajribani turli vositalar bilan kelajak avlodlarga meros qilib qoldiradi. Maqol va hikmatli so'zlar ana shunday bebaaho merosimiz hisoblanadi. Tafakkurning bunday bebaaho va noyob durdonalarini xalqimiz asrlar osha ko'z qorachig'iday asrab-avaylab, sayqal berib, turli zamon hodisalaridan eson-omon olib o'tgan. Dunyoda hikmat durdonalari yaratmagan, ularni asrlar osha tilida va dilida saqlab kelmayotgan biror xalq yo'q. “Xalq poeziysi g'ayratli, tiyrak, jo'shqin hayot kechiruvchi, sofdil, boe'tibor va oliyjanob xalqlardagina kamol topadi”². Maqollarning hayotida tutgan o'rni va ahamiyatiga ulug' rus yozuvchisi L.N.Tolstoy ham juda baho berib: “Har bir maqolda shu maqolni yaratgan xalqning siymosi ko'rinadi”³, degan edi.

Darhaqiqat, maqollarda ota-bobolarimiz bosib o'tgan yo'lni, kechirgan turmushlarini, shodliklari va chekkan azob-uqubatlarini teran mazmunli pand-nasihatlarini, qadimgi davrlarda, o'rta asrlar va undan keyingi asrlarda yashagan ajdodlarimizning urf-odatlarini, an'analarini ko'ramiz va his etamiz. Boisi xalq maqollarida xalqning qomusiy bilim va kuzatishlari o'z ifodasini topgan. Xalq asrlar davomida sayqal bergen har bir maqol yetuk badiiy asardir. Ana shu boy ijod durdonalarining har bir satrida ming bir hikmat mujassam. Ishimizning ushbu faslida Shuhratning “Oltin zanglamas” romanida maqollardan, umuman folklor an'analaridan foydalanish mahorati haqida qisqacha to'xtalishni lozim topdik.

¹ Jalil M. Saboq / Shuhrat. Xotiralar. –T.: Sharq, 1998. –B.202-204.

² Чернишевский Н.Г.. Полн.собр. соч.,т. П.: Изд.М.Элпидина, 1905. –стр.295.

³ O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 5-jild. –T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2008. –B.3.

A.S.Pushkin bejizga “Har bir maqolimiz qanchalik ma’noli! Oltin deysiz, oltin! Ularni ijod etish oson gap emas, aslo!”¹- deydi, hech ikkilanmay aytish mumkinki, Shuhrat ham “*Oltin zanglamas*” romanida Pushkin e’tirofidek, ma’nosi oltinga teng maqollardan o‘rinli foydalana olganki, shoir aytmoqchi bu ham “oson gap emas”.

Xalqning boy ijod durdonalarining har bir satrida ming bir hikmat mujassam. Misol uchun, o‘zbek xalq maqollari orasida oila va qo‘schnichilik haqida “*Qo‘schnining tovug‘i g‘oz ko‘rinar, Kelinchagi – qiz*”² degan maqol mavjud. Yozuvchi ushbu maqoldan Mirsalim obrazining nozik jihatini tasvirlashda, Sodiqning yangi maktabda olib borgan ishlarini ko‘rsatishda ishlatgan: “*Qo‘schnining tovug‘i g‘oz ko‘rinadi deganidek, Sodiqning bu oddiy ishlari Mirsalimning ko‘ziga uni bir pog‘ona ko‘tarib qo‘ydi?*”³. Adib bu o‘rinda xalq maqolning birinchi qismini keltirish bilangina o‘z maqsadiga erishgan. Ya’ni, voqelikni kuchaytirishga muvaffaq bo‘lgan.

Yana, Mirsalim obrazini yorqinroq berishda Jannat nutqida “*Bir ochilib yoqqan havodan, bir kulib boqqan odamdan qo‘rq*” (364) maqoli o‘rinli ishlatilgan. Ushbu adib qo‘llagan maqol “Ehtiyotkorlik va ehtiyyotsizlik” haqidagi maqollarda “*Bir yangi uylangandan qo‘rq, Bir – yangi boyigandan*”, “*Bozor ko‘rgan echkidan qo‘rq*”, “*Bolasini maqtagan onadan qo‘rq*”⁴ maqollari ta’sirida yaratilgan va asarga adib uni, nazarimizda badiiy bo‘yoqdorlikni kuchaytirish maqsadida olib kirgan.

Asarni o‘qir ekanmiz, bir necha o‘rinlarda purhikmat ibora va maqollar turli vazifalarni ifodalashda ishlatilganligining shohidi bo‘lamiz. Jumladan, “*Ular o‘qigan – guliston, o‘qimagan – go‘riston*” degan maqolni esga olib, shu yil Toshkentni yalpi savodxon shaharga aylantirishga so‘z berdilar... Ilgari “*o‘nta xotin bir qozon qaynata olmaydi*” der edilar” (408). Ushbu parchadan ko‘rinib turibdiki, adib romanda qo‘llagan purhikmat ibora va maqollar qahramon ruhiyatidagi o‘ziga xosliklarni inkishof etishi, keng qamrovli fikrlarni ixcham satrlarda aks ettira organligi bilan ahamiyatlidir.

Sodiq hayron bo‘lib, engagiga tiradi. Pichoq suyakka taqalgan bechora xotinga shirin so‘zlab, qo‘ynini puch yong‘oqqa to‘ldirib yuborishning qizig‘i yo‘q....*Sharmandaga shahar keng* – uni behurmat qilib qo‘yishi mumkin. Lekin Sodiq uning behurmat qilishidan cho‘chimadi, shunday bo‘lsa-da, maslahat soldi:

–Nima qil deysiz, singlim?

¹ Пушкин в воспоминаниях современников. – Л.:Художественная литература,1980. –стр.455.

² <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-xalq-ogzaki-ijodi/uzbek-xalq-maqollari>.

³ Shuhrat. O‘zim haqimda ikki og‘iz so‘z. Tanlangan asarlar. 3 томлик. 1 том. – Т.: G‘afur G‘ulom, 1969. –B.357.

⁴ O‘zbek xalq maqollari. –T.: Sharq, 2005. –B.426

–Sizdan hayiqadi....Insofga chaqirib qo‘ysangizmikin...

–Keyin -, arzga boribsan demaydimi?

–O‘tgan safar indamovdi.

Xotinning bu javobi Sodiqqa yana dalda berdi. Shunday bo‘lsa ham, xotindan butun voqeani surishtirib oldi, xotinning o‘z kamchiliklarini ham aytib maslahat berdi.

–*Qars ikki qo ‘ldan chiqadi*, singlim, siz ham hadeb tiklashavermang. Inson tili har qanday xanjardan o‘tkir! *Sevdiradigan ham til, bezdiradigan ham til*.

–Voy-, aylanay o‘n so‘zidan bittasiga javob qaytarsam, dunyoga o‘t ketadi -ku. So‘z boshlamasimdan “*gapingdan tutun hidi keladi*” deb og‘zimga uradi. Yana o‘zidan eshitarsiz-ku, *cho ‘g‘ni qog‘ozga o‘rab bo ‘larmidi!*

Xotin yana bolalariga jabr bo‘lganini, dadasi eshikdan kirishi bilan dag‘-dag‘ titrashlarini aytib, yig‘lab yubordi.

–Xudoyimdan o‘rgulay, *tilaganga bola bermaydi, bezganga qo ‘shaloqlab...* (415).

Keltirilgan matndan ayon bo‘lib turibdiki, shu kichik dialogda bir necha xalqona purhikmat iboralar va maqoldan foydalanilgan. “*Pichoq suyakka taqalgan*”, “*qo ‘ynini puch yong‘oqqa to ‘ldirib*”, “*Qars ikki qo ‘ldan chiqadi*”, “*Sevdiradigan ham til, bezdiradigan ham til*”, “*gapingdan tutun hidi keladi*”, “*cho ‘g‘ni qog‘ozga o‘rab bo ‘larmidi!*”, “*tilaganga bola bermaydi, bezganga qo ‘shaloqlab...*”. Yozuvchining asar mohiyatini ochishda ushbu purhikmat iboralar va maqolni o‘z o‘rnida keltira olishi asar xalqchillagini, ravonligini, ommaviyligini ta’minlab, ta’sirchanligini oshirgan hamda badiiy obrazlar ichki dunyosini o‘quvchiga oson yetkazish imkonini bergen.

“*Tuyaning paypog‘i, otning odimi ulkan degandek, Sodiq ot yurish qilib “begona” maktabga yetib kelganini bilmay qoldi...* Shunday gaplashuvim kerakki, *six xam, kabob ham kuymasin*. Albatta xotinining hamma gapi rost emas, arzga borgan doim qo‘sib-chatadi, o‘zi istamasa ham alam va jahl shunga majbur etadi. Avval erining ulfatlarini bilish kerak, *yaxshi yaxshiga yondashtiradi, yomon yo ‘ldan adashtiradi*” (416). Adibning mahoratini ko‘rsatadigan yana bir jihatni qahramonlarning o‘y-fikrlarida ham purhikmat ibora va maqollarni ishlata olganidir. Bu holat asarga xalqona ruh va ohang bag‘ishlagan, folklor va yozma adabiyot imkoniyatlarining sinkretik holati roman badiiyatini oshirishga xizmat qilgan.

“Maktab ilmiy mudiri javob bermagach, “shu odam ham har narsaga chovlisini sola beradi-da”, deb bir oz bo‘shashdi. Keyin yana tajanglashdi. Ko‘zi urishqoq xo‘rozning tojisiday qonga to‘ldi.....*Er xo ‘rligi-yer xo ‘rligidan yomon! To ‘g‘ri bo ‘lsang, soyang egri tushmaydi, o‘zingni oqlama!*” (416). Adib nafaqat xalqona

purhikmat ibora va maqollarni yaxshi bilgan, balki ularni mohiyatan saqlagan holda yangi shakl va mazmun bilan boyitib, o‘z romanida mahorat ila qo‘llagan. Romandan keltirilgan parchalardan ayonki, adibning “*Oltin zanglamas*” romanini to‘laligicha xalq og‘zaki ijodi ta’sirida yaratganligi Shuhratning og‘zaki ijodga xos uslub bilan zamonaviy obrazlar ichki dunyosini ochib bera olganligi ijodkor sifatidagi o‘ziga xosligini belgilaydi, deb hisoblaymiz.

“*Erkalab boqilgan tekis yerda qoqilar*, deb shuni aytadi. Mayli, unga saboq bo‘ldi, endi *qatiqni ham puflab ichadi*.

Ko‘lda yurgan qo‘ng‘ir g‘oz cho‘l qadrini bilmaydi,
Cho‘lda yurgan tuvaloq qo‘l qadrini bilmaydi” (495).

Romandan keltirilgan ushbu parchadan adibning g‘oyat keng miqyosli, qamrovli fikrlarni, go‘zal badiiy topildiqlarni sodda yo‘sinda tasvirlashga muvaffaq bo‘lganligini kuzatamiz.

“Men shubhalanayotganim yo‘q, Azizaxon, ehtiyot chorasini ko‘ryapman, - jilmaydi Qodir. –*Kal taranguncha to‘y tarqaladi*, degandek, sevgan qizning taklif etishini kutib, soqollarimga oq tushmasa deyman.

–Tushmaydi!

–Tushmaydimi? Bo‘ldi, men kutaman” (398).

Yozuvchi o‘ziga xos tarzda Adolat xola kelini Musharafning ko‘nglini ko‘tarib, g‘amini aritish maqsadida nasihat qilib so‘zlagan bir necha hikmatli ibora va maqollarni qo‘llagan. Bu bilan esa yozuvchi asarga falsafiy-didaktik ruh bag‘ishlagan va tasvir emotSIONalligini oshirgan: -*Baloga sabr, qazoga shukr kerak, jon bolam. O‘zingizni o‘tga, suvga urganingizning nafi yo‘q*” (499), “*Banda qilsa malomat, xudo qilsin salomat, jon bolam. Qish yozsiz bo‘lmaydi, bu kunlar ham o‘tib ketadi, alaqarg‘aning qag‘illagani qoladi*”, “*do‘st kuyib gapirsa, dushman oshirib gapiradi* (501).

Shu bilan birga, asarda yana boshqa ko‘plab xalq maqollari va iboralaridan o‘rinli foydalanilgan. Jumladan: *Qo‘shning tinch – sen tinch* (313), *Sabr so‘nggi – sariq oltin* (338) *Dononing yo‘talida ham hikmat bor* (362) *Xotinni boshidan, baloni yoshidan tut* (374), *Puli bor farmon bilan, puli yo‘q armon bilan yashaydi* (316), ...*ko‘cha xandon, uy zindon* (377), *Otgani o‘qi ko‘rgani ko‘zi yo‘q* (377), *Itdan bo‘lgan qurbanlikka yaramaydi* (379), ...*bevaning tuyaning ustida it qopadi, suysa suygunday, kuysa kuygunday* (381), *oyog‘i katta sig‘ganni, oyog‘i kalta sevganni kiyadi* (382), *Yolg‘onning taxtida shoh bo‘lgandan, rostguyning chorborg‘ida giyoh bo‘l* (396), *Bir ochga, bir kasalga tegma* (420), *Qiz xotin uy xotin, juvon xotin yo‘l xotini!* (452), *Erka qilib boqilgan tekis yerda qoqilar* (455), ...*yaxshi xotin jon ozig‘i!*

(455), *beli bog 'liqning dili bog 'liq* (457), *Tekinning minnati ko 'p, mehnatning ziynati* (464), *Otasining ochgan yo 'li, onasining bichgan to 'ni torlik qilib qoldi* (464), *Kafan kiygan ketadi, kapalak kiygan keladi* (465), *Kitobsiz uy chiroqsiz tun* (466), *Yolg 'onning oyog 'i qisqa, uzoqqa borolmaydi, bir kun misi chiqadi* (482), *O 'ladigan xo 'kiz boltadan toymas* (486), ...*pichoq o 'z sopini kesmaydi* (487), *Temirni zang, odamni g 'am chiritadi* (524), *To 'rga tushgan baliq, qarmoqdan cho 'chimaydi* (535), *Qirq yil qirg 'in bo 'lsa ajali yetgan o 'ladi* (591-bet) kabi.

Bu kabi o 'zbek xalq maqol va iboralardan unumli foydalanish faqat "Oltin zanglamas" romaniga xos bo 'lmay, balki adibning boshqa asarlarida ham shu holatni kuzatish mumkin. Masalan, "Shinelli yillar"da: *Sahroda gul bo 'lib ochilganidan chamanda o 't bo 'lib unganim yaxshi* (44), *Dardni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi* (52), *Tegirmonga tushsa, butun chiqadi* (58), *Davlat besiyosat, urush bequrban bo 'lmaydi* (68), *Bir xotinning makri qirq eshakka yuk, Bir og 'iz shirin so 'z qilichni qiniga kiritadi* (73), *Urvog 'iga chidagan yupqa qiladi* (74), *Qirq yil qirg 'in bo 'lsa ajali yetgan o 'ladi* (95), *Ayrilganni ayiq, bo 'linganni bo 'ri yeydi, Yopiqliq qozon yopiqligicha qolsin* (99), *Ari uyasiga cho 'p tiqilgan* (113), *Alam qilsa, tuz sep* (115), *Kengashilgan fikr quyma fikr* (116), *Yo 'qolgan pichoqning sopi oltin* (203), *Chillaki chillakini ko 'rib chumak uradi* (227), *Kim oyni etak bilan yopibdiki, siz yopasiz* (265), *Bo 'zga ipakdan yamoq solsang ham, baribir yamoq* (403), *Yaxshi niyat-yarim mol... Sabr tagi sarig ' oltin* (434), *Mard ursa og 'rimaydi, aqli koyisa og 'ir botmaydi* (441).

Romanda keltirilgan maqol va iboralardan ko 'rinib turibdiki, adib xalq og 'zaki ijodini yaxshi bilgan, shu bois asarda purhikmat ibora va maqollardan o 'z o 'rnida unumli foydalangan. Bu holat asarning hayotiy va xalqchil ruhda chiqishini to 'liq ta 'minlagan.

Ammo "Oltin zanglamas" romanining badiiy qimmatini ta 'minlagan omillardan biri shubhasiz – uning boy folklor va yozma adabiyotimiz an'analarini yozuvchi tomonidan munosib davom ettira olingani va qo 'llay bilinganidir. Bu ta 'sirni asar tili, uslubidan tortib syujet qurilishi-yu, obrazlar olamigacha barcha-barchasida ko 'rish mumkin. Har bir badiiy asarning og 'zaki va yozma adabiyot an'analaridan oziqlanishi tabiiydir. Shu ma 'noda, Alisher Navoiy bilan Shuhrat ijodi o 'rtasidagi adabiy ta 'sir haqida so 'z borganda, an'anaviy ta 'sir qaysi yo 'l bilan sodir bo 'lgani, qanday xarakterga egaligi, buyuk shoir ijodidan ilhomlanish va bahramand bo 'lish orqali Shuhrat badiiy mahoratining o 'ziga xos tomonlari ko 'z oldimizda gavdalanadi.

Ma 'lumki, o 'zbek yozma adabiyoti qariyb ming yillik tarixga ega. Alisher Navoiy ijodi ana shu katta tarixiy davr ichida o 'zbek adabiyoti bosib o 'tgan yo 'lning

yakuni, adabiy taraqqiyotning cho‘qqisi sifatida maydonga keldi. Navoiy tomonidan yaratilgan o‘nlab asarlar, xususan, uning epik dostonlari o‘zigacha bo‘lgan ilg‘or intilishlar va adabiy an’analarning takomili, taraqqiysi hamda sintezi sifatida diqqatni jalb etadi. Xususan, o‘tmishda, o‘zbek romani bo‘lmagan bir sharoitda uning “Xamsa”siga kirgan epik asarlari roman vazifasini bajargan desak, xato bo‘lmash kerak. Chunki Alisher Navoiyning ijodiy uslubi romantik yo‘nalishga ega. Agar o‘zbek adabiyotida realistik uslubning paydo bo‘lishiga qadar uning o‘rnini romantizm bajarganligi hisobga olinsa, u vaqtida roman – nazm o‘rnini Navoiy yaratgan roman - poeziya ado etib kelganligini tushunish qiyin bo‘lmaydi¹.

“Farhod va Shirin” dostonining tahlilida, N. Mallayev ham Farhodning “mukammal epik obraz darajasi”ga ko‘tarilganligini ta’kidlab, “Buning natijasida asar she’riy romanga o‘xshab ketadi”², - deb bejiz yozmagan.

Odatda ikki ijodkor asarlari qiyoslanganda, tahlil qilinayotgan asarlar syujetining o‘xhash jihatlari, adabiy qahramonlarning yaratilish uslubi, mualliflarning fikrlash tarzi kabi qator masalalar tilga olinadi. Shuhrat adabiyotimiz tarixida to‘plangan tajribalar va boy an’analarga hurmat bilan yondoshganki, bu uning “Oltin zanglamas” romanida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” asarlari keng qamrovligi, ko‘p tomonliligi, ko‘p muammoliligi, xalqparvarligi, epikligi, syujet va kompozitsiyasining murakkabligi, til va uslubi uyg‘unligi bilan roman janriga xos xususiyatlarni o‘zida mujassam etgan. Mazkur asarlarda inson hayoti va orzulari, dastlabki ko‘rinishda bo‘lsa-da, o‘z ifodasini topgan. Darhaqiqat, Navoiy asarlaridan boshlab inson hayoti va uning o‘z ideali uchun kurashi adabiyotning tasvir ob’yekti sifatida yanada keng o‘rin egallay boshlagan.

O‘zbek mumtoz adabiyotida ijtimoiy masalalarni hal etish jarayonida roman janriga xos epiklik va epik tasvir unsurlari sekin - asta shakllana boshlashgan. Xususan, dostonlarda qahramonlar obrazini yaratishga intilish, shu qahramonlarning ichki, ruhiy dunyosini ochish, ruhiy tasvir usulini, badiiy to‘qimani shu masalaga xizmat ettirish tamoyili kurtak yoza boshlagan. Bu asarlardagi bayon qilish, hikoya qilish usuli romanga xos epiklikning yuzaga kelishida muhim bosqich bo‘lgan. Bundan tashqari, roman janriga xos muhim badiiy komponentlardan hisoblangan fabula, kompozitsiya, obrazlar tizimi, konflikt, til va uslub masalalari ham shu epiklik doirasida oydinlashishi, ayniqsa, muhimdir.

¹ Bu haqida qarang: Mirvaliyev S. O‘zbek romani. –T.: Fan, 1969. –B.50-51.

² Mallayev N. O‘zbek adabiyoti tarixi. –T.:O‘qituvchi, 1976. –B.443.

To‘g‘ri, Navoiy yaratgan “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” dostonlari tom ma’nodagi roman tabiatini ifodalay olmaydi. Lekin uning janr tabiati, xususiyatlari roman janrining paydo bo‘lishidagi dastlabki ko‘rinishlardan biri desak yanglish bo‘lmaydi. Bizga ma’lumki, Abdulla Qodiriy roman yaratish yo‘lida boshlagan izlanishlariga an’ana “maqomi”ni berdi, bu janrning birinchi va ajoyib namunasini yaratdi¹.

Alisher Navoiy o‘zining tom ma’nodagi yetuk – komil inson xususidagi o‘y-fikrlari, orzu-istiklarini ko‘proq Farhod obrazi orqali ifodalaydi. “Farhod–ulug‘ Alisher Navoiyning suyukli qahramoni,-deb yozadi adabiyotshunos R.Vohidov. – Shoir yuragida makon tutgan barcha ezgu fazilatlarni ungagina ravo ko‘radi. Uni ham jismoniy va ham ma’naviy jihatdan barkamol inson sifatida shakllantiradi. Barcha jur’atu shijoat, mardligu jasoratni uning nasibasiga bitadi. Natijada dostondagi Farhod o‘tda kuymas, suvda cho‘kmas, o‘q teshmas qahramonlar suratini egallaydi”².

Bosh qahramonning har tomonlama barkamol bo‘lishi xalq og‘zaki ijodi namunalari, mumtoz Sharq adabiyoti, xususan o‘zbek adabiyoti va, ayniqsa, Alisher Navoiy dostonlarida ustuvor adabiy tamoyil darajasiga ko‘tarilgan. Biz “Farhod va Shirin” dostoni bilan “Oltin zanglamas” romanidagi epik qahramonlarni o‘zaro muqoyasa qilayotgan ekanmiz, ularning barkamol shaxs sifatida kitobxonga taqdim etib aytgan jihatlarini chetlab o‘tolmaymiz. Alisher Navoiy uchun bosh qahramon birinchi navbatda ma’naviy yuksak, xushsurat va har tomonlama bilimdon kishi bo‘lishi muhimdir. U Farhodni shunchalik adabiy asar qahramoni emas, balki xalqqa ibrat namunasi bo‘lgan shaxs sifatida taqdim etishni o‘ziga maqsad qilib olgan. Farhodning tilga olingan fazilatlari sevgi va muhabbatga sadokati va jasorati bilan qo‘silib, uni qariyb ideal qahramon darajasiga ko‘targan.

Navoiy o‘z qahramonining ana shu fazilatlarini kashf etish maqsadida epik tasvir vosita va yo‘llarini ishlab chiqqanki, bundan - ustoz an’anasidan Shuhrat ham bahramand bo‘lgan va u shu an’analarni davom ettirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.

Farhod va Sodiq obrazlarni qiyoslar ekanmiz, ular o‘rtasidagi mushtarak jihatlar ularning yurtparvarligida ko‘rinadi. Farhod – shahzoda, Sodiq maktab direktori. Har ikkalasi o‘zining fuqaroparvarligi, el xizmatiga kamarbastaligi, yurt qayg‘usiga eshligi bilan alohida ajralib turadi.

...Yoshligidan xalqni o‘ylashi, uning og‘irini yengillatishga urinishi, “ko‘ngli el ozoridan ozor” topishi, “el anduhidan g‘amnok” bo‘lishi, fildan ham kuchli ekanligiga

¹ Qarang. Soatova N. A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida epik tasvir an’analari: Filol.f.n.disser.–T., 2001. –B.74-124.

² Vohidov R. Alisher Navoiy va ilohiyot. –Buxoro, 1994. –B.102.

qaramay, chumoliga ham ozor bermasligi, taqdir zARBalarini o'ziga olishi singari fazilatlar Farhodning elim deb, yurtim deb yashaydigan fidoyi kishilar toifasiga mansub ekanligidan dalolatdir.

Farhod – favqulodda xususiyatlari, alohida iste'dodiga qaramay, sira xalqdan ajralmagan, tarkidunyo qilmagan, aksincha, “Dil ba your dast ba kor” shioriga qatiy amal qilgan qahramon. U hamisha xalq xizmatiga kamarbasta bo‘lishni, elga manfaat yetkazishni o‘yaydi. Bu narsa, ayniqsa, uning Shirinni izlab, Armaniyaga borib, tog‘ qazuvchilarning og‘ir va samarasiz mehnatini ko‘rganida namoyon bo‘ladi:

*Hunarni asrabon netkumdur oxir,
Olib tuproqqamu ketkumdur oxir?!*

U ko‘nglidan ana shu da’vatni kechirib, “mazlum sitamkash” xalqqa yordamga shoshiladi...

Bu – Navoiyning insonparvarlik qarashlari tizimidagi eng muhim nuqta. Shoир aqidasiغا ko‘ra, insonning insonligi, avvalo, uning ijtimoiy faolligi, xalqqa foyda keltirishi, elning og‘irini yengil qilishi bilan belgilanadi. Jamiyatga foydasi tegmaydigan, xalq g‘amini o‘z g‘ami deb bilmaydigan odam – odam deb atalishga noloyiqdir:

*Odamiy ersang, demagil odami,
Onikim, yo ‘q xalq g‘amidin g‘ami,*

Shoirning bu mashhur bayti garchand “Hayrat ul-abror” dostonidan olingan bo‘lsa-da, Farhod obrazining mohiyatini ochadi, uning xalqqa bag‘ishlangan hayotining bosh shiori o‘laroq jaranglaydi. Darvoqe, Shirin ham odamiylikni oshiqlikdan ustun qo‘yadi:

*Manga ne your ne oshiq havasdur,
Agarmen odam o‘lsam, ushbu basdur¹.*

Shuhrat ham Sodiq siy whole o‘z ko‘nglidagi, orzu-a’molidagi chin inson timsolini yaratgan. Romanda buning birgina isbotini jangda qahramonlik ko‘rsatgan Sodiq haqidagi ocherkni o‘qib chiqqan Chuxanovni o‘ylari va polk komissarini ocherkdagi e’tirofidan ham bilish mumkin: *Sovet hokimiyatidan dakki yegan Sodiqdek bir odamning bunchalik matonat bilan jang qilishiga, oddiy to ‘qnashuv paytida emas, balki o‘z xohishi bilan talab etib borib qahramonlik ko ‘rsatishiga Chuxanovning aqli bovar qilmas edi. Axir bunday mardlik frontda har kuni sodir bo‘lavermaydi. Ocherkka ko ‘z yogurtirib turib, polk komissarining u to ‘g‘rida aytgan so ‘zini o ‘qidi: “Ona-Vatanni jonu dilidan sevgan kishigina, dushmanga qahru g‘azab bilan to ‘lib-toshgan jangchigina bunday mardlik ko ‘rsatishga qodir!* (336). Yoki asar davomida

¹ Navoiy A. Asarlar. 15 tomlig. 7 tom. Farhod va Shirin. –T.: Badiiy adabiyot, 1964. –B.247.

dushmanlar bilan olib borilayotgan jangda Sodiqni vatan xoin ayblovi bilan qyinoq va so‘roqlarda qynagan Chuxanovni o‘limdan qutqarib qolgan jarayondagi suhbatida ham uning insonnparvar chin insonligini yanada yorqinroq kuzatamiz: –*O‘limdan qutqarib qolganingizga pushaymoningiz bo‘lsa, otib tashlashingiz mumkin. Bu to‘polonda hech kim bilmaydi. Bemalol! Bu gap Sodiqning nafsoniyatiga tekkan, hatto g‘azabini keltirgan edi, chidab turolmadi, u ham ochig‘iga ko‘chdi: – Siz meni kim deb o‘ylasangiz o‘ylang, lekin meni haqorat qilmang. Men frontga sizni uchratib, o‘ch olish niyatida kelgan emasman*” (355).

Farhod va Sodiq, Shirin va Jannat obrazlarida o‘zaro mushtarak jihatlar ko‘p. Har ikkala muallif ham o‘z qahramonlarini alohida bir mehr-muhabbat bilan tasvirlagan. Ular o‘zlarida va o‘zlari hurmat qilgan barcha ijobiy fazilatlarni bu qahramonlar siyosida mujassamlantirganlar. Zero, adabiy qahramon hayotiy shaxsga to‘la-to‘kis muvofiq kelmaydi, u bir qadar ideallashtirilgan bo‘ladi. Ma’lum bo‘ladiki, Farhod va Shirin hamda Sodiq va Jannat–Navoiy va Shuhrat tomonidan muayyan darajada ideallashtirilgan qahramonlar. Lekin mualliflar o‘z asarlarini bir-biridan farqlanuvchi ikki metod: Navoiy – romantik, Shuhrat – realistik metoddan foydalanib yaratganlar. Shu jihatdan bu ikki asar qahramonlari o‘rtasida mushtarak tomonlar bo‘lishi bilan birga, tafovutli o‘rinlar ham mavjudligi tabiiy. Chunonchi, Farhod birmuncha romantik – ko‘tarinki uslubda, mubolag‘ador, fantastik tasvir unsurlari bilan omuxta holda tasvirlangan.

Shuhrat “Alisher Navoiy singari zotlar tutgan nasihatgo‘ylik yo‘lini izchil davom ettirib xalqimiz qalbini rom eta oladigan asarlar bitishga muvaffaq bo‘ldi”¹. Badiiy adabiyotning noyob yaratiqlari har bir davrning ko‘zga ko‘ringan qalamkashlari orqali dunyo yuzini ko‘rib, ijodkorlar yashab ijod qilgan davrning xilma - xil tomonlari asarlarida mohirona tasvirlanadi. Lekin jamiyatning tanazzulga uchrashi va yangi tarixiy davrning boshlanishi bilan chinakam san’at asarlari o‘z qimmatini yo‘qotmaydi. Aksincha, u yashashda davom etib, keyingi avlodlar uchun ham ma’naviy boylik, estetik ta’sir va tarbiya vositasi sifatida xizmat qilaveradi.

Agar Navoiy “Farhod va Shirin”ni yozishda og‘zaki va yozma adabiyotdagi romantik qahramonlik dostonlaridan oziqlangan bo‘lsa, Shuhrat xalq og‘zaki ijodi va mumtoz so‘z san’atimiz an’analariga suyanibgina qolmay, Abdulla Qodiriy erishgan badiiy yutuqlardan ham bahramand bo‘lgan. Asar syujeti va konfliktni shunchaki yozuvchi fantaziyasini mahsuli emas, avvalo aniq tarixiy sharoit va sharoitda yuz bergen ma’lum hayotiy jarayonlar samarasi.

¹ Alimov B. Muborak xotira / Shuhrat. Zamondoshlar xotirasida. –T.: O‘zbekiston, 2008. –B.5

Roman bosh qahramoni Sodiq dastlab 30-yillar tarixiy sharoiti fonida ko‘rinadi. Sodiq va Jannatning murakkab hayoti va taqdiri tasviri romanda taxminan xalq kitoblari yo yozma adabiyotning aniq namunalarida bo‘lgani kabi badiiy to‘qima kuchi bilan harakatga keladi. Ammo Shuhrat romanidagi bu badiiy qatlam qanchalik mahorat bilan tasvirlanmasin, asar to‘qimasiga tarixiy real manzaralari kirib kelishi bilan asar realizmi yorqin tus oladi, kitobxonning Sodiq va Jannat obrazlarini real kishilar sifatida idrok etishi ob’yekтив jarayon o‘laroq yuz beradi. Xuddi shu nuqtada yozuvchi badiiy tasvirga novatorlik belgilarini dadil olib kiradi.

Abdulla Qodiriy o‘tmishni – tariximizning eng kirlik, qora kunlari bo‘lgan keyingi “xon zamonlari”ni yangi davr g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan holda aks ettirsa, Shuhrat “Oltin zanglamas” romanı bilan “ochilmagan qo‘riqqa qo‘l urdi, adabiyotimizga yangi mavzu-material olib kirdi, mamlakatimiz hayotida yuz bergen 30-yillar qatag‘oni qurbanlari hayotini qalamga oldi”¹. Yana shuni e’tirof etish kerakki, Abdulla Qodiriy uslubini yaqindan sezgan va ba’zi o‘rinlarda uning voqealarini aks ettirish usullaridan foydalangan yozuvchilardan biri Shuhratdir. U o‘zining “Oltin zanglamas” romanida “O‘tkan kunlar”dagidek asar syujetida qamrab olingan voqealarni sirli bayon qilish va bu sirli voqealar orqali xarakterlarning psixologik holatlarini chuqurroq ochib berish uchun harakat qiladi va aytish kerakki, yozuvchi shu yo‘l bilan katta yutuqqa erishadi. Asarning bosh qahramoni Sodiqjon mehmonda. Bu epizodga qariyb bir bob ajratilgan va u asarning umumvoqeа tizimidan o‘ziga mustahkam o‘rin olgan. Boshlanishidanoq bu epizodda bir sir yashirganini anglaymiz. Mirsalim har bir harakati, so‘zi bilan boshqalarning hayotiga aralashaverishni iloji bo‘lsa, biror zarar yetkazishni kasb qilib olgan bir shaxs. U Sodiqni Sobiraxonlarnikiga mehmonga taklif qiladi. Taklif qilganda ham “jon-dili bilan”, xuddi sofdil kishilardek taklif qiladi. “Yomon bo‘lmaydi, mamnun qaytasiz. Men sizni nojo‘ya yerga boshlarmidim”² qabilida, samimiyydek aytilgan bu so‘zlarning tagida g‘araz yashiringani ma’lum bo‘lib turadi. Shu sababli, Sodiqning mehmon bo‘lishi tasviri ham o‘z me’yorida. Shuhrat voqeaneing Sodiq xarakterida ro‘y beradigan o‘zgarishiga xizmat qiladigan eng zarur tomonlarni batafsil tasvirlaydi-da, ikkinchi darajali tomonlarni ikki og‘iz so‘z bilan ma’lum qilib o‘taveradi. E’tibor asosan Musharrafga, uning portreti sirli o‘yini, o‘zini sipo tutishlari, uyalgandek qimtinishlari, o‘ziga yarashgan boshqa xislatlari hamda Sodiqdagi qiziqish va his, ziyoftdan keyin unda ro‘y bergen o‘zgarishlarga qaratilgan. Hatto peyzaj tasvirlari ham shu maqsadga bo‘ysundirilgan. Mana Sodiq

¹ Shuhrat. Zamondoshlar xotirasida. –T.: G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1968. –B.3-4.

² Shuhrat. Oltin zanglamas. –T.: Sharq, 1995. –B.38. (Keyingi iqtiboslar sahifasi qavs ichida ko‘rsatiladi).

ziyofatdan qaytib kelayapti: *Qarshidagi novcha terak uchidagi katta yorug‘ yulduz hali zamon yerga sho‘ng‘ib ketadiganday pirpirab charaqlaydi. Uzoqdagi sharsharaning shildirashi, barglarning shitirlashi eshitildi. Yumshoq tun kishi xayolini olib qochgudek salqin. Sodiq bunaqa tunni umrida birinchi marta ko‘rgandek yoki ertaga takrorlanishi mumkin bo‘lmagandek yayrab-yayrab nafas olar, uzoq-uzoqlarga nazar tashlar, atrofga suqlanib boqar edi. Bo‘g‘ilgandek yoqasining tugmasini chiqardi. Ko‘kragini ochdi*”. *Qaytib kelganda ham Sodiq “nima uchundir uyga kirgisi kelmas orqaga qaytib ketgisi, keng dalalarda ko‘kragini ochib bor tovushi bilan ashula aytib yurgisi kelar edi. “Sevimli xotinining ovozi ham” umrida birinchi marta qandaydir do ‘rillab begonaroq eshitildi* (42).

Endi butun voqeadan kelib chiqadigan ma’noga nazar tashlaylik. Mirsalim taklifidan biz nimadir kutdik. Keyingi tasvirda kutgan narsamiz kelib chiqdi. Sodiq uyida sevgan xotini bo‘la turib boshqa bir juvonga ko‘ngil qo‘ydi. O‘zining yaxshi ko‘rgan xotinidan ko‘ngli sovidi. Voqeа nimadandir boshlandi, nimalardir ro‘y berdi, nimalar bilandir xulosalandi, lekin voqeа hali tamom bo‘lgani yo‘q. Endi Sodiq hayoti qaysi yo‘l bilan kechadi, uning sevimli xotini Jannatning taqdiri nima bo‘ladi? Demak, bir tugal voqeа ikkinchi bir voqeaga debocha bo‘layapti. Bundan ko‘rinib turibdiki, “Oltin zanglamas”da Shuhrat harakatlar va voqealar birligiga bir qadar did bilan amal qilgan.

Ikkala romanda tasvirlangan sir ostida xarakterlarning tasvirlanishi diqqatga sazovor. Ikkala romandagi tasvirlangan asosiy qahramonlar o‘zlarining hayotiyligi, tabiiyligi, qalblarining tovlama jilolari, ma’naviy yuksakligi, jozibasi, sir-asrorlarga boy olami bilan kishini maftun etadi. Mahoratlilik faqat yozuvchilarining tasvir usullaridagina emas, ayni vaqtda qahramonlarning tanlanishida, murakkab voqealar va xilma-xil qahramonlar o‘rtasidagi munosabatining aks ettirilishida ham ular ruhiy olamining ochilishi bilan bir qatorda qiyofasining gavdalantirilishi, tilining individuallashtirilishida ham kompozitsiya va syujetning ishlanishida ham, yozuvchilarining o‘ziga xos mahorati aniq seziladi.

Adiblarning romanlarida jamiyatning ilg‘or fikrli kishilarini barcha insoniy haq-huquqlaridan mahrum qilinib, og‘ir fojialarga duchor etilishini Kumush va Otabek, Sodiq va Jannat muhabbatni misolida yorqin ko‘rish mumkin. Otabek bilan Sodiqni bir-biriga bog‘lab turuvchi jihatlaridan yana biri xalqparvarligi. Otabek hukumatda baland martabada turuvchi, o‘ziga to‘q xonadonning farzandi bo‘lib, o‘zining fuqaroparvarligi, el xizmatiga kamarbasatligi, yurt qayg‘usiga hamdard inson sifatida tasvirlansa, Sodiq hayotning g‘oyat sermashaqqat va murakkab yo‘llarida,

boshiga og‘ir savdolar tushsa-da, vijdoniga gard yuqtirmaydigan, ezgu ideallarga sodiq inson sifatida romanda gavdalananadi.

Kumush bilan Jannat o‘rtasida ham o‘zaro o‘xshash jihatlar ko‘p. Kumush ham, Jannat ham o‘z zamonasining har jihatdan yetuk qizlari, oqila, fozila, husnu jamolda tanho, xulqu odobda o‘rnak, sevgiga sodiq, ahdiga vafodor, ishqda qat’iyatli, or-nomusli, qisqasi ideal ayolga xos bo‘lgan barcha fazilatlar ortig‘i bilan mujassam.

Umuman olganda, Shuhrat Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlar” romanidan katta saboq olib, o‘z romanini muvafaqqatli yaratdi. Xarakterlarning keskin to‘qnashuvi, o‘tkir g‘oyaviy kurashi asosida qurilgan bu romandagi Sodiq obrazi o‘zbek adabiyotida yaratilgan hayotiy, jozibali obrazlardan biridir. Yozuvchi Sodiqni qancha katta muhabbat bilan tasvirlasa, unga o‘z yuragi, orzusini singdirgan bo‘lsa, shaxsga sig‘inish yillari qanotini keng yozib, parvoz qilgan tuhmatchi, sotqin Mirsalimni shu qadar qahr-g‘azab bilan tasvirlaydi.

Adib, “Oltin zanglamas” da qiziqrli voqeа, o‘tkir konflikt va dramatik holatlar yarata oladi, voqeani lirik bayon qiladi, oilaviy turmushni halqning katta hayoti, taqdiri bilan uyg‘un tasvirlay oladi, eng muhimi murakkab taqdirli xarakterlarni va voqelikdagi dramatik tomonlarni dadil tasvirlab, asarga chuqur optimizmni singdira oladi. Romanga yangi hayotiy material, yangi hayotiy muammolarni olib kiradi. “Oltin zanglamas” romani bilan Shuhrat o‘zbek romanchiligiga yangi hayotiy material olib kirdi. Shuhrat sertarmoq syujetli, keng ko‘lamli turli taqdirli, keskin konfliktli va kompozitsion yaxlit romani bilan o‘zbek romanchiligin boyitdi.

Shuhrat o‘z salaflari ijodiy tajribasidan muttasil o‘rgangan holda uslubning o‘ziga mos yangi tamoyillarini ishlab chiqdi va ulardan o‘z romanida to‘g‘ri foydalandi.

Novatorlik, birinchidan, tarixiy taraqqiyotning yangi bosqichi bo‘lgan hozirgi davrda ro‘y berayotgan voqealarni chuqur tushunish, real voqelikni badiiyatga ko‘chirish, ikkinchidan, bosh obrazlar hayoti tasviri bilan birgalikda, u yashagan davr voqealarini yorqin va haqqoniyligi aks ettirish, uchinchidan, adabiy qahramon xarakteri va ruhiy olamini asarda chuqur tasvirlab ko‘rsatish va nihoyat, davrining muhim ijtimoiy va ma’naviy muammolarini dadil ko‘tarib chiqish yo‘li bilan namoyon bo‘ladi. Qisqasi, bu masalaning qiyinchiliklari va murakkabliklari juda ko‘p. Novatorlik ana shu murakkab jarayonda tarkib topib va namoyon bo‘lib borar ekan, Shuhratning “Oltin zanglamas” romani, shubhasiz, bu borada haqiqiy novatorlik namunasidir. Yozuvchi fikrlarida yangilik, o‘tkirlik bo‘lishi kerak. Uning qarashlari, o‘y-mulohazalari hayotning eng chuqur qatlarini teran yoritib berishi shart. Ijodkor oddiy kishidan, o‘rta ma’lumotli zamondoshidan farq qilishi zarur. Bu uning qaynoq

hayot ichiga kirib borish, o'zgalar ko'rmagan narsalarni ko'ra bilish, yurakdan his etish, qalblarni titratayotgan holatda teran va ta'sirchan tasvirlay olish bilan xarakterlanadi. Shu o'rinda Shuhrat e'tirofiga to'xtalsak: "Oltin zanglamas" dagi hayotni men yaxshi bilaman,- deb yozadi adib o'z "Tarjimai hol"ida-ular men bilan birga bo'lган, menga uchragan kishilarning hayoti. Men bu hayotning atrofidamas, naq ichida bo'lганman. Bu mavzuda biron narsa yaratmasam, ko'nglim o'rniga tushmas edi. Buni vijdonim taqozo etardi"¹. Adib romanni yozishda o'z maqsadidan, roman konsepsiyasidan kelib chiqqan holda to'qima voqealar va to'qima qahramonlar obrazini ham yaratdi. Romanining asosiy konfliktini bosh qahramon Sodiq boshqarib boradi.

Zamonaviy ruh "Oltin zanglamas" romanining butun badiiy to'qimasida tili va tasvir madaniyatida ham yorqin namoyon bo'ladi.

O'zbek adabiyotshunosligida zamonaviylik muammosini bir tomonlama, ko'pincha yuzaki o'rganishning sabablaridan biri an'ana bilan zamonaviylikning o'zaro dialektik aloqasini, zamonaviylik zamirida vujudga kelgan novatorlikni bir yoqlama tushunish va talqin etishda ko'rinadi. Aslida zamonaviylik doimo an'ana va novatorlik masalalari bilan chambarchas bog'liq muammodir. Bu masalaga taniqli olim M.Yunusov o'zining "Traditsiya va novatorlik problemasi" nomli monografiyasida alohida e'tibor bergen.

Adabiyot va san'atdagi zamonaviylik hayoti va unda ro'y berayotgan muhim, jiddiy o'zgarishlarni badiiy o'zlashtirish, ularni haqqoniyligini go'zal badiiy obrazlar orqali aks ettirishda zuhur bo'ladi. Agar, "Oltin zanglamas" romaniga shu nuqtayi nazardan yondashsak, quyidagi holatlarni ko'ramiz:

Birinchidan, konflikt qurishda yozuvchi mumtoz romanchilik an'analariga ergashadi, detektiv, sarguzasht syujet ustalarining tajribalariga tayanadi, ijobiy qahramonlarini yaxshilik, salbiy qahramonlarini yomonlik timsoli, ular orasidagi ziddiyatni esa yaxshilik bilan yomonlik orasidagi kurash tarzida talqin etadi, yozuvchi syujetni ko'proq favqulodda vaziyatlar asosiga quradi, syujetda tez-tez sirli tugunlar tashlaydi, voqealarda rivojida keskin qayrilishlar yasaydi.

Ikkinchidan, agar xalq kitoblarida ham mumtoz adabiyot namunalarida ham epik tasvir qariyb bir xil ohang va ritmda davom etgan bo'lsa, "Oltin zanglamas" dagi tasvir rang-barang shakl va ohang kasb etadi. Voqealar taqozosini bilan goh tezlashib, goh sekinlashadi, ichki monolog, lirik kechinma, sir saqlash, tush ko'rish, xat yozish kabi tasvir vositalari va usullari romandagi epik tasvirga yangi-yangi to'ljin berib turadi.

¹ Shuhrat. Tanlangan asarlar. 3 tomlik, 1 tom. –T.: G.G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1969. –B.10.

Uchinchidan, Shuhrat tomonidan qo'llangan tasvirdagi novatorlik belgilari pirovardida shunday manzara yaratadi-ki, bu manzarada xalq hayoti Sodiq fojiasi, tashvishlari va muammolari bilan gavdalanadi. Romanning bosh qahramoni Sodiq Qo'chqorovdir. Bu obraz hayotda zo'r maqsad va yuksak ideallarga ega, ruhiy olami boy bo'lib, asar syujeti qiziqarli voqealar asosiga qurilgan. Asar qahramoni Sodiq xotini Jannat va onasi Adolat xola bilan qishloqda hayot kechirishadi. Farzand tirnog'iga zor bo'lган bu ahil oila bir qancha yaxshi niyatlarni o'rtaga qo'yib shaharga ko'chib keladilar: birinchisi, Jannatni taniqli doktorlarga ko'rsatib davolatish, farzandli bo'lish; ikkinchisi, shaharga o'qishga kirgan Qodirning issiqsovug'idan xabardor bo'lish; uchinchisi, kelajakda jamiyatga foydali kishi bo'lib yetishish uchun aspiranturaga kirib o'qishni davom ettirish singari oliyjanob niyatlar bilan qishloqdan ko'chib keladilar. Shaharga kelgach Sodiq Mirsalimga duch keladi. Oddiy tanishuv bilan boshlangan bu do'stlik asar finaliga qadar bir-biriga g'oyaviy raqiblar darajasigacha yetadi. Sodiqlar oilasi shaharga ko'chib kelishi bilan-syujet liniyasi ikkiga bo'linadi. Biri -Sodiq hayoti va faoliyati bilan bog'liq holda o'sib borsa, ikkinchisi salbiy tip Mirsalim va uning oila a'zolari bilan bog'liq holda ko'rsatib boriladi. Mirsalimdagi ichiqoralik shu darajaga borib yetadiki, u Sodiqni xalq dushmani sifatida qamattiradi, uning o'rnini-direktorlik lavozimini egallaydi. Sodiqqa davlat tomonidan berilgan uyni tortib oladi. Romanda tarixiy davr va qahramonlar hayotining mukammal manzarasini yaratganki, badiiy tasvirdagi bunday mukammallik va tugallanganlik romanning to'rtinchi muhim xususiyatidir.

Xullas, romandagi epik tasvirning ana shu muhim belgilari tufayli asar personajlari bilan to'laqonli obraz darajasiga ko'tariladi. Bu obrazlar zamirida yotgan milliy va ma'naviy kadriyatlar, oliyjanob insoniy fazilatlar zamonlar o'tsa-da o'z qadr-qimmatini yo'qotmaydi. Ular zamonaviyligining asosi xuddi shundadir. Demak, Shuhratning "Oltin zanglamas" romani tasvir ob'yektining yangiligi, yorqin xarakterlarining uyg'unligi, o'ziga xos tasvir vositalari bilan novatorlik kasb etgan.

Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor va Shuhrat ijodi va ularning, badiiy mahoratlari haqida adabiyotshunos tomonidan ibratli mulohazalar bildirilganligi ilmiy jamoatchilikka yaxshi ma'lum. Bu o'rinda biz ham har uch adibning romanlari xususida qiyosiy kuzatishlarimizni beramiz. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani Otabek va Kumush muhabbatি asosiga qurilib, ularning baxtiga ko'z tikkан xudbin Homid va kundoshlik balosi natijasida xazonga aylangan muhabbat tarixini yoritishga bag'ishlangan bo'lsa, Abdulla Qahhorning "Sarob" romani burjua millatchiligi g'oyasini fosh qilish, ularning razil basharalarini ochish barobarida romanning asosini tashkil qiluvchi g'oyaviy niyat xudbinlikni yohud individualizm

illatini badiiy tadqiq qiladi. Shuhratning “Oltin zanglamas”i esa yuqorida e’tirof etilgandek, o‘zbek adabiyotida qatag‘on yillari haqidagi birinchi roman va keskin to‘qnashuvlar, o‘tkir konfliktlar asosiga qurilgan.

Xo‘sish bu uchala romandagi umumiylit va o‘ziga xoslik nimalarda ko‘rinadi? “O‘tkan kunlar”, “Sarob” va “Oltin zanglamas” romanlarini qiyosiy o‘rganish asnosida adiblarning xarakter yaratish mahorati, o‘ziga xos uslubini ko‘rsatish, asar poetikasi, kompozitsiyasi va syujeti, tili va badiiy tasvir vositalarini, xullas kalom romanlar orasidagi mushtarak, vobasta jihatlarini tadqiq qilishga harakat qilamiz.

Shu o‘rinda “O‘tkan kunlar” romanidagi salbiy qahramonlardan biri Homid, “Sarob” romanidagi bosh qahramon Rahimjon Saidiy va “Oltin zanglamas” romanidagi Mirsalim obrazlari xususidagi kuzatishlarimizni berishni to‘xtalishni lozim ko‘rdik. Chunki, Homid, Saidiy va Mirsalim obrazlarida o‘zaro o‘xshash, mushtarak jihatlar ko‘pki, ular tahlil jarayonida birma–bir ko‘zga tashlanib boradi.

Xudbinlik insoniyat tarixidagi eng qadimiy va eng xavfli illatdir. Shu sababdan adiblar bu shaxslar timsolida riyokorlikning turli tovlanishlaridagi ko‘rinishlarini tasvirlaydi. Xalqda “*Odobni odobsizdan o‘rgan*” degan maqol bor. Nazarimizda, adiblar ham shu maqolga amal qilib, insoniyat ma’naviyatining ana shu azaliy dushmaniga qarshi qalam yalang‘ochlab jangga kirishgan. Demak, romanlarning asosiy g‘oyasi shundaki, ular bu obrazlar orqali xudbinlik, sotqinlikning halokati muqarrar ekanligini ko‘rsatish barobarida insonlarni hushyorlikka va ezgulikka chaqiradi.

Shu o‘rinda romandagi salbiy qahramonlarni qiyoslash to‘g‘rimi, degan o‘rinli savol tug‘ilishi tabiiy. Fikrimizcha, realistik adabiyotda qahramon ijobiy bo‘ladimi, salbiymi, baribir, birinchi navbatda to‘laqonli inson bo‘lishi kerak, uning har bir harakati, qiligi, so‘zleri ham baquvvat ichki mantiqqa ega bo‘lmog‘i, kitobxonni hech qanday gap-so‘zsiz ishontirmog‘i lozim. Bu to‘g‘rida Ozod Sharafiddinov shunday deydi: “Agar yozuvchi ijobiy obraz yaratayatman deb, uni maqtab ko‘klarga ko‘tarsa, faqat ajoyib fazilatlar-u, nodir sifatlarning egasi qilib tasvirlasa, obraz emas, chuchmal siropday me’daga tegadigan farishta mijoz sxema tug‘iladi, xolos. Ijobiy qahramon ham salbiy qahramon ham mushtarak badiiyat qonunlari asosida yaratilmog‘i kerak”¹. Chunki, asar o‘quvchini haya jonga sola olmasa, uning estetik dunyosini boyita olmasa, uning yaxshilikka va yomonlikka munosabatini o‘tkirlashtira olmasa, unda nimalar aytilmasin, qanday mavzu va mammolar qo‘yilmasin, u haqiqiy san’at namunasi bo‘la olmaydi. Shu sababdan ham bu uch

¹ Sharafiddinov O. Abdulla Qahhor. Esse. –T.: Yosh gvardiya, 1989. –B.63.

romandagi salbiy xarakterdagи qahramonlarni tanqidiy ko‘z bilan o‘rganib, ulardagи ayrim nuqsonli jihatlarni ko‘rsatib berishni maqsadga muvofiq ko‘rdik.

Abdulla Qodiriy Homid obrazini yaratar ekan, roman boshidayoq uni shunday tasvirlaydi: ...uzun bo‘yli, qora cho‘tir yuzli, chag‘ir ko‘zli, chuvoq soqol, o‘ttiz besh yoshlarda bo‘lgan ko‘rimsiz bir kishi edi. Bu yigit yaxshigina davlamand bo‘lsa ham, lekin shuhratni nima uchundir boyligi bilan bo‘lmay, “Homid xotinboz” deb shuhratlangan, kishilar Homid orqasidan so‘zlashganda uning otiga taqilgan laqabini qo‘shib aytmasalar, yolg‘iz “Homidboy” deyish ila uni tanita olmaydilar¹. Yozuvchining shu so‘zlarining o‘ziyoq, ko‘z o‘ngimizda uning qanday odam ekanligini ko‘rsatadi. Romanda Homid ikki uylangan bo‘lishiga qaramay, o‘z shahvoniy hirsi yo‘lida yana uylanishni maqsad qilib, bu yo‘lda har qanday nojo‘ya yo‘ldan toymaydigan kimsa sifatida ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi. Otabekning Marg‘ilonga kelishi munosabati bilan uni ko‘rgani kelgan Rahmat va Homidning o‘zaro suhbatida Homidning qiyofasi yozuvchi tomonidan to‘laligicha ochib tashlanadi: *Xotinga muvofiq bo‘lish va bo‘lmaslikning uncha keragi yo‘q...Xotinlarga “er” degan ismning o‘zi kifoya...xotinni ikki qil! Bunisi ham kelishmasa, uchinchisini ol!..Qamchingidan qon tomsa, yuzta xotin orasida ham rohatlanib tiriklik qilolasan! Men bu kungacha ikki xotin o‘rtasida turib janjalga to‘ygunimcha yo‘q, ammo xotinni uchta qilishga ham o‘yim yo‘q emas!*(10).

Abdulla Qahhor yaratgan obraz esa burjua xudbinligini o‘zida mujassamlashtirgan mukammal obraz bo‘ldi. “Sarob” ning boshlaridayoq yozuvchi Saidiy shaxsida xudbinlik nish urib turganligini ta’kidlaydi. Saidiy Munisxonni birinchi bor uchratganidayoq yaxshi ko‘rib qoladi. Uning ko‘ngidan o‘tkazgan birinchi niyati quyidagicha edi: *Shu qizning boshiga bir falokat tushsa-da, qutqaradigan kishi yagona men bo‘lsam*². Bu so‘zlar Saidiy shaxsining asosiy maqsad yo‘nalishini, ya’ni uning xudbinligini belgilaydi.

“Oltin zanglamas” dagi Mirsalim-chi? Romanning bosh qahramoni Sodiq shaharga kelib ilk bor “surma rang do‘ppili sertakalluf” kishi Mirsalimga duch keladi. Mirsalimning himmatiga sazovor bo‘ladi. Shundan keyin yozuvchi kelgusida yuz beradigan to‘qnashuvar uchun zamin hozirlashga, avvalo Mirsalim shaxsiyatini ta’riflashga kirishadi. Mirsalim Sodiqqa o‘zini yaqin olib, iltifot ko‘rsatar ekan, bu tasodifiy emas, ko‘ngliga tug‘ilgan o‘y-rejalar uni shunga da’vat etadi. Mirsalim “илоннинг оёғини санаган одам”, Sodiq shunchaki odamlardan emas, “axir qo‘lidan bir ish kelmas shunday shahri azimga kelarmidi..., bunda albatta bir hikmat

¹ Qodiriy A. Tanlangan asarlar. O‘tkan kunlar. –T.: Sharq, 2014. –B.7.

² Qahhor A. Sarob. 5 jildlik.1jild. –T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at, 1987. –B.35.

*bor, ko ‘tarilishi mumkin, hozir uning hech kimi yo ‘q, ayni payt”*¹. Mana Mirsalimning o‘y- xayoli, xudbin qiyofasi.

“O‘tkan kunlar” romanida Otabekning ko‘z ostiga olib qo‘ygan Kumushga uylanganidan g‘azablangan “*tusidan yirtqichlik, bir gunohsizning ustiga hujumga hozirlangan vahshiylik belgilari*” ko‘ringan Homid o‘zining razil rejasini amalga oshirish uchun qo‘rboshinikiga boradi va Otabek, Mirzakarim quidorga tuhmat qiladi. Bu ham ish bermagach u yana qulay fursat kutadi, shunda Otabekning qayta uylanishi u uchun ayni muddao bo‘ladi. O‘ziga o‘xshagan sheriklar topib, ular yordamida o‘zining razil rejasini amalga oshiradi. Otabek tomonidan Kumushga soxta taloq xati kirgizib, natijada qaynotasi tomonidan Otabekning quvib chiqarilishiga sababchi bo‘ladi. Bu ham yetmaganday Otabekni Sodiq va Mutal yordami bilan o‘ldirish rejasini tuzadi.

“Sarob” romanida Saidiy universitetda o‘qiy boshlagandan keyin kursdoshlarini nazar-pisand qilmaydi, guruhdagi studentlar o‘rtasida ...*qo ‘pol, ming yil o ‘qiganda ham nam o ‘tmaydigan, aslida go ‘yo jismoniy mehnat uchun yaratilganlari ham bor*”... *Bularni ko ‘rganda Saidiy afsuslanar edi:* “*Shular ham student!... Saidiy ko ‘pdan beri aytmoqchi bo ‘lib, aytishdan hayiqib yurgan bir gapni bir kuni darsda keksa, rangi zahil, lunjlari osilgan bir professor aytdi:*

-*Siz universitetga munosib emassiz,-dedi u, Saidiy “to ‘ngak” deb nom qo ‘yan yigitga,-borib ketmoningizni chopping!.. Shunda Saidiy tor oyoq kiyimini yechib tashlagandek yayradi va shu professorni yaxshi ko ‘rdi (42-43bet).* Saidiyning yaxshigina tanish-bilishlari bor edi. Ehson, Sharif, Shafrin. Lekin Saidiy ular bilan qo‘shilishni istamaydi. Sharif bilan Shafrinni esa mutlaqo yoqtirmas edi. Ular mabodo Ehsonni yo‘qlab (Saidiy Ehson bilan bir xonada turar edi) kelib qolsalar o‘zini uxlaganga solib yotib olardi, o‘qish haqida gapirishsa, unga ko‘p yoqavermas ham edi. Ulardan birontasiga maslahat ham qilmas, maslahat ham olmas, o‘z dardini ochib ham gapirmasdi. Saidiydagи bu kayfiyat, xususan, Ehsonnni Moskvaga jo‘natish paytida yaqqol ko‘rinadi “*Ehsonni kuzatgani vokzalga ko ‘p odam chiqadi. Poyezd jo ‘nab ketguncha Saidiy o ‘lib bo ‘ldi... Platformadan chiqqandan so ‘ng Saidiy bulardan ajralib qochish yo ‘lini izladi va evini qilib qochdi*” (112). Mana, Saidiyning asl qiyofasi.

Hayotda, shunday kishilar bo‘ladiki, ular o‘zlarining xudbin niyatlarini yashira biladilar, ma’lum bir maqsadni ko‘zlagan holda pardalarda orqasidan turib, asdoydil harakat qiladilar va shu sa’y harakatlari o‘laroq ko‘pgina muvafaqqiyatlarga

¹ Shuhrat. Oltin zanglamas. –T.: Sharq, 1995. –B.38. (Keyingi iqtiboslar sahifasi qavs ichida ko‘rsatiladi).

erishadilar. Homid va Saidiy undaylardan emas, lekin “Oltin zanglamas” dagi Mirsalimga bu xislat juda mos.

Ha, Mirsalim hamisha o‘z foydasiga ish ko‘radi, bu gal ham shunday qiladi, ayni paytda Sodiqni tushovlab oladi, yonginasidan hovli-joy topib beradi, uyiga chaqirib, mehmon qiladi. Sodiq tez orada maktabda obro‘-e’tibor qozonadi, kattaga uka, kichikka aka bo‘lib oladi, buni ko‘rgan Mirsalim bir jihatdan hasad qiladi, ikkinchi jihatdan unga o‘zini yana ham yaqin oladi.

Adabiyotshunos olim, akademik Izzat Sulton ta’biri bilan aytganda: “...adabiyot hayotning fotonusxasi emas. Adabiyot badiiy obrazlar olami, “ikkinchi voqelik” ya’ni yozuvchining hayot haqidagi tasavvurining aksidir. Bu hayotning badiiy tasviri. Hayotga ham o‘xhashi, ham o‘xshamasligi kerak, degan so‘z. Yozuvchi hayotdan uzilmagan holda “uzoqlashishi” shart. Bu uzoqlashish hayotning mohiyatini ochib berishga xizmat etadi. Aslini olganda, bu uzoqlashish hayotga chuqurroq kirib borish demakdir”¹.

“O‘tkan kunlar” romanida ham xuddi shunday holatga duch kelamiz. Salim sharbatdorning o‘g‘li Komilbek Kumush bilan nikohi bo‘ladigan kun Homid tomonidan o‘ldirganligini gumon qilgan usta Farfi usta Umarbekdan eshitgan siri haqida Olim va Otabekka gapirib beradi. O‘zining aybsiz dor ostiga keltirilganligi va qayinotasi tomonidan besabab quvilgani sababini tushungan Otabek shundan so‘ng Homid kirdikorlarini ochishga jazm qiladi. Kumushga bir necha martasovchi qo‘yib unga yetisha olmagan Homid endi yana bir qabih reja tuzib, uni o‘g‘irlash va kechasi shahardan chiqarib yuborish rejasini Sodiq va Mutual bilan tuzadi. O‘z shaxsiy manfati yo‘lida har qanday pastkash yo‘ldan toymaydigan, ya’ni tuhmat qilish, hiylalariga chuv tushirish, hattoki odam o‘ldirishgacha borib yetgan Homid oxir-oqibatda Otabek tomonidan fosh etiladi.

“Sarob” romanida esa Saidiy shaxsiyatida xudbinlikning tug‘ilishi, uning xarakteridagi ikkilanishlar va nihoyat millatchilar tomoniga o‘tib olishi ajoyib dalillar bilan ko‘rsatilgan. Yozuvchi o‘z mahoratini, butun kuch-quvvatini Saidiy xarakteridagi mana shu etaplarni ko‘rsatishga sarf qilgan. Xudbinlik, o‘zining alohidaligiga, favquloddaligiga ishonish, o‘zining dohiy, boshqalarni omi hisoblash, o‘z shaxsiga mahliyo bo‘lib, butun olamni shunga moslashtirishga intilish Saidiyda yana bir xavfli kasallik-shuhratparastlikni avj oldiradi. Abdulla Qahhor Saidiydag'i bu illat qanday kurtak yoza boshlaganini hayotiy detallarda, psixologik jihatdan asosli lavhalarda tasvirlaydi. Xudbinlik Saidiyga o‘qishda ham, do‘stlariga ham, atrofidagi hayotga ham loqaylik bilan qarash hissini tug‘diradi va uni hayotda katta maqsaddan,

¹ Qayta tug‘ilish arafasi.(I.Sulton va N.Rahimjonov suhbat) / O‘zbekiston adabiyoti va san’ati,1999, 19 mart.

oliyjanob ezgu niyatdan mahrum qilib qo'yadi. Yozuvchi roman oxirida Saidiyning o'z-o'zini o'ldirishini, ya'ni jismoniy halokatini ko'rsatadi, biroq undan avval roman voqealarining rivoji davomida uning allaqachonlar ma'naviy halok bo'lganini chiroyli tasvirlab beradi.

"Oltin zanglamas" romanidagi Mirsalimda ham Homid va Saidiy kabi xudbinlik, ko'rolmaslik kuchli bo'lib, u butun hiyla-makrini ishga solib soddadil Sodiqni laqillatadi. Jannatning tug'masligi unga qo'l keladi, qisqasi uni Jannatdan sovutib, Musharraf ismli boshqa ayolga ro'para qiladi. Egri yo'llar orqali kun ko'rishga odathlangan Mirsalim Sodiq ta'qibiga uchragandan keyin ham ana shunaqa yo'l axtaradi va nihoyatda qabih ishga qo'l uradi. Sodiqdan dakki yegan g'alamislarni atrofiga to'plab, uning ustidan ig'vo tarqatadi, o'sha yillardagi murakkab vaziyatdan foydalanib qoladi. Sodiqqa "xalq dushmani" yorlig'ini yopishtirishga, uni asossiz qamatishga muvaffaq bo'ladi. Sodiqni qamatib, o'rniga mакtab direktori bo'lib olgach, maktabda o'z rejimini o'rnatadi. Shuhrat bosh qahramon Sodiq taqdiriga aloqador yangi konfliktlar tasviri bilan birga parallel ravishda Mirsalim taqdirini ham hikoya qilib boradi. Mirsalim uchun ham yangi ziddiyat maydonlarini belgilab oladi. Sodiqning ukasi Qodir va uning seviklisi, o'z qizi Azizani ayirish uchun, bir-biridan judo etishga, Qodirni oradan yo'q qilishga ko'p urinadi, ig'vo, fisqu fasodlar tarqatib Qodir boshiga og'ir savdolar soladi, lekin u baribir ojiz qoladi, muhabbat qabihlik ustidan g'olib keladi. Mirsalim esa o'z qilgan xato gunohlarining qurboni bo'ladi. Shuhrat salbiy obraz chizishda ham hayot haqiqatiga mustahkam tayangan holda, ruhiyat tahlili san'atidan o'rinli foydalangan. Har bir obrazni o'ziga xos fe'l-atvor va individual til bilan ta'minlagan.

Ushbu romanlarning mualliflari xarakter yaratish mahorati, o'ziga xos uslub yaratish, poetika, kompozitsiya, syujet, til va badiiy tasvir vositalarini qo'llashda ham mutlaqo originallika intilganlar. Shu bilan birga bu romanlar orasidagi mushtarak jihatlar ham yo'q emas. Xususan, yozuvchilarimiz o'z romanlaridagi salbiy qahramonlarning xudbin qiyofalarini bir necha ko'rinishda: ko'rolmaslik, hasad qilish, tuhmat qilish, soxta xatlar uyushtirish yoki qamatish tarzida namoyon etishgan. Shu bilan birga bu xudbin kimsalarning o'zları qazigan go'rga o'zları yiqilganlarini adiblar romanlarida ishonarli badiiy tasvirlab berishga erishishgan. Natijada, ushbu romanlarda qahramonlarning o'sha damdag'i dramatik holati, ruhiy kechinmalari haqqoniylig'i va ta'sirchan qilib ko'rsatilgan va adiblarimiz bunda ularning badiiy ifodasiga, qalb dramasi tasviriga, psixologik tahliliga ham alohida e'tibor berishgan, bu esa yozuvchilarimizning yuksak badiiy mahorat egasi bo'lganliklarini ko'rsatadi.

Shuhratning chinakam mahorati tufayli maqollar asar syujeti bilan sintezlashib roman qatiga singib ketgan. Xalq maqollarining romanda o‘zlashtirilishidan oddiy folklorizm yuzaga kelgan va yozuvchi aytmoqchi bo‘lgan fikrini lo‘nda, ramziy bo‘yoqdo r bo‘lishiga asos bo‘lgan.

TARIXIY HAQIQATNING BADIY TALQINI

XX asr o‘zbek adabiyoti tarixida katta shov-shuvga sabab bo‘lgan asarlar talaygina. Shuhratning o‘z davri uchun anchayin qaltis mavzu – vatangadolar qismati haqidagi “Jannat qidirganlar” romani shunday asarlar sirasiga kiradiki, uni adibning shoh asari sifatida baholash mumkin. Adib ushbu romanni yaratish bilan o‘z davrida sovet totalitar tuzumi siquvlariga, qaysidir ma’noda qarshi chiqishga jur’at etganligining o‘ziyoq katta tahsinga loyiq.

Ayni holda ba’zi e’tiroflar ham yuqoridagi qarashlarimizni tasdiqlaydi. “Roman bitilgan mahallarda millatimizning shonli o‘tmishi, tomiri Misrnikiday chuqur va boy madaniy merosi to‘g‘risida maqtanish u yoqda tursin, hatto “Men – O‘zbekman!” degan so‘z g‘ururlanibroq aytilsa ham, darrov urdi-surdiga yo‘liqardi. Shuhrat shunday muhitda yashab turib, goh asardagi salbiy qahramonlar, goh chet ellik siyosatdonlar tilidan bo‘lsa-da, katta-katta gaplarni, o‘tkir-o‘tkir fikrlarni ochiq-oydin bayon eta oldi. O‘zimizda savodsiz qaroqchiga chiqarib qo‘yilgan Amir Temurning aslida o‘ta ulug‘ siymo ekanligi, Turonzaminning bebahomadaniy yodgorliklari, jumladan, Samarqanddagi noyob tarixiy obidalar ko‘r-ko‘rona oyoqosti qilinayotgani, bosqinchilar mahalliy elatning “bo‘yniga zanglagan zanjir osib qo‘yib, marjon demoqchi” bo‘layotgani, qaram mamlakatda joriy etilgan senzura qanchalar bezantirib ko‘rsatilmasin, baribir faqat mustabidlar manfaati uchun xizmat qilishligi, yakkahokimlik qamchisiga aylangan kompartiya vakillari barcha katta-kichik korxona-muassasalargacha in qurib, A’zamga o‘xshash kimsalarining hatto oilaviy ishlariga ham aralashish darajasiga yetgani kabilar to‘g‘risida yozishga o‘shanda kamdan-kam adibning yuragi dov berardi”¹.

Ushbu mulohazalarning tasdig‘ini romandagi A’zam bilan fransuz mayori suhbatida kuzatamiz, yozuvchi ko‘nglidagi armonlarni ifodalashga xizmat qilgan:

–Temur tarixini yaxshi bilaman, o‘smirligimda ko‘p o‘qiganman. Ajoyib sarkarda. Nima uchun sovet tarixchilari uni tan olmaydi-bilmayman. Boshqalarning yeriga kirgani uchunmi? Napoleon, Aleksandr Makedonskiy birovning yeriga kirmabdimi, qon to‘kmabdimi? Nega ularni lashkarboshilar deb jar solamiz-ku,

¹ Obidjon A. Jannatni o‘zingdan qidir / Shuhrat. Zamondoshlar xotirasida. –T.: O‘zbekiston, 2008. –B.143-144.

Temurga kelganda qonxo ‘r deymiz, urishqoq qabilalarning boshini biriktirib, buyuk bir davlat tuzganini inkor etadilar...

—*Samarqandda bo ‘l maganimga afsus qilaman, Rimdan qolishmaydi deyishadi. Lekin beqarov emish. To ‘g‘rimi? -mayor uni suhbatga tortmoqchi bo ‘ldi. Bir umrda Samarqandda bo ‘l magan A’zam tilyog ‘lamalik qilib:*

—*To ‘g‘ri! -dedi, lekin, bir mahal gazetada tarixiy obidalar remont qilinayotgani haqida o‘qigani esiga tushib, sal tuzatdi, -sal-pal remont qilishayapti. Bunaqa remont filni qoshiq bilan sug‘orishdek gap.*

So ‘nggi jumla mayorga yoqib tushdi. Shuni bahona qilib, yana qadah taklif etdi:

—*Hamma gap shunda, azizim! Qani, oldik! Moskva milliy respublikalarning taqdiriga befarq, obidasini qadrlamaydi. Bir mahallar Bag‘dod bilan mavh talashgan Buxoroni tanib bo ‘lmaydi, deyishadi (126).*

Dialogning mazmun-mohiyatidan ayonki, adib yuragidagi og‘riqli nuqtalarni mayor tilidan bayon qilmoqda.

“31 dekabrda...to‘satdan bizni Markazkomning fan va madaniyat bo‘limiga chaqirib qolishdi, deb xotirlaydi Pirimqul Qodirov. -Borsam, Yashin domla, Hamid G‘ulom, Asqad Muxtor, Odil Yoqubov, Matyoqub Qo‘shjonov-jami o‘ndan ortiq taniqli yozuvchi va adabiyotshunoslar yig‘ilishibdi. Adashmasam, 1981 yilning oxiri edi. U paytda Sharof Rashidov hayot edilar. Fan va madaniyat bo‘limida “Pravda” gazetasining muxbiri ham o‘tiribdi. Bo‘lim boshlig‘i besh-o‘n betlik mashinkada ko‘chirilgan maqolani qo‘liga olib gap boshladи.

— Yozuvchi Shuhratning “Jannat qidirganlar” romani haqida... O‘zimizning o‘zbek qalamkashlaridan biri “Pravda”ga yozibdi. “Shuhratning mazkur romani millatchilik ruhida yozilgan” deb yozib qo‘yibdi...

—Sharof Rashidovich sizlarning bu roman to‘g‘risidagi fikrlaringizni bilmoqchilar, -dedi bo‘lim boshlig‘i. —Adabiy jamoatchilikning fikrini bilib, keyin “Pravda”ga javob yuborishimiz kerak... Xullas yig‘ilganlar bir og‘izdan Shuhrat akani yoqladik. Sharof Rashidovich bu nozik masalada adabiy jamoatchilikning fikriga tayanganidan, ilgari nohaq jabr ko‘rgan adibni navbatdagi tuhmatdan himoya qilishning oqilona yo‘lini topganidan mamnun bo‘ldik¹.

Shunday qilib, adibning bu romani ham juda katta qiyinchiliklar, qarshiliklar bilan dunyo yuzini ko‘rdi. Darhaqiqat, romandagi voqeа va bahslar yuqorida aytilganday muhojirlar hayotidan olingan bo‘lsa-da, asar aslida Rossiyaning mustamlakachilik siyosatini qoralash, mustaqillik va erk uchun kurashga chaqirish, hayotbaxsh ruh – istiqlol g‘oyasi bilan sug‘orilgan.

¹ Pirimqul Qodirov. Ma’naviy jasorat / Shuhrat. Xotiralar. –T.: Sharq 1998. –B.163-164.

Roman XX asrning 60-yillaridagi tarixiy jarayonni, shu davr voqealari, kishilari ruhiyatini aks ettiruvchi asarligi bilan katta ahamiyat kasb etadi. Romanda, yozuvchi Saidakbar hoji, uning oilasi tevaragidagi shaxslar misolida vatangadolar qismatini yoritib beradi. Asarda hayot haqiqati butun borlig'i va murakkabligi bilan badiiy haqiqatga aylantirilgan, shuningdek mustamlakachilik, vatanfurushlik keskin qoralanib, mustaqillik va ozodlik samimiyat bilan ulug'langan. Yozuvchining o'zi bu roman haqida shunday degan: "Jannat qidirganlar – boshqacha roman. Unda deyarli o'z tarjimayi holim yo'q. Agar uchrasa ham Ummatali obraziga sal-pal yuqqan. Lekin romanda mening idealim bo'lgan obrazlar bor"¹, – deganda Abulbaraka kabi insonlarni nazarda tutgan, deb o'ylaymiz.

Romanning g'oyaviy mundarijasiga mos ravishda asar syujeti ikki asosiy yo'nalishdan tashkil topgan, voqealar ham ona yurtimizda, ham xorijda sodir bo'ladi. Bu ikki chiziq, bir qarashda tamoman mustaqil, bir-birlariga aloqasiz holda rivojlanayotgandek tuyuladi. Ammo adib ular orasidagi ham ichki, ham sirtqi bog'lanishlarni topadi. Avvalo, oilaviy qarindoshlik iplari Ummatali bilan Saidakbarhojini bir-biriga bog'laydi. Saidakbar hoji inqilobdan keyin chet elga qochgach, qizi bilan xotinini sargardon qilib qoldirgan, o'g'li bilan sadoqatli xizmatkorini avrab olib ketgan. Aldangan xizmatkor Qurbanali Ummatalining otasi. Ana shu ayriliq tufayli, bola otaning, ota bolaning izini yo'qotadi, natijada umr bo'yi ular bir-birlariga talpinib yashashadi. Ummatali ulg'aygach, otasi tufayli isnodga qoladi, qochoq-xoinning o'g'li degan nom orttiradi, begunoh bola boshiga ko'p og'ir savdolar tushadi. Ummatali boy aldab va xo'r lab tashlab ketgan "boy xotin" bilan yaqin munosabatda bo'ladi. Bu ayolning qismati ham fojiali. Aslida kambag'al oiladan bo'lgan, o'z xohish-istagisiz "boy xotin" bo'lib qolgan bu ayol uzoq yillar eri Saidakbar hoji tufayli orttirgan isnod jafosini chekadi.

Roman syujetidagi ikki yo'nalish, avvalo, o'tmish hodisalari orqali bog'lanadi. O'tmish oqibatlari qahramonlar faoliyatiga hamisha ta'sir ko'rsatib turadi. Romandagi bu ikki syujet chizig'i muhim g'oya ifodasiga-asrimizning buyuk haqiqati ifodasiga xizmat qiladi. Yozuvchi shular bilangina cheklanmaydi, ular orasidagi o'zi yashagan kungi bog'lanishlarni ham qidiradi. A'zam obrazi shunga xizmat qiladi. Ummatalining yaqin tanishi bo'lgan yengiltabiat, noshukr bu banda jannat qidirib

¹Shuhrat. O'zim haqimda ikki og'iz so'z / Tanlangan asarlar. Uch tomlik, Birinchi tom. –T.: G.G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1969. –B.10.

xorijga yo‘l oladi va Hoji xanadoniga borib qoladi, asar oxirida ikki qutb vakillari bir-biri bilan to‘qnashadi, sovet delegatsiyasi sostavida chet elga borgan Ummatali vatangado ham vatanfurushlarning fojiali qismatidan ogoh bo‘ladi. Adib romanda Ummatali, noiloj chet elga ketgan Hoji, sarobga uchgan A’zamlar timsolida vatan mehri, vatangadolik holatlarini yoritib berishga urinadi.

Romanda ikki guruh vakillari ham hayotda jannat, ya’ni haqiqat va baxt qidiradilar. Chet eldagi milliy uyg‘onish, mustamlakachilikka qarshi ozodlik kurashi aks etgan “Jannat qidirganlar” romanining g‘oyasiga adib haqiqiy jannat – ona-Vatanda bo‘ladi, haqiqiy baxtga ona-Vatanni ozod va obod qilish orqali erishiladi, degan chuqur ma’noni yuklagan hamda buni roman syujetining qat-qatiga singdirib yuborgan. Ummatali yurgan yo‘l garchi og‘ir, sermashaqqat bo‘lsa ham, birdan-bir to‘g‘ri yo‘l ekanini, chinakam jannat insonning o‘zi tug‘ilgan yurti ekanligini adib asarda ishonarli dalillar bilan isbotlab berishga harakat qiladi.

Ummatalining hayot yo‘li g‘oyat murakkab, uning o‘tmishi fojiali, biroq, u bir umr fojialar girdobida qolib ketmaydi, haqiqat uchun kurashadi va haqiqatning tantanasini, sofkillikning qing‘irlik ustidan qilgan g‘alabasini qiyinchilik bilan bo‘lsada ko‘rganining shohidi bo‘lamiz. To‘g‘ri, adib qahramonning hayoti nuqul tantanayu, shod-xurramlikdan iborat emas, hayotning murakkabligini, hayotda quvonchli hodisalar bilan barobar ko‘ngilsiz voqealar ham bo‘lib turishini hech qachon unutmeydi, qahramon yo‘lidagi muvaqqat qiyinchilikni asarda ro‘yrost ko‘rsatadi. Shu o‘rinda adabiyotshunos olimning Ummatali obrazi haqidagi fikrlarini keltirib o‘tmoq joiz: “Romanda ijobiq qahramonlar bilan salbiy qahramonlar o‘rtasidagi konfliktlar omonat qurilganday ko‘rinadi. Bosh qahramon Ummataliga yuklatilgan vazifa unchalik yetarli emas. Asar kompozitsiyasida g‘oyaviy tarqoqlik ham uchraydi”¹.

Bizningcha, adabiyotshunos olimning bu e’tiroziga unchalik qo‘shilib bo‘lmaydi. Romandagi yetakchi obrazlardan biri Ummatalini kuzatar ekanmiz, adib ko‘nglidagi ko‘p g‘oyalarni, idealini uning timsolida bergenini ko‘ramiz. Asarda Ummatali boshidan o‘tgan voqealar juda qiziqarli, ishonarli holda tasvirlab berilgan. Ummatalining xotini Qimmatxon bevafolik qilib, buzuq yo‘llarga kirib ketadi, shu sababli ham Ummatali undan voz kechadi. Endi Ummatali uchun o‘z uyi, oilasi tamoman begona, shu qaltis damda u ayrim asarlarning qahramonlari kabi “oliyanoblik” qilmaydi, “adashgan xotin” gunohini kechib qo‘ya qolmaydi, yigitlik nafsoniyati, insoniylik g‘ururi bunga yo‘l qo‘ymaydi, u bu maskandan hazar qilib uni butunlay tark etib ketadi, u mehribon odamlar orasida o‘z shaxsiy baxtini topadi va

¹ Yoqubov H. Tipik sharoit va tipik xarakter // Sharq yulduzi, 1969. №3.

Nafisa bilan go‘zal bir oila quradi. Adib Ummatalining mehnatga munosabati, mehnat faoliyati ustida gap borsa shoirligi tutib ketadi, adib mehnat gashtini, nash-u namosini zo‘r ishtiyoy bilan poetiklashtiradi. Mehnat bobida yozuvchining qahramoni ham bamisol shoir. U mehnatni ijod deb biladi, uning mehnatga bo‘lgan mehri el-yurtga bo‘lgan mehri bilan uyg‘unlashib ketadi, u el-yurt dasturxonini mo‘l-ko‘l qilish, ona tuproq yuzini jannatga aylantirish ishtiyobi bilan yonadi, unutilib ketayotgan mevalar navini saqlab qolish, ko‘paytirish, mevachilik bobida xalqimizning ajoyib an’analarini tiklash uchun jon koyitadi. Shu o‘rinda adabiyotshunos olim S.Mirvaliyevning e’tirofini keltirish joiz: “...yozuvchi zamonamiz kishilariga xos ijobiy fazilatlarni madh etar va uni ardoqlar ekan, dastlab ularning tabiiy, chin inson ekanligini dalillash yo‘lidan boradi. Buning uchun esa adib, avvalo, ularni sharaflı mehnat quchog‘ida ko‘rsatadi”¹.

Yozuvchining yana bir o‘ziga xos jihatiga e’tibor qaratish lozim. U obrazlarni yaratganda, ularni yuzaki xarakteristikalash, ularga “yaxshi” degan yorliqni yopishtirish yo‘lidan bormaydi, balki ularning o‘ziga xos “falsafasi”, “g‘oyasi” borligini ochishga harakat qiladi. Bu faoliyat ko‘pincha ijtimoiy mehnat jarayonida ochib boriladi. Xo‘s, Ummatali izdan chiqib ketgan hayotini qanday izga soldi. Asarda, Ummatalining chilparchin bo‘lib buzilgan hayotini to‘g‘ri yo‘lga solishida sovxozi direktori Azimxo‘jayevning katta ta’siri borligi yorqin lavhalarda ochib berilgan. Ya’ni, Azimxo‘jayev obraziga xos bo‘lgan romantik jo‘shqinlik, ko‘tarinkilik, yangilikka bo‘lgan intilish asarda real aks ettiriladi. Romanda tasvirlanishicha, Azimxo‘jayev komil inson sifatida o‘z ustida tinimsiz mehnat qilayotgan mehnatsevar, insonparvar oqil, fidoyi inson. Bu obraz haqida, adibning o‘zi shunday deydi: “Azimxo‘jayev obrazi sal boshqacharoq ko‘rinishda berilgan. Bu obrazning aniq prototipi hozirgi kunda hayot. Qo‘shnimiz bo‘ladi. Asli nomi Saidxo‘ja A’zamxo‘jayevdir. Bir paytlar qoloq uchastkani olib, sharaflı mehnati tufayli oblast xo‘jaliklari orasida eng ilg‘or, serhosil kolxoz darajasiga ko‘targan. Qisqasi, ma’naviy olami keng, mushohadasi o‘tkir, faoliyati serqirra, insonparvar, tashabbuskor, mehnatkash xodimni tasvirlamoqchi bo‘lganimni, fazilat va qiyofasi sizlarga ayon”².

Yozuvchi romanda qahramonlar faoliyatini izchillik bilan ochgan, ularda sodir bo‘lgan quvonch daqiqalari, baxtli holatlarini, shuningdek psixologiyasidagi tushkunlik damlari, kulfatli onlarni ham birdek real yoritib bergen. Jumladan, Nafisa

¹ Mirvaliyev S. O‘zbek romanı. –T.: Fan, 1969. –B.291.

² Shuhrat. O‘zim haqimda ikki og‘iz so‘z / Tanlangan asarlar. Uch tomlik, Birinchi tom. –T.: G‘.G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1969. –B.4.

ham hayotda ko‘p jafolar chekkan ayol. U yetim o‘sigan, endigina hayotini izga qo‘yganda, nobop A’zamga duch kelib, uning qopqoniga tushib, hayoti barbod bo‘lgan mazluma. Romanda Nafisani adashish, yanglishish va aldanish xislatlari yozuvchi tomondan ishonarli tasvirlangan. A’zam uni boshiga ko‘p og‘ir kunlarni soladi, xo‘rlaydi, ayollik nafsoniyatini oyoq osti qiladi, chet elga bosh olib ketib, uni isnodga qoldiradi. Shundan so‘ng Nafisa hayot so‘qmoqlarida surinadi, lekin tushkunlikka tushmaydi, kelajakka umid, ishonch bilan qaraydi va Ummatali kabi mehribon odamlar orasida baxtini topadi, ular ko‘magida turmushini o‘nglab oladi. Yozuvchi romanda Ummatalining shaxsiy hayotida Nafisa bilan orasidagi insoniy latofatlarga to‘liq, samimiyl, beg‘araz muhabbatni o‘zgacha hayajon va mehr bilan tasvirlagan.

“Jannat qidirganlar” romanida chet ellardagi milliy uyg‘onish, mustamlakachilikka qarshi ozodlikka intilish mavzusi ham ancha keng va haqqoniyl aks etgan. Romandagi dramatizm faqat keskin ruhiy holatlar tarzida emas, qahramonlararo to‘qnashuvlar tarzida ham ifoda etilgan. “Jannat qidirganlar” romanida g‘oyaviy raqiblar ko‘pincha makr yo‘li bilan bir-birlarining payini qirqadilar, panada turib bir-birlariga tosh otadilar. A’zam bilan Qoplonbek, Qoplonbek bilan Hoji, Hoji bilan Klark orasidagi ziddiyatlar xuddi shu tarzda rivojlanadi. Shu bilan barobar romanda persanajlararo oshkora to‘qnashuvlar ham bor. Ummatali, Qimmatxon va bosh agronom, A’zam bilan Nafisa, Qurbonali bilan Qoplonbek, Qoplonbek bilan Abulbaraka, Abulbaraka bilan Hoji orasidagi ziddiyatlar shular jumlasidan. Romanda Abulbaraka bilan Hoji o‘rtasidagi dahanaki olishuvlar katta mahorat bilan bitilgan. Ota-bola o‘rtasidagi bu to‘qnashuv, ziddiyat chuqr ijtimoiy mohiyatga ega.

“Saidakbar hoji – murakkab shaxs. Muallif bu odamni osongina yomonga chiqarib qo‘ya qolmaydi, unga bo‘lar - bo‘lmas salbiy sifatlarni yopishtiravermaydi. Bu odam shaxsiyatini butun murakkabligi, qarama-qarshiliklari, kuchli va zaif tomonlari bilan ko‘rsatishga intiladi. Saidakbar hoji, bir tomondan, g‘oyat makkor, xudbin, toshmehr shaxs. U bir vaqtlar ko‘p jinoyatlar qilgan, buzuq yo‘llarga ham yurgan, hayoti tahlika ostida qolganida o‘z jonini, mol-mulkini asrab qolaman, deb qabihlikdan ham qaytmagan, o‘g‘li Abulbarakani ona mehridan benasib, uch qizaloqni esa tirik yetim qilgan, soddadil Qurbonalini bir umr oilasidan, suykli o‘g‘lidan, vatanidan judo qilgan. Ikkinci tomondan bu odam tabiatida talay ijobiy sifatlar ham bor. U qizi Tamanno bilan o‘g‘li Abulbarakani mehr qo‘yib o‘stiradi, o‘qitadi. Tamannoning ko‘ngli uchun uylanmay tanho o‘tadi, o‘zi bilan olib ketgan Qurbonalining ko‘nglini ovlash yo‘lini axtaradi-u ko‘p yillar xorijda yursa ham, ona

yurtga mehr, milliy g'urur, iftixor tuyg'usini saqlab qolgan. U g'oyat tadbirkor, bilimdon shaxs...”¹. Saidakbar hoji inqilob tufayli, hayoti tahlika ostida qolganda uch qizini va soddadil ayolini tashlab o‘g‘li Abulbaraka va xizmatkori Qurbonali bilan chet elga qochib ketgan shaxs obrazi. Abulbaraka obrazida murakkab davrdagi katta hayot haqiqatining yana bir muhim qirrasi o‘z ifodasini topganki, u Saidakbar hoji xonadoniga mansub bo‘lsa ham, ma’naviy jihatdan bu oilaga tamoman begona. Abulbaraka Hoji oilasidagi baxtsizliklarga sherik, uning qismati fojiali, biroq u fojiadan qutulish yo‘lini topib olganki, bu uni Saidakbar hojiga bildirgan e’tirozida yaqqol ko‘rinadi: *Lekin birinchi galda mustaqillik olish kerak. Men bir xalqning, u qanchalik katta va madaniyatli bo‘lmisin, ikkinchi bir xalqqa najot baxsh etishiga, uning baxtini ochishiga ishonmayman. Har xalq kattadir, kichikdir o‘zi alohida bo‘lishi, o‘z aravasini o‘zi tortishi kerak. Biri ikkinchisining yelkasiga minib olib: “Jannatga ketyapman” deyishi bekor* (359).

Ko‘rinib turibdiki, romandagi dramatizm faqat keskin ruhiy holatlar tarzida emas, qahramonlararo to‘qnashuvlar tarzida ham ifoda etilgan. Abulbaraka otasi bilan suhbatni davom ettirar ekan, “-Mana shu g‘irt yolg‘on. Parijlik korchalonlarning fikri. Vaholanki, ular nonini tuya qilib yetgan bu o‘lkada bir mahallar shunaqa madaniyatlar yaratilib, shunaqa usuli idora bo‘lganki, hozir havas qilsa arziydi. Hammasini tuproqqa qorishtirib bo‘ldilar. Endi o‘zlarinikini ro‘kach qilib, “shu yo‘ldan borsang ma’qul” deb hiqildog‘idan bo‘g‘ib turibdilar. Baribir bu (mustamlakachilik, izoh bizniki) uzoqqa bormaydi. O‘z xalqining milliy manfaatini ko‘zlaydigan, bu yo‘lda hatto, jonidan kechadigan kishilar doim bo‘lgan, hozir ham bor. Kundan kun ko‘payapti. Zulm qattiq, nafasi ichida. Samovarga o‘xshab, ichidan qaynab, bir toshishi bor... Xalqning intilishi buloq, juda kuchli buloq, ming ustiga tuproq tortsin, ko‘ziga kigiz tiqsin, baribir, bir kuni otilib chiqadi”², - deydi.

Abulbaraka ota oldidagi burchini hech qachon unutmeydi, u oqpadar emas, hatto ota makridan, otasining tuqqan onasi boshiga solgan savdolaridan ogoh bo‘lgandan keyin ham undan yuz o‘girib ketmaydi, ota ham o‘z navbatida o‘g‘liga mehribon, uning hayoti, taqdiri uchun qayg‘uradi. Abulbaraka qamoqqa tushganda u naqadar og‘ir iztirob chekadi, uni qutqarish uchun qanchalar yugurib-yeladi! Ammo ijtimoiy manfaatlar masalasiga kelganda ota bilan bola sira kelisha olmaydi, hayotda ular tanlagan yo‘llar boshqa-boshqa, bu yo‘llar ularni ayirib yuboradi, vaqt o‘tgan sari ular

¹ Normatov U. Ijod sehri. –T.: Sharq, 2007. –B.307.

² Shuhrat. Saylanma. 2 jildlik. 1 jild. Jannat qidirganlar. –T.: Adabiyot va san’at nashriyoti. –B.356-357 (Bundan keyingi iqtiboslar shu nashrdan olinadi va sahifasi qavs ichida ko‘rsatiladi)

bir-birlaridan tobora uzoqlashib boradilar. Bu uzoqlashuv ular orasidagi bahslarda judda yaqqol ko‘rinadi. Mana ana shunday bahslardan biri:

- *Xo ‘sh, ayt-chi, o ‘g‘lim, o ‘sha yurtingdagilardan nima kamliging bor.*
- *Dadajon, siz tushuning, gap faqat mening haqimda emas: yonimda jiring-jiring pul, ostimda zulukdek yangi mashina, deganim-degan, aytganim-aytgan.*
- *Tag‘in nima kerak senga? O‘zingni bil, o ‘zga bilan...*
- *Menga, o ‘zimga hech narsa kerak emas. Axir men semirishga boqilayotgan so ‘qim emasman-ku o ‘z qornimni bilsam. Mening yor-u do ‘stim, qo ‘ni-qo ‘shnim, qo ‘yingki, butun xalqim bor. Hoji o ‘g‘lining niyati qat’iy ekanini anglatdi. Bu uning yuragiga vahima soldi: yana qamaldi, qiyals...*
- *Shuni unutmangki, Abulbaraka, singan qo ‘Ining og ‘irligi bo ‘yningga tushadi. Mening bo ‘ynim endi sening dardingni ko ‘tarolmaydi.*

Abulbaraka otasining tashvishini darrov tushundi.

- *Siz xavotirlanmang. To ‘shagingizni qalin solib yotavering.*
- *Sen ham endi bola emassan...*
- *Kurash mardni yashartiradi, qo ‘rkoqni qaritadi-maqtanib qo ‘ydi jo ‘rttaga Abulbaraka. –Qarg‘aning yuz yillik umridan burgutning o ‘n yili yaxshi. Kishining kuchi parovozning bug‘i bo ‘lsa, uni qichqirishga emas, yurgizishga berish kerak.*
- *O‘g‘lim, qiyshiq arava yo ‘lni, yomon odam elni buzadi, degandek, noming qora chiqib qolmasa edi.*
- *Yo ‘q chiqmaydi. Yo ‘l bo ‘lsa, allaqachon buzilgan. Endi uni tuzatish kerak.*
- *Hoji o ‘ylab turib, o ‘g‘lini insofga chaqirmoqchi bo ‘ldi:*
- *Uyimda yo ‘q go ‘jalik, ko ‘nglim istar xo ‘jalik, deganlarning gapini qo ‘y, o ‘g‘lim. Senga uyat! Tilingga erk berma. Til yaxshi bo ‘lsa, toshdan qattiq tishlardan devor qilib, ichiga qamab qo ‘yarmidi!*
- *To ‘g‘ri, til suyaksiz-u, lekin suyakni sindiradi... Men indamasam, u indamasa, siz indamasangiz, bu temir zanjir bo ‘yinni qiyib yuboradi-ku, dada,-dedi Abulbaraka shoshmasdan dona-dona qilib. –Bilasizmi, dada, hayot-velosiped. Oldinga yurgizish uchun uning g‘ildiragini aylantirib turish kerak... Otaga hammasi ayon bo ‘ldi.*

O‘g‘lining o ‘zidan begona bo ‘lib qolganini bilgan Saidakbar hoji, yuragi egasi ko ‘chib ketgan hovliday huvillab: “Oh bolam, yo ‘ling qaltis, juda qaltis!!” deganicha, tasbeh o ‘girish ham yodidan ko ‘tarilib, mahzun chiqib ketdi. O‘g‘il esa “Eng muqaddas narsa milliy ozodlik uchun to‘kilgan qondir”, dedi o ‘zicha uning orqasidan(358). Bu gaplardan keyin Hojiga hamma narsa ayon bo ‘ladi-o ‘g‘lining yo ‘li boshqa ekanini, u o ‘zidan g‘oyat uzoqlashib ketganini, endi uni bu yo ‘ldan

qaytarib bo‘lmasligini anglab yetadi. Haqiqat Abulbaraka tomonida. Hoji bu haqiqat oldida o‘zini ojiz his etadi.

Romanda yana bir konflikt bor. A’zam ham otasi Teshaboyga raqib. Biroq bu raqiblik zaminida xudbinlik yotadi. A’zam o‘zining shaxsiy manfaati yo‘lida ota oldidagi farzandlik burchini unutgan oqpadar. Abulbaraka bilan otasi orasidagi raqiblik butunlay boshqacha xarakterda. Bu ziddiyat birmuncha murakkab, uning zamini shaxsiy adovatlarga emas, ijtimoiy manfaatlarga borib taqaladi.

“Jannat qidirganlar” romani adibning hayot ikir-chikirlariga yozuvchi ko‘zi bilan qarash, ikir-chikirlaridan katta ma’no axtarish, mayda tafsilotlar va detallarni asar g‘oyasi ifodasiga yo‘naltirish, ulardan badiiy komponentlar, syujet va kompozitsiya elementi sifatida foydalanish, ularni xarakterlar mohiyatini ochishga, xarakterlar psixologizmini tahlil etishga xizmat ettirish mahorati oshganligini ko‘rsatadi. Dalillarga murojaat etaylik. Hoji qizi Tamannoning “xazon bo‘lgan muhabbat” evaziga ko‘nglini ko‘tarish uchun “yetti qaroqchi” gavhar ko‘zli nodir uzuk in’om etadi. Keyinroq borib bu detal yozuvchiga ish beradi. Hoji bilan Qoplonbek xarakterining ayrim tomonlarini ochishda avtorga juda-juda qo‘l keladi. Tamanno zahar ichib hayoti tahlika ostida qolganda uning yodiga qimmatbaho uzuk tushadi, qo‘lidan birontasi olib qo‘ymasa, degan andishaga borib, qizidan uzoqlashgisi kelmaydi. Yoki Qoplonbekning misi chiqib Hoji xonadonidan qochar ekan, Tamannoning qimmatbaho bezaklarini, jumladan, o‘sha noyob uzukni o‘g‘irlab ketadi. Bu yerda uzuk detali syujet elementi, qahramonlar xarakteriga kalit bo‘lishdan tashqari zo‘r ramziy ma’noga ham ega. Tamannodagi muqaddas tuyg‘u uzuk timsolida boylikka, buyumga aylanadi, aniqrog‘i, Hoji muqaddas tuyg‘uni buyumga almashtirgan. Tamanno atrofida girgitton bo‘lgan kimsalarni uning qalbi qiziqtirmaydi. Tamanno ularning ko‘ziga faqat buyum, mol-u davlat bo‘lib ko‘rinadi, xolos, bu buyum bemalol qo‘ldan qo‘lga o‘tadi, oxiri uni mutahham o‘g‘irlab ketadi.

Mana, yana bir xarakterli detal. Asar boshrog‘ida shunday epizod keltiriladi. *Hoji qizi Tamannoning kurortdan qaytishi sharafiga qo‘y so‘yib ziyofatga tayyorgarlik ko‘rayotir. Qurbanoli qo‘yni bo‘g‘izlar ekan, uning yoniga qari it qoplon yaqinlashadi. So‘ng shunday hodisa ro‘y beradi: “Qurban uni ko‘rib:*

– *Sabr qil, jonivor, senikini o‘zim ayirib beraman, bunda sening ham rizqing bor,-dedi va uni shirin so‘z bilan nariroq haydagan edi, Hoji kesak otib undan ham nariga quvib yubordi.*

– *Haydamang, Hoji, vatanimizni ko‘rgan it!-dedi Qurbanoli.*

– *Vatanimizni ko‘rgan bo‘lsa, bir tovoqdan osh berib, qo‘ynimizda olib yotamizmi, odamdan nariroq tursin-da!*

– *Egasining siz bilan bir tovoqdan ovqat yekish da'vosi yo'g'u, itining haddi sig'armidi. Hoji, qiziq gaplarni gapirasiz-a!-vatangadolik jonidan o'tib kimdan alamini olishni bilmay yurgan Qurbonali uzib oldi* (76).

Shuhrat “Jannat qidirganlar” romanidagi Qurbonali obrazi tasviri vositasida Vatan tushunchasini, yurtga muhabbat tuyg'usini to'g'ri talqin etgan. Bir so‘z bilan aytganda, vatanga muhabbat hissi, unga intilish, uning tuprog‘ini bir o‘pib dunyodan armonsiz o‘tish hissi begunoh vatangado Qurbonali obrazida o‘z aksini topgan. Yozuvchi bu obrazni yaratishda xarakterni chuqur psixologik tasvir qilish yo‘lidan borgan holda ish tutadi.

Asarda, it bilan bog‘liq gap-so‘zlar yana davom etadi. Yozuvchi itning bu yerlarga kelib qolish tarixini so‘zlaydi, uning hozirgi holatini chizadi, uni Qurbonali holati bilan qiyoq qiladi. Bu qiyoqda Qurbonali ruhiyati, uning fojiaviy qismati butun keskinligi bilan ko‘rinadi:

Ana o‘sha...it bugun Qurbonalining o‘zidek qarigan. Itning hech narsa bilan ortiqcha ishi yo‘q, hatto qo‘ngan pashshalarni qo‘rishga ham hafsalasi kelmaydi. Qurbonaliga o‘xshab ulkan qo‘raning bir chekkasida ortiqcha buyumdek yotadi. Unga Qurbonaligina gap qotadi, tilsiz do‘stining bosh qimirlatishi, ko‘zini ochib-yumib, dumini likillatishidan o‘zicha ma’no topadi. Hatto ba’zan o‘shanda Hoji haydaganida indamay qo‘ya qolmasdan bu begunoh maxluqning ham boshiga musofirlikni solganidan o‘ksib qo‘yadi, harna bir vatangado kam bo‘larmidi deb o‘zini koyiydi. Ba’zan uning borligidan xursand bo‘ladi. Qoplon bo‘limganda kim bilan dardlashar edi. ...*Shu qoplondan boshqa doim birga bo‘ladigan, dilkash-u, vatandoshi yo‘q. Nima desa eshitadi, nima bersa minnatdor bo‘lib yeysi!* (77).

Romanda, Qoplonbek Hoji xonadoniga kuyov bo‘lib kelgandan keyin, bu it yozuvchiga yana ish beradi. Qoplonbekning bu itni ko‘rarga ko‘zi yo‘q, axir uning ismi ham qoplon, uning nomi tilga olinsa cho‘chib tushadi, qoplon so‘zi uning nafsoniyatiga tegadi. Buni oldindan sezgan Hoji Qurbonaliga itning nomini o‘zgartirishni buyuradi. Qurbonali itga boshqa nom beradi, lekin itni bunga o‘rgatib bo‘lmaydi. Bundan toqati-toq bo‘lgan Qoplonbek Qurbonalining hay-haylashiga qaramay uni otib tashlaydi. Sho‘rlik xizmatkor boy xonadonidagi oxirgi ilinjidan, birdan bir dilkashidan ham benasib bo‘ladi, “bir qo‘raga ikki qoplon” ortiqchalik qiladi, odam qiyofasidagi yirtqich begunoh maxluqning boshiga yetadi. Bu hodisa Hoji xonadonini larzaga soladi, oila fojiasini tezlatishga yangi turtki beradi. Shu hodisadan keyin Qurbonali bu xonadondan butunlay yuz o‘giradi va shu holicha olamdan o‘tadi.

Shu o'rinda, roman to'g'risida bildirilgan ba'zi munosabatlarga e'tiborni qaratsak: "Qahramonlar tasvirida ba'zan zo'rma-zo'raki tasvirlar, bayonchilik hollari ham sezilib turadi"¹. Bizningcha, bu ayblov asossiz ekanligini, yuqorida asardan keltirilgan iqtiboslardan ham bilish mumkin. Shuningdek, avval eslatganimizdek, romanning tili jozibador, obrazli ifodalarga boy. Yozuvchining deyarli har bir jumlesi zaminida yo matal, yo maqol, yo qochiriq, yo biror tashbeh yotadi. Umuman olganda, "Jannat qidirganlar" romanidagi har bir obraz yozuvchi tomonidan mahorat bilan yaratilgan, ular misolida adib, insonlarni adashmaslikka, to'g'ri yurib, mehnat qilishga chorlaydi. Darhaqiqat, ular timsolida o'z vatanparvarlik burchlarini sharaf bilan ado etayotgan, halol mehnat qilib vatanimiz ravnaqiga munosib hissa qo'shayotgan kishilarimizning yuksak ma'naviy qiyofalari yaqqol ochib berilgan.

Qoplombek – o'ta tuban shaxs. U boy oiladan, unda Vatan tuyg'usidan asar yo'q. U Vatan urushi vaqtida dushman tomoniga o'tib, sovetlarga qarshi jang qilgan, urushda mag'lubiyatga uchragach, Amerikaliklar tomoniga o'tib ketib, ularning xizmatini qilib yuruvchi pastkash shaxs. Qoplombek Hoji oilasiga yaqinlashib, Tamannoga erishish uchun A'zamga suiqasd uyuhshtirib, uni yo'lidan olib tashlaydi, Tamannoga uylanadi. U Hoji oilasiga kuyov bo'lib emas, zaharli ilon bo'lib kiradi. Abulbaraka ustidan ig'vo tarqatib qamatadi. Qurbanalini xo'rlab, ajalini tezlatadi. Hojiga suiqasd qilmoqchi bo'ladi. Shu nopok odam tufayli Tamanno og'ir kasalga mubtalo bo'ladi. Qisqasi, Qoplombek tufayli Hoji oilasi xazon bo'ladi.

A'zam ham xoin, vatanfurush. Biroq uning qismati Qoplombeknikidan tamoman farq qiladi. U mehnatkash oiladan. Otasi Teshaboy alomat dehqon. O'zi yemay yedirib, o'zi kiymay kiydirib, onadan yosh qolgan o'g'ilni ne-ne orzu umidlar bilan tarbiyalab voyaga yetkazgan, o'qitib injener qilgan. Lekin A'zam noshukur o'qib turib uqmagan, amalga, boylikka hirs qo'ygan yaramas kimsa, bir so'z bilan aytganda, u o'z nafsining quli, shu sababli u o'z hayotini xarob qiladi. U hatto badavlat qizga uylanib, boyib ketishni orzu qilgan, kaltabin odam. Lekin u qanchalik boylikka, mansabga intilsa, undan bular shunchalik qochadi. Nafisaga uylanishi uning uchun go'yo baxtizlikning boshlanishi bo'lib ko'rindi. Shu sababli u chet elga ketishni najot yo'l deb o'ylab, hayotini izdan chiqaradi. A'zam jannat qidirib yorug'dunyoning naq do'zaxi ustidan chiqib qoladi. Ko'p ko'rgiliklar, og'ir savdolardan keyin mayib-xasta holda xarob bir kulba ichiga tushib tinchiydi. Zotan nonko'r, xoin odamning jazosi shu.

Shuhrat "Jannat qidirganlar" romanida g'oyaviy-badiiy niyatini xilma-xil realistik vositalarda gavdalantirishga ancha erishgan. Romanning ma'rifiy, tarbiyaviy,

¹ Ziyovuddinov N. Qishloqdag'i zamondoshlarimiz // Sharq yulduzi, 1969. №9.

axloqiy va ma'lum darajada badiiy-estetik qimmati shak-shubhasizdir hamda o'z vaqtida yozilgan, hozirda ham badiiy qimmatini yo'qotmagan adabiyotning go'zal namunasidir. Shuni ham qayd etish lozimki, "Jannat qidirganlar" romanida erksevar xalqlarning kuch-qudrati haqqoni aks ettirilgan¹.

80-yillarning boshlarida Shuhratning tarixiy "Mashrab" romani yaratildi, lekin adibning o'tmishda tortgan azoblari, urush asoratlari uni xastalanib qolishiga va romanni yakunlanmay qolishiga sabab bo'ldi. Tarixiy romanni o'ziga xos janriy-poetik tomonlari bo'lib, unda "Tarixiy roman qahramoni sifatida bahodir, irodali, faol insonlarni tanlash"², "Tasvirlanayotgan voqeа-qodisalar va shaxslarning teran badiiy talqini asosida tarix haqiqatining badiiy haqiqatga o'sib chiqishi"³, "Tarixiy romanda moziyning tugallangan, qaytarilmaydigan va tarix tomonidan muhrlangan davri tasvirlanadi"⁴. Mana shu tamoyillarni o'zida to'liq mujassamlantira olgan asargina tarixiy roman bo'lishi mumkin. Shuhrat shoир haqida roman yaratguncha bo'lgan davrda Mashrab haqida ko'pgina afsona-yu rivoyatlar yaratilgan. "Mashrab hayoti va ijodi", "Qissai Mashrab", "Devona Mashrab", "Shoh Mashrab", "G'azali Eshoni shoh Mashrab", "Eshon Mashrab", "Eshon shoh Mashrab", "Eshoni shoh Mashrabi devonai Namangoniy", "Muxammasi shoh Mashrab" kabi turli nomlar ostida inqilobga qadar kitobot qilingan bo'lib, mashrabxonlarning eng sevimli asari sifatida katta shuhrat qozongan. Rivoyat va afsonalar xalqimizning Mashrab shaxsiyati va ijodiga beqiyos mehrining timsolidir. Binobarin, "Qissai Mashrab" shoир to'g'risidagi xalq rivoyatlari va afsonalarining Pirmat Setoriy tomonidan jamlanib, badiiy jihatdan qayta ishlangan va kitobot qilingan namunalaridir⁵. Qissa haqida "Qissai Mashrab"dagi rivoyatlarda "shoir shaxsi buzib ko'rsatilgan" yoki "Mashrab haqidagi aqlga sig'maydigan, ishonish qiyin bo'lgan" ma'lumotlar keltirilgan deb yozishadi. Bizningcha, "Qissai Mashrab" tipidagi xalq kitoblariga kiritilgan asarlar o'zbek folklorining tarixiy rivoyat va tarixiy afsona janrlariga mansub hikoyalari hisoblanadi⁶.

Bu qissalar Mashrab shaxsining ko'p qirralarini ochib beradigan, xalq mehrini ifodalagan asardir. Bu qissalar xalq dostonlariga o'xshaydi, voqealar Mashrabning

¹ Soatova N. "Jannat qidirganlar" romani xususinda so'z // "O'zbek filologiyasining dolzarb masalalari va uni o'qitish metodikasi muammolari" mavzusidagi Xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. –T.: VNESHINVESTPROM, 2022. –B.490-494.

² Петров С. Русский исторический роман XIX века. – М.: Современник, 1980. – С.38.

³ Kattabekov A. Xudojestvennoye voplosheniye lichnosti i istoricheskoy epoxi v sovremennoy proze: Dis. d-ra filol. nauk. – Т., 1985. – С. 383; Mirvaliyev S. O'zbek romani. – Toshkent.: Fan, 1969. –B.215-217.

⁴ Mirvaliyev S. O'zbek romani. – Т.: Fan, 1969.– B. 215-217.

⁵ Hoshimxonov M. Mashrabi mo'tabar o'zum. Monografiya. Uchinchchi jild. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008. –B.86.

⁶ Sayfulloh S, Jumanazarov A. Xalq sevgan qissa / Qissayi Mashrab. –T.: Navro'z, 2014. –B.11.

tug‘ilishi va umrining oxirida Balx podshosi Mahmudxon tomonidan dorga osib o‘ldirilishi bilan yakunlanadi. Asarda Mashrab “mo‘jizakor avliyo, bilimdon, hozirjavob shoir, taqvodor, to‘g‘riso‘z, oqil, halol, pokiza inson, dunyo moli va huzur-halovatidan voz kechgan darvesh” sifatida tasvirlangan.

“Qissadagi Mashrab bilan tarixiy Mashrabning o‘rtasida ancha farq bor. Shu sababdan asardagi voqealarni ikki asrdan buyon tarixiy Mashrab hayotiga to‘liq tadbiq etishning iloji topilmagan”¹. Qolaversa, Kommunistik mafkura tazyiqi ostida Mashrab xalqqa inqilobchi, revolyutsioner, isyonkor shoir deb tanishtirildi, uning she‘r va g‘azallaridagi asl ma’no-mohiyat anglashilmadi, Mashrab devona darajasidagi shoir deb e’tirof etildi, oqibatda Mashrab ilgari surgan ezgu g‘oyalar o‘rnini g‘aliz qarashlar qamrab oldi, shu bois bo‘lsa kerak, o‘rtadagi anglashmovchiliklarni aniqlashtirish uchun Shuhrat “Mashrab” tarixiy romanini yozishni maqsad qilgan.

Mamlakatimizda mustaqillik qaror topgandan keyin Mashrab va uning ijodiga munosabat tubdan o‘zgardi. U zoti sharifning butun faoliyatini aslida qanday bo‘lsa, uni to‘laligi bilan avlodlarga yetkazmoq, olmosdek serqirra she’riyatining mazmun va mohiyatini haqqoniyligini qilib berishga bo‘lgan intilish yanada faol tus oladi. Adib Shuhratning “Mashrab” romani ham ana shunday pok niyat bilan yozilgan asardir.

Adabiyot, umuman, ma’naviyat tariximizda Mashrabdek betakror iste’dod sohiblariga qiziqish, ular haqida fikrlar bildirish, badiiy asarlar bitib, uning yorqin siyimosini gavdalantirib, keng xalq ommasiga yetkazishga bo‘lgan harakat olim-u ijodkorlarning hamma davrda ham diqqat markazida turgan. XX asr o‘zbek adabiyoti va adabiyotshunosligi ham bundan mustasno emas². Mashrabning hayot yo‘li Oybekning “Mashrab” she’ri, Omon Matjonning “Bu Mashrab, Mashrab” dostoni, Ibrohim G‘afurovning “Ozod nafas” hikoyasi, Muhammad Alining “Mashrab” dostoni, Hamid G‘ulomning “Mashrab” romani, Mirkarim Osimning “Singan setor” qissasi, X.Begmatovning “Devona Mashrab”³ romanida turli xil diapozonlarda yoritilgan.

“Namangan qadimdan ko‘p-ko‘p iste’dod egalarining parvoziga qanot bergen ilohiy bir makondir. Bu qo‘hna yurtda tug‘ilib ijod qilgan Maxdumi A’zam Kosoniy, Boborahim Mashrab, Fazliy, Nodim Namangoniy, Is’hoqxon Ibrat, Muhammadsharif

¹ Qissayi Shoh Mashrab. –T.: Navro‘z, 2014. –B.5.

² Musurmonov E. Rahimbobo Mashrab va uning badiiy adabiyotdagi talqini: Filol.f.n. diss. – Samarcand, 1995; Hamroyeva D. Boborahim Mashrab g‘azallari poetikasi: Filol.f.n. diss.–2004; Hoshimxon M. Boborahim Mashrab hayoti va ijodining o‘rganilishi: tadqiq va talqin: Filol.f. d-ri diss. –J., 2021.

³ G‘afurov I. Ozod nafas. / Dil erkinligi. –T.: Ma’naviyat, 1998; Muhammad A. Mashrab. / Dostonlar. –T.: Adabiyot va san’at, 1974; G‘ulom H. Mashrab. // Sharq yulduzi, 1981. № 1, №2, №3; Osim M. Singan setor. / Ajdodlar fojeasi.–T.: Adabiyot va san’at, 1983; Begmatov X. Devona Mashrab. –T.: Sharq, 2005.

So‘fizoda singari shoir va ma’rifatparvarlarning nomlarini xalqimiz hurmat bilan tilga oladi”¹- ekan, shoir Mashrabning tarixiy siymosini elga tanitish ijodkorlarimiz oldida turgan yuksak maqsad.

Shuhratning yetti ichki bo‘limdan iborat “Mashrab” romanida shoirning bolaligidan ruhiyatida kechayotgan nurli tuyg‘ular, g‘amgin kechinmalar-u, yigitlik hayoti – tolibi ilmlikka berilgan davri qamrab olingan. Bu roman haqida Ma’ruf Jalil xotirlashicha, “Mashrab haqida roman yozayotganlarini aytardilar. Mashrabning avliyo odamligi, fe'l-atvori, manbalarda hikoya qilingan voqealar, majozlarni to‘g‘ri tushinish, to‘g‘ri talqin qilish, Mashrab haqida asar yozish uchun odam halol bo‘lishi lozim, deb ta’kidlardilar”². Mashrab tarixiy shaxs, o‘ziga xos iqtidor egasi bo‘lgani uchun, u haqida yashab turgan vaqtlaridayoq turli-tuman afsona va rivoyatlar tarqab ketgan. Mashrab shaxsi, siyoshi haqida turlicha qarashlar mavjud bo‘lgan. Mashrab ijodi va faoliyatiga baho berayotganda, shoir yashagan ijtimoiy murakkab davr, XYIII asr talato‘plik zamon siyosiy qarashlarini hisobga olish kerak. Mashrabning ilkida bo‘lgan iymon e’tiqod, insonparvarlik, halollik, ilm va ma’rifatni qadrlash, haqiqat yo‘lini tushunib yetish o‘sha davrda hammaga ham emas edi.

Shuhratning “Mashrab” romani ilm yo‘liga tushgan, o‘qish o‘rganishni hayoti mazmuni deb bilgan yosh Boborahimning hayotida keskin o‘zgarish bo‘lishiga sabab bo‘lgan nogahoni uchrashuvdan boshlanadi. Bu romanda qizlarga tut qoqib berayotgan shod qiz Arzigulni bexosdan uchratib, unga mehri tushib qolgan Mashrabning “..ko‘ziga ko‘zi to‘qnashib, butun a’zoyi badani lovillab yonib ketdi. Uning qarshisida o‘n gulidan endigina bir g‘unchasi lab ko‘rsata boshlagan nav-nihol qiz turardi! Qiz emas, pari deysiz: qosh-ko‘zi kelishgan, g‘uncha dahan, og‘zidan shakar to‘kiladi”³, -deya o‘y surgan Mashrab tasviridan roman boshlanadi. Romandan keltirilgan parchadan ko‘rinib turibdiki, adib romanni o‘ta zavq- shavq bilan tasvirlagan va aytish mumkinki, bu asarning so‘nggicha saqlanib qolgan.

Yuqorida biz Mashrab haqida turli janrlarda yaratilgan asarlarni keltirib o‘tdik, xo‘sh ularda tasvirlangan Mashrab obrazidan Shuhrat romanidagi Mashrab obrazining qanday farqli jihatlari bor, shunga munosabat bildirishga harakat qilamiz. “Mashrab” tarixiy romanidagi Mashrab obrazi bilan I.G‘afurovning “Ozod nafas” hikoyasi, H.G‘ulomning “Mashrab” romanida tasvirlangan Mashrab obrazi qiyoslanganda, ayrim farqli jihatlar ko‘rinadi. “Ozod nafas”da Mashrabning adabiyotga bo‘lgan

¹ Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O‘zbekiston, 2017.–B.73.

² Jalil M. Saboq / Shuhrat. Xotiralar. –T.: Sharq, 1998. –B.202-204.

³ Shuhrat. Mashrab. –T.: Sharq, 1998. –B.14. (Bundan keyingi asardan olingan iqtiboslar shu nashrdan olinadi va sahifasi qavs ichida ko‘rsatiladi).

qiziqishlari hikoya qilinsa, Shuhrat Mashrabning kitobga bo‘lgan kuchli muhabbatini romanning bir necha o‘rinlarida turli xil tarzda bergen.

“Ozod nafas” hikoyasida Mashrabning adabiyotga bo‘lgan qiziqishlari muallif tilidan quyidagicha tasvirlanadi.: *Boborahim bir o‘qishga tushsa, to‘xtamasdan soatlab o‘qirdi. Hazrat Navoiydan boshlab, Lutfiyga, undan Hazrat Atoyi va Sakkokiya, ulardan Oq Saroy va Ko‘k saroy shoirlariga, ulardan Rumiy, Nasimi, Jomiy, Dehlaviyga o‘tardi. Sa’diy va Hofiz devonlarini “Shohnoma”, Navoiy “Xamsa”sini yoddan bilardi va hech tutilmay aytardi. U o‘qiganda hamma tang qotib qolardi. Ovozida allaqanday kishi ruhini butunlay rom qiladigan shira paydo bo‘lardi*¹.

Shuhrat romanida esa Mashrabning kitobga bo‘lgan kuchli muhabbatni romanning bir necha o‘rinlarida turli xil tasvirlarda berilgan, bu ham adibning o‘ziga xos mahoratidan darak beradi. “Bolalik” faslida: *Mashrab maktabdan keliboq jildni ayvonning pesh qozig‘iga ilib, domlasidan so‘rab olgan Xo‘ja Ahror Yassaviyning “Hikmat”ini zo‘r ishtiyoq bilan o‘qishga kirishgan edi. She’rlarining ravonligi, o‘ynoqiligini ko‘ring! Fikrlarning ravshan va tiniqligichi? Hammasi uni maftun qilib qo‘ygan edi*². Adib yosh Mashrabning kitoblarni o‘qishini shunchaki sanab o‘tmaydi, balki uni kishilar bilan muloqotida jozibali qilib tasvirlab berishga harakat qiladi. Bu holatni tinimsiz kitob mutolaa qilayotgan o‘g‘lini chalg‘itish uchun varrak yasab berayotgan Valiboboning suhbatida ham ko‘rish mumkin: –*Dakang bo‘lsinmi? Sen yaxshi dum topsang... dumning ham osmonda likillab turishi chiroyli bo‘ladi.*

- *Menga baribir, uchsa bo‘ldi, -dedi Mashrab*
- *Nima, varrakka hushing yo‘qmi? -uning beparvoligidan ajablandi u.*
- *Yo‘g‘-a, nega? Yaxshi ko‘raman, -dedi Mashrab va o‘zining loqaydligini dadasi payqaganidan xijolat tortib qizarib ketdi. Rostini ayta qoldi: – Kitobning eng qiziq yeriga kelgan edim!... Dada-chi, dada, bilasizmi, -dedi u nihoyat hayajonini yashiraolmay, –Zulayho bir uyda o‘tirib ko‘chada o‘tgan otliqlar orasidan Yusufning o‘tganini biladi-ya!...*
- *Oti yo‘rg‘adir-da.*
- *Hamma gap shunda-da! Oti boshqalarnikidan farq qilmaydi. Qayoqdan bilasan, deyishsa, Zulayho hammaning oti yerga oyoq qo‘yib yursa, Yusufniki mening ko‘ksimdan bosib o‘tadi, sadosi yuragimdan keladi, deb javob qiladi. Zulayho Yusufning ma’shuqasi-da!* (27).

¹ G‘afurov I. Ozod nafas /Dil erkinligi. –T.: Ma’naviyat, 1998. –B.47.

² Shuhrat. Mashrab. –T.: Sharq, 1998. –B.32.

“Shaydo ko‘ngil” faslida esa adib, yuragiga cho‘g‘ tushgan, muhabbatি Arzgulga tushgan Mashrabning ruhiy holatini o‘qigan asarlari bilan muqoyasalaydi. Arzgulni izlab, uni ko‘rishga mushtoq bo‘lib, ko‘chama-ko‘cha sarson bo‘lib yurgan Mashrab xayollarida, adabiy qahramon monologida o‘ziga bergan savollari javobida bo‘lajak shoirning o‘qigan kitoblari tilga olinadi: *Arzgulga aytadigan so‘zi bormi?....U o‘qigan “Yusuf va Zulayho”, “Layli va Majnun”, “Farhod va Shirin” kitoblarida ham bu haqda hech narsa yo‘q. Lekin hammasi bir-biriga intiladi. Visol hajrida yonadi, ko‘rganda esa goh so‘z topadi, goh yo‘qotib qo‘yib, bir-biriga termulishib qoladi. G‘azallarda-chi? Intiladi, kuyadi, yonadi, faryod uradi* (33). Mashrabning ta’rifidan yuqoridagi dostonlar va obrazlarga munosabati ham ko‘rsatilgan.

Romanning “Visol onlari” bo‘limida esa Arzgul bilan suhbatida Mashrab Zahiriddin Muhammad Bobur ijodini ham sevib o‘qigani, u haqida yetarlicha ma’lumotga ega bo‘lishi bilan birga, uning she’riyatiga muhabbatи yuksakligini ko‘rish mumkin. Arzgulga Boburning haroratli she’rlari haqida shunday deydi: – *Mirzo Boburning shohligidan shoirligi ulug‘, demoqchi edim, -dedi Mashrab, –mana shohligi o‘tdi-ketdi, shoirligi hamon el-yurt tilida doston.*

–*Men bilmayman, g‘azallari ko‘pmi”....*

–*Boburning juda ajoyib g‘azallari ko‘p. Tilining soddaligini, o‘ynoqligini aytmaysizmi? Toychoqday o‘ynoqlab turadi, chashmaning suvidek tiniq. O‘tirganni turgizib, turganni yurgizib yuboradi* (74). Bu dialogdan Mashrabning g‘azal tahlilida ham durustgina ilmga ega ekanligi ochiqlanadi.

“Taqdir yozug‘i” bo‘limida husnixati bisyor chiroyli bo‘lgan suyukli, ishonchini qozongan Mashrabga Bozor Oxund yigitligida otasi rahmatlikka iltimos qilib Bog‘doddan bir mullaga ko‘chirtirib olib kelgan kitobini sovg‘a qilishda Mashrabning naqadar ko‘p kitob o‘qigani va uni qadriga yetishi ustozni nutqidan ayonlashadi. Kitobni olib iymanib qolgan Mashrab: – *Juda tabarruk ekanku, taqsir, qandoq bo‘ldi?..*

–*Ko‘nglingiz xotirjam bo‘lsin. Men mingdan-ming roziman. Sizdek shoirning mulkida hazrat Navoiyning kitoblari bo‘lmasligi nomaqbul, bo‘tam. Kitob endi sohibini topyapti* (90).

Tahlillardan ko‘rinib turibdiki, yozuvchi bu o‘rinlarda yosh Mashrabning kitoblarni sevib o‘qishini shunchalik sanab o‘tmaydi, balki kishilar bilan muloqotida jozibali qilib tasvirlashda o‘rinli detal sifatida keltiradi. Shuningdek, Mashrab o‘z xayollar, monologi va o‘z-o‘ziga bergan savollari orqali ham bo‘lajak shoirning o‘qigan kitoblari birma-bir tilga olinadi. Bu bilan muallif o‘z qahramonini ko‘plab

xalq dostonlari va ularning obrazlariga munosabati ham ko'rsata olgan. Shuningdek, Shuhrat romanda tarixiy shaxs, ilm va iqtidor egasi, avliyosifat, o'z davri she'riyatida shoh bo'lgan Mashrabning yuksalishiga sabab bo'lgan omillarni ham ketma-ket yoritib berishni o'ziga maqsad qilgan.

Hamid G'ulomning "Mashrab" romani Mashrab va uning sevgilisi To'tixonning ilk muhabbat bilan boshlangan roman, uning o'limi bilan intihosiga yetadi. Mashrab onasi Zubaydabegim, otasi Mulla vali haqida ham romanda ishonchli ma'lumot beriladi. Mashrabning doimiy hamrohi Pirmast Setoriy, Obid Vosvos shoir qayerga borsa unga hamrohlik qiladilar. Bu asarda ham Mulla Bozor Oxunddan olingan ilm kamlik qilgani va u Qashqarga Ofoqxoja xonadoniga kelishi, ulug' pir Mashrabni shunchaki qabul qilishi tasvir etiladi. Hatto Mashrabning Mulla Bozor Oxund tomonidan Ofoqxoja xonadoniga kelishi romanda "Badarg'a" deb nomlanadi. Tarix va tarixiy haqiqatga noxolis yondoshilganlik shunda ko'rindiki, biror joyda Ofoqxoja haqida iliq fikr aytilmaydi, aksincha u romanda salbiy ruhda tasvirlanadi. Romanda shu darajada Mashrabning ko'plab g'azallari keltirilganki, hatto ba'zilari asarga yopishmagan ham¹. Adabiyotshunos olimning fikriga qo'shilgan holda aytish lozimki, Shuhrat "Mashrab" romanida tarixiy voqelik, realligini to'liq saqlab qolgan. Tarixiy shaxslarga, xususan Mashrabning ustoz Mulla Bozor Oxundga yozuvchi anchayin yaxshi munosabatda bo'lganligini ko'rish mumkin. Dastlab Mashrabning otasi tilidan unga shunday ta'rif beriladi: *Mulla Bozor Oxund kichkina mullami?! Gapirganda og'ziga el qarab turadi. O'zi Qur'on dan masalalar aytadi. Shaharning manman degan kazo-kazolari bolalarini unga ta'limga berishadi. Sal tezligi, cho'rtkesarligi bor, xolos. Insofsizlaru, nodonlarni, bid'atni ko'rsa quruq xazondek gurillab yonib ketadi. Masalan, tunov kungi yonishini oling. Mahalla imomini to'g'ri koyib berdi. Marhumning o'zi bechorahol odam bo'lsa-yu, uning qirqiga bittayu bitta namatini sotib bo'lsa-da xudoyisini qilsin mish, savobi ulug' bo'larmish! O'zi bo'yada o'tiradimi! Oxund to'g'ri aytadi: malol keladigan savob xato. Marhum sening yog'liq paloving, bezatilgan dasturxoningga emas, ikki kalim Qur'oningga muhtoj, sendan duo talab. Marhumning xotirasi katta dasturxon yozib eslanmaydi. Bu gunoh, takabburlikdan boshqa narsa emas. Bunga yo'l qo'ymoq-ulamoning xatosi* (28).

Asar davomida Mulla Bozor Oxund obrazi yanada yorqinroq namoyon bo'lib boradi. Mashrab bilan birga tahsil olayotgan Ergash noma'qul ish qilganda, bir bolani urib so'kkani uchun tanbeh berayotgan payti ayniqsa ta'sirchan chiqqan va adib mahorat qirralari ochilgan: ...bog'bordan bog', shoirdan ash'or, me'mordan bino, muarrixdan kitob, ota zot qoladi...sendan esa, dod qoladi...Men seni shunga

¹Hoshimxonov M. Mashrabi mo'tabar o'zum.3 jild. – T.: A.Navoiy nomidagi O'z.MK, 2008. –B.119.

o'qitdimi? Noinsoflikka o'rgatdimmi?. Zo'ravon va beodob bo'l dedimmi, betavfiq. Bu beodoblikni qaysi kitobda o'qiding, kimdan o'rganding? Bu zo'ravon, -deb yana tovushini o'zgartirib talabalarga qaradi Oxund, -tunov kuni ham bir beodoblik qilganlar. G'arib bir qo'shnilar bir enlik ariza yozib berishni iltimos qilsa, haq talab etganlar. Chaqa bersa, tanga so'raganlar. Bir kosa turshak chiqarsalar hovliga sochib yuborganlar... Menden ta'lim-tarbiya olayotgan bolaning bunchalik befahm, befarosatligidan xijolat tortamen. Mening darg'ohimdan ahli ilm emas, bo'yni yo'g'on zo'ravon va ta'magirning yetishib chiqayotganidan xijolat tortamen (41-42).

Mashrabning yuksak darajada ilm olishiga, tasavvufni chuqur anglab yetishiga, she'riyat olamiga kirib kelishiga ustozи Mulla Bozor Oxundning xizmatlari katta bo'lgan. Adib buni nazardan chetda qoldirmagan, Mashrabni ustozining sara Abu Abdullo Muhammad ibn Muso al- Xorazmiyning "Kitob al-muxtasar, fi-hisob al-jabr val muqobala", Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Beruniyning "Mezoni ul hikmat", "Kitob us-saydana", Alisher Navoiyning "Xamsa", va "Chor devoni", Boburning "Boburnoma", Abu Ali ibn Sinoning "Kitob ush-shifo", "Kitob un najot" va yana "Qobusnama", "Kitobi Muhsiniy", Xo'ja Ismoil sahviy -Buxoriyning kitoblari saqlanayotgan uyida soatlab mutolaa qilar, ustozи bilan suhbat qurar, Mulla Bozor Oxundning Mashrabga mehri bisyor ko'p edi.

Shuhrat romanda tarixiy shaxs, ilm va iqtidor egasi, avliyosifat, she'riyatda shoh bo'lgan Mashrabning yuksalishiga sabab bo'lgan omillarni yoritib berishni o'ziga maqsad qilgan.

"Mashrab" romanidagi jo'shqinlik va shoirona harorat, jozibali tashbehtar o'quvchi qalbini rom etadi. Haqiqatan ham "asarning bitmay qolganiga afsuslanasiz. Agar u nihoyasiga yetganida muhabbat haqida bitilgan yangi, beqiyos bir qo'shiq bo'lur edi"¹. Bizningcha, Shuhratning xastaligi tufayli oxiriga yetmay qolgan bo'lsada, mazkur roman shoir Mashrab hayotining ma'lum bir davrini yaxlit va samimiylasvirlaganligi bilan ahamiyatlidir. Yosh Mashrabning ma'naviy qiyofasi asarda o'z ifodasini topa olgan deyish mumkin.

Umuman olganda, Shuhrat romanlaridagi qahramonlar xarakter va ruhiyatini yoritishda badiiy to'qima va hayot haqiqatini o'zaro uyg'unlashtira olinishi adib individualligi hamda uslubining muayyan qirralarini aks ettirsa, ikkinchi jihatdan, adib asarlaridagi haqqoniy realizm, romantizmning ko'tarinkiligi ham asar badiiyatini ta'minlagan unsurlardan biridir.

¹ Siyoyev S. Yoruq izlar / Shuhrat. Zamondoshlar xotirasida. –T.: Sharq, 1998. –B.118-119.

XULOSA:

1. “Shuhrat romanlarining maydonga kelishida tarixiy hayot-voqeligi, folklor, mumtoz adabiyotimiz namunalari, rus va jahon xalqlari romanchiligi hamda Abdulla Qodiriy asos solgan romanchilik badiiy-estetik tajribalari asosiy omil bo‘lgan.
2. Shuhrat ijodiyotida muallif yashagan davrning manzaralarini haqqoniy tasvirlanishi, ijodkor adabiy merosini bir butun uyg‘unlikda – zohiriylarini ma’nolar qamrovida o‘rganib borish ijodkorning ruhiy-ma’naviy, badiiy olamiga chuqurroq kirishga va ayni paytda, adabiyotning muhim vazifasi bo‘lgan inson ruhoniyatini anglab yetish yo‘liga o‘tishdir.
3. Adib romanlardagi badiiy g‘oya va tasvir haqqoniyligi, folklorizm va adabiy ta’sir, tarixiy haqiqatning badiiy talqini ifodasida poetik nutq, ifodada shakliy ixchamlik, falsafiy mushohada teranligi, mantiqiy izchillik, badiiyat mezonlari sifatida namoyon bo‘lgan.
4. Folklorizm va mumtoz adabiyotimiz namunalarida erishilgan badiiy tajriba, an’analar Shuhrat romanlarida badiiy g‘oya va tasvir haqqoniyligi voqelikni “yurgizish” manerasi uchun omil bo‘lib, ijodkor mahorati, badiiy uslubi va tilining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan.
5. Romanlarining realistik tasvirida qahramon xarakter va ruhiyatini yoritishga badiiy to‘qima va hayot haqiqatini o‘zaro uyg‘unlashtira olishi, adib individualligi va uslubining muayyan qirralarini aks ettirsa, ikkinchi tomondan, adib asarlaridagi realizmning haqqoniyligi, romantizmning ko‘tarinkiligi asar badiiyatini ta’milagan.
6. O‘zbek romanchiligi taraqqiyotida Shuhrat romanlarining ahamiyati va badiiy yangilanishlari va asar qahramonlarining ruhiy dramatik holati, kechinmalarini haqqoniy, ta’sirchan ana shunday uyg‘unlashuvi badiiylik ko‘rsatkichiga aylanadi.

SO‘NGGI SO‘Z

1. Ijodkor tomonidan yaratilgan asarlar u yashagan davr va muallif umri bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, badiiyat biografiyasini tashkil etadi. Shu jihatdan Shuhratning nazm va nasrdagi serqirra, sermahsul ijodi XX asr badiiy-estetik tafakkuri taraqqiyotida o‘ziga xos muhim bosqichni tashkil etadi. Darhaqiqat, u ijod olamida lirik shoir, jangovor shoir, nasr ustasi, dramaturg sifatida munosib o‘rin egallay oldi.

2. Shuhrat ijodining har bir jabhasidagi tadrijiylik, bosqichma-bosqich o‘sishi va takomillashib borishi u yaratgan xilma-xil obrazlarda o‘z ifodasini topgan. Shoирning intellektual, ijtimoiy va meditativ lirkasi XX asr o‘zbek she’riyatining o‘ziga xos yangi sahifasini yarata oldi. U she’r, doston va ballada kabi janrlarda samarali ijod qildi. Bu asarlarda milliy va umuminsoniy g‘oyalar tarannumi yetakchilik qiladi. Ayniqsa, jangchi-shoir sifatida urush yillarida bir qo‘lida qurol va bir qo‘lida qalam bilan vatanparvarlik namunalarini ko‘rsatdi.

3. Shuhrat she’rlaridagi xalq qo‘shiqlariga xos ifoda yo‘sini muhim xususiyat sifatida ko‘rsatish mumkin. Shoир ta’sirchan tasviriy ifodalardan samarali foydalana olgan. U she’riyatda lirik qahramon ruhiyati, his-kechinmalarini sodda va samimiy satrlarda ta’sirchan ifoda etgan. Shu bilan birga Shuhratning falsafiy, intellektual she’riyati xalq og‘zaki ijodida muhim o‘rin tutgan, XX asrda yetakchilik qilgan milliy vazn – barmoq xususiyatlarini ham o‘zida to‘la namoyon eta olgan. Bu turoqlar izchilligi ohangdorlik, qofiya kabilarda yorqin kuzatiladi.

4. Shuhrat ijodining betakror jihat shundaki, u Cho‘lpon va Oybek kabi adabiyot darg‘alari singari barcha turlarda qalam tebratdi: she’rlar, turkum she’rlar – “Jangchi bloknoti”dan, “Kavkaz daftari”, “Dunay sohillari”, “Odamlar va obidalar”; “Ikkiliklar”, “To‘rtliklar”, “Hajvlar”, “Bolalar uchun she’rlar”; liro-epik turda – poema, masal, ballada va dostonlar; nasrda – hikoya, qissa, romanlar; dramaturgiyada – komediya va dramalarda samarali ijod qildi. Shuningdek, u she’riy tarjimalarni amalga oshirdi.

5. Shuhratning she’riyatida ham, nasri va dramaturgiyasida ham xalq og‘zaki ijodiga xos jihatlar: ifodadagi xalqchilik, soddalik, ravnlik, hayotiylik, obrazlilik, ixchamlilik muhim xususiyat sifatida ko‘zga tashlanadi. Bu she’riyatida parallelizmlarni, nasrda esa oddiy folklorizmlarni mohirona qo‘llashda ko‘proq namoyon bo‘lgan.

6. Shuhrat ijodiyotida muallif yashagan davrning manzaralarini haqqoniy tasvirlanishi, ijodkor adabiy merosini bir butun uyg‘unlikda – zohiriyl va botiniy ma’nolar qamrovida o‘rganib borish ijodkorning ruhiy-ma’naviy, badiiy olamiga

chuqurroq kirishga va ayni paytda, adabiyotning muhim vazifasi bo‘lgan inson ruhoniyatini anglab yetish yo‘liga o‘tishdir.

7. Badiiy ijodga xos biografizm Shuhrat she’riyati, ayniqsa, nasrida yorqin namoyon bo‘lgan. Bu jihatdan adib romanlari katta adabiy material beradi. Adib o‘zi yashagan davr vogeliklarini, insoniy dard-kechinmalarini boshidan kechirgan, guvohi bo‘lgan hayot manzaralari orqali badiiy aks ettirgan. Shu jihatdan ularni yaqin tariximizning achchiq saboqlari aks etgan badiiy solnomalar deyish mumkin.

8. Badiiy nasrda syujet va obraz yaratishda, badiiy to‘qima bilan hayot haqiqatini tasvirlashda adib ijodiy uslubi individual xususiyatlar kuzatiladi. Bu yozuvchining bosh qahramon va boshqa personajlar obrazini yaratishda prototip va badiiy umumlashmaga tayanganligida ko‘rinadi. Shu orqali real hayotning ta’sirchan lavhalari yaratilgan.

9. Shuhrat romanlari o‘zbek romanchiligi taraqqiyotidagi muhim bosqich sifatida XX asr badiiy-estetik tafakkuridagi yangilanishlarni o‘zida aks ettiradi. Binobarin, adib asarlarining kompozitsiyasi chuqur ishlangan, syujeti puxta-pishiq, turli-tuman obrazlar esa hayotiy mazmunga ega.

10. Har bir yaratilgan yaxshi asar ijodkorning adabiyotdagи o‘rnini belgilashga va uni baholashga asos bo‘ladi. Binobarin, muayyan bir davrga xos izlanishlar bevosita ushbu davr badiiy tafakkur tarzini ko‘rsatadi. XX asr adabiy jarayonini anglashda, badiiy tafakkur tadrijidagi yangilanishlarni tadqiq etib, nazariy umumlashmalarga qilishda mazkur davrda yaratilgan asarlar, jumladan, Shuhrat qoldirgan adabiy meros ham tayanch manbalardan bo‘lib xizmat qiladi.

11. Shuhrat ijodini atroflicha tadqiq etish nafaqat bir individual ijodkor, balki XX asrning ikkinchi yarmidagi avlod she’riyati, nasr va dramaturgiyasining mavzumundarijasi, uslubiy-shakliy izlanishlari borasida ham muhim nazariy xulosalar chiqarish imkonini yaratadi.

12. Shuhrat qoldirgan boy adabiy meros: serjozib she’riyat, betakror epik asarlar, zamonaviy dramalar ko‘p asrlik o‘zbek adabiyotini yuksaltirishga munosib hissa bo‘lib qo‘sildi. Shu jihatdan shoir, nosir va dramaturg Shuhrat asarlari XX asr o‘zbek adabiyoti tarixidan munosib o‘rin egalladi va uning yorqin sahifasi bo‘lib qoldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

I Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar:

1. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O‘zbekiston, 2017.– 483 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil, 5-apreldagi PQ-3350-son raqamli “O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 2018-yil 6-aprel № 15 (4465).
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi Farmoyishi // Xalq so‘zi, 2017-yil, 13-yanvar.

II ILMIY – NAZARIY ADABIYOTLAR

1) Milliy nashrlar

4. Abdusamatov H. Drama nazariyasi. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2000.–288 b.
5. Abdusamatov H. Tarix va badiiy talqin. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1995.–184 b.
6. Abdug‘afurov A. Navoiy ijodida satira. –T.: Fan, 1972.–136 b.
7. Adabiyot nazariyasi. 2 tomlik, 1 tom.–T.: Fan, 1978.–416 b.
8. Alaviya M. O‘zbek xalq qo‘shiqlari. –T.: O‘zSSR FA nashriyoti, 1959.–315 b.
9. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari.– T.: O‘zbekiston, 2002.–558 b.
10. Boltaboyev H. Nasr va uslub. Uslub muammosiga nazariy nigoh va hozirgi o‘zbek nasrida uslubiy izlanishlar.–T.: Fan, 1992.–104 b.
11. Vohidov R. Alisher Navoiy va ilohiyot.–Buxoro, 1994.– 227 b.
12. Vohidov E. Iztirob. –T.: O‘zbekiston, 1992.– 322 b.
13. Yoqubov I. Mustaqillik davri o‘zbek romanlari poetikasi. – T.: Nurafshon business, 2021.–336 b.
14. Jamol Kamol. Shuhrat she’rining uslubiy xususiyatlari // Lirik she’riyat. –T.: Fan, 1986.–143b.
15. Jumanazarov U. O‘zbek folklori va tarixiy voqelik.–T.: Fan, 1991.–144 b.
16. Ibragimov M. O‘zbek balladasi. –T.: Fan, 1974.–200 b.
17. Ikromov O. O‘zbek romanlarida ijobiy qahramon.–T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1973.–128 b.

18. Imomov B. Dramaturgik mahorat sirlari.–T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1991.–176 b.
19. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z.– T.: Yangi asr avlodi, 2006.–548 b.
20. Karimov N. XX asr manzalari.–T.: O‘zbekiston, 2008.– 582 b.
21. Karimov B. Ruhiyat alifbosi.– T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot–matbaa ijodiy uyi, 2016.–364 b.
22. Karimov B. Abdulla Qodiriy va germenevtik tafakkur.–T.: Akademnashr, 2014.–256 b.
23. Karimov H. Nasr baxshisi.–T.: Yangi asr avlodi, 2003.–94 b.
24. Mallayev N. O‘zbek adabiyoti tarixi.–T.:O‘qituvchi, 1976.–662 b.
25. Mamajonov S. Ranglar va odamlar.–T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at, 1977.–238 b.
26. Mahmudov M. Talant va ijod falsafasi.–T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1976.–283 b.
27. Mirvaliyev S. Iste’dodning qo‘sh qanoti. – T.: Yozuvchi, 1993.–112 b
28. Mirvaliyev S. O‘zbek romani. –T.: Fan,1969.– 314 b.
29. Mo‘minov F. Izlanishlarimdan qatralar.–T.: Fafur Fulom NMIU, 2006.–232 b.
30. Mo‘minov G‘. Hozirgi o‘zbek dostonchiligidagi uslubiy izlanishlar // O‘zbek adabiyotida janrlar tipologiyasi va uslublar rang-barangligi.–T.: Fan, 1983. –204 b.
31. Nosirov A. Odil Yoqubov romanlari poetikasi.–T.: Fan, 2012.–160 b.
32. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar.–T.: Ma’naviyat, 2000.–112 b.
33. Normatov.U. Shuhrat. Adabiy portret.–T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1969.–120 b.
34. Normatov U. Ijod sehri.–T.: Sharq, 2007.–351 b.
35. Normatov U. Ko‘ngillarga ko‘chgan she’riyat.–T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2006.–42 b.
36. Normatov U. Nasrimiz an’analari.–T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1978.–215 b.
37. Nosirov O., Sobirov O. Xalq ijodi xazinasi.–T.: G‘ASN, 1986.–185 b.
38. Ozod qalb kuychisi. Shuhrat (G‘ulom Alimov) tavalludining 90 yilligi munosabati bilan Metodik-bibliografik qo‘llanma.–T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.–31b.
39. Olimov M. Hozirgi o‘zbek adabiyotida pafos muammosi.–T., 1994.–100 b.
40. Pardayeva Z. Badiiy–estetik tafakkur rivoji va o‘zbek romanchiligi. Adabiy–tanqidiy maqolalar.– T.: Yangi asr avlodi, 2002.–100 b.
41. Pardayeva Z. O‘zbek romani poetikasi.–T.: Xalq merosi, 2003.–143 b.

42. Rahimjonov N. Istiqlol va bugungi adabiyot.–T.: O‘qituvchi, 2012.–328 b.
43. Rafiddinov S. Majoz va haqiqat. –T.: Fan, 1995.–154 b.
44. Рисалиев К.Киргиз ирларинин тузулушу. – Фрунзе, 1965.–104 б.
45. Rizayev Sh. Jadid dramasi.–T.: Sharq, 1997.–320 b.
46. Sabirdinnov A. Oybekning she’riy mahorati.– T.: Fan, 2005.–198 b.
47. Sayfulloh S.,Jumanazarov A. Xalq sevgan qissa./ Qissayi Mashrab. –T.: Navro‘z, 2014.–174 b.
48. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari.–T.: 2004.–128 b.
49. Soatova N. Epik tasvir an’analari.–T.: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2001.–89 b.
50. Soatova N. An’anaviylik va vorislik. – T.: MUMTOZ SO‘Z, 2019.–138 b.
51. Solijonov Y. Nutq va uslub.–T.: Cho‘lpon, 2002.–128 b.
52. Soliyev A. O‘zbek dramaturgiyasida inson talqini.– T.: Zarqalam nashriyoti, 2006.–286 b.
53. Soliyev A. Hayot haqiqati va badiiy talqin. – Samarqand.: SamDU nashriyoti, 2002.–124 b.
54. Soliyev A. Hayot, dramaturgiya, qahramon. Samarqand.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti Samarqand bo‘limi, 1990.–76 b.
55. Sulton I. Adabiyot nazariyasi.–T.: O‘qituvchi, 2005.–270 b.
56. Sulton Izzat. Adabiyot nazariyasi.–T.: O‘qituvchi, 1986.–408 b.
57. Tafakkur chechaklari (O‘zbek xalq qo‘sishlari). To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi Obidova M.–T.:1992.–248 b.
58. To‘ychiyev U. O‘zbek adabiyotida badiiylik mezonlari va ularning marommlari.– T.: Yangi asr avlod, 2011.–187 b.
59. Umurov H. Badiiy psixologizm va hozirgi o‘zbek romanchiligi.–T.: Fan. 1983.–148 b.
60. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. - Samarqand, SamDU nashriyoti, 2001. –238 b.
61. Cho‘lpon. Adabiyot nadir.–T.: Cho‘lpon, 1994.–240 b.
62. Fitrat A. Tanlangan asarlar. IV jild.–T.: Ma’naviyat, 2006.–211 b.
63. Shayxzoda, Asarlar 6 tomlik 5 tom. Adabiy tanqidiy maqolalar.–T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1973.–327 b.
64. Sharafiddinov O. Abdulla Qahhor. Esse.–T.: Yosh gvardiya,1989.–89 b.
65. Sharipova L. O‘zbek she’riyatida folklorizm. (XX asrning 70-80-yillari o‘zbek she’riyati asosida). –T.: Fan, 2011.–154 b.
66. Shodiyev N. Ruhiyat rassomi.–T.: Yosh gvardiya, 1977.–48 b.
67. Shuhrat zamondoshlar xotirasida. –T.: O‘zbekiston, 2008.–352 b.

68. Shuhrat. Adib hayotiga bir nazar. Xotiralar.–T.: Sharq, 1998.–304 b.
69. Eshonqul N. Mendan “men”gacha.–T.: Akademnashr, 2014.–512 b.
70. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 5–jild.–T.: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2008.–592 b.
71. O‘zbek xalq maqollari.–T.: Sharq, 2005.–512 b.
72. O‘ljaboyev U. Zamon talabi va ijodkor mas’ulligi.–T., 2012. –319 b.
73. Qosimov U. Adabiyotning hayotbaxsh kuchi.–T.: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2008.–208 b.
74. Quvvatova D. XX asr ikkinchi yarmi o‘zbek poemasi. –T.: Tupon zamin ziyo, 2014.–176 b.
75. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish.–T.: Fan, 2007.–227 b.
76. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari.–T.: Navoiy universiteti, 2018. – 480 b.
77. Quronov D. Nazariy qaydlar.–T.: Akademiknashr, 2018.–128 b.
78. Quronov D. Cho‘lpon nasri poetikasi.– T.: Sharq, 2004.–288 b.
79. Quronov D., Mamajanov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati.–T.: Akademiknashr, 2010.–408 b.
80. Qo‘shtonov M. Quddus Muhammmadiy. Qudrat Hikmat. – T.: O‘z KP MK nashriyoti, 1969.–226 b
81. Qo‘shtonov M. Saylanma. Ikki jildlik. 2–jild.–T.: Adabiyot va san’at, 1983.–360 b.
82. Qo‘chqorova M. Badiiy so‘z va ruhiyat manzaralari.–T.: Muharrir, 2011. – 232 b.
83. Hamdam U. Yangi o‘zbek she’riyati.–T: Adib, 2012.–304 b.
84. Hamdamov U. Ruhni uyg‘otuvchi so‘z. – T.: Turon. Zamin Ziyo, 2017.– 404 b.
85. Hasanov Sh. Zamonaviy doston poetikasi. – Samarqand, 2001.–142 b.
86. Hasanov Sh. Iste’dodning rangin jilolari. / Badiiylik va mahorat.– Samarqand.: SamDu, 2018.–132 b.
87. Haqqulov I. An’ana va mahorat. Navoiy va ijod saboqlari.– T.: Fan, 1981.–153 b.
88. Haqqul I. Mushohada yog‘dusi. II.–T: Tafakkur, 2019.–162 b.
89. Homidiy H., Abdullayeva Sh., Ibrohimova S. Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati.–T.: O‘qituvchi, 1970.–348 b.
90. Hotamov N, Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha–o‘zbekcha izohli lug‘ati.–T.: O‘qituvchi, 1979.–366 b.
91. Hoshimxonov M. Mashrabi mo‘tabar o‘zum. Uchinchi jild. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008. –400 b.

2) Xorijiy nashrlar

92. Азадовский М. Статьи о литературе и фольклоре. –М.–Л.: Гослитиздат, 1960.– стр.547.

93. Aristotelъ. Poetika. –Т.: Adabiyot va san’at, 1980. –152 б.
94. Arastu. Poetika. Axloqi kabir. Ritorika.–Т.: Yangi asr avlodi, 2011. –352 б.
95. Балашов Д. Русские народные баллады.–М.:Современник, 1983.– стр.95-123.
96. Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики.–М.:Художественная литература, 1975.–стр.412.
97. Бахтин М. Эстетика словесного творчества. – М.: Наука, 1979.–стр. 422.
98. Балашов Д.Русские народные баллады. –М: Современник, 1983.–стр.123.
99. Belinskiy V.Tanlangan asarlar.–Т.: O‘zbekiston SSR Davlat nashriyoti, 1955.– 508 б.
100. Belinskiy.V. Adabiy orzular.–Т.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’ati nashriyoti, 1977.–264 б.
101. Белинский В. Полное собрание сочинений в 13–ти томах. Т.7.–М.: АН СССР, 1955-1969.–стр.740.
102. Брюсов В. Ремесло поэта.–Москва.: Современник, 1981.–стр. 399.
103. Веселовский А.Н. Историческая поэтика.–М.: Высшая школа, 1989.– стр.406.
104. Владимиров С. Стих и образ.–Л.: Сов. писатель, 1961.–стр.158.
105. Владимира Н.В. Развитие узбекской прозы XX века и вопросы художественного перевода. – Т.: Фан, 2011.–336 с.
106. Владимира Н. Развтие жанра рассказа в узбекской советской литературе. – Т.: Фан, 1977.– стр.192.
107. Виноградов В.В. Поэтика русской литературы. – М.: Наука, 1976.– стр.484.
108. Выходцев П.С. Русская советская поэзия и народное творчество. – Л.: Наука, 1963.–стр. 549.
109. Gorkiy M. Adabiyot haqida.– Т.: Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1962. – 350 б.
110. Гоголь Н.Полн.собр.соч.в 14-ти т., Т. 10.– М.: Изд-во АН СССР, 1940. – стр.922.
111. Дидро Д. Собрание сочинение.– Москва – Ленинград: Наука, Т. 5.– стр.526.
112. Жирмунский В.М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. – Л.: Наука, 1977.–стр.404.
113. Затонский Д. Искусство романа и XX век – М.: Наука, 1982.–стр.130.
114. Михайлова А.О. Художественной условности.– М.: Мысль, 1970.–стр.300.

115. Kenan Akyuz. Bati tesirinde turk siiri antolojisi.– Istanbul: “Inkilap” kitabevi, 1995. 1032 sayfa.
116. Киканс В.П. Современная советская поэма.–Рига: Зинатне, 1982.–стр.234.
117. Кобланов Ж.Т. Фольклорные сюжеты в драматургии // Филология и литературоведение.–2013.–№10 [Электронный ресурс]. URL:
118. Лотман Ю.М. Структура художественного текста.– М.: Искусство, 1970. – стр. 182.
119. Лессинг Г.Э. Гамбургская драматургия.-М: Академия. 1936.– стр.527.
120. Огнев В. Книга про стихи.–М.: Сов писатель, 1963.–стр.188.
121. Озеров Л. Работа поэта.–Москва.: Сов.писатель, 1963.– стр.336.
122. Пархоменко М. Типология и взаимосвязи средневековых литератур Востока и Запада.–М.: 1974.–стр. 368.
123. Погодин Н. Автобиографическая заметка.–В кн.: Советские писатели. В 2-х т., Т. 2.–М.: Госполитиздат, 1959.–стр.480.
124. Поспелов Г. Теория литературы. – М.: Высшая школа, 1978.– стр. 351.
125. Пушкин в воспоминаниях современников.– Л., 1980.–стр.582.
126. Петров С. Русский исторический роман XIX века.– М.: Современник, 1980. –стр.377.
127. Потебня А.А. Эстетика и поэтика.–М.: Сов.писатель, 1976.–стр.396.
128. Рубинштейн С. Основы общей психологии.–Питер, 2000.–стр.387.
129. Тамарченко Н.Д. Теория литературы. Роды и жанры.– М.: ИМТИ РАН, 2003. –стр.288 .
130. Томашевский Б. Основы теория литературы.–М.: Наука,1971.–стр.258.
131. Числов М. Время зрелости - пора поэмы. –Москва.: Сов. писатель, 1986.– стр. 396.
132. Чернишевский Н.Г.. Полн.собр. соч.,т. П.: Изд.М.Эллидина, 1905. –стр.339.
133. Шкловский В. О теории прозы. – М.: Советская Писатель, 1983.–стр.384.
134. Хализев В. Теория литературы. – Москва: Высш.шк., 2000.– стр.398.
135. Храпченко М. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. –М.: Наука, 1970.–стр.266.

IV BADIY ADABIYOTLAR

136. Begmatov X. Devona Mashrab.–Т.: Sharq, 2005.–270 b.
137. Matjon O. Bu - Mashrab, Mashrab. / O‘zbekiston ovozi, 1992. 22 may.
138. Osim M. Singan setor. / Ajdodlar fojeasi.–Т.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983.–272 b.

139. Muhammad Ali. Mashrab. Dostonlar.–T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1974.–B.104 b.
140. Navoiy A. Mahbub ul - qulub. –T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983.–124 b
141. Navoiy A. Asarlar. 15 tomlik. 7-tom. Farhod va Shirin.–T.: Badiiy adabiyot, 1964.–544 b
142. Navoiy A. Layli va Majnun.–T.: Adabiyot va sanbat, 1990.–364 b
143. Shuhrat. Balladalar.–T.: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1959.–79 b.
144. Shuhrat. Bemalol yashasang bo‘ladi.–T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot–matbaa ijodiy uyi, 2008.–176 b.
145. Shuhrat. Besh kunlik kuyov. Pesalar.–T.: Adabiyot va san’at, 1985.–224 b.
146. Shuhrat. Dostonlar.–T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1977.–136 b.
147. Shuhrat. Yetim boshini silaganlar.–T.: Sharq, 2005.– 223 b.
148. Shuhrat. Lirika. –T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1973.–256 b.
149. Shuhrat. Mashrab. –T.: Sharq, 1998.–303 b.
150. Shuhrat. Oltin zanglamas.–T.: Sharq, 1995.– 400 b.
151. Shuhrat. Saylanma. Ikki jildlik. Birinchi jild. Jannat qidirganlar.–T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. – 487 b.
152. Shuhrat. Sening sevging.–T.: Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1961.–247 b.
153. Shuhrat. Sening sevging.–T.: Sharq, 2003.–187 b.
154. Shuhrat. Tanlangan asarlar. Uch tomlik, Birinchi tom.–T.: G‘.G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1969.– 467 b.
155. Shuhrat. Tanlangan asarlar. 3 jildlik, 1-jild.–T.: Adabiyot va san’at, 1978.–560 b.
156. Shuhrat. Tanlangan asarlar 3jildlik, 2 jild.–T.: Adabiyot va san’ati, 1980.– 472 b.
157. Shuhrat. Tanlangan asarlar 3jildlik, 3jild.–T.: Adabiyot va san’ati, 1980.–600 b.
158. Shuhrat. Tanlangan asarlar.– T.: Sharq, 2019.–760 b.
159. Shuhrat. Shinelli yillar.–T.: G‘. G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at, 1968.– 600 b.
160. Yassaviy A. Hikmatlar.–T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1990.–256 b.
161. O‘zbek xalq qo‘sishqlari. Shoda-shoda marvarid. (To‘plib nashrga tayyorlovchi E.Ochilov).–T.: Sharq, 2006.–416 b.
162. G‘afurov I. Ozod nafas. /Dil erkinligi.–T.: Ma’naviyat, 1998.–152 b.
163. Qahhor A. Asarlar. 6t.–T.: O‘zadabiynashr, 1971.–286 b.

164. Qahhor A. Asarlar. Sarob. 5 jildlik. 1 jild.–T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987.–336 b.
165. Qahhor A. Asarlar./ Shohi so‘zana. 5 jildlik. 4 jild.–T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987.–336 b.
166. Qodiriy A. O‘tkan kunlar. Mehrobdan chayon. –T.: Adabiyot va san’at, 1994. – 528 b.
167. Qodiriy A. Tanlangan asarlar. O‘tkan kunlar. –T.: Sharq, 2014.–880 b.
168. Qissayi Shoh Mashrab. –T.: Navro‘z, 2014.– 252 b.

Y. DISSERTATSIYA VA AVTOREFERATLAR

169. Abdurahimov T. O‘zbek dramaturgiyasining shakllanishi va rivojlanishida fol’klorning o‘rni: Filol.f. n...diss.– T., 1995.–176 b.
170. Azimov A. Shuhrat ijodida ijobiy qahramon problemasi.: Filol. f. d-ri disser.– Samarqand, 1975.–123 b.
171. Alimuhammedov A. Abdulla Qahhor hikoyalarida odam obrazi: Filol. f. n ... diss.–T., 1948.–151 b.
172. Aldasheva Sh. 70 – 90 yillar o‘zbek lirikasida to‘rtlik, sakkizlik va she’riy turkum tabiat: Filol.f.f d. (PhD). diss – T., 2019.–136 b.
173. Бакиров М. Закономерности тюркского и татарского стихосложения в свете экспериментальных исследований: Автореф. дисс. док. филол. наук.–Казань, 1972.–стр.75.
174. Владимирова Н. Формы художественной условности в современном романе Великобритании: Дисс...д–ра филол. наук.–Новгород, 1999.–стр. 382.
175. Jo‘rayev M. O‘zbek adabiyotida komediyaning janr xususiyatlari va ularning tarixiyligi. (“Maysaraning ishi”, “Tobutdan tovush” hamda “Temir xotin” asarlari misolida) Filol.f.f d. (PhD). diss –Jizzax, 2021.–160 b.
176. Лозовой Б. Из истории русской баллады: Автореф. дис. канд. филол. наук.–М.,1970.– стр. 26.
177. Doniyorova Sh. Shukur Xolmirzayev hikoyalarining badiiy uslubiy o‘ziga xosligi: Filol. f. n... diss.-T., 2000. –26 b.
178. Doniyorova Sh. Istiqlol davri o‘zbek romanlarida milliy ruh va qahramon muammosi. Filol. fan. dok. diss....–T., 2012.–257 b.
179. Зайцева И. Современная драматургическая речь: структура, семантика, стилистика. Дисс. докт. филол. наук.–Москва, 2002.–Б.204
180. Yoqubov I. Mustaqillik davri o‘zbek romanlari poetikasi. Filol.f.d. diss.– .., 2021.–287 b.

181. Isayeva Sh. O‘zbek tarixiy romanlarida xarakter ruhiyatini tasvirlash usullari: Filol. f.n... diss... avtoref.–T., 2001.–22 b.
182. Karimov N. XX asr o‘zbek adabiyoti taraqqiyotining o‘ziga xos xususiyatlari va milliy istiqlol mafkurasi: Filol.f.d.diss. avtoref.–T., 1993.–49 b.
183. Karimov H. Hozirgi o‘zbek nasrida hayot haqiqati va inson konsepsiysi. Filol. f. n...diss.–T., 1995.–368 b.
184. Karimov B. XX asr o‘zbek adabiyotshunosligida talqin muammosi (qodiriyshunoslik misolida): F.f.d.diss.– T., 2002.– 304 b.
185. Каттабеков А. Художественное воплощение личности и исторической эпохи в современной прозе: Дис. д–ра филол. наук.–Т., 1985.–стр 38.
186. Ковтун Е. Типы и функции художественной условности в европейской литературе первой половины XX века: Дисс...д–ра филол. наук.–М., 2000.–стр.304.
187. Кравченко А. Художественная условность как средство типизации характера (На материале современного украинского романа): Дисс... канд. филол. наук.–Киев, 1984.–стр.190.
188. Лозовой Б. Из истории русской баллады: Автореф. дис. канд. филол. наук.– М.:1970.–стр.23.
189. Мақсетов К. Поэтика каракалпакского героического эпоса: Автореф. дисс. док. филол. наук.–Нукус, 1966.– стр.57.
190. Mirhaydarov H. O‘zbek poeziyasida qofiya va individual uslub masalalari: Fil.f. n.diss.–T, 1972.–24 b.
191. Musurmonov E. Rahimbobo Mashrab va uning badiiy adabiyotdagি talqini: Fil.f.n. diss.– Samarqand, 1995.–24 b.
192. Муродов Ш. Жанровые особенности современной узбекской поэмы (на материале поэм 70–х годов). Автореферат на соиск. канд. фил. наук.–Т., 1984.–стр.21.
193. Murodov G‘. Tarixiy romanning mushtaraklik va o‘ziga xosliklar uyg‘unligi muammolari: Filol.f.d–ri diss.avtoref.–T., 2018.–28 b.
194. Mo‘minov G‘. Hozirgi o‘zbek adabiyotida folklorizm: Filol. f.d–ri diss. avtoref.– T., 1994.–str.73.
195. Норматов У. Основное тенденции развития современного узбекского рассказа (1956–1961): Филол.ф.н... дисс.– Т., 1963.–43 б.
196. Nosirov A. Odil Yoqubov romanlari poetikasi. Filol.f.d–ri...diss. avtoref–Samarqand, 2018.–70 b.

197. Odilov Sh. Keyingi yillar o‘zbek hikoyalarida zamondoshimiz obrazi (70–80 yillar): Filol. f.n.diss...avtoref.–T., 1989.–24 b.
198. Ochilov K. O‘zbek xalk mehnat ko‘shiqlari: Fil.f.k diss.–T., 1974.–174 b.
199. Пакальнишкис Р. Современная литовская поэма: Автореф.дисс...канд. филол наук.–Москва, 1964.–стр.24.
200. Pardayeva Z. Hozirgi o‘zbek romanlarining taraqqiyot tamoyillari: Filol. f. d–ri diss...–T., 2003.–295 b.
201. Rahimjonov N. Hozirgi o‘zbek she’riyatining taraqqiyot tendensiyalari: Filol.f.d–ri diss...–T., 1989.–284 b.
202. Sabirdinov A. Oybek she’riyatida so‘z va obraz: Fil.f.n.diss.–T., 1993. –138 b.
203. Sabirdinov A. Oybekning poetik mahorati. Filol.f.dokt.. diss. avtoref. –T., 2004.–46 b.
204. Сарбашева А. Балкарская драматургия: этнофольклорная традиция, эволюция, жанровая специфика: Автореф. дисс. докт. филол. наук.–Нальчик, 2014.–стр.55.
205. Soatova N. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida epik tasvir an’analari.–Filol.f.n.disser. –T., 2001.–137 b.
206. Solijonov Y. XX asrning 80–90–yillari o‘zbek nasrida badiiy nutq poetikasi: Filol.f.d–ri... diss. avtoref.–T.: 2002.–49 b.
207. Теория литературы. В2–х т. Т. 1. Бройтман С.Н. Историческая поэтика: Учеб.Пособие/ Под ред. Н.Д.Тамарченко.– М.: Академия, 2004.–стр.340.
208. Тулаков И. Поэтические традиции и характер героя в узбекской советской поэме: Автореф. дисс... канд филол. наук.–Ташкент, 1981.–стр. 22.
209. Turdimov J. Lirik kechinma tabiat. Filol. f.n...diss.avtoref.–T., 1999. – 24 b.
210. To‘rayev D. Hozirgi o‘zbek romanlarida badiiy tafakkur va mahorat muammosi (60-80 yillar): Filol. f. d–ri diss. avtoreferati.– T., 1994.–53 b.
211. Sharipova L.F. XX asrning ikkinchi yarmi o‘zbek she’riyati badiiy taraqqiyotida fol’klor. Filol.fan. d–ri... diss.–T., 2019.–154 b.
212. Eshqobilov A. O‘zbek balladasining nazariy–poetik tahlili. (XX asrning 70–90–yillari misolida). –Filol.f.f.d (PhD) diss.–Samarqand, 2020.–150 b.
213. Yadgarova M. Shuhratning “Oltin zanglamas” romani ijodiy biografiyasi: tarixiylik va badiiylik. Filol.f.f.doktori (PhD) diss..–T., 2021.–177 b.
214. Yakubov I. Mustaqillik davri o‘zbek romanlari poetikasi. Filol. fanlari d–ri. diss...–T., 2018.–28 b.
215. O‘rayeva D. O‘zbek xalq lirik qo‘shiqlarida parallelizmlarning xarakteri va badiiy kompozitsion vazifalari.: Filol.f.n., diss. –T., 1993.–149 b.

216. Qahhorova Sh. Janubiy O‘zbekiston epik an’analarida “Ollonazar Olchinbek” dostonining tutgan o‘rni va badiiy ahamiyati. Filol.f.n.diss.– T., 2008.–140 b.
217. Qosimov U. Adabiy–estetik tafakkur tadriji: a’naviylik, vorisiylik, o‘ziga xoslik (Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor va Tog‘ay Murod ijodi misolida): Filol.f.d–ri (DSc) diss. avtoref.–T., 2020.–76 b.
218. Quvvatova D. XX asr ikkinchi yarmi o‘zbek dostonchiligining taraqqiyot xususiyatlari.– Filol.f. d–ri diss. –T., 2016.–267 b.
219. Quronov D. Cho‘lpon nasri poetikasi: Filol.f.d–ri... dis.avtoref.–T., 1997.–45 b.
220. Hamdamov U. 30-yillar o‘zbek she’riyatida “sof lirika” muammosi: Filol. f.n...diss.avtoref.–T., 1997.–26 b.
221. Hamdamov U. XX asr o‘zbek she’riyati badiiy tafakkur tadrijining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Filol.f.d–ri...diss. –T., 2018.–260 b.
222. Hamroyeva D. Boborahim Mashrab g‘azallari poetikasi. Filol.f.n. diss.– 2004.–24 b.
223. Hasanov Sh. XX asrning ikkinchi yarmi o‘zbek dostonlari poetikasi: Filol.f.d–ri diss.avtoref.–T., 2004.–284 b.
224. Hoshimxonov M. Boborahim Mashrab hayoti va ijodining o‘rganilishi: tadqiq va talqin. Filol.f.d(DSc) diss.–Jizzax, 2021.–277 b.

VI. ILMIY TO‘PLAM, JURNAL VA GAZETALAR DAGI MAQOLALAR

225. Aliyev A. Serqirra ijodkor. // Sharq yulduzi, 1978. №5.–B.203-208.
226. Бахтин М. Эпос и роман // Вопросы литературы, 1970. № 1.– стр. 95-123.
227. Bolliyeva M. Balladada tuyg‘u tasviri. // O‘zbek adabiyoti qiyosiy adabiyotshunoslik aspektida: ta’sir va tipologiya. Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari.–T.: Muharrir, 2013.–B.364-368.
228. Yoqubov H. Tipik sharoit va tipik xarakter. // Sharq yulduzi, 1969. № 3. №1.–B.64-68.
229. Yoqubov O. Hayot saboqlari va ijod mashaqqatlari. // O‘zbek tili va adabiyoti, 1988. №1.–B.64-68.
230. Емельянов Л. К вопросу о фольклоризме древней русской литературы // Русский фольклор. Т. VII.– М.–Л.: Наука, 1962.– стр.38-43.
231. Ziyovuddinov N. Qishloqdagi zamondoshlarimiz.// Sharq yulduzi, 1969. №9.
232. Jabborov N. Yangi zamon she’riyati tamoyillari. // Sharq yulduzi, 2014, №3.–B.218.

233. Жирмунский В. Ритмико–синтаксический параллелизм как основа древнетюркского народного стиха //Вопросы языкоznания.–М.,1964.№4.–С.3-24.
234. Karimov N. Davr Shuhrat taqdirida. // Jahon adabiyoti, №4. –B. 180-183.
235. Karimov N. Shoир yoqqan chiroq: O‘zbekiston xalq yozuvchisi Shuhrat 75 yoshda / Xalq so‘zi,1993.23 aprelъ.
236. Лагутов В. О некоторых художественных мотивах жанра исторической баллады // Вопросы теории и истории литературы: сборник статей, Самарканд., 1974.–стр.76-79.
237. Ларцев В.Г.Баллада в современной поэзии // Звезда Востока, 1963, № 9.–стр.123-134.
238. Левинтон Г. Заметки о фольклоризме Блока / Миф - Фольклор.–Литература. – Л.: Наука, 1978.–стр.171-186.
239. Ikromov O. Shuhratning “Oltin zanglamas” romani Ulug Vatan urushi davrining badiiy ifodasi sifatida. Samarqand prof-o‘qituvchilarning II ilmiy konferensiya materiallari Samarqand, 1963.
240. Майнагашева, Н. Народнопоэтические истоки хакасской драмы // Ежегодник Института саяно–алтайской тюркологии Хакасского государственного университета им. Н.Ф.Катанова. Абакан: Изд-во Хакасского государственного университета, 2005.–Вып. IX.–стр.152-156.
241. Nazarov B. Abdulla Qahhor badiiy haqiqati. // O‘zbek tili va adabiyoti. 2007.№4.–B. 7.
242. Normatov U. Balladada zamon va qalb dramasi. // Sharq yulduzi, 1967, №3. B.184-192.
243. Normatov U. Doston va zamon // Sharq yulduzi, 1987, №10.–B.173-180.
244. Mahmudov M. Xiromiy va uning “Chor darvesh” dostoni haqida // Xiromiy. Chor darvesh.–T.: O‘zadabiynashr, 1960.–B.144-152.
245. Muhammad A. H.G‘ulom. // Sharq yulduzi, 1981. № 1, № 2, № 3.
246. Soatova N. Shuhrat she’riyatida xalq ohanglari. //Adabiyot ko‘zgusi.–T: O‘zFA Davlat adabiyot muzeyi, 2009, №11.–B.32-38.
247. Soatova N. “Jannat qidirganlar” romani xususinda so‘z. // “O‘zbek filologiyasining dolzarb masalalari va uni o‘qitish metodikasi muammolari” mavzusidagi Xalqaro miqyosidagi ilmiy–amaliy konferensiya materiallari. T.: VNESHINVESTPROM, 2022.–B.490 - 494.
248. Soatova N. Shukhrat and folklore. // Mental Enlightenment Scientific–Methodological Journal. Volume 2021 [Issue 2] 2021.ISSN:2181-6131. Uzbekistan Research Online (№ 22. info@oak.uz.www.oak.uz).

249. Soatova N. Shuhratning “Mangulik” dostonida xalqona poetik tafakkur. // Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi.–Xorazm.: Xorazm Ma’mun akademiyasi noshirlig bo’limi, 2022. №9/4.–B.68-73.
250. Soliyev A. Dramaturgiya va an’anaviylik // Istiqlol va o’zbek adabiyoti masalalari. – Samarqand.: SamDU, 2006.–B.90-93.
251. Страшнов С.Л. Герой и стиль русской романтической баллады в период Великой Отечественной войны // Ученые записки Университета Иваново. Т., 1974.– стр.131-148.
252. Tog‘ayev O. Oltin zanglamas. // Guliston, 1967. №8.
253. Shayxzoda M. Qalam va burch. // Sharq yulduzi, 1967. № 8.–B.202-212.
254. Sharafiddinov O. Shuhrat ijodi haqida fikrlar. // Yosh leninch –T.: 1971, 21 may. № 98.
255. Sharafiddinov O. Yakun va debocha. // Sharq yulduzi, 1962. № 2.–B.133.
256. Umri boqiy adib. // O’zbekiston madaniyati, 1968. № 9, 12 noyabrъ.
257. Xolmirzayev Sh. Adabiyot, adabiyot, adabiyot. (Sh.Hamrayev bilan suhbat).–T. : Yozuvchi,1997,15 yanvarъ.
258. G’afurov I. Dostonda inson taqdiri. / O’zbekiston adabiyoti va san’ati, 1982, 19 fevralъ.
259. G’afurov I. Doston ustuni. // Sharq yulduzi, 1982. № 8.–B.173-179.
260. Qayta tug‘ilish arafasi. (I.Sulton va N.Rahimjonov suhbat) / O’zbekiston adabiyoti va san’ati, 1999, 19 mart.
261. Qahramonov Q. “Oltin zanglamas” romanida davr va shaxs talqini // Sharq yulduzi, 2003, №3. –B.108-110.
262. Qosimov U. Haqgo‘ylik va xalqchillik ibrati. // Til va adabiyot ta’limi, 2009, №11.–B.75
263. G’ulom H. Mashrab. // Sharq yulduzi, 1981. №1, №2, №3.
264. Hojimatov J. Hayotning badiiy in’ikosi // Sharq yulduzi, 1967. №8.–B.215-220.

YI. INTERNET SAYTLARI

265. www.Ziyouz.com. kutubxonasi.
266. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/masal-uz/>.
267. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-xalq-ogzaki-ijodi/uzbek-xalq-maqollari>.
268. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-b/ballada-uz/>.
269. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-p/poema-uz/>.
270. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-d/doston-uz/>.

QAYDLAR UCHUN

QAYDLAR UCHUN

QAYDLAR UCHUN

QAYDLAR UCHUN

QAYDLAR UCHUN

QAYDLAR UCHUN

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI

ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI

SOATOVA NODIRA ISOMITDINOVNA

SHUHRAT IJODINING G'OYAVIY-BADIY
XUSUSIYATLARI

Muharrir: S. T. Xashimov
Musahhih: H. Zakirova
Sahifalovchi: A. Hidoyatov

Nashriyot litsenziyasi №AI 242, 04.07.2013 y.
Ofset qog'ozzi. Bosishga ruxsat etildi 23.10.2023.
Format 60x84 1/16. Garnitura «Times New Roman».
Bosma taboq 5.0 Adadi 300 nusxa. Buyurtma №243.

«VNESHINVESTPROM»
mas'uliyati cheklangan jamiyati.
100011, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30.
Tel./faks: (+99871) 244-75-75